

**VAHOBJON RUSTAMOV**

**ZAMONAVIY BAYRAMLAR  
REJISSURASI MUAMMOLARI**



**TOSHKENT – 2013**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

V. RUSTAMOV

# **ZAMONAVIY BAYRAMLAR REJISSURASI MUAMMOLARI**

*Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan  
magistraturaning 5A150401 – Rejissorlik  
(Ommaviy tadbirlar rejissorligi) mutaxassisligi  
uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti  
Toshkent – 2013

**UO'K: 792 (075)**

**KBK: 85.3(5O')**

**R 92**

**Rustamov V.**

**R 92 Zamonaviy bayramlar rejissurasi muammolari:** o'quv qo'llanma / V. Rustamov; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni nashriyoti, 2013. — 192 b.

**UO'K: 792 (075)**

**KBK: 85.3(5O')**

Tavsiya etilayotgan ushbu qo'llanmada zamonaviy bayramlar rejissurasining o'ziga xos xususiyatlari, bayram va tomoshalarni tashkil etish va sahnalashtirish uslublari, ommaviy bayramlarda ssenariynavislik mahorati, badiiy bezak, musiqa, raqs, teatrlashtirish, badiiy fon va fon guruhlari bilan ishslash, libos bilan ta'minlash hamda boshqa ijodiy va tashkiliy jarayonlar keng yoritilgan. Zamonaviy bayramlar rejissurasi muammolari, ommaviy bayram va tomoshalar rejissurasi nazariyasi, ochiq maydonlarda, noan'anaviy sahnnaviy kengliklarda sahnalashtirish jarayonlari turli misollarda ko'rsatilgan.

O'quv qo'llanma Madaniyat va san'at instituti magistrleri va talabalarini hamda keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

**Mas'ul muharrir:**

**N. QOSIMOV** — filologiya fanlari nomzodi, professor.

**Taqrizchilar:**

**F. AHMEDOV** — pedagogika fanlari nomzodi, dotsent,

**M. YUSUPOVA** — san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent.

**ISBN 978-9943-391-66-6**

© O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni nashriyoti, 2013



2134211

## KIRISH

Bayramlar kishilar hayotidagi eng quvonchli hissiyotli damlar, hush kayfiyat chog'lar, birdamlik, mehr-oqibat, kelajakka ishonch tuyg'ularini o'zida qamrab olgan buyuk bir ijodiy va tashkiliy jarayondir.

Bayramlar o'z-o'zidan bayram shakliga kelmaydi, uni tashkil etish kerak. Kishilar imkoniyatini hisobga olib, zamon talablari dan kelib chiqib, milliylik, urf-odat, an'analarga sodiq qolgan holda, mavzu va g'oya uyg'unligida tashkil etilgan bayram va tomoshalar yuqori darajada o'tkazilgan tadbirlardan hisoblanadi. Chunki insonlar bayramlarga madaniy hordiq chiqarish uchun, bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etish uchun, estetik zavqlanish, kayfiyatini ko'tarish va boshqa ijobiy xislatlarni jo qilish uchun keladi. Bu esa uning ertangi kundagi amalga oshiradigan ijobiy ishlari ga qiziqishini yanada orttirishga, o'z mehnatidan zavq olishga, mehnat unumдорligiga erishishga, oilasi, Vatanini sevishga, ijtimoiy hayotga munosabatini yaxshilik tomonga o'zgartirishiga olib keladi. Zamonaviy bayramlar rejissurasining asosiy maqsadi ham shunga qaratilgan.

Nazariya bilan amaliy ish birlashganda uning uslubiyoti vujudga keladi. Masalan, K.S. Stanislavskiyning olamshumul sistemasi ham aktyorlik va rejissorlik, teatr san'ati faoliyatidagi amaliy, ijodiy va nazariy jarayonlar sharoitida bunyodga kelgan o'ziga xos uslubiyotdir. Bayramlarni tashkil etish asoslari ham yuqorida qayd etganimizdek, nazariya hamda amaliy tajribalarning birlashishi natijasida vujudga kelib, ish shakllarini tashkil qilishda foydalaniladigan yo'l yo'riqlar va usullarni o'z ichiga oladi.

Maydon tomoshalarida bayram rahbari va bosh rejissor rahbarligida yuzdan ortiq turli toifa sahnalashtiruvchi ijodkorlar – ommaviy tomoshalar bosh rejissorlari, bosh baletmeyster, badiiy lavhalar bosh baletmeysterlari, orkestrlar va ansambilar rahbarlari, muvofiglashtiruvchi rejissorlar, sahnalashtiruvchi rejissorlar, shuningdek, qator sahnalashtiruvchi baletmeysterlar, rassomlar, suxandonlar, ovoz rejissorlari, ovoz operatorlari, ijodiy-tashkiliy guruh, liboschilar, pardozlovchilar, texnik ta'minotchilar bay-

ramni tayyorlash va o'tkazishdek sermashaqqat ishni amalga oshiradilar<sup>1</sup>.

Bayramlarni tashkil etish uchun rejissor va uning atrofidagi sahnalashtiruvchi ishchi guruhlarning hamfikrligi, ularning dunyoqarashlarining bir-biriga mos kelishi va bir-birlarini to'ldirib borishlari va eng asosiysi bayramning mohiyatini keng xalq ommasiga yetkazib berish masalasidagi hamjihatligi ayniqsa muhimdir.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, har qanday bayramni to'g'ri tashkil etish rejissorning nuqtayi nazari, dunyoqarashi, uning savyasi va tashkilotchilik qobiliyatining darajasiga bog'liq.

**«Eortologiya»** – (grekcha «eorto» – bayram va «logos» – o'rghanish) bayramlar to'g'risidagi fandir<sup>2</sup>. Ushbu sohani o'rghanish bo'yicha Rossiyada I. Snegiryov, I. Saxarov, F. Buslayev, A. Afanasyev, Y. Anichkov kabi olimlar tarix, filologiya va falsafa, K.A. Mardjanov, D.M. Genkin, I.M. Tumanov va boshqalar mutaxassislik nuqtayi nazaridan izlanganlar.

Sharq mutafakkirlari Firdavsiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy, Behbudiy, Fitrat kabi olim-u ulamolar ham bayramlar va uning tashkil etilishi to'g'risida, bayramlarning ijtimoiy hayotdagagi o'rni va roli masalasiغا turli nuqtayi nazar bilan qaraganlar va o'z fikr va mulohazalarini meros qilib qoldirganlar.

Hozirgi kunda O'zbekistonda bayramlar tarixiga zamonaviy, ilmiy nuqtayi nazardan yondashayotgan olimlarimizdan M. Qodirov, U. Qoraboyev, B.Sayfullayev va boshqalarni bilamiz.

Bayram yoki tomoshani tashkil etishda bitta rejissorning o'zi muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Tashkilotchi-rejissorning asosiy vazifasi shundan iboratki, u o'z atrofiga fikri teran, dunyoqarashi keng, o'z sohasini yaxshi biladigan, o'z ishiga mas'uliyat bilan qaraydigan, rejissorning fikri, g'oyasi, oliy maqsadi, nuqtayi nazarini bir qarashda ilg'ab oladigan, tushunadigan ijodkorlar ansamblini yig'ib olishi kerak.

<sup>1</sup> O'zbekiston san'ati (1991–2001-yillar). O'zbekiston badiiy akademiyasi san'atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti – T., Sharq. 2001, 195-b.

<sup>2</sup> Немиро О. Праздничный город. – Л., 1987, стр. 9.

Xonandaning zo'r ovozi bo'lgani bilan uning yonida musiqachi-lari ko'ngildagidek yaxshi chalib bermasalar, u muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Rejissorlik faoliyatida ham xuddi shunday ahvol ro'y berishi mumkin.

«Zamonaviy bayramlar rejissurasi muammolari» o'quv qo'llanmasi rejissura sohasining amaliy va nazariy jihatlarini o'rganish, bayram va tomoshalarni tashkil etish, bayramlarga oid manbalarni tahlil qilish, umumlashtirish asosida vujudga keldi. Shunday ekan biz «bayram», «tomosha», «tadbir» tushunchalarini bir-biridan ajratib olishimiz zarur.

Bayram deganda, hayotdagи muhim voqeа, sanani ko'tarinki ruhda, xursandchilik bilan nishonlash tushuniladi, ya'ni «bayram» turkcha so'zdan olingen bo'lib to'y, marosim, xursandchilik degan ma'nolarni anglatadi.

Tomosha tomoshabin ko'z oldida namoyish etilgan, yuqori savyada badiiy jihatdan bezatilgan, effektli ijro uslublaridan mohirona foydalanilgan, tomoshabin ko'rib estetik zavq oladigan va bevosita shu tadbirda ishtirokchiga aylanadigan madaniy tadbirdir.

Tadbir esa ana shu bayram va tomoshalarning u yoki bu darajada tashkil etilishidir. U ma'lum sanaga, ma'lum bir mavzuga va boshqa jihatlarga bag'ishlangan bo'lishi ham mumkin. Lekin bu uchta tu-shunchani bir-biridan alohida-alohida ajratmaslik ham mumkin, chunki bular hamisha bir-birlarini to'ldirib turadilar.

Bayramshunoslardan B. Shodiyev o'z risolalarida mustaqil O'zbekiston bayramlarini «Xalqaro qutlug' kunlar», «Asosiy (tub) umumxalq bayramlari», «Soha, kasb va boshqa qutlug' kunlar» kabi turlarga ajratadi.

### **«Xalqaro qutlug' kunlar»ga quyidagi bayramlarni kiritadi:**

- 22-mart – Suv va meteorologiya kuni;
- 7-aprel – Salomatlik kuni;
- 12-aprel – Kosmonavtika kuni;
- 23-aprel – Kitob va mualliflik huquqini himoya qilish kuni;
- 3-may – Matbuot erkinligi kuni;
- 15-may – Oila kuni;

- 17-may – Telekommunikatsiya kuni;
- 18-may – Muzeylar kuni;
- 1-iyun – Bolalarni himoya qilish kuni;
- 5-iyun – Atrof-muhitni himoya qilish kuni;
- 26-iyun – Giyohvandlikka qarshi kurash kuni;
- 12-avgust – Yoshlar kuni;
- 8-sentabr – Savodxonlik kuni;
- Sentabr oyining uchinchi seshanbasi – Tinchlik kuni;
- 24-oktabr – BMT kuni;
- 3-noyabr – Nogironlar kuni;
- 16-noyabr – Bag'rikenglik kuni;
- 1-dekabr – OITSga qarshi kurash kuni;
- 10-dekabr – Inson huquqlari kuni.

#### **Asosiy (tub) umumxalq bayramlari:**

- 1-yanvar – Yangi yil;
- 8-mart – Xotin-qizlar kuni;
- 21-mart – Navro'z bayrami;
- 9-may – Xotira va qadrlash kuni;
- 1-sentabr – Mustaqillik kuni;
- 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni;
- 8-dekabr – Konstitutsiya kuni;
- Diniy bayram – Ro'za hayitining birinchi kuni;
- Diniy bayram – Qurbon hayitining birinchi kuni;
- 24-sentabr – Mehrjon bayrami (qonunlashmagan).

#### **Soha, kasb va boshqa qutlug' kunlar:**

- 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni;
- 9-fevral – Alisher Navoiy tug'ilgan kun;
- 2-mart – O'zbekiston BMTga a'zo bo'lgan kun;
- 27-mart – Teatr kuni;
- 9-aprel – Amir Temur tug'ilgan kun;
- May oyining uchinchi yakshanbasi – Konchilar va metaljurglar kuni;
- 27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni;

- Iyun oyining to‘rtinchi yakshanbasi – Savdo, matbuot va aholiga xizmat ko‘rsatish xodimlari kuni;
- Avgust oyining uchinchi yakshanbasi – Harbiy havo floti kuni;
- 31-avgust – Qatag‘on qurbanlarini xotirlash kuni;
- 18-oktabr – Samarqand kuni;
- 21-oktabr – Davlat tili kuni;
- 25-oktabr – Ichki ishlar idoralari xodimlari kuni;
- Noyabr oyining ikkinchi yakshanbasi – Tibbiyot xodimlari kuni<sup>1</sup>.

Yuqorida qayd etilgan muborak sanalar buyuk O‘zbekiston davlatining bayramlar mamlakati ekanligidan dalolat berib turibdi. Birgina mustaqillik davrida nishonlangan yubiley tantanalarining o‘zi so‘zimizning yorqin isbotidir. Ular quyidagilardir:

### **Xalqaro yubileylar:**

- 1994 – Mirzo Ulug‘bek tavalludining 600 yilligi;
- 1996 – Amir Temur tavalludining 600 yilligi;
- 1997 – Buxoro shahrining 2500 yilligi;
- 1997 – Xiva shahrining 2500 yilligi;
- 1998 – Imom al-Buxoriy tavalludining (hijriy sana) 1225 yiligi;
- 1998 – Ahmad al-Farg‘oniy tavalludining 1200 yilligi;
- «Alpomish» dostonining 1000 yilligi;
- 2000 – Kamoliddin Behzod tavalludining 545 yilligi;
- 2001 – «Avesto» kitobining 2700 yilligi;
- 2002 – Termiz shahrining 2500 yilligi;
- 2002 – Shahrisabz shahrining 2700 yilligi;
- 2003 – Abduxoliq G‘ijduvoniy tavalludining 900 yilligi;
- 2006 – Ma’mun akademiyasining 1000 yilligi;
- 2006 – Qarshi shahrining 2700 yilligi.

### **Respublika doirasidagi yubileylar:**

- 1991 – Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi;

<sup>1</sup> B. Shodiyev. Maydon tomoshalari dramaturgiyasи va rejissurasi muammolari. Doktorlik diss. – T., 2007.

- 1993 – Bobur tavalludining 510 yilligi;
- 1993 – Bahovuddin Naqshband tavalludining 675 yilligi;
- 1995 – Mahammadiy Rahimxon – Feruz tavalludining 150 yilligi;
- 1995 – Az-Zamahshariy tavalludining 920 yilligi;
- 1995 – Najmiddin Kubro tavalludining 850 yilligi;
- 1995 – Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 120 yilligi;
- 1999 – Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi;
- 1999 – Muhammad Rizo Ogahiy tavalludining 190 yilligi;
- 2000 – Imom Abu Mansur al-Moturidiy tavalludining 1130 yilligi;
- Burxoniddin al-Marg'iloniy tavalludining (hijriy sana) 910 yilligi;
  - 2001 – Alisher Navoiy tavalludining 560 yilligi;
  - 2002 – G'afur G'ulom tavalludining 100 yilligi;
  - 2004 – Xo'ja Ahror valiy tavalludining 600 yilligi;
  - 2005 – Oybek tavalludining 100 yilligi;
  - 2005 – Abu Ali ibn Sino tavalludining 1025 yilligi;
  - 2007 – Samarqand shahrining 2750 yilligi;
  - 2007 – Marg'ilon shahrining 2000 yilligi va boshqalar.

Ushbu tantanalarning xalqaro va Respublika miqyosida keng nishonlanishi hukumatimizning bayramlar va ularni tashkil etishga bo'lgan katta e'tibori mahsulidir. Bu e'tibor esa o'z o'rnidagi har qanday rejissor zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Tomoshabin biror bayramga borish uchun chiroqli kiyimlarini kiyadi, oilasini bayramga tayyorlaydi va bayramning eng zo'r daqiqlarini oilasi, do'stlari bilan baham ko'rishni istaydi va bunga o'zini, o'zi bilan boradiganlarni tayyorlab boradi. Shunday ekan, biz bayram va tomoshadan ularning faqat «salon ovqat yedik» kabi taassurotlar bilan qaytishini emas, balki bayramni tashkiliy, ijodiy saviyasiga e'tibor qaratishiga, ma'naviy ozuqa olishiga erishmog'imiz lozim.

Demak, biz bayram yoki tomoshalarni to'g'ri tashkil qilish uchun quyidagi sanab o'tilgan faoliyatlar haqida to'liq ma'lumotlarga ega bo'lmog'imiz lozim:

Birinchidan, bayram va tomoshaning dramatik asosi bo'lgan ssenariyi, uning yozilish jarayonlari ssenaristlar;

Ikkinchidan, tomoshabinning nazari darrov bayram yoki tomosha o'tkaziladigan joyning bezagiga tushadi. Demak, bunda biz ommaviy bayramlarning badiiy bezagi, tasviriy san'at, rassomlar ijodi, dekoratsiyalar yaratilishi haqida;

Uchinchidan, kuy, qo'shiqlar va musiqa barchamizning hayotimizga shunday singib ketganki, bayramlarni san'atning bu turisiz tasavvur qilish mumkin emas. Demak, musiqa, uning ommaviy bayram va tomoshalarda tutgan o'rni va roli, bastakorlik ijodi haqida;

To'rtinchidan, bayram va tomoshalarni raqslarsiz amalga oshirish mumkin emas, demak, xoreografiya san'ati, baletmeysterlar, ularning ijodiy faoliyatları, raqslarning bayram va tomoshalarda tutgan o'rni haqida;

Beshinchidan, ommaviy bayram va tomoshalarda badiiy fon va fon guruhlarining ahamiyati, ularni tashkil qilish va boshqarish to'g'risida;

Oltinchidan, hozirgi kunda har qanday bayram va tomoshalarда, konsertlarda teatrlashtirish usullaridan foydalanish va qo'llash an'anaga aylangan. Demak, teatrlashtirish usullari va shu sohada faoliyat ko'rsatayotgan ijodkorlar to'g'risida yetarlicha ma'lumotlarga ega bo'lish talab etiladi.

Yettinchidan, bayram qatnashchilarini kiyintirish, mavzuga mos ravishda libos tanlash jarayoni ham bayram yoki tomoshada tomoshaviylikka erishishning muhim shartidir.

Mana shu yettita faoliyat (soha) zamonaviy bayramlar rejissurasi va uni to'g'ri tashkil etishning asosiy mezonidir. Zamonaviy bayramlarni tashkil etishda kishilarning ma'naviy ehtiyojini qondirish, zamon, davr talabiga mos yashash, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shish kabi xislatlarni uning mazmuniga singdirish asosiy vazifalardan hisoblanadi.

### ***Takrorlash uchun savollar***

1. «Bayram» tushunchasini izohlab bering.
2. «Eortologiya» – fanlarning qaysi sohasini o'rgatadi?
3. Bayramlar turlarini aytib bering.
4. Bayram, tomosha, tadbir tushunchalarini bir-biridan farqlab bering.

## Texnologik xarita

Mavzu:	Zamonaviy bayramlar rejissurasi muammolari faniga kirish
Maqsad va vazifalar	<p><b>Maqsad:</b> Talabalarning zamonaviy bayramlar haqidagi tushunchalarini kengaytirish, bayramlarning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni, tarbiyaviy ahamiyati va tashkil etish asoslarini tushuntirish.</p> <p><b>Vazifalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>— talabalarning mavzuga nisbatan qiziqishlarini oshirish, ularda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va kengaytirish;</li> <li>— ommaviy bayramlar rejissurasiga oid tarqatilgan materiallarni talabalar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat-munozara orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimini baholash.</li> </ul>
O'quv jarayonining mazmuni	Bayramlar haqida tushuncha. Bayramlarning turlari. Ommaviy bayramlarni tashkil etish va rejissurasi. Zamonaviy bayramlar tasnifi.
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<p><b>Uslug:</b> Og'zaki bayon qilish, «Muammo» texnologiyasi.</p> <p><b>Shakl:</b> Suhbat-munozara, savol-javob, amaliy mashg'ulot, yakka va kichik guruhlarda ishlash.</p> <p><b>Vosita:</b> Axborot texnologiyalari, tarqatma materiallari, doska.</p> <p><b>Usul:</b> «Klaster» yoki «Idrok xaritasi» usuli, tayyor yozma materiallar va sxemalar asosida, slaydlar yordamida.</p> <p><b>Nazorat:</b> Savol-javoblar, kuzatish, o'z-o'zini nazorat qilish.</p> <p><b>Baholash:</b> Rag'batlantirish, «5» balli tizim asosida baholash.</p>

<p><b>Kutiladigan natijalar</b></p>	<p><b>O'qituvchi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- mavzuning talabalar tomonidan qisqa vaqt ichida o'zlashtirilishiga erishadi;</li> <li>- talabalarning faolligini oshirib, darsga qiziqishlarini kuchaytiradi;</li> <li>- mustaqil fikrashga va o'z fikrini to'g'ri bayon eta olishga o'rgatadi;</li> <li>- talabalar tomonidan mavzuni mustaqil o'rganishga erishiladi, xotirada saqlash, savol berish, boshqalarga yetkazish va savolga to'g'ri javob berishga o'rgatadi.</li> </ul> <p><b>Talabalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- bayramlar haqida va uni tashkil etish bo'yicha yangi materiallarni egallab, yetarli bilim va ko'nikmaga ega bo'ladilar;</li> <li>- yakka holda va guruh bo'lib ishlashni o'rganadi;</li> <li>- mustaqil fikrlaydi va fikrini to'g'ri bayon eta oladi;</li> <li>- mavzuni to'liq o'zlashtirishga harakat qilinadi;</li> <li>- qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotlarga ega bo'ladii;</li> <li>- savollarga bergen javobi bo'yicha baholanadi.</li> </ul>
<p><b>Kelgusi re-jalar (tahlil, o'zgarishlar)</b></p>	<p><b>O'qituvchi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- o'quv jarayonlarini (mashg'ulotlarini) to'g'ri tashkil etish va yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish, darsda tadbiq etish va takomillashtirish;</li> <li>- mavzularni qo'shimcha ma'lumotlar, yangiliklar bilan boyitish orqali uning qiziqarliligi va ta'sirchanligini oshirish;</li> <li>- mavzuni hayotiy voqealar bilan bog'lash orqali «hayotiy haqiqat» prinsiplarini mukammalashtirish;</li> <li>- nazariya bilan amaliy mashg'ulotlar uyg'unligiga erishish;</li> <li>- pedagogik mahoratni oshirish.</li> </ul> <p><b>Talabalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- mavzuni mustaqil o'zlashtirishni o'rganadi;</li> <li>- o'z fikrini ravon bayon qila oladi;</li> <li>- mavzu asosida manbalar izlash, topish va o'rganish ko'nikmasiga ega bo'ladii;</li> <li>- o'zi va guruh fikrini tahlil qilib, aniq yechimga kelish malakasini hosil qiladi.</li> </ul>

## SSENARIY MAHORATI

Har qanday bayram va tomoshani tashkil etish uchun avvalo uning dramatik asosi — ssenariy yoziladi. Ssenariy bu tadbirni amalga oshirishdagi ilk qadamdir.

«Ssenariy» so‘zi, U. Qoraboyevning «Badiiy-ommaviy tadbirlar» kitobida, «Ssenariy italyancha so‘zdan olingan bo‘lib, asarning plani, sxemasidir<sup>1</sup>», deb ta’riflangan. Lug’atlarda esa ssenariy:

- 1) kinossenariy;
- 2) teatrda — qo‘yiladigan dramatik asarning rejasi, sujet chizig‘i; operada — dramatik harakatning tasviri; baletda — sujetning barcha raqs va mimikalarini o‘z ichiga olgan mukammal bayoni;
- 3) pyesada ishtirok etuvchilarining sahnaga chiqish payti va tartibi ko‘rsatilgan yo‘l-yo‘riqdir, deb izoh etilgan.

Ommaviy bayram va tomoshalarda ssenariy o‘tkaziladigan bayram yoki tomoshalarning to‘liq yozma bayonidir, deb ta’riflash maqsadga muvofiqdir. Ssenariy yozilishida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- bayram yoki tomosha o‘tkaziladigan joy o‘rganiladi;
- mahalliy sharoitdan, mavzu, tadbir g‘oyasidan kelib chiqqan holda manbalar izlanadi;
- hujjatli materiallar badiiylashtiriladi;
- sahnnaviy usullardan foydalanish yo‘llari izlanadi;
- ta’sirchan vositalar tanlanadi.

Ssenariychilik mahorati asosan uchta tamoyilga tayanadi, ya’ni ijodiy kuzatishning shakllanishi (ssenariychi uchun juda ham kerak bo‘lgan hayotiy materiallarni topib, ajrata olish), dramatik fikr qilishni rivojlantirish (ssenariy ustida ishslashda zarur bo‘lgan drama ning umumiy nazariyasiga rioya qilgan holda sujetlar ketma-ketligi va tadbirning kompozitsion tuzilishini to‘g‘ri belgilash), ijodiy tasavvur va obrazli hal etish.

Zamonaviy bayramlarni tashkil etish ham muhim ijodiy jaryonlardan hisoblanadi. Ssenariyning yaratilishi va uni ma‘lum kompozitsiya shakliga keltirish va sahnalashtirish rejissor va sse-

<sup>1</sup> U.H. Qoraboyev. Badiiy-ommaviy tadbirlar — T., O‘qituvchi, 1986. 36-b.

naristning shu tadbir yoki tomoshani tashkil etishdagi qarashlari va mehnatlarining natijasi sifatida qaralmog'i lozim.

Birinchidan, bu ikki ijodning mohiyatini bir-biridan ajratish mumkin emas. Alovida yozilgan tayyor ssenariylar uchun ham sah-nalashtirish ishlarini amalga oshirish mumkin, lekin rejissor bilan ssenaristning birga yaratgan ijod mahsuli samaraliroqdir. Chunki rejissor bayram, teatr, tomoshaning g'oyasini, uning ijtimoiy-siyosiy, tarbiyaviy ahamiyatini, oliv maqsadini uqtirsa, ssenarist badiiy-estetik matnning jozibali, ifodaviy qarashlari orqali rejissor fikrini boyitib to'ldiradi, natijada to'laqonli mukammal dramatik asos yaratiladi.

Ikkinchidan, ommaviy bayram va tomoshalarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, bayram yoki tomosha tayyor jihozlangan binoda emas, balki ochiq havoda, maydonlarda, bog' (park) larda, xullas, bir so'z bilan aytganda noan'anaviy sahnaviy sharoitlarda o'tkazilishini hisobga olish zarur. Sahnaviy imkoniyatlarning yo'qligi (sahna, jihozlar, aktyorlar, chiroq, dekoratsiya va h.k.) rejissor va ssenaristdan ishni «nol»dan boshlashiga to'g'ri keladi. Undan tashqari, doimiy repetitsiyalar o'tkazish imkoniyati kamligi, tadbirning bir martagina o'tishini, xatolarni to'g'rilashning deyarli imkonи yo'qligini hisobga olib rejissor va ssenarist har bir chiqishlarida xatoga yo'l qo'ymasliklarini hisobga olgan holda yondashishlari zarur.

Uchinchidan, ssenariy yaratilishida, rejissor o'zining obrazli – sahnalashtirish yechimini belgilovchi rejissorlik g'oyalari, bo'lajak tadbirning yo'nalishi, ya'ni yetakchi xatti-harakat, tadbir shakli, muhit va stilni aniqlab olishi lozim. Bunday rejissorlik g'oyalaring vujudga kelishiga o'tkaziladigan tadbirning aniq berilgan shart-sharoiti, ya'ni uning mavzusi, g'oyasi va oliv maqsadi, o'tkaziladigan joy, ijodiy guruhlarning mavjudligi, tashkil etishdagi moddiy jihatlar, hujjatlar, afsonalar va boshqalar asos bo'la oladi.

To'rtinchidan, ssenariy yaratilishida hujjatli, mahalliy materiallarga tayanish – tadbirning effektli, ta'sirchan chiqishini ta'minlaydi. Bunda minoralar, toshlar, daraxtlar, devor va boshqalar majoziy ma'noda badiiy obraz shaklida namoyon bo'lishi mumkin. Real dalillar, raqamlar, buyumlar, fotorasmlar, hujjatli kinofilm-

lardan foydalanish, shu tadbirga aloqador qahramonlarning bevosita ishtirokleri va boshqa original topilmalar tadbirni yanada ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, urf-odat, an'ana, marosim va qadriyatlarni tadbir o'tkazilayotgan hudud muhitiga moslashtirish, ulardan unumli va to'g'ri foydalanish va buni tadbir g'oyasiga singdirish orqali yoshlarni qadriyatlarimizni asrash va ulug'lash ruhida tarbiyalash ssenariy yaratishdagi eng e'tibor qaratish zarur bo'lgan qismlardan biridir.

Oltinchidan, bayram va tomoshalar faqat so'z, she'r, matndan iborat bo'lib qolsa u juda zerikarli tadbirlardan hisoblanadi. Shuning uchun rejissor va ssenarist so'zning o'rniga uning tomoshaviy ekvivalentini (masalan, musiqali, plastik va h.k.), plastik obraz yaratish orqali, bir so'z bilan aytganda, «so'z» o'rniga «harakat» bilan ifodalash vositasini topsa ko'zlagan natijalarga erishishi mumkin<sup>1</sup>. Masalan, statistik ma'lumotlarni deklomatsiya sifatida namoyish etgandan ko'ra, uni plastik yechim, ya'ni harakat orqali namoyon etilsa, tomoshabin uchun qiziqarli bo'ladi.

Yettinchidan, ssenariy yaratish jarayonida bir epizodni ikkinchi epizodga bog'lashda «g'oyaviy ko'prik»ni to'g'ri tanlash muhimdir. Ba'zan bu vazifani «boshlovchilar» amalga oshiradilar. Lekin bu oddiy, sodda variantdir. Nomerlarni, epizodlarni bir-biriga sahna ortidan e'lon qilish, boshlovchilar, masxarabozlar, qo'g'irchoqlar, turli asarlar qahramonlari va boshqa obraz va vositalar orqali ham bog'lash mumkin.

Keyingi paytlarda keng miqyosda nishonlanayotgan bayramlarda fonogrammalarni montaj qilish asosida bir-biriga bog'lashga harakat qilinayapti. Nomerlar yoki epizodlarni bog'lash vositasi bo'lmish «g'oyaviy ko'prik»ni to'g'ri belgilash – tadbirdagi ortiqcha pauzalarni oldini oladi, o'rnini to'ldiradi, shuning bilan birga, sahna jihozlarini almashтирish yoki keyingi nomerga tayyorlanib olish imkoniyatini beradi, eng asosiysi tomoshabinni tadbir g'oyasidan fikrining «uzilib» qolishidan saqlaydi.

<sup>1</sup> Силин А.Д. «Специфика» работы режиссёра при постановке масс. театрализованных представлений под открытым небом и на нетрадиционных сценических площадках. — М., 1986 г., стр. 82.

«Yaxshi, puxta yozilgan ssenariy – tadbir yoki tomoshaning yarim muvaffaqiyatidan dalolat beradi», – deb ta’kidlaydi rejissor B. Sayfullayev.

Hozirgi kunda respublika miqyosida o’tkazilayotgan barcha bayramlarda yurtimizning ko’zga ko’ringan ijodkorlari Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Bahodir Yo’ldoshev, Nosir Otaboyev, Edvard Kolosovskiy, Rustam Hamidov, Baxtiyor Sayfullayev, Marat Azimov va boshqalar ssenarist va ssenariy hammualliflari bo’lib ishtirok etib kelmoqdalar. Ular yurtimizda bo’layotgan chuqur o’zgarishlarni, O’zbekiston kelajagi buyuk ekanligiga ishonish, Vatanni sevish, o’z ishiga, Vataniga, oilasiga mehr-oqibatli bo’lish, mamlakatning rivojlanishida yoshlar o’rnini belgilash, qariyalarga hurmat-e’tiborda bo’lish kabi xususiyatlarni turli badiiy vositalar orqali o’z ssenariylariga jo qilib, tomoshabinlar e’tiboriga havola etishga intilmoqdalar va buni uddasidan ham chiqmoqdalar.

Ma’lumki, spektakl yaratilishida asosiy manba pyesa hisoblanadi yoki boshqacha qilib aytganda, spektaklning dramatik asosi pyesadir. Rejissor spektaklni sahnalashtirishda tayyor manba – pyesaga murojaat qiladi va sahnalashtirish jarayonlarini boshlaydi. Bu bilan spektakl sahnalashtirish juda oson ekan, degan fikrdan yiroqdamiz, zero spektaklni sahnalashtirishning o’ziga xos murakkab jihatlari bor. Ommaviy bayram va tomoshalarni sahnalashtirishda esa tayyor dramatik manba yo’q, o’tkaziladigan joy an’anaviy emas, unda chiroqlar, dekoratsiyalar, xullas, hech qanday sahna jihozlari-yu anjomlari yo’q. Faqat rejissorning yuqori tashkilotlardan yoki rahbarlikdan shu tadbirni o’tkazish to’g’risidagi «zakazi», ya’ni buyurtmasi bor, xolos.

Rejissor esa bu «buyurtma»ni san’at darajasiga ko’tarib, yaxlit bir «spektakl» shakliga keltirishi zarur bo’ladi. Nega endi spektakl shaklida, degan o’rinli savol tug’iladi. Spektakl bo’lishi uchun uning mavzusi, g’oyasi, janri, qarama-qarshiliklar, voqealar qatori kompozitsion tuzilishi (prolog, tugun, qarama-qarshilik, yechim), oliy maqsadi, xullas, dramaturgianing barcha komponentlari ishtirokini ta’minlash lozim.

Zamonaviy bayramlarni tashkil etishda ham xuddi shu shartlarga e’tibor berish zarur. Bayram va tomoshalar rejissurasidagi

eng qiyin jarayon tadbirni yagona mavzu chizig'iga yo'naltirishdir. Shu mavzuga mos manbalar izlash, sahna, ya'ni tadbir o'tadigan joyni jihozlash, ishtirokchilarni toplash, vazifalarni tushuntirish va repetitsiyani boshlashdan oldin ssenariy rejissorning qo'lida bo'lishi shart.

Misol keltiraylik. B. Sayfullayevga Jizzax viloyatida o'tkaziladigan Mustaqillik bayramini o'tkazish haqida taklif tushganda u: «Tomosha qayerda o'tadi?» degan savolni qo'ydi. Tomosha ko'l bo'yida o'tkazilishini eshitgach, joyni o'rganish uchun u yerga bordi. U yerda oddiy ko'l va daraxtlardan boshqa hech narsa yo'q edi. Ko'l bo'yida sahna sharoitini yaratish, ko'l atrofini bezash, tomoshabin uchun joy tayinlash, ko'priknini badiiy jihozlash va boshqa jarayonlar rejissorni nihoyatda katta mashaqqatlar kutayotganidan dalolat berib turardi. Shunda rejissor rassom va ssenaristni tadbir o'tkaziladigan joyni o'rganish uchun taklif qiladi. Shu joyning o'zidayoq vazifalar taqsimlanadi.

Rejissor B. Sayfullayev ssenariy haqida gapirib uni 3 xil toifaga ajratadi, ya'ni:

**1. Oddiy ssenariyda** mavjud materiallarni ketma-ketligi belgilanib, boshqaruvchi boshlovchi sifatida ishtirok etadi.

**2. Yig'ma ssenariy,** ya'ni turli xil ssenariylardan ishlataligan materiallardan foydalangan holda yoziladi.

**3. Original ssenariy,** bunda tomoshabin ko'z oldida o'zi kutmagan turli burilishlarga, to'qnashuvlarga, hissiyotlarga duch keladi va natijada u zerikmaydi, tadbirdan estetik zavq oladi, — deb tushuntiradi.

Darhaqiqat, bayramlarimiz ko'p. Barcha joylarda bayramlar turli shakllarda o'tkaziladi. Tomoshabinning ko'z o'ngida o'zi orzu qilgan shart-sharoitlarni yaratish, tasavvuridagi ruhiyatga erishish ssenaristning yelkasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Original ssenariy yaratish barcha ssenaristlarning qo'lidan kelavermaydi. Buning uchun ssenaristning dunyoqarashi keng, saviyasi o'ta kuchli va yuqori darajada bo'lmoq'i lozim.

Rejissorlik faoliyatida ssenarist bilan ishlash jarayoni eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi.

Ssenariyning kompozitsion tuzilishini to'g'ri belgilashda ssenarリスト va rejissor, ayniqsa, juda sinchkov bo'lishi zarur. Chunki ssenariyning kompozitsion tuzilishi tadbir yoki tomoshaning yaxlitligini ta'minlaydi. «Kompozitsiya» deyilganda, san'at asarlaring tuzilishi, ichki elementlarining ma'no jihatidan o'zaro bog'lanishi, mantiqan joylashishi va birlashishi tushuniladi.

Kompozitsion tuzilish quyidagi bo'lak (punkt)lardan iborat bo'ladi. Adabiy asarda voqeanning boshlang'ich qismi muqaddima, ekspozitsiya yoki kirish, rejissura sohasida esa xatti-harakat bilan bog'liq bo'lganligi uchun prolog deb nomlanadi. Demak, kirish (prolog), tugun, voqealar rivoji, kulminatsion nuqta, yechim – adabiy va dramatik asarlarning kompozitsion tuzilishini tashkil etadi.

Ba'zan tadbir ssenariysining kompozitsion tuzilishini prolog, epizodlar qatori va final bilan belgilash mumkin. Chunki ko'pgina bayram, tomosha, teatrlashtirilgan konsert va boshqa tadbirlarda voqealari mavzu ustida emas, bir necha epizodlardan iborat bo'lib tashkil qilingan bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham har qanday bayram yoki tomosha ssenariysining kompozitsion tuzilishini to'g'ri belgilash sahnalashtirilayotgan bayramlarning mohiyatini to'laqonli yoritib berishga xizmat qiladi.

Hayot qarama-qarshiliklar kurashidan iborat. Dramaturgiyada ham qarama-qarshiliklarsiz yozilgan ssenariylar bizning nazari-mizda juda zerikarli bo'lib, tomoshabinni qiziqtira olmaydi. Ular ichki, tashqi, tor ma'nodagi va keng ma'nodagi qarama-qarshiliklar turlariga bo'linadi.

Ichki qarama-qarshilik qahramonlarning ichki, psixologik, ruhiy xatti-harakatlari orqali namoyon bo'ladigan tushuncha.

Tashqi qarama-qarshilik esa qahramonlarning tashqi fizik, jismoniy xatti-harakatlari orqali namoyon bo'ladi.

Tor ma'nodagi qarama-qarshilikda juda kichik masshtabda amalga oshirilgan ziddiyatlar tushuniladi. Masalan: Tohir bilan Bobur urishib qolishdi.

Keng ma'nodagi qarama-qarshilik esa ziddiyatlar ijtimoiy ahamiyat kasb etsa, masalan: O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligiga tegishli O'zDSMI (O'znekiston davlat san'at

va madaniyat instituti) institutining o'qituvchisi Tohir Nishontoyev bilan shu vazirlik tasarrufidagi institutning talabasi Bobur Norboyev ikkalasi urishib qoldilar, deyilsa keng ma'nodagi qarama-qarshilik tushuniladi. Demak, konflikt ham dramaturgianing muhim komponentlaridan hisoblanadi.

Ssenariyning badiiy jihatdan mukammalligi, uning originalligiga erishish – o'tkaziladigan bayram va tomoshalarning yuqori saviyada o'tishiga kafolatdir.

Rejissor va ssenarist eng avvalo izlanuvchan bo'lishi kerak. Bunga bir misol keltirishimiz mumkin: Abdulla Qodiri nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutining «Rejissura» bo'limini bitiruvchi talabalari turli mavzularda diplom ishlarni amalga oshirish jarayonida bir talaba kelib, «Vahobjon Qiyomovich, men diplom ishi uchun «Xalqaro talabalar kuni»ni mavzu qilib olgan edim. Ishni qandoq boshlashimni bilmayapman, maslahat bering», – deb qoldi. Men undan: «Nima uchun «Xalqaro talabalar kuni» deb e'lon qilingan ekan», – deb so'radim. Talaba yelkasini qisdi. Men, «Ishni ana shu savolga javob topishdan boshlash kerak», – dedim. Biz bu savolga javobni Usmon Qoraboyevning «O'zbekiston bayramlari» deb nomlangan kitobidan topdik. Chexiyalik vatanparvar talabalarning nemis fashistlari tomonidan vahshiylarcha otib o'ladirilgan kuni xotirasiga bag'ishlab 1939-yil 17-noyabr «Xalqaro talabalar kuni» deb e'lon qilingan ekan<sup>1</sup>.

Biz buni quydagicha sahnaviy ko'rinishga aylantirdik:

Musiqa jo'rligida talabalarning tinch hayoti, turmush tarzi raqs-lar orqali ifodalangan. Birdan musiqa pasayib, barabanlarning ovozi butun sahnani tutib ketadi. Oq ko'ylik, qora nemis mundirlari kiyib olgan, qurollangan fashistlar sahnaga kirib keladilar. Talabalar yarim doira shaklida sahnaga joylashadilar. Bir talaba qizning qo'lida kitobni ko'rib qolgan fashist uning oldiga boradi va kitobni uloqtirib yuboradi. Qiz kitobni qaytadan olmoqchi bo'lganida fashist uni otib tashlaydi. Buni ko'rgan talabalar fashistlarga tashlanadilar. Qurollangan fashistlar va oddiy talabalar o'rtasidagi jang butun chexiyalik vatanparvar talabalarning qirilib ketishi bilan tugaydi.

<sup>1</sup> U.H. Qoraboyev. O'zbek xalqi bayramlari (Bayramlar shahri). – T., Sharq, 2002.

Fashistlar chiqib ketadi. Fondan hazin musiqa taraladi va «Ushbu kuni, 1939-yil 17-noyabr – «Xalqaro talabalar kuni» deb e'lon qilinadi» – deb boshlovchining sahna ortidan ovozi yangraydi. Bu «Xalqaro talabalar kuni»ga bag'ishlab o'tkaziladigan tomoshaning prolog qismidir.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, rejissor va ssenaristning izlanuvchanligi tadbir yoki tomoshaning tempo-ritmini saqlab turishda ham muhim rol o'ynaydi.

Bunday misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin.

Aynan shu qirralarini ssenariya jo qilish rejissor va ssenarist hamkorliklarining mevasidir.

### **Texnologik xarita**

Mavzu:	Ssenariy mahorati
<b>Maqsad va vazifalar</b>	<p><b>Maqsad:</b> Talabalarning ssenariy to'g'risidagi tushunchalarini kengaytirish, ssenariylarning bayramlarni tashkil etishdagi o'rni va ahamiyati, uni yaratish asoslarini tushuntirish.</p> <p><b>Vazifalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– talabalarning mavzuga nisbatan qiziqishlarini oshirish, ularda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va kengaytirish;</li> <li>– ssenariy yaratilishiga oid tarqatma materiallarni talabalar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhabat-munozara va savol-javob orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimini bholash.</li> </ul>
<b>O'quv jarayonining mazmuni</b>	Ssenariy haqida tushuncha. Ssenariy yaratilish jarayonlari. Zamonaliv bayramlar ssenariynaflisi. Ssenariyning kompozitsion tuzilishi.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<p><b>Uslug:</b> Og'zaki bayon qilish, «Ssenariy» yoki »Zinama-zina« texnologiyasi.</p> <p><b>Shakl:</b> Suhbat-munozara, savol-javob, amaliy mashg'ulot, yakka va kichik guruhlarda ishlash.</p> <p><b>Vosita:</b> Axborot texnologiyalari, tarqatma materiallari, doska, flomaster (yoki rangli qog'oz).</p> <p><b>Usul:</b> «Aqliy hujum», tayyor yozma materiallar va sxemalar asosida.</p> <p><b>Nazorat:</b> Savol-javoblar, kuzatish, o'z-o'zini nazorat qilish.</p> <p><b>Baholash:</b> Rag'batlantirish, baholash.</p>
Kutiladigan natijalar	<p><b>O'qituvchi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– mavzuni talabalar tomonidan qisqa vaqt ichida o'zlashtirilishiga erishadi;</li> <li>– talabalarning faolligini oshirib, darsga qiziqishlarini kuchaytiradi;</li> <li>– talabalarni mustaqil fikrlashga va o'z fikrini bayon etishida ketma-ketligini to'g'ri qo'ya olishga o'rgatadi;</li> <li>– talabalar tomonidan mavzuni mustaqil o'rganishga erishiladi, mustaqil ssenariy yozish uchun manbalar to'play olish qobiliyatini rivojlantiradi, xotirada saqlash, savol berish, boshqalarga yetkazish va savolga to'g'ri javob berishga o'rgatadi.</li> </ul> <p><b>Talabalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– ssenariy haqida va uni yaratish bo'yicha yangi materialarni egallab, yetarli bilim va ko'nikmaga ega bo'ladi;</li> <li>– yakka holda va guruh bo'lib ishlashni o'rganadi;</li> <li>– mustaqil fikrlaydi va fikrini to'g'ri bayon eta oladi;</li> <li>– xohlagan mavzuda ssenariy yozish uchun manbalar izlash va ssenariyda qo'llashni (faktik materiallarni badiylashtirishga) o'rganadi;</li> <li>– mavzuni to'liq o'zlashtirishga harakat qilinadi;</li> <li>– qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotlarga ega bo'ladi;</li> <li>– savollarga bergen javobi bo'yicha baholanadi.</li> </ul>

<b>Kelgusi rejalar</b>	<p><b>O'qituvchi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– o'quv jarayonlarini (mashg'ulotlarini) to'g'ri tashkil etish va yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish, darsda tadbiq etish va takomillashtirish;</li> <li>– mavzularni qo'shimcha ma'lumotlar, yangiliklar bilan boyitish orqali uning qiziqariligi va ta'sirchanligini oshirish;</li> <li>– mavzuni hayotiy voqealar bilan bog'lash, faktik materiallarni badiiylashtirish orqali badiiy mukammal ssenariylar yaratishga o'rgatish;</li> <li>– nazariya bilan amaliy mashg'ulotlar uyg'unligiga erishish;</li> <li>– pedagogik mahoratni oshirish.</li> </ul> <p><b>Talabalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– mavzuni mustaqil o'zlashtirishni o'rganadi;</li> <li>– o'z fikrini ravon bayon qila oladi;</li> <li>– mavzu asosida manbalar izlash, topish va o'rganish ko'nikmasiga ega bo'ladi;</li> <li>– o'zi va guruh fikrini tahlil qilib, aniq yechimga kelish malakasini hosil qiladi;</li> <li>– xohlagan mavzuda faktlar, hujjatlarni badiiylashtirib, mukammal ssenariynafislik qobiliyatini namoyon etadi.</li> </ul>
------------------------	---

### ***Takrorlash uchun savollar***

1. «Ssenariy» tushunchasini izohlab bering.
2. Zamonaviy bayram va tomoshalar ssenariysini yaratish jaronida rejissor-ssenarist qanday vazifalarni amalga oshirishi lozim?
3. Pyesa, inssenirovka, ssenariy rejasi va ssenariy tushunchalarini bir-biridan farqlab bering.
4. Ssenariyning turlari haqida gapirib bering.
5. Hozirgi kunda ijod qilayotgan qaysi ssenaristlarni bilasiz?

## **BADIIY SPORT TOMOSHALARI SSENARIYSINI YARATISH USTIDA ISHLASH**

Yurtimiz mustaqillikka erishgach sport tomoshalarining badiiy jihatlariga katta e'tibor berila boshlandi. Shu jihatdan olib qaralganda yurtimizda sport ishlarini yanada takomillashtirish borasida ko'plab xayrli ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston televideniyasida «Sport» kanalining faoliyati bunga misol bo'la oladi. Rejissorlarimizdan B. Sayfullayevning ijodida sport tomoshalarini kuzatish mumkin. Turli mavzularda ssenariy yaratish bilan bir qatorda rejissor B. Sayfullayev o'zining ijodiy faoliyati mobaynida sport tomoshalari ssenariysini yaratish va sahnalashtirish ishlarida ishtirok etgan. «Mehnat rezervlari» sport maydonida o'tkazilgan teatrlashtirilgan «Futbol-shou» dasturi, O'zbekiston va Tojikiston do'stlik kechasiga bag'ishlangan «Sport va san'at bayrami» dasturi, Toshkentning 2000 yilligiga bag'ishlangan katta bayram tomoshalari, Jizzax shahrida o'tkazilgan «To'maris o'yinlari» nomli xotin-qizlarning milliy sport o'yinlari Respublika festivali va boshqa ijodiy ishlar shular jumlasidandir.

Jamiyatimizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar insonlar hayotining asosiy qismini qamrab olganligi bois ma'naviy va jiemoniy sog'lomlik jamiyatda ish yuritayotgan, faoliyat ko'rsatayotgan barcha shaxslarga nisbatan eng oliy ne'mat hisoblanadi.

Sport va san'at – bu mamlakatni boshqa yurtlarga tanishtiruvchi vosita, elchi hisoblanadi. Shuning uchun ham davlatimiz siyosatida sport va san'atni rivojlantirishga qaratilgan bir qancha qaror va farmonlar, farmoyishlarga guvoh bo'lamiz. «Sog' tanda sog'lom aql» deganlaridek, jamiyat uchun ham sog'lom insonlar zarurdir.

Badiiy sport tomoshalarini yaratishda ssenarist rejissor va sportchi-murabbiy bilan maslahatlashgan holda ularning xatti-harakatlarini qog'ozga tushirishga harakat qiladi. Bunday tadbirlar asosan, musobaqa shaklida o'tkaziladi. Unga teatrlashtirish usullarini qo'llash esa tadbirning badiiy jihatlarini yanada kuchaytirishga, faollashtirishga sabab bo'ladi va natijada tomoshabin o'zi kutmagan rohatbaxsh manzaralarga duch keladi, tomoshaga nisbatan faolligi oshib boradi.

Quyida talabalar o'rtasida «Sihat-salomatlik yili»ga bag'ishlab o'tkazilgan «Zarba – 2005» nomli teatrlashtirilgan boks shou-dasturi ssenariysi yozilishi jarayoni haqida qisqacha to'xtalib o'tmoqchimiz.

Ushbu tadbirga oldindan ishtirokchilar konkurs asosida qabul qilinadi. Bunda avval qarshi tomonlar aniqlanadi. Tadbirni tor yoki keng masshtabda o'tkazish mumkin. Tor masshtabda (agar oliyog'da o'tkazilsa) guruhlarda, bo'limlarda, fakultetlararo o'tkaziladi. Institutlararo, korxonalararo o'tkaziladigan tadbirlar esa keng masshtabni qamrab oladi.

Bu tadbir ishtirokchilarini aniqlash uchun guruhlar, bo'limlararo musobaqalar uyushtiriladi va mas'ullar tomonidan g'olib aniqlanadi va boks shou-dasturi uchun tavsiya etiladi.

Ushbu shou-dasturda ishtirok etishni bildiradigan e'lon va afishalar yozish, tarqatish bilan birgalikda tadbir tashkilotchilari iloji boricha ishtirokchilarni tanlashda o'zлari qatnashganlari maqsadga muvofiqdir. Chunki tashkilotchi yoki rejissor o'zi tanlagan «aktyor-sportchi» bilan yuzma-yuz ko'rishib olib, undagi o'ziga xos xususiyatlarning temperamentini bilib oladi va shunga mos partner tanlaydi.

Demak, birinchi jarayon, qatnashchilarni aniqlash.

Ikkinci jarayon, boks-ring sahnasini shou-dasturiga mos qilib tayyorlash. Dasturni sport maydonlarida, sport zallari va madaniyat, istirohat bog'lari sahnalarida ham o'tkazish mumkin.

Buning uchun birinchi navbatda ringni tayyorlash ishlarini umalga oshirish lozim. Badiiy bezatilgan qoziqlar, chiroli tortilgan lentalarni bog'lab, ringni ko'z oldimizga keltiramiz. Bularning bar-chasi shartlilik ravishda amalga oshiriladi.

Ishtirokchilar uchun maxsus himoya vositalaridan foydalaniladi. S-qoziq shuning uchun kerakki, ringga kirib-chiqib turish uchun eshik o'rnida ochiq joy qoldiriladi. Undan tashqari sahna atrofiga, zal ichkarisiga turli sport plakatlari, turli sportga, salomatlikka chorlovchi shiorlar osilgan. Ring qoziqlariga sharlar, gullar osilib bezatilgan. Bu degani, ushbu tomosha oddiy boks tomoshasi emas, balki teatrlashtirilgan, badiiylashtirilgan tomosha ekanligidan dalolat beradi.

Uchinchi jarayon, bu shou-dasturda nafaqat sportchilar, balki qiziqchilar, raqqosalar, musiqachilar, xullas san'atning turli sohasida faoliyat yuritadigan ishtirokchilar qatnashishlari mumkin. Ular bilan ishslash rejalari tuzilib repetitsiyalar qilinadi.

To'rtinchi jarayonda, hakamlar hay'ati tanlanib, ularning joylari aniqlanib, jihozlanadi, ball ko'rsatkichlari uchun maxsus tayoqchalar tayyorlanadi.

Bu tadbirni ikki yoki uch bosqichda, ya'ni ikki yoki uch kun uyuşhtirish lozim. Birinchi va ikkinchi kunlari g'oliblar aniqlanib, uchinchi kuni esa final o'yinlari o'tkazilishi mumkin. Biz ssenariyni uchinchi kun, ya'ni final o'yinlarini nazarda tutgan holda tushuntirishga harakat qilamiz.

Ssenariyning birinchi beti tepasiga tadbir nomi yozilib aniq sasnasi, vaqt va o'tkaziladigan joy ko'rsatiladi.

Ssenariyning kirish qismida tadbir ruhini, atmosferasini yaratayotgan musiqa, sahnaning bezagi haqida qisqacha ma'lumot berilishi mumkin.

Chorlov musiqasi yangraydi.

Sho'x kayfiyat, ko'tarinkи ruhda musiqa sadosi ostida boshlovchi chiqib keladi.

Boshlovchi: Hurmatli xonimlar va janoblar! Hurmatli ustozlar va talabalar! Bugungi bizning «Zarba – 2005» shou-dasturimizga xush kelibsiz! Prezidentimiz tomonidan ushbu yilning «Sihat va salomatlik» yili deb e'lon qilinishi o'zimiz va atrofdagilarning salomatligi uchun javobgar bo'lishga, jismoniy jihatdan sog'lom bo'lishga, har tomonlama komil inson bo'lib yetishishga qaratilgandir. Shunday ekan, bizning talaba-yoshlarimiz har tomonlama ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy va jismoniy jihatdan ham sog'lom bo'lishlari lozim.

Demak, kutib oling, birinchi va ikkinchi turda g'oliblikni qo'lga kiritib, final o'yinlariga yo'llanma olganlar: 1, 2, 3, 4, 5, 6 (g'oliblarning ismi-shariflari, «laqablari»), – ishtirokchilarga ko'tarinkilik kayfiyatini beruvchi ta'riflar berilib, sahnaga taklif qilinadi. Har bir qahramon sahnaga taklif qilinayotganda uning xarakterli xususiyatlari mos she'rlar, parodiyalardan foydalanish mumkin. Boshlovchi hakamlar hay'ati, refere, sharhlovchi va shou-dasturining boshqa a'zolari bilan tanishtiradi. Sharhlovchilarning bittasi haqiqiy profes-

sional, ikkinchisi esa hazil-mutoyiba tariqasidagi so‘zlar bilan olib boruvchi boshlovchilardan tayinlansa shou-dastur yanada qiziqarli-roq kayfiyatda o‘tadi.

Qatnashchilarga jang shartlari tushuntirilgach, ular belgilangan joylarga borib turadilar.

Ringga birinchi juftlik taklif etiladi. Jang boshlanadi.

Bu musobaqa o‘yinlariga professional sharhlovchi va hazil bilan olib boruvchi sharhlovchilar galma-galdan izoh berib boradilar. To‘plagan ballar, ochkolar hisobiga g‘olib bo‘lganlar aniqlanadi va «Zarba – 2005» yilning sovindori bo‘ladilar.

Har bir jang o‘rtasida, tanaffuslarda ballar, ochkolar e’lon qilnunga qadar turli san’at vositalaridan foydalanish mumkin.

Masalan, 1-raunddan keyin litsey, maktab o‘quvchilarining «Taekvando» usullari bo‘yicha tayyorlangan o‘yinlari (fonogrammada musiqa jo‘rligida), 2-raunddan keyin olamni asrash, Vatan, mehr-muhabbat haqida qo‘shiq, 3-raunddan keyin tomoshabinlar bilan turli qiziqarli o‘yinlar o‘tkazish mumkin. Masalan, sahnaga 2 ta boksni sevadigan ishtirokchi taklif etiladi. Ularga o‘yin sharti tushuntiriladi. O‘yinning sharti shundan iboratki, ikkala qatnashching ham ko‘zlari bog‘lab qo‘yiladi, ularni ikki-uch marta aylan-tirib turli tomonlarga qaratib qo‘yib, jang boshlashga komanda beriladi. Shunda ular bir-birlarini ko‘rmasdan jang qila boshlaydilar, natijada tomoshabinlar ko‘z oldida qiziqarli vaziyatlar va holatlar ro‘y beradi, tomoshabinlar esa bundan estetik zavq oladilar.

Yana bir o‘yin. Uzunligi 2,5 m bo‘lgan o‘rindiq (skameyka) yoki taxta qo‘yilib, uning ikki tomoniga 2 ta ishtirokchi taklif qilinadi va qo‘llariga yostiqqa o‘xshash yumshoq narsa beriladi (yoki boks qo‘lqopchalaridan foydalanish mumkin). Shu o‘rindiqdan qaysi biri ikkinchisini urib tushirib yuborib, o‘rindiqning u tomoniga o‘tib olsa, u g‘olib hisoblanadi.

Yoki tomoshabinlar bilan so‘z o‘yinlarini o‘tkazish mumkin. Masalan: «Kuching bo‘lsa, aqlning keragi yo‘q», «Siz bu maqolni qanday tushunasiz, maqol o‘zi to‘g‘rimi?», xullas shunga o‘xshash hazil-mutoyiba shaklida tomoshabinlar bilan so‘z o‘yinlarini o‘tkazib tadbirning badiiylik salohiyatini yanada oshirish mumkin.

Demak, bu ssenariyning kompozitsion tuzilishini quyidagicha belgilash mumkin:

- Prolog – final ishtirokchilari bo‘lmish sportchilarni sahnaga turli ta’riflar bilan taklif qilinishi.
- Epizodlar qatori – 1, 2, 3, 4 raundlar va ular orasidagi badiiy qismi.
- Kulminatsiya – oxirida qolgan eng kuchli jangchilarining chiqishi.
- Final – g‘oliblarni aniqlash va taqdirlash.

San’at noziklikni, mayinlikni, jozibadorlikni, sport esa qat’iyatni, jismoniy baquvvatlilikni, qattiqqo‘llikni talab qiladi. Tashqaridan qaraganda bu ikki hodisani bir-biriga bog‘lash mumkin emasday tuyiladi. Bunday muvaffaqiyatli uyg‘unlikka faqat teatrlashtirish usullari orqali erishish mumkin.

Teatrlashtirish yuqorida qayd etib o‘tganimizdek, dramaturgiya qonuniyatlariga asoslangan holda, tadbirni ma’lum bir spektakl shakliga keltirishdir. Sportchi sahnaga chiqqach o‘zini faqat bokschi emas, balki aktyor deb hisoblashi lozim. Buning uchun rejissordan katta mas’uliyat talab qilinadi-ki bunda tadbir haqiqiy sport o‘yini emas, badiylashtirilgan sport tomoshasiga aylantirilishi lozim. Mana shu maqsadlarning barchasi badiiy sport tomoshalari ssenariysida o‘z ifodasini topmog‘i lozim.

Teatrlashtirilgan sport tomoshalariga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Afinada bo‘lib o‘tgan Olimpiada o‘yinlarining ochilish va yopilish qismlaridagi teatrlashtirish usullarining yuksak mahorat bilan qo‘llanganligi bularga misol bo‘la olishi mumkin.

1988-yil rejissor Baxtiyor Sayfullayev tomonidan sahnalaشتirilgan va uyushtirilgan «Teatrlashtirilgan futbol» ham bunga misol bo‘la oladi. Ushbu tomosha «Paxtakor», «Mehnat rezervlari» sport majmualarida tomoshabinlarning zo‘r olqishlari sadosi ostida o‘tkazilgan edi. Tomoshada ikkita komanda: «Paxtakor»ning haqiqiy komanda a’zolari bilan mashhur san’atkorlardan tashkil topgan «Ijodkor» komandasini o‘rtasida futbol o‘yini o‘tkazilgan edi. Ushbu tomosha sport o‘yinlari va san’at vositalari bilan uyg‘unlashib, yagona bir maqsadga qaratilgan badiiy sport tomoshasiga mahorat bilan aylantirilgan edi.

Har bir tadbir tomoshasini sahnalashtirish jarayonida rejissor o‘z oldiga oliy maqsadni qo‘yadi. Ya‘ni, bunday tadbirlarda qatnashchilarning bir-biriga beg‘araz, nafrat ko‘zi bilan qarashiga yo‘l qo‘ymasliklari, bir-birlariga nisbatan dushmanga aylanib qolmasliklari, bir-birlarini raqib sifatida emas, do‘sit, aka-uka sifatida qabul qilishga, mag‘lubiyatni tan olib, yanada ko‘proq mehnat qilishlarini tushunib olishlari va eng asosiysi bir-birlariga hurmat nuqtayi nazaridan munosabatda bo‘lishlariga erishish lozim.

Hozirgi kunda Respublikamizda «Barkamol avlod», «Umid ni-hollari», «Universiada» kabi sport tomoshalari juda katta mashtabda tashkil etilmoqda. Sahnalashtirish va tashkil etishning barcha tamoyillariga asoslangan ushbu tadbirlarda rejissuraning yorqin namunalarini kuzatish mumkin. Bunday tadbirlarni tashkil etish yoshlarning bo‘sh vaqtini samarali o‘tkazishga, muvaffaqiyatlar sari intilishiga chorlaydi.

Xulosa qilib aytganda, ssenariyning yaratilishida rejissor bilan ssenaristning hamkorligi bayram yoki tomoshaning yaratilishidagi harakatlarning ilk bosqichidir.

### Texnologik xarita

Mavzu:	Badiiy sport tomoshalari ssenariysini yaratish ustida ishlash
Maqsad va vazifalar	<p><b>Maqsad:</b> Talabalarning badiiy sport tomoshalari to‘g‘risidagi tushunchalarini kengaytirish, sport tomoshalarining yoshlar tarbiyasidagi roli, badiiy sport tomoshalari ssenariysini yaratish asoslarini tushuntirish.</p> <p><b>Vazifalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>— talabalarning mavzuga nisbatan qiziqishlarini oshirish, ularda mavzu asosida bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va kengaytirish;</li> <li>— badiiy sport tomoshalarini tashkil etishga oid tarqatilgan materiallarni talabalar tomonidan yakka va guruuh holatida o‘zlashtirib olishlari hamda suhbat-munozara va savol-javob orqali tarqatma materiallardagi vazifalar qay darajada o‘zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimini baholash.</li> </ul>

O'quv jarayonining mazmuni	<p>Badiiy sport tomoshalari haqida tushuncha. Sport o'yinlarini badiylashtirish usullari. Badiiy sport tomoshalari ssenariysini yaratish jarayonlari. Badiiy sport tomoshalarining kompozitsion tuzilishi; O'zbekistonda o'tkaziladigan sport bayramlari («Universiada», «Barkamol avlod», «Umid nihollari» va b.).</p>
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<p><b>Uslub:</b> Og'zaki bayon qilish, «Muloqot» texnologiyasi. <b>Shakl:</b> Suhbat-munozara, savol-javob, amaliy mashg'ulot, yakka va kichik guruhlarda ishlash. <b>Vosita:</b> Axborot texnologiyalari, targatma materiallari, doska, flomaster (yoki rangli qog'oz). <b>Usul:</b> «Blits-so'rov» usuli, videolavha ko'rsatish orqali. <b>Nazorat:</b> Savol-javoblar, kuzatish, o'z-o'zini nazorat qilish. <b>Baholash:</b> Rag'batlantirish, baholash.</p>
Kutiladigan natijalar	<p><b>O'qituvchi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>— mavzuni talabalar tomonidan qisqa vaqt ichida o'zlashtirilishiga erishadi;</li> <li>— talabalarning faolligini oshirib, darsga qiziqishlarini kuchaytiradi;</li> <li>— talabalarni mustaqil fikrlashga va o'z fikrini bayon etishda ketma-ketligini to'g'ri qo'ya olishga o'rgatadi.</li> <li>— talabalar tomonidan mavzuni mustaqil o'rganishga erishildi, mustaqil badiiy sport tomoshalari ssenariyi yozish uchun manbalar to'play olish qobiliyatini rivojlantiradi va savolga to'g'ri javob berishga o'rgatadi.</li> </ul> <p><b>Talaba:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>— badiiy sport tomoshalarini ssenariysi haqida va uni yaratish bo'yicha yangi materiallarni egallab, yetarli bilim va ko'nikmaga ega bo'ladir;</li> <li>— yakka holda va guruh bo'lib ishlashni o'rganadi;</li> <li>— mustaqil fikrlaydi va fikrini to'g'ri bayon eta oladi;</li> <li>— sportning xohlagan turi bo'yicha ssenariyi yozish uchun manbalar izlash va ssenariyda qo'llashni (daliliy manbalarni badiylashtirishga) o'rganadi;</li> <li>— mavzuni to'liq o'zlashtirishga harakat qilinadi;</li> <li>— qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotlarga ega bo'ladi;</li> <li>— savollarga bergan javobi bo'yicha baholanadi.</li> </ul>

**Kelgusi re-jalar (tahlil, o'zgarishlar)**

**O'qituvchi:**

- o'quv jarayonlarini (mashg'ulotlarini) to'g'ri tashkil etish va yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish, darsda tadbiq etish va takomillashtirish;
- mavzularni qo'shimcha ma'lumotlar, yangiliklar bilan boyitish orqali uning qiziqarliligi va ta'sirchanligini oshirish;
- mavzuni hayotiy voqealar bilan bog'lash, faktik materiallarni badiiylashtirish orqali badiiy mukammal ssenariylar yaratishga o'rgatish;
- nazariya bilan amaliy mashg'ulotlar uyg'unligiga erishish;
- pedagogik mahoratni oshirish.

**Talabalar:**

- mavzuni mustaqil o'zlashtirishni o'rganadi;
- o'z fikrini ravon bayon qila oladi;
- mavzu asosida manbalar izlash, topish va o'rganish ko'nikmasiga ega bo'ladi;
- o'zi va guruh fikrini tahlil qilib, aniq yechimga kelish malakasini hosil qiladi;
- sportning xohlagan turi bo'yicha mukammal ssenariynafislik qobiliyatini namoyon etadi.

***Takrorlash uchun savollar:***

1. O'zbekistonda o'tkaziladigan sport bayramlaridan qaysi birlarini bilasiz?
2. O'zingiz xohlagan bir ssenariyni olib tahlil qiling.
3. Sport bayramlarini tashkil qilishga oid ssenariylarni yaratishda nimalarga e'tibor berish kerak? Biron-bir sport turiga oid ssenariy yozib uni qanday tashkil qilish to'g'risida aytib bering.

## ZAMONAVIY BAYRAM VA TOMOSHALARDA BADIY BEZAK

«Eortologiya» o‘zining birinchi ilmiy rivojlanish va shakllanish jarayonidayoq bayramlarni kompleks o‘rganishni va unga ijtimoiy hayotning aniq bir bo‘lagi sifatida qaralishini ta‘minlaydi. B. Glan, I. Tumanov, A. Silin kabi ijodkorlarning rejissorlik faoliyatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ular o‘tkazilgan bayram va tomoshalarning «effektli tomoshaviylik»ka erishish yo‘llari, bayramlarning dekorativ-badiiy bezagi haqida, umuman bayramlarni tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritganlar.

Hozirgi kunda Respublika miqyosida o‘tkaziladigan bayram va tomoshalarning badiiy bezagi bilan shug‘ullanuvchilar ijodiga e’tibor beradigan bo‘lsak, O‘zbekiston sharoitida bunday mutaxassislar barmoq bilan sanarli darajada kam.

San’atshunos olim K. Makarov dekorativ bezak haqida fikr yuritib shunday deydi: «Badiiy bezash sintezlashgan dunyoning go‘zalligini tasvirlash formasidir»<sup>1</sup>. Darhaqiqat, dunyoning go‘zalligini tasvirlash har qanday rassom ijodining oliv cho‘qqisidir. Leonardo da Vinci, Rafael Mikelanjelo, Rembrandt kabi buyuk rassomlar ijod namunalarini yaratib dunyoni larzaga solganlar. Ularning asarlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ular bebahodir. Rassomlar ana shunday asarları uchun butun qobiliyati, dunyoqarashini, yuragini, davr ruhiyatini va boshqa xususiyatlarini jo qilganlarki, shuning uchun ham bu asarlar hali-hanuzgacha asrdan asrgacha, avloddan avlodgacha moddiy va ma’naviy meros sifatida yetib kelmoqda.

O‘rta Osiyoda Behzod, Moniy kabi, O‘zbekistonda Belkov, O‘rol Tansiqboyev, Usta Mo‘min, Abdulhaq Abdullayev, Rahim Ahmedov, Georgiy Brim, Ro‘zi Choriyev, Bahodir Jalolov, Javlon Umarbekov, Alisher Mirzayev, Baxtiyor To‘rayev kabi rassomlar rassomchilik san’atining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan ijodkorlardir. Rassomda shunday xususiyat bo‘ladiki, rejissorning tasavvuriga sig‘mayotgan tushunchani u ko‘z oldiga keltira oladi. Teatrda faoliyat ko‘rsatayotgan rassom faqat teatr binosi ichkarisida, sahna

<sup>1</sup> Немиро О: Декоративно-оформительское искусство и праздничный город. — Л., 1987, стр. 29.

atrofidagi badiiy bezakka e'tibor beradigan bo'lsa, ommaviy bayram va tomoshalarda uning masshtabi ming marotaba kengayadi. U na-saqat sahnani, balki butun maydonni, tomosha o'tkaziladigan joyni to'ldirib, unga ma'no va mazmun berishi lozim.

Ommaviy bayram va tomoshalarda rassom — arxitektor, dizayner, dekoratorga bezovchi va muhandis-konstruktorga aylanadi.

Teatr rassomi aniq «korobka» ichida, ya'ni sahnani bezashda o'z fantaziyasini ishga solib spektaklning bezagini to'laqonli yoritishi mumkin. Ammo ommaviy bayram tomoshalari asosan, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, ko'chalarda, bog'larda, sport maydonlarida, suv havzalarida, sirk arenalari, xullas, noan'anaviy sahnaviy sharoitda o'tkazilganligi uchun uning o'ziga yarasha qiyinchiliklari, hal qilish zarur bo'lgan muammolari bor. Masalan, sport maydonini olaylik, u yerda na sahna, na biror-bir plakat yoki shiorlar, gullar, sharlar osadigan moslamalar bor, tomoshabin o'rindiqlari-yu to'p darvozasidan boshqa hech narsa yo'q. Rassom o'zining mehnati, fantaziysi, dunyoqarashi va saviyasi bilan shu maydonga ma'no va mazmun baxsh eta olish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur. Ba'zan joyning o'zidagi sharoit o'tkaziladigan tadbirning g'oyasiga mos kelishi ham mumkin. Bunda rejissor, sse-narist va rassomning ijod uyg'unligida chuqr fantaziylar, badiiy effektlar va boshqa ta'sirli imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratilishi mumkin. Lekin ko'p hollarda buning aksi bo'ladi. Shuning uchun ham rassom butun maydonning masshtabini aniq olib «korobka»ga joylashtirib, uni badiiy jihatdan bezab, tadbirga tomoshaviylik effektini berishi lozim.

Ommaviy bayram va tomoshalarda tadbir o'tkaziladigan joy qanchalik keng bo'lsa, unga bezak uchun sarflanadigan sarf-xara-jatlar ham ko'p bo'lشini hisobga olish zarur. Bunday tomoshalar faqat bir marta o'tkazilishi, qolaversa, kamer sharoitidagidek chipta sotish imkoniyatlari deyarli yo'qligi va boshqa jihatlari hisobga olib, iloji boricha arzon va harakat qilish uchun qulay imkoniyatlar izlanadi. Ammo bu jihozlar bir tomondan «arzonligi» bilan ajralib tursa, ikkinchi tomondan esa konstruksiyalangan, qiziqarli mizan-senalar qurish imkonini berishi, obrazli, ramziy ma'no beruvchi vosita sifatida qo'llanmog'i lozim.

Rejissorning rassom bilan hamkorligi jarayonida sahnaviy maydonni konstruksiyalashda ko'p sonli ishtirokchilarning sahnada paydo bo'lishi va tezda g'oyib bo'lishi, nomerlarni dinamik ravishda almashishi uchun barcha sharoit va imkoniyatlarni yaratishni ham hisobga olish zarur.

Rassomning vazifasi faqat sahnani va uning atrofini bezash bilan cheklanmay, balki rang, bezak bilan bog'liq bo'lgan barcha ijodiy jarayonlarni masalan, dekoratsiyalar, butaforiyalar, sahnaviy liboslarni, sahnada ishlataladigan barcha jihozlarni tanlashda ham ishtirok etadi. Ayniqsa, u rejissorga obrazlar yechimini topishga katta yordam beradi. Hamma rassomlar ham teatrda va omma-viy bayramlarni sahnalashtirishda o'zining mahoratlarini namoyon eta olmasliklari mumkin. Alovida olingan tasviri san'at janrlari (portret, jivopis, grafika, skulptura va h.k.)da ijod qilgan rassomlar ma'lum muvaffaqiyatlarga erishishlari mumkin. Ammo teatr yoki bayram va tomoshalar rassomligi vazifasini bajarish uchun faqat rasm chizish yetarli emas. U teatr san'atining barcha qonun-qoidalarini, sahna tuzilishini, arxitektura, grafika, skulptura, qolaversa, san'atning barcha turlarini ranglar jilosi uyg'unligiga erisha oladigan san'atkori bo'lmog'i lozim.

Teatr san'ati asoschisi K.S. Stanislavskiy o'zining «San'atdagi hayotim» kitobida bir atoqli rassom ijodi haqida shunday deydi: «Artistlarning o'z xohishlari bilan qiladigan butun postanovka va u yoki bu rolning ma'naviy vazifalari taqozo etadigan sahnaviy jihozlarning muvaffaqiyatlari chiqishini, e'tirof etishini angladim. Bu narsa menga, teatrga oddiy jivopis – rassom emas, balki ozgina bo'lsa-da, rejissorlik ishlaridan xabardor hamda san'atimiz va texnikamizning asoslarini, vazifalarini tushunadigan rassom lozimligini yana bir karra tushuntirdi»<sup>1</sup>.

Rassomlarimizdan B. To'rayevni ana shunday ijodkorlar toifasi-ga kiritish mumkin. U talabalik yillari olgan nazariy va amaliy bilimlarini uyg'unlikda olib borgan holda Alisher Navoiyning «Saddi Iskandariy» (Shuhrat Rizayev inssenirovkasi, rejissor B. Yo'ldoshev) spektakli dekoratsiyasini diplom ishi sifatida badiiy kengash va to-

<sup>1</sup> K.S. Stanislavskiy. San'atdagi hayotim. J. Obidov tarjimasi. – M., 375-b.

moshabinlar e'tiboriga havola etdi (G. Brim bilan hamkorlikda). «Chimildiq», «Mashrab», «Qatag'on», «Abdulfayzxon», «Yorqinoy», «Sohibqiron», «Muhabbat sultonii», «Noyob nusxa», «Hayot eshik ortida», «Cho'lpon», «Usmon Nosir», «Piri koinot», «Al- Farg'oniy» kabi 50 dan ortiq spektakllarning sahna yuzini ko'rishida rassom-dekorator sifatida ijod qildi va bu jarayonlarga rejissor ko'zi bilan qaray oldi.

Har qanday teatr rassomi sahnaning tuzilishi, qurilmalari va ularni qo'llash texnologiyasini yaxshi bilishi shart. Sahna tuzilishini yaxshi bilish har qanday rejissorning ishini osonlashtiradi, chunki teatr san'ati sahnasidagi bor imkoniyatlarni, barcha jihozlarni tomosha o'tkaziladigan noan'anaviy sahnnaviy maydonga ko'chirish undan katta mehnat talab qiladi. Sport maydonlari, ko'l atroflari, muz usti, ko'chalar, sirk arenalari, ko'priklar va boshqa noan'anaviy sahnnaviy kengliklarda sahna sharoitini yaratish rassomning birinchi galddagi vazifalaridandir.

Sahna tuzulishining chizmasi:

- 1) sahnaning oldi qismi (avanssena);
- 2) pardadan keyingi sahna (ssena, 1, 2-plan);
- 3) aylanadigan baraban;
- 4) oldingi parda (arlekin);
- 5) qattiq portal;
- 6) orqa parda (zadnik);
- 7) harakatlanuvchi (suriladigan) portal;
- 8) yon parda (kulis);
- 9) portaldagi chiroqlar;
- 10) orqadagi chiroqlar (kontr);
- 11) oxirgi pardadan keyingi sahna (aryerssena);
- 12) portal eshigi;
- 13) sahna oynasi;
- 14) rampa;
- 15) sahna poli (planshet);
- 16) sahna tagidagi joy (триумф);
- 17) sahna tashqarisidagi projektorlar (выносной пр.);
- 18) karman; .
- 19) orqa parda (задник)lar ilinadigan moslama;

- 20) o'rtadagi chiroqlar (софит);
- 21) sahnaning oldi qismi (avanssena)ni yorituvchi kichik du-maloq chiroqlar;
- 22) ikki kulisni birlashtiradigan pardal (пандуга).

Sahna tuzilishining yuqorida ko'rsatilgan bo'lak va qismlarini noan'anaviy sahnaviy muhit va sharoitga ko'chirish yoki moslash-tirish katta mahorat va mas'uliyat talab qiladigan jarayondir.

Bayram va tomoshani tashkil qilishda ishtirot etayotgan dekora-tor, chiroqchi, liboschi, fon guruhlari rahbarlari va boshqa barcha ijodiy guruhlar rejissor va rassomning nuqtayi nazariga xizmat qila-dilar.

Rassomning bayram va tomoshalarni sahnalashtirish jarayo-nidagi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- tadbir o'tkaziladigan joy o'rganiladi;
- ssenariy bilan tanishib chiqiladi;
- tadbir mavzusi va g'oyasidan kelib chiqqan holda sahnuning umumiy holati tasvirlanadi, so'ng eskizlar tayyorlanadi;
- rejissor bilan maslahatlashib, uning tasdig'idan o'tgandan so'ng asosiy ish jarayoni boshlanadi;
- eskizlar asosida andazalar chiziladi va katta sahna uchun moslashtiriladi;

«Rassomlik juda g'aroyib kasb. Kimdir bir to'p yog'ochni olib keladi-da, taraq-turuq qilib qoqib, dekoratsiya yasab tashlaydi, go'yo sahnani bezaydi. Kimdir nozik did bilan o'z sahna shaklini yaratadi, mehrini, muhabbatini ayamaydi, misoli farzandini oyoqqa qo'yayotgan ona kabi. Rassomlik kasbi uchun uning saviyasi va dun-yoqarashi katta ahamiyatga ega. B. To'rayev uchun teatr, bu murak-kab jarayon, har bir yangi asar ustida ish boshlaganda u oddiylikdan, an'anaviylikdan qochib, o'ziga xos tarzda yondashadi, asarning asl mohiyatini anglashga, ifoda etishga intiladi. Dramaturgiyaning tah-lili falsafiy mushohada, pyesaning sahna kengliklarida teatrlashgan shakl-u shamoyilini yaratish — Baxtiyor To'rayevning faoliyati ana shunday ijodiy izlanishlardan iborat», — deb yozadi ustoz G. Brim.

Bayramlarni tashkil qilishda effektli tomoshaviylikka erishish, tomoshabinga estetik zavq ularishish rassom ijodining asosiy faoli-yatidir.

Rassomning ishi zo'r bo'lib, rejissorlik ishi esa past darajada amalga oshirilsa – u xuddi ko'rgazma (выставка)га о'xshab qoladi. Shuning uchun rejissor bilan rassomning ijodi bir-biriga singib, uyg'unlikda amalga oshirilishi zarur. Bir so'z bilan aytganda, rassomning rejissor bilan hamkorligi bayram va tomoshalarni sahna-lashtirishdagi asosiy jarayonlardan hisoblanadi.

Hozirgi texnika taraqqiyoti davrida turli texnika vositalari, pnevmatik uskunalar, sharlar, lazer nurlari, turli effektlar – bayramlarning tomoshaviylikka erishishi, bayram va tomoshalarning badiiy bezagining yangi usullaridirki, ular rassom ijodini yanada boyitishga xizmat qiladi.

### Texnologik xarita

Mavzu:	Zamonaviy bayram va tomoshalarda badiiy bezak
Maqsad va vazifalar	<p><b>Maqsad:</b> Talabalarning badiiy bezak to'g'risidagi tushunchalarini kengaytirish, sahna va maydonlarni bezashning estetik jihatlari, tarbiyaviy ahamiyati, badiiy bezakni yaratish asoslarini tushuntirish.</p> <p><b>Vazifalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– talabalarning mavzuga nisbatan qiziqishlarini oshirish, ularda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va kengaytirish;</li> <li>– badiiy bezashga tarqatilgan materiallarni talabalar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat-munozara va savol-javob orqali tarqatma materiallardagi vazifalar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimini baholash.</li> </ul>
O'quv jarayonining mazmuni	Badiiy bezak haqida tushuncha. Zamonaviy bayram va tomosha o'tadigan sahna va maydonlarni bezash yo'llari. Badiiy bezakni yaratishda rejissor va rassom hamkorligi. Sahna tuzilishi.

<p><b>O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi</b></p>	<p><b>Uslug:</b> Og‘zaki bayon qilish, «Muloqot» texnologiyasi.</p> <p><b>Shakl:</b> Suhbat-munozara, savol-javob, amaliy mashg‘ulot, yakka va kichik guruhlarda ishlash.</p> <p><b>Vosita:</b> Axborot texnologiyalari, tarqatma materiallari, doska, flomaster (yoki rangli qog‘oz), sahna maketi.</p> <p><b>Usul:</b> «Blits-so‘rov» usuli, maket tahlili asosida.</p> <p><b>Nazorat:</b> Savol-javoblar, kuzatish, o‘z-o‘zini nazorat qilish.</p> <p><b>Baholash:</b> Rag‘batlantirish, baholash.</p>
<p><b>Kutiladigan natijalar</b></p>	<p><b>O‘qituvchi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>— mavzuni talabalar tomonidan qisqa vaqt ichida o‘zlashtirilishiga erishadi;</li> <li>— talabalarning faolligini oshirib, darsga qiziqishlarini kuchaytiradi;</li> <li>— talabalar tomonidan mavzuni mustaqil o‘rganilishiga erishiladi, mustaqil ravishda rassom yordamisiz badiiy bezashning elementar usullarini o‘rgatadi, manbalar to‘play olish qobiliyatini rivojlantiradi va savolga to‘g‘ri javob berishga o‘rgatadi.</li> </ul> <p><b>Talabalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>— badiiy bezash va uni yaratish bo‘yicha yangi materiallarni egallab, yetarli bilim va ko‘nikmaga ega bo‘ladilar;</li> <li>— yakka holda va guruh bo‘lib ishlashni o‘rganadi;</li> <li>— mustaqil ravishda rassomning yordamisiz badiiy bezashning elementar usullarini o‘rganadi, sahnani va maydonni bezash uchun kerakli manbalar izlash va sse-nariya mos dekoratsiyalar yaratish, maydonni «badiiy jihatdan» to‘ldirishga o‘rganadi;</li> <li>— mavzuni to‘liq o‘zlashtirishga harakat qilinadi;</li> <li>— qisqa vaqt ichida ko‘p ma’lumotlarga ega bo‘ladi;</li> <li>— savollarga bergen javoblari bo‘yicha baholanadi.</li> </ul>

<p><b>Kelgusi re-jalar (tahlil, o'zgarishlar)</b></p>	<p><b>O'qituvchi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>— o'quv jarayonlarini (mashg'ulotlarini) to'g'ri tashkil etish va yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish, darsda tadbiq etish va takomillashtirish;</li> <li>— mavzularni qo'shimcha ma'lumotlar, yangiliklar bilan boyitish orqali uning qiziqariligi va ta'sirchanligini oshirish;</li> <li>— mavzuni amaliyot bilan bog'lash, nazariya bilan amaliy mashg'ulotlar uyg'unligiga erishish;</li> <li>— mustaqil ravishda bayram va tomoshalar o'tadigan joyni bezashga o'rgatish;</li> <li>— pedagogik mahoratni oshirish.</li> </ul> <p><b>Talaba:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>— mavzuni mustaqil o'zlashtirishni o'rganadi;</li> <li>— mustaqil ravishda sahna va maydonlarni bezash, mavzu asosida manbalar izlash, topish va o'rganish ko'nikmasiga ega bo'ladi;</li> <li>— rejissor va ijodiy guruhning fikrlarini tahlil qilib, aniq yechimga kelish malakasini hosil qiladi;</li> <li>— xohlagan mavzudagi bayram va tomoshalar sahnasini bezash qobiliyatini namoyon etadi.</li> </ul>
---	--

### ***Takrorlash uchun savollar***

1. Zamonaviy bayram va tomoshalarni sahnalashtirishda rassomning vazifasi nimalardan iborat?
2. Bayram va tomoshalarda rassom bilan rejissorning hamkorligi nimalarda namoyon bo'ladi?
3. Qaysi rassomlar ijodi bilan tanishsiz?
4. Tasviriy san'atning qaysi turi teatr san'ati va ommaviy bayramlarda ko'proq qo'llaniladi?
5. Sahnaning tuzilishini tushuntirib bering.
6. Teatr rassomi, ommaviy bayram va tomoshalar rassomi, dekorator, chiroq ustalarining ish faoliyatidagi vazifalarini aytib bering.
7. Hozirgi kunda bayramlarni badiiy bezashning qanday usul-larini bilasiz?

## ZAMONAVIY BAYRAMLARDA MUSIQA

Turmushning hamma qirralarida, moddiy va nomoddiy sohasida ham musiqa san'ati kishilarni ezgulikka, yaxshilikka, ulug'likka chorlovchi, mehnatga undovchi, insonlarda estetik zavq uyg'otuvchi vosita sifatida qaraladi.

Musiqa insonlarning og'ir damlarida dardkash, quvonchli kunlarida hamroh bo'lib, ularning ma'naviyatini yaxshilik tomonga yo'naltirishga xizmat qiladi va qilayotir.

Faqat san'at jahbalarida emas, balki hayotning boshqa sohalari da ham musiqa muhim rollardan birini bajaradi. Lekin teatrda ham, radio, televideniyyada ham musiqa yordamchi komponentlardan biri hisoblanadi, deyishadi. Bu bilan musiqa san'atlar ichida ikkinchi darajali ekan, degan fikr kelib chiqmasligi lozim. Musiqa san'ati – bu alohida san'at turi bo'lib, san'atning boshqa turlariga singib ketgan. Raqs, teatr va boshqa san'at turlarini musiqasiz tasavvur qilib ko'rish mumkinmi? Albatta, mumkin emas.

«Musiqa» – yunoncha «musa» – turli-tuman tovushlar bilan badiiy obraz yaratib beruvchi, g'oyaviy emotsiyonal mazmunga ega bo'lgan san'atning bir turidir<sup>1</sup>. Qisqacha qilib aytganda, musiqa – tovushlar yig'indisi, degan ma'noni anglatadi.

Agar xoreografiya, raqs san'ati qo'l, yuz, mimika xatti-harakatlari orqali badiiy obraz yaratuvchi san'at turi hisoblansa, musiqa – tovushlar orqali yaratilgan san'at turi hisoblanadi.

Insonning jamiyatda tutgan mavqeい, madaniy-tarbiyaviy, g'oyaviy tashkilotchilik rolida musiqa yuksak o'rinda turadi. Har bir xalqning musiqasi milliy xususiyatlariiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Xalq musiqasi uzoq yillar mobaynida shakllanib, xalqning boy xazinasiga aylandi. Xalq musiqasi bilan mustahkam bog'langani holda professional musiqa ham taraqqiy qilib keldi-ki, uning vujudga kelishiga mohir sozanda, bastakorlar o'z hissalarini qo'shdilar<sup>2</sup>.

Musiqa san'ati sahna asarlari: teatr, drama, musiqali drama, opera, operetta, balet, kino va boshqa san'atlar ichida muhim rol o'ynaydi. Ommaviy bayram va tomoshalarda esa uning roli benihoya ulkandir.

<sup>1</sup> I. Akbarov. Muzika lug'ati. – T., 209-b.

<sup>2</sup> O'sha kitob, 210-b.

Ommaviy bayram va tomoshalarda musiqaning turli janrlari ishtirok etishi mumkin. Undan tashqari bunday tadbirlarda musiqali jamoalar, vokal cholg'u ansamblari, musiqalardan parchalar, alohida musiqali nomerlar, boshqaruvchilarning chiqishlari uchun musiqa, xullas, voqeanning rivojlanishi uchun, tadbir yoki tomoshaning tempo-ritmini ushlab turishi uchun musiqa san'atidan foydalaniлади.

*Ommaviy bayram va tomoshalarda musiqa quyidagi vazifalarni bajarishi mumkin:*

- musiqa – qatnashuvchilar, ishtirokchilar obrazlarini xarakterlab beradi;
- harakat vaqt, joyini ifodalashi mumkin;
- tomoshabinga ko'rinxmayotgan voqealarni ilg'ab olishga, tez tushuna olishiga ko'maklashadi;
- harakat, voqeada sahnaviy muhit yaratadi;
- monolog va dialoglarning emotsiyonalligi (hissiyot, hayajonligi)ni kuchaytiradi;
- so'z bilan ifodalash qiyin bo'lgan daqiqalarni tasvirlab bera olishi mumkin;
- xatti-harakat, voqealarni to'ldirishi, boyitishi mumkin;
- pauzalar o'rnini to'ldirishi mumkin;
- vaqtini tejash yoki cho'zish va boshqa muhim vazifalarni bajarishi mumkin.

Hozirgi kunda, ya'ni zamonaviy bayram va tomoshalar rejissurasida musiqa muhim vositalardan biri bo'lishi bilan birga undan foydalanish, uni yaratish, uni qo'llash ma'lum qiyinchiliklar bilan bog'liqdir.

Ayniqsa, ochiq havoda, noan'anaviy sahnaviy maydonlarda o'tkaziladigan tadbirlar bevosita juda katta muammolar bilan bog'liq bo'ladiki, bunda rejissor barcha qiyinchilik, muammolarni bartaraf qilish yo'llarini izlashiga to'g'ri keladi.

Joylarda texnik vositalarning hali yetarli darajada to'liq talabga javob bera olmasliklari eng asosiy qiyinchiliklaridan biridir.

Bayram yoki tomosha uchun alohida musiqa yozish qiyin kechadigan jarayondir. Shuning uchun ko'pgina rejissorlar tayyor musiqa asarlarini tanlaydilar va shu musiqa asosida ish olib boradilar.

Rejissor va bastakorlar bayram va tomoshani sahnalashtirish-dagi asosiy ijodiy hamkorligi jarayonida quyidagi ishlarni amalga oshirishlari lozim:

- bastakor ssenariy bilan to'liq tanishib chiqadi;
- rejissor unga bayram yoki tomoshaning mohiyati, mavzusi, g'oyasi, oliy maqsadi va sahnalashtirish uslubini tushuntiradi;
- bastakor mavzu va g'oya uyg'unligiga erishgan holda, tomoshaning oliy maqsadidan kelib chiqib musiqaning xomaki variantini ishlab chiqadi;
- rejissor musiqani tasdiqlaganidan so'ng u to'liq qayta ishlanadi va shu asosda repetitsiyalar boshlanadi.

Repetitsiyalar mobaynida musiqali nomerlar ham bir necha marta o'zgarishi mumkin. Ba'zan tez fursatda yangi musiqa asari yaratishga to'g'ri keladi. Bunday sharoitda rejissor va bastakorning qarashlari, nuqtayi nazarlarining bir-birlariga mos kelishi yangi asarning tez va muvaffaqiyatli yaratilishiga asos bo'la oladi.

M.Ashrafiy, R.Glier, A.Kozlovskiy, Uspenskiy, D.Zokirov, T.Jalilov, N.Hasanov, K.Jabborov kabi ijodkorlar o'zbek milliy musiqa san'atining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan buyuk san'atkorlardir. Baxtiyor Aliyev, Alisher Ikromov, Ulug'bek Salixov, Anor Nazarov, Rustam Abdullayev kabi bastakorlar ham ushbu sohada mehnat qilib kelmoqdalar.

Hozirgi kunda ochiq maydonlarda o'tkaziladigan bayram va tomoshalarning barchasida fonogrammadan foydalaniladi. Fonogrammadan foydalanishning qulay tomoni shundaki, unda matn va musiqalar aniq va ortiqcha shovqinlarsiz, pauzalarsiz tomoshabinga yetkaziladi. Noqulay tomoni esa, voqeja rivoji jarayonida tomoshabinning munosabatlariiga javob qaytarish yoki harakat davomida o'zgartirishlar kiritish imkonini bo'lmaydi.

Yana shunga e'tibor berish zarurki, fonogrammada matndagi musiqaga mos harakat qilish aktyordan yuksak mahorat talab qiladi. Zamonaviy tomoshabin esa juda talabchandir. Shuning uchun ham u barcha san'atlar ichida musiqa san'atiga, bastakor bilan ishlash jarayoniga katta e'tibor beradi. Bayram va tomoshalarda har bir ijrochini radiomikrofonlar bilan ta'minlash imkoniyati yo'q. Shuning uchun fonogrammalarni to'g'ri montaj qilish, ularni kerakli

joyda maqsadga muvofiq holda ishlatish, ular mazmunini, g'oyasini tomoshaning oliv maqsadiga yo'naltirish, bo'ysundirish tadbirning ta'sirchan, effektli, badiiy, zavqli chiqishini ta'minlaydi.

Agar rassom ijodi ko'z bilan ko'rish va estetik zavqlanish imkoniyatini bersa, bastakorlik faoliyatida esa eshitish orqali zavqlanish mumkin. Sahnada ijro etilayotgan barcha xatti-harakatlar musiqa jo'rligida amalga oshirilishi – bu yangilik emas. Boshlovchilarining chiqishlari, kuy, qo'shiqlar, tantanali qutlovlari, dialog va monologlardagi musiqalar, raqslar va boshqa barcha ijodiy jarayonlar musiqa jo'rligida, musiqaning hamohangligida amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda respublika miqyosida o'tkazilayotgan barcha bayram va tomoshalarni sahnalashtirish uchun kuy, qo'shiq va musiqa tanlash eng asosiy ish bosqichlaridan hisoblanadi. Musiqa va kuylarning turli variantlari tanlangach, ularning ijrochilari taklif etilib, qisqartirish yoki qo'shimcha matn qo'shish (muallif roziligi bilan), xullas, montaj ishlari amalga oshiriladi.

Musiqiylar amalga oshirilgach, shu asosida repetitsiyalar boshlanadi.

Musiqa barcha san'atlar ichida katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan vosita hisoblanadi. Ayniqsa, teatr san'atida musiqaning roli kattadir. Ammo, ommaviy bayram va tomoshalarda uning roli va ahamiyati yanada globallashadi, ya'ni, mashhur rejissor N.M. Gorchakov aytib o'tganidek, musiqaning teatrtdagi bir soniyasi, normal sahna hayotining 20–30 minutiga to'g'ri keladi<sup>1</sup>.

Ommaviy bayramlarda, xuddi an'anaviy teatrtdagi kabi, sujetli, illustratsiyali va fon musiqalaridan foydalaniladi.

Ba'zan musiqa ma'lum bir tarixiy va ramziy ijod namunasi sisfatida namoyon bo'lishi ham mumkin.

Musiqa albatta plastika, raqs, chiroq va boshqa ta'sirchan vositalar uyg'unligida ham badiiy obraz yaratish imkoniyatlariga ega. Musiqalashtirilmagan spektakl yoki bayram tomoshabinga kerakli effektni bera olmaydi. «Musiqaning to'g'ri tanlanishi, uning kerakli joyda ishlatalishi, uning g'oyaviy va mavzu jihatidan tomosha

<sup>1</sup> Силин А.Д. Специфика работы режиссёра при постановке масс. театрализованных представлений под открытым небом и на нетрадиционных сценических площадках. — М., 1986, стр. 63.

ruhiyatiga mos kelishi bastakorning tadbir yoki tomoshaning oliv maqsadini to'g'ri anglay olganligidan dalolat beradi» — deydi rejissor B. Sayfullayev.

Xulosa sifatida tadbirlar rejissorlari musiqani biror cholg'u asboblari bilan chalishni yoki qo'shiq kuylashni bilmasalar ham, uning elementar nazariyasini bir-biridan farqlay olishlari va boshqa sahnalashtirish uchun muhim tomonlarini bilib olishlari zarur. Rejissor musiqani chala olmasa ham, kuylashni bilmasa ham, tayyor musiqa asarlarini tanlay olishi va uni kerakli joyda qo'llay olishni bilishi, bir so'z bilan aytganda, uni tushunishi zarurdir.

Musiqaga bilan shug'ullanuvchilar orasida musiqali yechim (муз. решение), musiqiy bezak (муз. оформление), musiqiy jo'rnavozlik (муз. сопровождение) tushunchalari tez-tez uchrab turadi. Bu uchta tushuncha bir-biri bilan uyg'unlikda ham uchrashi mumkin. O'z ishiga puxta rejissor tadbirning musiqiy yechimi, bezagi yoki musiqiy jo'rligini ikkinchi darajali deb qaramaydi, balki sahnalashtirish rejasining rejissorlik g'oyalarini amalga tatbiq etishda undan unumli foydalanadi.

Musiqaga tomoshabin tomoshani yaxshi qabul qilishida muhim rol o'yinaydi, Tomoshabning asosiy e'tibori aktyorda yoki sahnada bo'layotgan xatti-harakatlarda bo'lganligi uchun musiqani me'yordan (hajmi, ovoz balandligi kabi) oshirib yuborsak, biz tadbir yoki tomoshadagi voqelikni tomoshabinga yetib kelish me'yor darajasini buzishimiz mumkin. U me'yor darajasida amalga oshirilsa, tomoshabning bir umr yodida qolishi mumkin.

Iste'dodli yozuvchi Pirimqul Qodirovning qalamiga mansub «Yulduzli tunlar» asarini atoqli rejissor Bahodir Yo'ldoshev tomonidan sahnalashtirilishida Boburning hayoti va faoliyatini aks ettirilayotgan sahna ko'rinishlarida sevimli xonanda O'zbekiston xalq artisti Sherali Jo'rayev tomonidan Bobur nomidan ijro etilgan qo'shiqlar bunga misol bo'la oladi. Xonanda qo'shiqlarni jonli ijro etib, tomoshabinlar qalblarini larzaga sola oldi. Sahnaning ikki chekkasida arava g'ildiragi, bu rejissorning g'oyasi, original topilmalardan biri edi. Bu g'ildirak oddiy arava g'ildiragi emas, balki «tarix g'ildiragi»dir. G'ildirak ortga aylanganda, Boburning yoshligi, oldingi hayotidan

ko'rinishlar, oldinga aylanganda esa, o'sha paytdagi va keyingi hanyotidagi voqealar ifodalangan. Sahnani chap tomonidagi so'rilarda esa musiqachilar xonandaning qo'shig'iga jo'rnavozlik qildilar. Bunda musiqachilar va xonandalar «aktyor»larga aylandilar. Rejisорlik g'oyalari, topilmalar, xonandachilik mahorati va matn bir-biri bilan uyg'unlashib shunday bir taassurot qoldirdiki, buni so'z bilan ta'riflash qiyin.

Talabalik davrimizda Hamza (hozirgi Milliy) teatriga shu spektaklning premyerasini tomosha qilishga tushganmiz. Spektakl orasidagi ijro etilgan qo'shiqlar tugashi bilan xonandani qutlash uchun gullar bilan yugurib sahnaga chiqib kelgan tomoshabinlarining uzoq vaqt sahnada qolib ketishlari (sahnadagi 1 soniya ortiqcha pauza katta vaqtini, davrni egallashi mumkinligi to'g'risida yuqorida qayd etgan edik) spektaklni davom etishiga xalaqit berib, uning tempo-ritmiga ta'sir qilgan edi. Ammo bu original rejissorlik topilmani keyingi gal tomosha qilishga tushganimizda ko'ra olmadik, chunki xonanda ijrosidagi barcha qo'shiqlar fonogrammaga aylantirilgan edi. Lekin shunday bo'lsa ham ushbu spektakl o'zining original rejissorlik priyomlari, topilmalari bilan, yuksak aktyorlik ijrosi bilan chiroqlar, ranglar va boshqa ijodiy guruhlarning samarali mehnatlari mevasi mahsuli sifatida tomoshabinlar ko'z o'ngida bir umrga muhrlanib qolganligiga ishonzhimiz komil.

«Musiqqa teatrda so'zdan boshlanadi, — deydi mashhur rejissorkardan Y.A. Zavadskiy, — ritm, melodiya va nutqda davom etadi. Musiqqa teatrlashtirilgan tomoshaning haqiqiy mavjudligini bildiradi. Men, agar spektakl musiqalashtirilmagan bo'lsa, u ritmik bo'lmasa uni yomon spektakl deb hisoblayman. Musiqqa — buyuk va aniq san'atdir. U bizni mahoratga, yuksaklikka undaydi, biz anglamay qolgan fikrlarni ilg'ab olishga yordam beradi»<sup>1</sup>.

Teatr musiqasi esa aniq va formasi jihatidan oddiy bo'lishi kerak. Dramatik san'atda katta simfonik orkestrdan deyarli foydalanimaydi, sababi u kuchli ovozi bilan zalning diqqatini o'ziga ag'darib olishi mumkin, ya'ni orkestr bilan sahnadagi voqelik o'rtasida tenglik buziladi va natijada tomoshabinning diqqati ikki

<sup>1</sup> Козюренко Ю. Музыкальное оформление спектакля. — М., Искусство, 1986, стр. 6.

tarafga bo'linadi va spektaklning to'laqonliligiga putur yetishi mumkin.

Dramada musiqa — sahnadagi voqeaga faqat akkomponament yoki illustratsiya sifatida emas, sahnadagi harakatni boyitishi, uni yangi «bo'yoq»lar bilan bezashi, personajlarning hissiyotlarini aniq tushunib olishlariga yordam berishi uchun qo'llanishi lozim.

Ommaviy bayramlarda qo'llaniladigan musiqa faqat tomoshabin uchun emas, ijrochi uchun ham muhimdir. Fikrni bir joyga to'play olish, rolga, obrazga kirishish, sahnada o'zini erkin his qilish uchun, umuman sahna maydonidagi voqelikni, ommani boshqarish uchun ham muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Agar tanlangan musiqaning ifodaviy va tasviriy imkoniyatlari to'liq namoyon bo'lgan bo'lsa, asarni tomoshabin emotsiyonal va to'laqonli ravishda qabul qiladi. Musiqaning elementlari: melodiyasi, ritmi, temp, dinamika, tembrlari yetarli darajada me'yorida foydalanilsa, asar musiqa bilan chiroyli «bezaladi».

Musiqaning ifodali imkoniyatlari kengdir. Unda hayot va o'lim, qahramonlarcha kurash, orzu, qayg'u, shikoyat, tuhmat, hazil kabi mavzularni ifodalash mumkin. Musiqaning buyumni ko'rsatib, tasvirlab beruvchi vositasi yo'q, lekin u tomoshabin sezgisiga, ongiga ta'sir qilibgina qolmasdan, uni tasavvur qilishga unday oladi. Musiqaning tasviriy darajasi turli janrlarda turlicha namoyon etiladi. Ayniqsa, kino va teatr san'atida tasviriy imkoniyatlardan keng foydalaniladi. Masalan, faqat musiqa yordamida biz poyezd «chiza olmaymiz», lekin buni ovoz, tovush orqali (musiqa jo'rligida g'ildirak aylanishi va h.k.) berishimiz mumkin.

Bo'lajak ommaviy bayram rejissorlari musiqani sahnalaشتirish uchun muhim jihatlarini bilib olishlari zarurligi haqida yuqorida aytib o'tdik. Shuning uchun ham ushbu qo'llanmada musiqa haqida umumiy ma'lumotlarni berib o'tamiz.

Musiqaning asosi kuy (melodiya)dir. Melodiya — intonatsion, ya'ni, badiiy obrazni musiqa tovushlari bilan to'g'ri ifoda etish xarakteriga ega bo'lib, insonlarning sezgisi va fikrini ifodalaydi. Kuy (melodiya) musiqali ifodalilikni eng boy manbaidir. U mayin, hazin, mardonavor, shiddatli bo'lib qayg'u yoki xushchaqchaqlikni ifodalashi mumkin.

Melodiya (yunoncha melos – ashula, ode – kuylash) turli balandlik va uzunlikdagi tovushlarning ma'lum bir ritm va ladlarda badiiy holatga kelishidir.

Lad – turli balandlikda kelgan tovushlarning o'zaro aloqasi, beqaror tovushlarning bir tonikaga intilishi.

Tembr – (fr. qo'ng'iroy, tamg'a) tovush tusi, har bir musiqa asbobi yoki ashulachi ovozining o'ziga xos tovush xarakteri.

Metr – musiqa o'ichovi (fr. mezon) musiqadagi kuchli va kuchsiz hissalarning bir tekis almashinib turishidir. Masalan, vals uchun uch hissali, marsh uchun ikki yoki to'rt hissali bo'lishi mumkin.

Ritm – (yun. bir tekis oqim) musiqa asarlaridagi tovushlarning uzun qisqaliklari jihatidan bo'lgan munosabatlari. Har bir musiqa asarining o'ziga xos ritmi bor. Ritmsiz kuy bo'lishi mumkin emas. Ritm ham melodiya singari musiqa mazmunini vogelik bilan bog'lashga xizmat qiladi. Ritm bilan temp bir-birlari bilan chambarchas bog'liqdir. Temp deb, musiqa asarining xarakteri va ijro tezligi darajasi tushuniladi. Tempni uchta ko'rinishda ishlatish mumkin: tez, o'rtacha, sekin. Ularning har biridan har xil sharoitlarda loydalaniladi. Agar musiqa asarining tempi sahnadagi vogelik bilan mos kelmasa sahnada harakat me'yori buziladi.

Ommaviy bayram rejissori musiqaga aloqador ko'p ma'lumotlarni, jumladan, musiqa asboblari, qo'shiq, ashula, maqomlar haqida ham tushunchaga ega bo'lishi lozim.

Cholg'u musiqa asboblari deganda, ma'lum bir tembrda musiqa tovushlari beradigan asbobi lar tushuniladi. Professional musiqa cholg'u asboblari uch guruhga bo'linadi: torli, puflama, urma.

Xalq cholg'u asboblari deb, ma'lum xalqlar o'rtasida keng tarqalgan cholg'u asboblariiga aytildi. Darhaqiqat, har bir xalqning o'ziga xos cholg'u asboblari bor, masalan, ruslarda: domra, balalayka, bayan; ukrainlarda bandura; kavkazliklarda tar, soz; italyanlarda mandolin; ispanlarda gitara va boshqalar.

O'zbek xalq cholg'u asboblari ham nihoyatda rang-barang bo'lib, unga nay, do'mbira, dutor, tanbur, g'ijjak, chang, qo'shnay, karnay, surnay, nog'ora, doira va boshqalar kiradi.

Xalq ashulalari badiiy xalq boyliklarining asosiy janrlaridan biridir. Xalq ashulalarining turlari ko'p: epik, lirk, marosim, mehnat, urf-odat, turmush bilan bog'langan, tarixiy va boshqalar. Ayrim xalq ashulalari turli o'yin va raqlar bilan bog'lanadi. Ular bir ovozli, ikki ovozli, ko'p ovozli va hokazolar bo'lishi mumkin. O'rta Osiyo xalqlarining ashulalari asrlar davomida bir ovozli holda taraqqiy etib, cholg'u asboblari jo'rligida va jo'rsiz ijro etib kelingan. O'zbek xalqining musiqa merosi ashula, katta ashula, patnis ashula kabi mukammal turlari mavjud bo'lib, ular turli davrlarda turli namunalarda namoyon etib kelingan. Bir xalq ashulasini bir necha ijrochi tomonidan turlicha ijro etilishi ham mumkin, shu tariqa ommaviyashgan ashulalarning turli variantlari yuzaga kelgan.

Xalq musiqasi — xalqlarning cholg'u va vokal musiqa ijodiyoti namunalaridir. Xalq musiqasi (musiqa folklori) xalqlarning turli mehnat sharoitida, tarixiy voqealarda, xushchaqchaq, o'yin-kulgi yo musibatlarida yaratilib, uzoq yillar davomida silliqlanib avloddan avlodga, og'izdan og'izga o'tib saqlanib kelingan. Ayrim noma'lum ashulachi, sozandalar tomonidan yaratilib, yillar davomida xalqlar o'rtasida sayqal topib badiiyashgan va xalq ijodiga qo'shib ketgan xalq musiqasining eng muhim turi xalq ashulalaridir. Xalq musiqasi asarlari yakka ijrochi yo havaskor jamoa sozanda va ashulachilar ansambl tomonidan ijro etilganidek, professional xalq sozanda va hofizlari tomonidan ham ijro etiladi. Bunday xalq sozanda va ashulachilarining — baxshi, oqin, dostonchi, ashug, jirav kabi nomlari bor. Rus klassik musiqasining asoschisi M. Glinka: «Musiqani xalq yaratadi, biz san'atkorlar esa uni faqat aranjirovka (qayta ish-lash) qilamiz», deb ta'kidlagan.

Har bir xalqning o'ziga xos musiqasi bo'lib, ularning har biri turlicha taraqqiy etgan. Respublikamiz viloyatlaridagi musiqalar ham bir-biridan biroz bo'lsa-da farq qiladi. Shuning uchun Farg'ona musiqasi, Xorazm musiqasi, Buxoro musiqasi degan atamalar qo'llaniladi. Ommaviy bayram rejissori esa bunday nozik detallarga alohida e'tibor berishi lozim.

Keyingi yillarda maydonlarda o'tkazilayotgan bayram va tomoshalarda maqomlardan namunalar tinglash imkoniyatlariga ega

bo'lib boryapmiz. Maqom janr jihatidan tomoshabinni ushlab turish uchun zerikarli tuyilsa-da, aslida uni bayram g'oyasiga mohirona singdirilsa, u albatta muvaffaqiyat topadi.

Maqom – turar joy, o'rin, parda degan ma'noni anglatib, musiqa cholg'u asboblarida parda va tovushlar o'rnini bildirgan. Abu Nasr Farobi va Abu Ali ibn Sinolardan boshlab, butun O'rta Osiyo musiqa nazariyachilari «maqom» so'zini aniq bir lad ma'nosida ishlatganlar. Maqom sharq xalqlari o'rtasida qadim zamonlardan mavjud bo'lган sozanda, xonandalar tomonidan yaratilgan va tobora taraqqiy topa boshlagan musiqa janridir.

XIII–XVIII asrlarga kelib O'rta Osiyo, Xuroson va Ozarbayjon xalqlari musiqasida «o'n ikki maqom» mavjud bo'lган. Bular «Rahoviy», «Husayniy», «Zangula», «Rost», «Ushshoq», «Navo», «Buslik», «Hijoz», «Iroq», «Isfaxon», «Zirafkand» va «Buzruk»lardir. Maqom ko'p asrlardan beri saqlanib kelayotgan va hozir mavjud bo'lган musiqa merosi asarlarini bildiradi. Maqomni xalq musiqasining boshqa janrlaridan ajratadigan xarakterli belgilari ularning hajmi kattaligi va ko'p qismliligidir. O'zbekiston va Tojikistonda uzoq asrlardan bizgacha yetib kelgan «olti maqom» bo'lib, Shashmaqom nomi bilan mashhur. Bular «Buzruk», «Rost», «Navo», «Dugoh», «Segoh» va «Iroq»lardir. Har bir maqom ikki katta qismga bo'linadi. Birinchisi, faqat cholg'u asboblarida ijro etiladigan qismi bo'lib, buni «Mushkulot» (Xorazmda chertim yo'li), ikkinchisi esa, cholg'u asboblari jo'rligida aytildigan ashula qismi, buni «Nasr» (Xorazmda aytim yo'li) deb aytildi. Bu qismlarning har birida bir nechta kuy bor. Har bir maqom ashula bilan ijro qilinadigan ufar bilan tugallanadi. Shashmaqom kuyini ijro qilganda albatta doira usul berib turishi shart. Shashmaqom kuylarini birinchi marta (1923-yil) professor V.A. Uspenskiy tomonidan Buxoroning mashhur sozanda, hofizlari Ota Jalol va Ota G'iyoslar ijrosida notaga yozib olingan.

Ashula – keng tarqalgan vokal musiqa janri va shakli bo'lib, unda she'riy va musiqiy obrazlar bir-biriga uyg'unlashgan holda yavdalananadi. Ashulaning xalq ashulasi va professional turlari bor. Utuzilishi va ijrosi bo'yicha ommaviy, estrada, ansambl, xor va boshqa shakllarda ijro etiladi. Shuningdek, she'riy va musiqiy tuzilishi ham turlichadir, masalan, alla, yalla, lapar, marsiya va h.k.

Musiqa sohasi mutaxassislari tomonidan yaratilgan manbalar da «xalq termalari yo'lida aytildigani ashula shaklini qo'shiq deb ataladi»<sup>1</sup>, deyilgan. Asosan, mustaqil to'rtliklardan tashkil topgan, tugal fikrni badiiy ifodalovchi, el orasida keng tarqalgan va kuylangan xalq she'riy namunalariga qo'shiq deyiladi.

Ashulachi – keng ma'noda vokal janrlar ijrochisidir. Terma va yalla ijrochilarini yellachi, xalfa (Xorazmda shoira, sozanda va ashulachi xotin-qizlar), yirik shakldagi ashulachilar va maqom yo'llarini ijro etuvchilarni ashulachi, ijrochilik san'atlari bilan xalq orasida tanilgan ashulachilarini «hofiz» deyiladi.

Yalla keng tarqalgan o'zbek ashulalaridir. Odatda yallani uch-to'rt ashulachi ijro etadi. Daromad – boshlang'ich qismini hamma yallachilar barobar ijro etadilar. O'rta avj bo'limini ayrim ashulachilar, nihoyat katta avjini bir ashulachi boshlab, uni o'rta qismida boshqa ashulachilar qo'shiladi. Aksariyat yallalar kuplet shaklida bo'ladi.

Lapar – bir yoki ikki ijrochi tomonidan navbat bilan aytildigani ashula shakli<sup>2</sup>.

Opera – (it. opera – ijod, asar) musiqali dramatik asar bo'lib, matnning ma'lum bir qismi yoki deyarli hammasi kuylanadi.

Operetta – (it. operetta – kichik opera) sho'x, quvnoq xarakterdagi musiqali sahna asari bo'lib, bunda ayrim nutqlar ashula qilib aytilsa, ayrimlari so'z bilan beriladi.

Libretto – (it. libretto – kitobcha) teatrga moslangan yirik mu siqa asari (opera, operettalar)ning mukammal yozma matnidir. Libretto musiqali drama opera, operetta va baletlarning badiiy g'oyaviy asosidir<sup>3</sup>.

Mazkur qo'llanmada qisqacha bo'lsada ushbu tushunchalar haqida ma'lumot berganimizning sababi shundaki, hozirgi kunda respublika miqyosida o'tkazilayotgan poytaxt bayramlari Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan ijodiy guruhlar kuchlari, imkoniyatlari bilan amalga oshirilmoqda-ki, unda musiqa san'atining turli janrlaridan foydalanib kelinmoqda. Turli viloyatlar mentalitetini,

<sup>1</sup> I. Akbarov. Muzika lug'ati. – T., 435-b.

<sup>2</sup> O'sha kitob, 418-b.

<sup>3</sup> Музикальный энциклопедический словарь. /Гл. ред. Келдыш Г.В. – М., СЭ, 1990, стр. 398.

mahalliy xususiyatlarini, ijro usullarini aniqlab, ulardan to'g'ri foydalanish har bir rejissorga yuksak mas'uliyat yuklaydi. Avvallari O'zbekistonning barcha viloyatlari ijodiy guruhlari, talabalar va boshqa ishtirokchilar jalb qilinar edi. Bozor iqtisodiyoti sharoiti-da poytaxt va poytaxtga yaqin viloyatlardagi ijodkorlar guruhlari o'zlarining imkoniyatlaridan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

### Texnologik xarita

Mavzu:	Zamonaviy bayramlarda musiqa
<b>Maqsad va vazifalar</b>	<p><b>Maqsad:</b> Talabalarning musiqa to'g'risidagi tushunchalarini kengaytirish, bayram va tomoshalarni tashkil etishda musiqaning roli va tarbiyaviy ahamiyati, musiqa tanlash asoslarini tushuntirish.</p> <p><b>Vazifalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>— talabalarning musiqiy asarlarga nisbatan qiziqishlarini oshirish, ularda musiqiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va kengaytirish;</li> <li>— musiqa tanlashga oid tarqatilgan materiallarni talabalar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat-munozara va savol-javob orqali tarqatma materiallardagi vazifalar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimini baholash.</li> </ul>
<b>O'quv jarayonining mazmuni</b>	Musiqa haqida tushuncha. Musiqa janrlari va turlari. Ommaviy bayram va tomoshalarda musiqaning vazifalari. Turli xalqlar musiqasini farqlash va bayram tomoshalarida qo'llash.
<b>O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi</b>	<p><b>Uslug:</b> Og'zaki bayon qilish, «Rezume» texnologiyasi.</p> <p><b>Shakl:</b> Suhbat-munozara, savol-javob, amaliy mashq'ulot, kichik guruhlarda ishlash.</p> <p><b>Vosita:</b> Axborot texnologiyalari, tarqatma materiallar, musiqa tinglash uchun texnik jihoz, doska, flomaster (yoki rangli qog'oz).</p> <p><b>Usul:</b> «Klaster» usuli, videolavha ko'rish va musiqa tinglash orqali.</p> <p><b>Nazorat:</b> Savol-javoblar, kuzatish, o'z-o'zini nazorat qilish.</p> <p><b>Baholash:</b> Rag'batlantirish, «5» balli tizim asosida baholash.</p>

<b>Kutiladigan natijalar</b>	<p><b>O'qituvchi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>— mavzuni talabalar tomonidan qisqa vaqt ichida o'zlashtirilishiga erishadi;</li> <li>— talabalarning faolligini oshirib, darsga qiziqishlarini kuchaytiradi;</li> <li>— talabalarni mustaqil fikrflashga va musiqa haqidagi tasavvur, tushunchalarini kengaytirishga o'rgatadi;</li> <li>— talabalar tomonidan mavzuni mustaqil o'rganishga erishiladi, bayram va tomoshalar uchun musiqa asarlarini tanlay olish qibiliyatini rivojlantiradi, turli xalqlar musiqalarini farqlay olishga o'rgatadi.</li> </ul> <p><b>Talabalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>— musiqiy asarlar haqida va ularni qo'llash bo'yicha yangi materiallarni egallab, yetarli bilim va ko'nikmaga ega bo'ladilar;</li> <li>— yakka holda va guruh bo'lib ishlashni o'rganadi;</li> <li>— mustaqil fikrlaydi;</li> <li>— musiqaning turlarini, janrlarini bir-biridan farqlay oladi;</li> <li>— bayram va sahna asarlari uchun musiqa tanlash va uni qo'llashni o'rganadi;</li> <li>— mavzuni to'liq o'zlashtirishga harakat qilinadi;</li> <li>— qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotlarga ega bo'ladi;</li> <li>— savoliga bergen javobi bo'yicha baholanadi.</li> </ul>
<b>Kelgusi rejalar</b>	<p><b>O'qituvchi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>— o'quv jarayonlarini (mashg'ulotlarini) to'g'ri tashkil etish va yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish, darsda tadbiq etish va takomillashtirish;</li> <li>— mavzularni qo'shimcha ma'lumotlar, yangiliklar bilan boyitish orqali uning qiziqarliligi va ta'sirchanligini oshirish;</li> <li>— mavzuni amaliy mashg'ulotlar bilan bog'lash orqali nazariya va amaliy mashg'ulotlar uyg'unligiga erishish;</li> <li>— turli millatlardan musiqalarini tinglash va tahlil qilish orqali ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatish;</li> <li>— pedagogik mahoratni oshirish.</li> </ul> <p><b>Talaba:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>— mavzuni mustaqil o'zlashtirishni o'rganadi;</li> <li>— o'z fikrini ravon bayon qila oladi;</li> <li>— mavzu asosida musiqa asarlarini tanlash ko'nikmasiga ega bo'ladi;</li> <li>— o'zi va guruh fikrini tahlil qilib, aniq yechimga kelish malakasini hosil qiladi.</li> </ul>

### ***Takrorlash uchun savollar***

1. «Musiqqa» tushunchasini izohlab bering.
2. Zamonaviy bayram va tomoshalarda musiqanining roli nimalardan iborat?
3. Teatr san'atida musiqanining roli va ahamiyati haqida gapirib bering.
4. Musiqanining qanday tur va janrlarini bilasiz?
5. «Xalq musiqasi» deganda nimani tushunasiz?
6. Opera, operetta, balet, librettoning lug'aviy ma'nolarini aytib bering.
7. O'zbekistonda musiqa san'atining qaysi sohasi ko'proq rivojlangan?
8. Zamonaviy bayram va tomoshalarda musiqani tinglovchiga va tomoshabinga yetkazib berishda texnik vositalarning roli haqida gapirib bering.

## BAYRAM VA TOMOSHALARDA RAQS SAN'ATINING TUTGAN O'RNI

Raqs – insonning mehnat jarayonida tashqi olamdan olgan emotsiyonal taassurotlari bilan bog'liq holda yuzaga kelgan va inson gavdasining harakat va holatlari vositasi bilan yaxlit badiiy obraz yaratiladigan san'at turidir.

Insonlar bayramlarda o'z quvonchlarini raqlarini orqali namoyon etadilar. Kayfiyati yo'q inson hech qachon raqsga tushmaydi. Kayfiyatning yuqori cho'qqisi raqsga borib taqalishi barchamizga ma'lum. Shunday ekan, bayramlar va tomoshalarda raqs san'atining o'rni va roli benihoya kattadir.

Xoreografiya bilim yurtlarida raqsning ilk elementlaridan boshlab, partnor bilan ishlash, obraz yaratish, milliy, klassik asarlar raqlari, turli millatlar raqlari xatti-harakatlari o'rgatilib boriladi. Raqlarning sinxron shaklda sahnalashtirilishi tomoshabin ko'z oldida yangi manzarani gavdalantiradi.

Hozirgi kunda bayram va tomoshalarda raqs harakatlari tomoshaning boshidan oxirigacha davom etib turishi mumkin.

Chiroqli, did bilan kiyinib olgan raqqosa qizlarning mayin, jozibali harakatlari, yigitlarning esa jo'shqin va shiddatli harakatlari sahnadagi tomoshaviylik effektini yanada kuchaytiradi, sahna bezagi, musiqa va raqs uyg'unligiga erishiladi, natijada tomoshabin bundan estetik zavq oladi.

Keng masshtabli maydonni badiiy jihatlar bilan to'ldirish ancha murakkab jarayondir. Dekoratsiyalar, sharlar, afisha, kartinalar, shiorlar, gullar, chiroqli did, dizayn bilan qurilgan sahna, chiroqlar va boshqalar tomosha o'tadigan joyning asosiy badiiy bezagi uchun xizmat qiladigan vositalardir. Turli rang-barang liboslar kiyib olgan yigit-qizlarning raqs harakatlari esa bu jihatlarni yanada to'ldirib boyitadi.

O'zbek raqsi – Sharqning madaniyat tarixi ming yillar bilan o'lchanadigan Hindiston, Eron, Yaponiya singari mamlakatlarida ravnaq va shuhrat topib kelgan raqs san'atidan sira qolishmaydigan darajada yaxshi rivojlangan barkamol san'atdir.

O'zbek raqsining qadimiyligini O'zbekiston hududidagi qoyalaridan topilgan tasvirlar va arxeologik topilmalar assosida aniq isbot

qilib berish mumkin. Toshlarga chizilgan xilma-xil ibridoiy suratlar orasida tosh va bronza davriga taalluqli niqob kiygan raqqos hamda bir guruh o'yinchilarning tasvirini ko'rish mumkin. Samarqand, Shahrisabz, Buxoro, Toshkent raqqos va raqqosalarining shuhrati V asrdayoq butun Sharqqa yoyilganligi, o'zbek raqs ustalarining Sharq xalqlari raqlaridan ta'sirlanish bilan bir qatorda ularga ham o'z ta'sirini ko'rsatganligi to'g'risida aniq dalillar mavjud. O'zbek raqs san'ati xalq raqsi va professional raqs sifatida asrlar davomida rivojlanib kelgan. Professional raqs dastlab marosimlar bilan bog'liq bo'lgan. Taxminan IV asrdan boshlab marosimlardan chiqib, inson faoliyati va ruhiy olamini aks ettiruvchi san'at sifatida ko'zga tashlandi. Arablar va mo'g'ullar istilosiga raqs san'ati rivojiga ham keskin zarba berdi. XIV asrning ikkinchi yarmidan professional raqs yana o'z qaddini tiklay boshlaydi. Xususan, Navoiy zamonida Xuroson va Movarounnahrda raqs taraqqiy topdi. Professional raqs bilan bir qatorda xalq o'yinlari saqlanib, rivojlanib bordi.

Xullas, raqs san'atimiz mehnat, marosim va e'tiqod bilan bog'liq badan o'yinlaridan «Katta o'yin», «Maqom o'yin», «Qarsak o'yin» kabi monumental raqs turkumlarigacha bo'lgan katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tib, xalqimizning avlod-ajdodlari ma'naviy-madaniy hayotida muhim rol o'ynab kelgan. Hukmdorlar, bosqinchilar mehnat ahli orasidan yetishib chiqqan iste'dod egalari yaratgan raqs san'atini o'z mafkuralari tomon burishga, undan o'z manfaatlari, aysh-u ishratlari yo'lida foydalanishga, raqqos va raqqosalarni kam-sitish, tahqirlash, insoniy huquqlarini poymol qilishga tinmay urindilar. Ruhoniylar esa raqs san'atini shakkoklik deb e'lon qildilar. Ammo xalq raqsi o'z egasi — mehnatkash ommasiga xizmat qilishda davom etdi, uning ilg'or an'analari avloddan avlodga, ustozdan shogirdga o'tib yashadi va bizgacha yetib keldi.

O'zbekistonda XIX asr va XX asr boshida mehnat hamda marosim bilan bog'liq bo'lgan, shuningdek, tog'liklar orasida rasm bo'lib kelgan qadimiy o'yinlardan tashqari professional raqs san'ati ham mavjud bo'lib, unda ko'pgina xususiyatlari bilan bir-biridan keskin farq qilib turuvchi Farg'ona, Buxoro, Xorazm uslub maktablari qaror topdi. Hozirgi kunga kelib raqs maktabining to'rtinchi maktabi, ya'ni Surxon maktabi haqida ham turli bahs-munozaralar olib

borilmoqda. Ammo bu hali maktab emas, u folklor yonalishidagi raqlar majmuidir.

Har bir o'zbek raqs maktabining o'zi bir olam. Ularga sodda va lo'nda qilib quyidagicha ta'rif berish mumkin: Farg'ona raqlariga goh sho'x va tetik, goh mayin oquvchi harakat, gavdani biroz oldinga egib erkin, nafis tutish, xilma-xil ma'no kashf etuvchi chirolyi qo'l harakatlari xos bo'lgan. Buxoro o'yinchilari esa odatda tovonni urib-urib, tizzani bukib, ayni chog'da gavdani g'oz tutib, viqor bilan, kift titratib, aniq shaklli, puxta qo'l harakatlari bilan o'ynaganlar. Buxoro raqsida katta doiradagi charxlar muhim o'rin tutgan. Xorazm raqsi uchun esa tizzalarni sal-pal bukib, kiftlarni tik tutib, butun tanani harakatga keltirib, bilak va barmoqlardan turli-tuman chirolyi shakllar yasab, o'ynoqi, sho'x, otashin o'ynash xarakterlidir. Xorazmda qayroq bilan o'ynash keng rasm bo'lgan. O'zbek raqlarida obrazlilik, mazmundorlik hal qiluvchi rol o'ynaganki, bu yetakchi xususiyat barcha maktab va uslublarni bir-biriga bog'lab, yagona o'zbek raqsini maydonga keltirgan. Har biri bir olam, kattakon tarix bo'lmish bu maktablarning vujudga kelishi, kamol topishi, muayyan shakl hamda qonuniyatga ega bo'lishida xalq baletmeysterlari hamda o'sha zamon zo'ravonlari tomonidan tahqirlangan raqqos va raqqosalarning xizmati beqiyosdir.

Raqs uslub va maktablari bir-biriga ta'sir ko'rsatib, ularning vakillari bir-birlari bilan ijodiy tortishib kelishgan, albatta. Xalq o'yinchilari, xususan, Farg'ona raqqos va raqqosalari ijodiy faoliyatining mazmuni boyib, ahamiyati oshdi. Turkiston, Buxoro amirligi va Xiva xonligidagi bir qator shaharlarda nisbatan yirik raqs trup-palari (ansamblari) tashkil bo'ldi, qaysiki O'rta Osiyodagina emas, undan tashqarida ham o'zbek raqs san'atini munosib namoyish etdi. Jumladan, 1905-yilda shahrixonlik Asqar hoji Haydaraliyev rahbarligidagi raqs ansamblı Zakavkazye mamlakatlarida uzoq gastrolda bo'ldi. Ansambl programmasini o'z davrining dongdor raqqosasi Hamdamxonning chiqishlari bezadi. U o'zbek klassik raqlarining butun boyligi va nafosatini yuksak saviyada tarannum etish bilangina cheklanib qolmay, O'zbekistonga bir qator ozarbayjoncha, lezgincha, gruzincha o'yinlar o'rganib qaytdi.

Umuman olganda, o'tmishdagi o'zbek raqsi ikki katta nahrdan iborat bo'lib, asrlar davomida yashab kelgan:

– birinchi nahr – bu xalq orasida iste'molda bo'lib kelgan «o'yin» deb ataluvchi raqlar;

– ikkinchi nahr – professionallar tomonidan ijro etilib kelingan va ko'pincha turkum xarakteriga ega bo'lgan «raqs»lardir.

Undan tashqari raqs san'atining sifat belgilarini tasniflashda uning taqlidiy raqlar (hayvon, qush, baliq va o'simlik, inson xatti-harakatlaridan, ya'ni jonli tabiatdan badiiy nusxa ko'chirish), tasviriy raqlar (ovchi, baliqchi, temirchi, hunarmand faoliyati jarayonlarini yoki biror jangni aks ettiruvchi), lirik raqlar (inson tuyg'ulari, hissiyotlari, kechinmalarini bevosita yoki obrazli ifodalovchi), estetik raqlar (kuchli hissiyotlarni ifodalovchi), udum raqlari, marosim raqlari (so'z san'ati, aktyorlik, sirk, mu-siqiy va raqs san'atidan tuzilgan ko'p qisqli tomoshalar sujetlarining tarkibiy qismi sifatida) va professional raqs turlarini ajratish, o'tkazilayotgan bayram va tomoshalarda e'tibor qaratish zarur bo'lgan jihatlardir.

Hozirgi kunda respublika miqyosida o'tkazilayotgan bayram va tomoshalarda Qodir Mo'minov, M. Ergasheva, Sh. Ahmedov, N. Madrahimova va boshqalarning nomlarini aytish mumkin.

Masalan, Qodir Mo'minov haqida qisqacha to'xtolib o'tmoqchiman. U 1947-yil 14-oktabrda Toshkent shahrining Qoratosh mahallasida tug'ilgan. 10 yoshga to'lganda uni ota-onalari o'quvchilar saroyiga o'zbek va yevropa raqlarini o'rganish uchun to'garakka beradilar. Keyinchalik bu to'garak «Yulduz» raqs das-tasi deb nomlandi va hozirgacha faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Shu to'garak oltita mashhur san'atkorni, ya'ni O'zbekiston xalq artistlari G. Jamilova, F. Zokirov, Q. Do'stmuhammedova, D. Jabborova, M. Ahmedova va jumladan Q. Mo'minovni ham tarbiyalagan ilk raqs maktabidir. J. Zokirov, N. Madrahimovalar ham ushbu maktabdan raqs sirlarini o'rganganlar. O'zbekiston xalq artisti Farrux Zokirov ham (1957–1960) ushbu raqs to'garagiga qatnashgan va bu sohani yaxshi o'zlashtirganligi bizlarga ma'lum bo'ldi.

Q. Mo'minov bilan uning ijodiy faoliyati, ilk ustozlari haqidagi suhbat jarayonida, ularni shu jamoada o'zbek raqs san'atini mukam-

mal o'rganishga astoydil qiziqtirgan, o'zbek raqs san'atini sevib qadriga yetgan, shogirdlarga o'rgatishga jon-u dili bilan xizmat qilgan, hozirgi kundagi eng ko'zga ko'ringan san'atkorlar (yuqorida qayd qilib ko'rsatilgan 6 ta xalq artistlari)ni tarbiyalab, to'g'ri yo'llanma bergen, shu kasbga chuqur mehr uyg'otgan ustozи arman ayoli Bella Artomovna Arutunovani esladi.

Q. Mo'minov 1965–69-yillarda o'zbek xoreografiya bilim yurtiga o'qishga kirdi va I. Protsenko, G. Ijitskiy, K. Galetko, R. Xojisaidova, R. Karimova kabi ustozlaridan raqs san'ati sirlarini o'rgandi. O'qishni tamomlagandan so'ng, u A. Navoiy nomidagi opera va balet teatrda balet artisti, keyinchalik A. Mo'minov boshchiligidagi «Shodlik» ansamblida o'z faoliyatini davom ettirdi. Ushbu ansamblida u professional erkaklar raqlarining xatti-harakatlarini, elementlarini o'rganishni ko'ngliga tugib qo'ydi va buning uddasidan chiqdi ham. San'at shunday bir dargohki, ma'lum muddat tahsil olib, men o'rganib oldim, endi hamma narsani bilaman, deyishga yo'l qo'ydirmaydi. Chunki bu sohada ham o'ziga xos raqabotchilik mayjudki, ushbu san'atni rivojlantirish, nafaqat milliy, balki boshqa xalqlar raqlarini ham o'rganish va o'zlashtirishni taqozo etadi va san'atkordan doimo o'z ustida ishlashi talab etiladi. Raqs san'atiga bo'lgan chuqur qiziqish Q. Mo'minovni Moskva davlat teatr san'ati instituti (GITIS)ga baletmeysterlik fakultetiga o'qishga kirishiga sabab bo'ldi. Besh yil mobaynida u xoreografiya san'atining buyuk namoyondalari akademik R. Zaxarov, xizmat ko'rsatgan artistlar T. Tkachenko, A. Borzov, Y. Sex, L. Talankina, A. Shulgina kabi ustozlardan turli xalqlar raqlarini o'rgandi va o'zlashtirib oldi.

Toshkentga qaytib kelgach, u «Shodlik» (1997-yil «Shodlik» ansamбли «O'zbekiston» nomi bilan almashtirildi) ansambliga rahbarlik qildi. Q. Mo'minov xalq artistlari M. Turg'unboyeva, I. Oqilov, Q. Mirkarimovalarning raqs san'ati yo'lidan borib, o'zbek raqs san'atining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. U bir qancha shogirdlarni yetishtirishga muvaffaq bo'ldi. Shogirdlaridan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar L. Oqilova, N. Sermatov, G. Shirinova, kenja shogirdlaridan S. Isroilova kabi san'atkorlar hozirgi kunda o'zbek raqs san'atini xalqimiz va jahonga namoyish etib kelmoqda-

lar. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist D.Jabborovaning G'. Yoqubov kuylagan «O'ynasa», «Gulandom», «Zilola», «Oyjamol» va boshqa san'atkorlarning kuy-ko'shiqlariga sahnalashtirgan raqslari Q. Mo'minovni elga tanitdi.

«Men yoshligimdan raqs san'atini sevib, uni o'rganib, o'rgatib kelayapman. Agar alohida olingan dastur uchun raqs tayyorlash kerak bo'lsa, u unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Lekin, noan'anaviy sahnalarda, keng maydonlarda, turli variantdagi sahnaviy kenglikda, ommaviy sahnalar uchun raqs sahnalashtirishning mushkulligini men R. Hamidov, B. Sayfullayev, B. Yo'ldoshev kabi rejissorlar sahnalashtirgan bayram tomoshalari jarayonlarida tushunib yetdim», deydi baletmeyster.

Konsert zallarida, teatr sahnasida, madaniyat uylari saroylari sahnasida, xullas, an'anaviy sahnaviy muhitda yakka, juft va ommaviy sahnalarda ko'pi bilan 20–30 kishi qatnashishi mumkin. Noan'anaviy sahnalarda, masalan, sport maydonlari, sirk arenasi, ko'chalarda, bog'larda, xiyobonlarda o'tkaziladigan bayram va tomoshalarda ularning soni yuz (ba'zan undan ham ortiq) barobarga ko'payadi. Ommaviy bayram va tomoshalarda baletmeyster rejissor bilan baravar ishlashiga to'g'ri keladi. Chunki maydonda bo'layotgan voqealarning deyarli barchasi raqs, plastik xatti-harakatlar orqali namoyish etiladi. Masalan, xonanda ham sahnaga chiqqandan keyin unga ozmi-ko'pmi raqs harakatlari elementlarini qo'llashi kerak bo'ladi. 2005-yilgi «Navro'z» bayramini olaylik. Biror sahna yoki epizod yo'qli, unda raqs harakatlari bo'lmasa (Q. Mo'minov bosh baletmeyster sifatida ishtirok etdi). Prologdagi qorlarning erib o'rniiga ko'klamning kirib kelishi ham raqs harakatlari orqali amalga oshirilgan. Barcha san'atkorlar va jamoalar (Milliy teatr aktyorlari tuyyorlagan sahna ko'rinishlari, A. Hidoyatov nomli teatr jamoasi va Navoiy teatri, teatr studiyalari, Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat instituti va Toshkent davlat san'at instituti talaabalari va boshqa jamoalar)ning ijodiy chiqishlari raqs xatti-harakatlari asosiga qurilgan.

O'zbek milliy raqs san'ati bo'yicha san'atshunoslik fanlari doktori L. Avdeyeva, O'zbekiston xalq artisti R. Karimova o'zbek raqs san'atining jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyatiga katta hissa

qo'shgan, o'rganish va o'rgatish uslubiyotlari va boshqa xususiyatlari haqida manba qoldirgan olimlardandir. Professor R. Karimova tomonidan tayyorlangan Farg'ona, Buxoro, Xorazm raqslari, «Isoxor Oqilov raqslari» kabi risolalari o'zbek milliy raqslari elementlari, holatlari va harakatlari ifodalangan va o'zbek raqs san'ati bo'yicha bilim olayotgan talabalar uchun asosiy qo'llanma hisoblanib kelmoqda.

Iste'dodli rejissor B. Sayfullayev Q. Mo'minov bilan birga ish-lash jarayonida bir necha bor «Xalqlar do'stligi» mavzusiga e'tibor qaratgan. O'zbekistonda 120 dan ortiq millatlar yashashini hisobga olib, milliy raqslar bilan birgalikda turli xalqlar raqslari ham bu san'atkorlar tomonidan sahna ifodasini topgan. Masalan, yuqorida ta'kidlangan «Buyuk ipak yo'li» blokida «Buyuk ipak yo'li»ni bosib o'tgan davlatlar xalqlari raqslari shular jumlasidandir.

Raqslarni sahnalashtirish bo'yicha respublikamizda yetarlicha mutaxassislar bor. Bitta bayram yoki tomoshada bir qancha balet-meysterlarning ijod mahsullaridan bahramand bo'lishimiz mumkin.

Raqs faoliyati bevosa musiqa san'ati bilan chambarchas bog'langanligi tufayli, ularning uyg'unligiga erishish rejissor va baletmeysterdan katta ustalik va mahorat talab etadi. Mavzuga mos, tadbir g'oyasidan kelib chiqib, musiqa asari yaratilgandan so'ng, raqslarni sahnalashtirish uchun baletmeyster avval musiqani tinglab, o'zida o'zlashtirib, unga mos xatti-harakatlardan izlaydi. Harakatlar bekorchi, oddiy qo'l yoki oyoq harakatlari emas, ma'no va mazmunga ega bo'lgan xatti-harakatlardan iborat bo'lishi va tadbir mazmuniga, g'oyasiga xizmat qilishi lozim.

Yuqorida qayd etganimizdek, raqs keng ommalashgan nafis harakatlari va ritmik tuzilishlar bilan badiiy obraz yaratishga asoslangan san'atning bir turi bo'lib, hozirgi kunda ommaviy bayram va tomoshalarni san'atning bu turisiz nafaqat tasavvur qilish balki, tashkil qilish ham mumkin emasligi barchamizga ma'lum. Chunki ba'zi imkoniy yo'q sharoitlarda o'tkazilayotgan tadbirlarda sahna dekoratsiyalari yo'qligi yoki sahnada kerakli jihozlarning, ranglarining, bir so'z bilan aytganda, sahna bezagi amalga oshirilmagan paytlarda chiroyli, rang-barang liboslar bilan sahnaga chiqib kelgan yigit va qizlarning raqs harakatlari sahnadagi voqelikning tempo ritmini ko'tarib yuborishi mumkin. Raqslarni musiqasiz tasavvur

qılısh qiyin. Shuning uchun raqs musiqasi haqida qisqacha ma'lumot berib o'tamiz.

Raqs müsiqasi – aniq ritmga ega bo'lishi, har bir raqsning o'ziga xos xarakteri, ritm va sur'atiga munosib bo'lishi shart. Har bir raqs uchun turlichaligda musiqalar yaratiladi. Raqs musiqasining ak-sari cholg'u tarzida bo'ladi. Xalq raqlari esa ashulalar va xorlar bilan ijro etiladi. Raqs musiqasi faqat cholg'u asboblarida chaliniqashda qilib aytish yo'li bilangina emas, buning ritmi doira va boshqa urma sozlarda chalinishi va qarsaklar bilan ham bajariliishi mumkin. O'zbek xalq kuylaridan «Mirzadavlat», «Dilxiroy», «Ufor», «Qashqarcha» va boshqalar cholg'u musiqasi, «Gul o'yin», «Qari navo» va ayrim yallalar ashulali raqs namunalardir. Doira va nog'oralar ritmida ijro etiladigan raqlar O'zbekiston va Tojikistonda juda keng tarqalgan. «Zang», «Chor qars», «Duchava», «Gul o'yin» va boshqalar doira jo'rligida ijro etiladigan raqs o'yinlari. Raqs musiqasi baletda ko'proq namoyon bo'ladi.

Zamonaviy bayram va tomoshalar rejissurasining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, tomoshalar turli bloklarga ajratiladi va bu bloklarda alohida-alohida sahnalashtirish ishlari amalga oshiriladi va bosh rejissor tomonidan «yig'iladi». Ishlash jarayonida turli sahna ko'rinishlari, musiqa va boshqa nomerlar o'zgarishi mumkin. Rejissor, baletmeyster va bastakorlar tomoshani yangi ijod mahsuli bilan boyitib boradilar. Ularda hozirjavoblik hissi juda kuchli bo'lmog'i lozim. Bunday sharoitda, ayniqsa, baletmeyster zimmasiiga kuchli mas'uliyat yuklatiladi. Umuman, raqlar to'g'risida so'z borganda «baletmeyster» va «xoreografiya» tushunchalari ko'proq qo'llaniladi. Shuning uchun ham bu tushunchalarni aniqlab olishimiz maqsadga muvofiqdir.

Lug'atlarda «baletmeyster» nemischa «balletmeister» so'zidan olingan bo'lib, raqs, balet, operalardagi o'yin sahnalarini qo'yuvchi balet rejissori, deb ko'rsatilgan bo'lsa, «xoreografiya» esa raqs yaratish san'ati, ya'ni raqlari spektakl deb izohlangan<sup>1</sup>. XIX asr oxirlaridan boshlab raqs san'ati xoreografiya deb atala boshlandi. Uning ikkinchi izohi, ma'lum shartli belgilari yordamida raqs harakatla-

<sup>1</sup> I. Akbarov. Muzika lug'ati. – T., 393-b.

rini yozish, deb ko'rsatilgan. «Xoreografiya» atamasi fransuz raqs o'qituvchisi R. Foye (1700-y) tomonidan kiritilgan.

Hozirgi kunda bu ikkala tushuncha ham, raqs sahnalashtirish (raqs sahnalashtiruvchi), raqs qo'yish (raqs qo'yuvchi) ma'nosida ishlatalib kelinmoqda.

Nasiba Abrayqulova o'zining «Raqs jamoalari bilan ishlash uslubiyoti» nomli kitobida bu san'at haqida shunday deb yozadi: «Xoreografiya» so'zi keng ma'noni o'z ichiga oladi. U grekcha so'zdan olingan bo'lib, «Raqsni yozaman» degan ma'noni bildiradi. Keyinchalik raqs san'atidagi hamma narsa shu so'z bilan atala boshlandi. Xoreografiya 3 bo'limdan iborat:

- xalq raqlari;
- professional raqs san'ati (buning ichiga klassik balet ham kiradi);
- zamonaviy raqs.

Raqs — bu san'at. Har bir san'at sohasi hayotimizni badiiy obraz orqali ifoda etishi kerak. Raqs san'ati — ijod ruhiyati, his-tuyg'ulari, fikrini so'zsiz, faqat harakatlar va yuz ifodasi bilan xalqqa yetka-zishga asoslangan san'at turidir.

Raqs — o'zingni kuyga, ohangga baxshida etib, sehrlar dunyosiga sho'ng'ib ketmoq; ko'ngildagi bor-yo'g'ingni ko'zlarga, harakat-larga joylab tomoshabinlarga hayrat ato etmoq; istaklarini bir dasta gul shaklida tomoshabin hayajonlari ustidan sochmoq, ularning ol-qishiga tuyassar bo'lmoq, deya ta'riflaydi.

Raqs san'atining mumtoz, lirik, qahramonlik, hazil-mutoyiba, folklor, mehnat va juda ko'p turdag'i raqlari mavjudki, unda zamonamizning yashash tarzini aniq, hamda ravshan ifodalab beradi.

O'zbek sahna raqs san'atining paydo bo'lishida, ravnaq topishi-da, gullab-yashnab, butun dunyoga ko'z-ko'z qilishiga o'z hissasini qo'shgan, raqs san'atimizning buyuk daholari bo'l mish Tamara-xonim, Usta Olim Komilov, Mukarrama Turg'unboeva, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Isoxor Oqilov, Roziya Karimova va ularning shogirdlarini eslab o'tish joizdir. Ular o'zbek xalq raqs san'atining haqiqiy jonkuyarlari va fidoyilar bo'lganlar. Ularning qilgan mashaqqatli mehnatlari o'zbek raqs san'atining bebafo boyligi hisoblanadi. Ushbu boylikni asrab-avaylash, kelajak avlodga yetkazish ishi baletmeysterlarning ixtiyoridadir.

O'zbek raqs san'atining meros raqlari majmuasiga kirgan «Mu-nojot», «Rohat», «Tanovar», «Pilla», «Paxta», «Katta o'yin» va boshqa raqlarning bifon-bir joyini o'zgartirishga hech kimning haqqi yo'q. Ushbu raqlarni buzmasdan, ortiqcha elementlar qo'shmasdan butunligicha o'rgatish kerak. Aks holda uslublar aralashib, uzbek milliy raqs san'atining ko'p qirrali boyligiga katta putur yetkazadi», deb yozadi<sup>1</sup>.

O'zbek raqsi XX asr davomida xalq orasida bayram va marosimlar bilan bog'liq holda an'anaviy shakkarda hamda zamonaviy sahna talablari asosida qayta ishlangan holda yashab keldi. Ular fanda «xalq raqsi» va «sahnaviy raqs» deb atalib kelinmoqda. (Ommaviy bayramlar rejissurasi bo'limida tahsil olayotgan talabalarga esa «Ommaviy bayramlarda raqs san'ati» fani o'tilmoqda). Sahnaviy raqs – ansambl bo'lib, uyushgan havaskor va professional raqqos va raqqosalalar tomonidan ijro etilib kelinadi. Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Isoxor Oqilov, Qunduz Mirkarimova va boshqa raqs ustalari tarbiyalab yetishtirgan raqqos va raqqosalarning faoliyati tufayli xalq merosi bo'lmish raqs san'ati rivojlanib, sayqallanib, professional tus olib bormoqda. Q. Mo'minov ham o'zbek milliy raqs san'atiga hissa qo'shgan mohir san'atkorlardandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 8-yanvarda chiqargan «O'zbekiston milliy raqs va xoreografiya san'atini rivojlan-tirish to'g'risida»gi farmoni va mazkur farmonni bajarish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining o'sha yil 21-fevralda qabul qilgan 101-sonli qarori ayni muddao bo'ldi. Shu asosda M. Turg'unboyeva nomidagi «O'zbekraqs» milliy raqs birlashmasi tashkil topdi, birlashma qoshida ijodiy jamoalarning moddiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida jamg'arma tuzildi. Xoreografiya bilim yurti negizida esa Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy raqs maktabi barpo etildi.

«O'zbekraqs» birlashmasi tarkibiga kirgan «Bahor», «Zarafshon», «Lazgi», «Tanovar», «Aykulash» (Qoraqalpog'iston) nomli katta ansamblar, «Sumalak» (Andijon), «Lola» (Buxoro), «Gulira'no» (Jizzax), «Momogul» (Qashqadaryo), «Navoiy navolari», «Naman-gan gullari», «Samarqand bahori», «Guldasta», «Shalola» (Surxon-

<sup>1</sup> N.Abrayqulova. «Raqs jamoalari bilan ishlash uslubiyoti» o'quv qo'llanma. – Toshkent, 2003, 6-bet

daryo), «Anor» (Toshkent viloyati), «Kamalak» (Farg'ona), «Xorazm navolari» ansamblari hozirgi kunda respublikamizda o'tkazilayotgan barcha bayram va tomoshalarning asosiy ijodiy kuchlaridan hisoblanib, bayramlarning ko'rkiga-ko'rк qo'shib kelmoqdalar.

### Texnologik xarita

Mavzu:	Bayram va tomoshalarda raqs san'atining o'rni
	<p><b>Maqsad:</b> Talabalarning raqs to'g'risidagi tushunchalarini kengaytirish, bayram va tomoshalarni tashkil etishda raqsning roli va tarbiyaviy ahamiyati, raqs tanlash asoslarini tushuntirish.</p>
<b>Maqsad va vazifalari</b>	<p><b>Vazifalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>— talabalarning raqs san'atiga nisbatan qiziqishlarini oshirish, ularda musiqiy, ritmik va xoreografik bilim va ko'nikmalarni shakkantirish va kengaytirish;</li> <li>— raqs sahnalashtirish va tanlashga oid tarqatilgan materiallarni talabalar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat-munozara va savol-javob orqali tarqatma materiallardagi vazifalar qaydara-jada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimini baholash.</li> </ul>
<b>O'quv jarayonining mazmuni</b>	Raqs san'ati haqida tushuncha. Raqs maktablari. Ommaviy bayram va tomoshalarda raqlar. Turli xalqlar raqlarini o'rganish, bayram va tomoshalarda qo'llash.
<b>O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi</b>	<p><b>Uslug:</b> Og'zaki bayon qilish va amaliy ijro.</p> <p><b>Shakl:</b> Savol-javob, amaliy mashg'ulot, kichik guruhlarda ish-lash.</p> <p><b>Vosita:</b> Axborot texnologiyalari, raqs tomosha qilish uchun texnik jihoz, doska, flomaster.</p> <p><b>Usul:</b> Videolavha ko'rish va raqs harakatlarini tahlil qilish.</p> <p><b>Nazorat:</b> Savol-javoblar, kuzatish, o'z-o'zini nazorat qilish.</p> <p><b>Baholash:</b> Rag'batlantirish, «5» balli tizim asosida baholash.</p>

	<p><b>O'qituvchi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– mavzuga oid xatti-harakatlar, raqs elementlari talabalar tomonidan qisqa vaqt ichida o'zlashtirilishiga erishadi;</li> <li>– talabalarning faolligini oshirib, darsga qiziqishlarini kuchaytiradi;</li> <li>– talabalarni mustaqil fikrlashga va raqs haqidagi tasavvur, tushunchalarini kengaytirishga o'rgatadi;</li> <li>– talabalar tomonidan mavzuni mustaqil o'rganishga erishiladi, bayram va tomoshalar uchun raqlarini tanlay olish qibiliyatini rivojlantiradi, turli xalqlar raqlarini farqlay olishga o'rgatadi.</li> </ul> <p><b>Kutiladigan natijalar</b></p> <p><b>Talabalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– raqlar haqida va ularni sahnalashtirish bo'yicha yangi materiallarni egallab, ma'lum bilim va ko'nikmaga ega bo'ladilar;</li> <li>– yakka holda va guruh bo'lib ishlashni o'rganadi;</li> <li>– mustaqil fikrlaydi;</li> <li>– raqs mifiktablari, turlarini bir-biridan farqlay oladi;</li> <li>– bayram va sahna asarlari uchun raqs tanlashni o'rganadi;</li> <li>– mavzuni to'liq o'zlashtirishga harakat qilinadi;</li> <li>– qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotlarga ega bo'лади;</li> <li>– savollarga bergan javobi bo'yicha baholanadi.</li> </ul>
Kelgusi rejalar	<p><b>O'qituvchi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– o'quv jarayonlari (mashg'ulotlari)ni to'g'ri tashkil etish va yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish, darsda tadbiq etish va takomillashtirish;</li> <li>– mavzularni qo'shimcha ma'lumotlar, yangiliklar bilan boyitish orqali uning qiziqariligi va ta'sirchanligini oshirish;</li> <li>– mavzuni amaliy mashg'ulotlar bilan bog'lash orqali nazariya va amaliy mashg'ulotlar uyg'unligiga erishish;</li> <li>– turli millatlar raqlarini tahlil qilish orqali ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatish;</li> <li>– pedagogik mahoratni oshirish.</li> </ul> <p><b>Talabalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– mavzuga mos xatti-harakatlar, raqs elementlarini mustaqil o'zlashtirishni o'rganadi;</li> <li>– mavzu asosida raqlarini tanlash va sahnalashtirish ko'nikmasiga ega bo'лади.</li> </ul>

### ***Takrorlash uchun savollar***

1. Zamonaviy bayram va tomoshalarda raqs san'atining o'rni va roli haqida gapirib bering.
2. «Anturaj» nima?
3. O'zbek raqs san'atining qaysi yo'nalishlarini bilasiz?
4. Yakka, just va ommaviy raqlarni qanday izohlaysiz, ularning qaysi birlari bilan ishslash murakkabroq?
5. O'zbekistonda ijod qilayotgan qaysi baletmeyster, raqqos va raqqosalarning ijodi bilan tanishsiz?
6. Hozirgi kunda faoliyat ko'rsatayotgan qaysi raqs guruhlari, dastalarini bilasiz?
7. «Raqs musiqasi» haqida gapirib bering.
8. «Chardash» qaysi xalqlarning raqsi hisoblanadi?
9. O'zbek va boshqa xalqlarning qaysi raqlari nomlarini bilasiz?

## BADIY FON

### Fon guruhlari bilan ishlash

Badiy fon ommaviy bayramlarning ajralmas qismi bo'lib, ta'sirchan vositalardan biri hisoblanadi. Badiy fon maydonda bo'layotgan voqealarni rejissorlik g'oyaviy talqini asosida ochib berishga yordam beradi. Har bir voqeani badiy jihatdan to'ldirib, ta'sirchanligini oshiradi.

Ommaviy bayram va tomoshalarda badiy fon 1948-yildan boshlab ishlatib kelinmoqda. Badiy fon yillar o'tishi bilan mukammallashib, badiy jihatdan takomillashmoqda. Badiy fon (jonli ekran) stadiionning asosiy tribunalarining qarama-qarshi tomonlariga joylashib, unda stadiionning kattaligidan kelib chiqib 500 dan to 7000 kishigacha qatnashishi mumkin.

Badiy foning o'z rejissori, o'z rassomi bo'ladi. Rejissor ssenariyidan kelib chiqib, har bir epizodga, blokka fonda tasvir yaratishi lozim. Bu tasvirlar rassom bilan ishlanib, har bir epizod uchun eskizlar yaratiladi. Fon qatnashchilari, fonda tasvir yaratish uchun qo'llarida 50x50 yoki 50x60 o'lchamdag'i ikki tomoniga tayoqcha o'rnatilgan turli rangdagi bayroqchalar ishlatadilar. Bundan tashqari ko'zgular, fonarlar ishlatilishi mumkin.

Rejissor qo'lida har bir epizod kartinasining raqamlangan eskizi bo'lib, shu eskit orqali fanni boshqaradi. Bundan tashqari har bir qatnashchining joyi raqamlangan bo'lib, har birining qo'liga karton qog'ozdan yasalgan raqamlangan kartochka beriladi. Rejissorning buyrug'i asosida qatnashchilar kartochkalarga asoslanib bayroqlarini ochadilar.

Fon kartinalarida oddiy panno uslubidan tashqari harakatlanuvchi (multiplikatsiya) kartina uslubi ham ishlatilishi mumkin. Bu borada sobiq ittifoq davrida rejissor A. Nemchik badiy fon rivojiga katta hissa qo'shgan. Masalan, 1980-yili Moskva Olimpiadasi, 1983-yili Toshkent shahrining 2000 yilligi, O'zbekistonning 60 yilligi bayramlarini misol keltirish mumkin.

Hozirgi kunda Respublikamizda o'tkazilayotgan bayramlarda badiy fon rejissurasi bo'yicha B. Pokrovskiy va J. Pokrovskiylar faoliyat

olib bormoqdalar. Respublikamizdagি Mustaqillik va Navro'z bayramlari, «Universiada», «Barkamol avlod», «Umid nihollari» kabi sport bayramlarini misol keltirish mumkin.

Fon guruhi maydonni to'ldirish hamda bo'layotgan voqeanning ta'sirchanligini, tomoshaviyligini oshirish uchun yordamchi ta'sirchan vosita hisoblanadi. Fon guruhi maydonning ikki tomonida korobka (quticha) yoki doira shaklida joylashadi. Ishtirokchilar bir xil kiyangan bo'lib, qo'llarida lentalar, gullar, bayroqchalar, soyabonlar, chambarak (обруч)lar va boshqa predmetlardan foydalanishi mumkin. Fon guruhi maydonda gorizontal, frontal, parallel va qarama-qarshi harakatlarni bajarishi mumkin. Bundan tashqari fon guruhidan sinxron, bir xil harakat qilish talab qilinadi.

Fon guruhi bilan ishslash esa o'ziga xos bo'lgan ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Fon guruhida ishtirok etish uchun albatta san'at sohasi bo'yicha ma'lumotga, maxsus malakaga ega bo'lish shart emas. Maktab o'quvchilari, talabalar bu ishni bermalol eplay oладilar. Rahbar o'zi harakatlarni to'liq o'zlashtirib olishi zarur. Fon guruhi rahbari tomoshabinga ko'rinxaymaydigan, lekin guruhi qatnashchilariga ko'rinxadigan joyga o'rnashib oladi va harakatlarni ko'rsatib turadi. Fon guruhidagilar esa buni takrorlaydilar. Unda harakatlar xoreografiya san'atidek murakkab emas, oddiy elementar harakatlardan iborat bo'ladi.

Fon guruhining asosiy vazifasi plastik harakatlar orqali tomoshalarning mazmunini, g'oyasini ochib berish, sahna va uning atrofini turli xatti-harakatlar bilan yanada boyitish, hamda tomoshaning ta'sirchanligini oshirishdir. Fon guruhida turli ifodaviy, tasviriy vositalardan foydalanish mumkin. Lentalar, bayroqchalar turli ranglardiagi matolar, turli ranglarga bo'yalgan planshetlar, sharlar, ko'zgular, fonarlar, rangli bosh kiyimlar shular jumlasidandir. Fon guruhini barcha tadbirdarda qo'llash ancha murakkab jarayondir, chunki fon guruhida juda ko'p ishtirokchilar qatnashadilar. Ularni tashkil etish esa iqtisidiy, moliyaviy va tashkiliy masalalarga borib taqaladi.

1983-yil Toshkentning 2000 yilligida ishlatilgan badiiy fon rejissor B. Sayfullayevning ijodiga katta ta'sir ko'rsatdi. Usha tomoshaning badiiy fon bo'yicha rejissori Nemchikning mahorati, ustaligi tadbirdining badiiy ta'sirchanligini oshirishga katta hissa qo'shgan edi.

Badiiy fonni yaratishda rassomning o'rni nihoyatda katta. Rassomning tasvirlarni to'g'ri tanlab, fonnинг imkoniyatlarini aniq bahlolay olishidan badiiy foning ta'sirchan vosita sifatidagi taqdiri hal bo'ladi. Bu jarayonda rassom rejissor bilan uzviy hamkorlikda ish olib boradi. Ish boshida ular ssenariydan kelib chiqib, fonda ishlatalishi lozim bo'lgan tasvirlarning soni, shiorlar, plakatlar, harakatlanuvchi tasvirlarni aniqlab oladilar. Ana shu masalalar hal bo'lishi bilan rassom amaliy ishni boshlaydi.

Badiiy fonda tasvirlar asosan mozaika (fr. mosaigue — rangli toshlardan, keramik plitkalardan yaratilgan turli tasvirlar<sup>1</sup>) uslubi yordamida yaratiladi. Badiiy fonda mozaik tasvirni yaratish uchun quyidagilar bo'lishi shart:

- tasvirni yaratish uchun kerakli predmet;
- har bir ishtirokchi uchun harakat dasturi;
- fonni boshqarish sistemasi<sup>2</sup>.

Badiiy fon rejissori tomosha jarayonida xuddi orkestr dirijoriga o'xshaydi. U dirijor singari tomosha davomida o'z pulti yonidan ketmay fon qatnashchilarini diqqat bilan kuzatib, uni boshqarib bo'ladi. Agar dirijor doimo orkestr yonida bo'lsa, fon rejissori qatnashchilaridan uzoqda bo'ladi.

Tomosha davomida qatnashchilar rejissor tomonidan qanday eng kerakli ma'lumotlarni olishlari kerakligini aniqlab olishimiz lozim:

- ular navbatdagi harakatni bajarish uchun rejissor tomonidan o'z vaqtida ogohlantiriladilar;
- kerakli tasvirni namoyish etish va uni bajarish bo'yicha ma'lumot olish;
- tasvirni ochish bo'yicha buyruq olish;
- rejissor g'oyasidan kelib chiqqan holda tasvirni namoyish etishdagi kerakli uslublarni ishlatalish haqida ma'lumot;
- tasvirni yopish haqidagi buyruq.

O'quv mashg'ulot repetitsiyalari jarayonida rejissor mikronlon orqali fon qatnashchilarini asta-sekin signallar orqali kerakli ma'lumotni qabul qilib, ishlashga o'rgatadi.

<sup>1</sup> С Э словарь. — М., 1990. / Гл.ред. А.М. Прохоров.

<sup>2</sup> F.Ahmedov. Ommaviy bayram va tomoshalar rejissurasi va aktyorlik mahorati. — Т., 2007.

Anturaj deb, sahnada bo'layotgan asosiy voqealar qo'shimcha raqs xatti-harakatlari bilan to'ldirilib borilishiga aytildi. Anturaj ham xuddi fon guruhi xatti-harakatlari singari effektli tomoshaviylikka erishishda katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, B. Sayfulayev tomonidan Jizzax tumanida sahnalashtirilgan «Mustaqillik bayrami»ning «Buyuk Ipak yo'li» blokida 500 tadan ortiq talabalar qo'llarida alanga bilan Buyuk ipak yo'lini ramziy yoritib turganlar, fon guruhi esa ular o'tayotgan davlatlarni tasvirlaganlar. Asosiy sahnada esa ular qaysi davlatdan o'tsalar, shu xalqlar raqslari va kuylari ijro etilgan, natijada tomoshabin ko'z oldida «Buyuk Ipak yo'li» manzarasi shunday yorqin namoyon bo'lganki, tomoshabinni kuchli taassurot olishiga sabab bo'la oldi.

Xullas, bayram va tomoshalarda fon guruhi va badiiy fondan foy-dalanish tadbirning effektli tomoshaviyligini, badiiy ta'sirchanligini oshiradi va tomoshadagi mavzuning naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

### *Takrorlash uchun savollar*

1. Badiiy fon nima?
2. «Fon guruhi» bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari nima-lardan iborat?
3. «Badiiy fon»ning yorqin namoyishiga misollar keltiring.

## BAYRAM VA TOMOSHALARDA TEATRLASHTIRISH

O'zbekistonda bayram va tomoshalarni tashkil qilish borasida uncha muvaffaqiyatlarga erishilgan bo'lsa-da, hali bu borada o'z yechimini kutayotgan muammolar yo'q emas.

Bayramlarni tashkil etishda siyqasi chiqqan oddiy usullar o'rniغا yangi original usullar topish va qo'llash har bir rejissor oldida turgan ulkan vazifalardandir. Hozirgi kunda u xoh konserт bo'lsin, xoh biror sanaga bag'ishlangan tadbir bo'lsin teatrlashtirish uslubiyotiga murojaat qiladilar.

Xo'sh, teatrlashtirish o'zi nima?

Bu avvalo, aniq maqsadga qaratilgan, badiiy-obrazli tashkil etilgan, teatr qonuniyatlari asosida dramaturgiya talablariga javob bera oladigan usuldir. «Teatrlashgan tadbirlarning alohida qismlari» mexanik tarzda birlashmaydi, balki organik tarzda sintezlashadi. Bu qismlar nafaqat tadbir mavzusi va g'oyasi asosida, balki kompozitsion tuzilishi jihatidan ham birlashadi», — deb yozadi Usmon Qoraboyev o'zining «Badiiy-ommaviy tadbirlar» kitobida.

Teatrlashtirilgan tadbirda eng avvalo, yagona g'oyaviy-badiiy sujet va kompozitsion tuzilish bo'lishi kerak. Teatrlashtirilgan tomoshalarda kompozitsion sujet: prolog, asosiy voqeа, qarama-qarshilik, voqealar rivoji, kulminatsiya va final komponentlaridan tashkil topishi lozim.

Teatrlashtirilgan tomosha teatr va dramaturgiya qonunlari asosida tuzilgan badiiy obrazli kompozitsiyaga ega bo'lgan madaniy-ommaviy tadbirlardir<sup>1</sup>.

Teatrlashtirish real voqelikni badiiy jihatdan ifodalanishi hamdir. Hayotiy materialni teatrlashtirish tarbiyaviy vosita nuqtayi nazaridan ham qaraladi, chunki u tomoshabinning axborotni qabul qilish shart-sharoitlarini faollashtiradi va uning shu' tomoshaga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytiradi.

Yana bir narsani hisobga olish kerakki, teatrlashtirish usullarini barcha tadbir yoki tomoshaga zo'rma-zo'raki tiqishtirish mumkin emas. Teatrlashtirish — mexanik ravishda majburan kiritilgan parcha, bo'lak yoki kompozitsianing bir bo'lagi (masalan, prolog

<sup>1</sup> U. Qoraboyev. Badiiy-ommaviy tadbirlar. — T., O'qituvchi, 1986. 159-b.

yoki kulminatsiya) sifatida emas, balki butun voqea, sujet, tomosha mobaynida tomoshabinni tarbiyalovchi, to'g'ri yo'lga boshlovchi, tadbir yoki tomoshaning asl mohiyatini, mag'zini chaqib olishga yordam beruvchi vosita vazifasini bajarmog'i lozim.

Teatrlashtirishda montaj katta rol o'ynaydi. Montaj nima?

Montaj haqida J. Dushamov, F. Ahmedov, A. Silin va boshqa rejissorlarning darslik va o'quv qo'llanmalarida to'liq ma'lumot berilganligi bois bu haqda qisqaroq to'xtalishga harakat qilamiz.

Montaj ommaviy bayram va tomoshalar rejissurasining o'ziga xos ijodiy uslublaridan biri bo'lib, sahnalashtiruvchi rejissorning asosiy ish uslublaridan hisoblanadi va u eng mas'uliyat talab qiladigan jayayondir. Chunki montaj paytida sahnalashtiruvchi rejissorning sahnalashtirishda foydalani layotgan manbalarning, ya'ni kuy, qo'shiq, she'r, matn va boshqalar bilan uyg'unligi, mavzuga mosligi, eng asosiysi, bir maqsadga qaratilganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bir epizodni ikkinchi epizod yoki bir nomerni ikkinchi nomer bilan, bir blokni ikkinchi blok bilan mantiqiy, g'oyaviy jihatdan bir-biriga bog'lanib to'ldirilish uslubiga montaj uslubi<sup>1</sup> deb ataladi. Montaj rejissorning g'oyasi, tomoshaning kompozitsion tuzilishini yaxlitligini ta'minlovchi usullardandir. San'atning turli janrlarini bir g'oya asosida birlashtirib, uning sintetik tomosha shakliga kelishida, tomoshaning tomoshaviyligini oshirishda montaj uslubi katta rol o'ynaydi.

Montaj uslubi bir qancha turlarga bo'linadi:

Ketma-ketlik montaji. Bunda barcha nomerlar mantiqiy ravishda ketma-ket quriladi.

Parallellik montaji bir vaqtning o'zida bir qancha sahnaviy kenglikda voqealarning rivojlanib, bir-birini boyitib, to'ldirilishidir.

Portlash (assotsiativ) montaji bu ikki voqeanning bir-biri bilan to'qnashib yangi sifat, yangi obrazni vujudga kelishiga aytildi.

Bir teatrlashtirilgan tomoshaning o'zida montaj uslubining bir qancha yoki barcha turlari ishlatalishi mumkin. Bundan tashqari, montaj uslubining jonli, texnik, ochiq va yopiq turlari mavjud. Ayniqsa, texnik montaj uslubi kino, televideniya, radio rejissurasida

<sup>1</sup> F. Ahmedov. Ommaviy bayram va tomoshalar rejissurasi va aktyorlik mahorati. — T., 2007.

bevosita ishlataladi. Ommaviy bayramlar yoki tomoshalar ustida ishslash jarayonida aynan shu tadbir yoki tomosha uchun yangi alohida nomer tayyorlash imkoniyati kam bo'lgani uchun rejissor asosan professional aktyorlar yoki havaskorlik jamoalarining tayyor nomerlaridan foydalanadi. Bunda ommaviy bayram va tomoshalar rejissorlaridan katta fantaziya, topqirlik, uddaburonlik va tashkilot-chilik kabi qobiliyatlar talab qilinadi.

Rejissor Baxtiyor Sayfullayev montaj qilish masalalarida juda tablchan rejissorlardandir. U sahnalashtirgan bayram va tomoshalarida yagona sujet, voqeа asosida, aniq kompozitsion tuzilishga ega bo'lgan holatda montaj «qaychilaridan» foydalanadi. Agar montaj yagona mazmun liniyasi asosida qilinmasa, uzuq-yuluq, pala-partish holda qilinsa, tomoshabinning asabiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Montajni xuddi uzum daraxtini xomtok qilishga o'xshatish mumkin. Bilmagan odam meva beradigan shoxini kesib qo'yishi yoki kerakli shox va barglarini qirqib qo'yib uzumni nobud qilishi mumkin. Xuddi shuningdek, tadbir va tomoshalarda ham montaj paytida – meva beradigan, ya'ni tomoshabin uchun qiziqarli va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan, ma'naviy ozuqa beradigan qismini qoldirib, boshqa qismlarini qisqartirgan holda montaj qilish mumkin.

Har qanday bayram va tomoshalarda montaj varaqasi bo'lishi shart. Montaj varaqasi – tadbir paytida rejissorning asosiy «shpar-galkasi» hisoblanadi. U rejissorning yordamchi hujjatlaridan biridir. Montaj varaqasida ssenariy rejasidan o'laroq – ijro etiladigan asar nomi, ularning ketma-ketligi, vaqt, xuddi shu paytda boshqa bloklarning vazifalari, shu bloklarga javobgar shaxslar, shu paytdagi chalinadigan, ijro etiladigan yoki fondagi musiqaning nomi, chiroqlar, ranglar nomlari va boshqa vazifalar aniq ko'rsatiladi. Uning qulay tomoni shundaki, rejissorning qo'lidagi qog'ozda barcha xatti-harakatlar kaftdek aks ettirilgan bo'ladi va bunda nazorat qilish oson bo'ladi.

БАХТИЙОР САЙФУЛАЕВ

Teatrlashtirilgan bayram va tomoshalar – alohida olingan nomerlar yoki publisistik chiqishlar, kinofragmentlar, diapozitiv yoki fonogrammalar emas, balki badiiy jihatdan uyushtirilgan, pedagogik nuqtayi nazardan dasturlashtirilgan xatti-harakatlar yig'indisining namoyish etilishidir.

Teatrlashtirish usulida tomoshabinning bayram ishtirokchisiga aylantirilishi xususiyati ham hisobga olinishi kerak.

Bayamlar jamiyat madaniy-ma'naviy hayotining tirik organizmidir. Bayamlarga insonlarning shaxsiy ehtiyojlarini qondirish vositasi si-fatida ham qaralishi maqsadga muvofiqdir. Chunki bayramlarda dam olish shakllarining eng samarali elementlari mujassamlashadi<sup>1</sup>.

### Texnologik xarita

Mavzu:	Bayram va tomoshalarini teatrlashtirish
<b>Maqsad va vazifalar</b>	<b>Maqsad:</b> Talabalarning teatrlashtirish to'g'risidagi tushunchalari ni kengaytirish, bayram va tomoshalarni tashkil etishda teatrlashtirishning roli va ahamiyati, teatrlashtirish asoslarini tushuntirish. <b>Vazifalar:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>— talabalarning mavzuga nisbatan qiziqishini uyg'otish, ularda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va kengaytirish;</li> <li>— teatrlashtirishga oid tarqatilgan materiallarni talabalar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat-munozara, savol-javob orqali tarqatma materiallardagi vazifalar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimini baholash.</li> </ul>
<b>O'quv jarayonining mazmuni</b>	Teatrlashtirish haqida tushuncha. Teatrlashtirishning o'ziga xosligi. Teatrlashtirilgan konsertlar. Montaj.
<b>O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi</b>	<b>Uslug:</b> Og'zaki bayon qilish va «Ssenariy» texnologiyasi. <b>Shakl:</b> Savol-javob, amaliy mashg'ulot, kichik guruhlarda ishlash. <b>Vosita:</b> Axborot texnologiyalari, tarqatma material, doska, fomaster. <b>Usul:</b> Videolavha ko'rish va raqs harakatlarini tahlil qilish. <b>Nazorat:</b> Savol-javoblar, kuzatish, o'z-o'zini nazorat qilish. <b>Baholash:</b> Rag'batlantirish, «5» balli tizim asosida baholash.

<sup>1</sup> U. Qoraboyev. Badiiy ommaviy tadbirlar. «O'qituvchi» nashriyoti, 1986 y, 176-bet.

Kutiladigan natijalar	<p><b>O'qituvchi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– talabalarning faolligini oshirib, darsga qiziqishlarini kuchaytiradi;</li> <li>– mavzuni talabalar tomonidan qisqa vaqt ichida o'zlashtirishga erishadi; talabalarни mustaqil fikrlashga, teatrlashtirish to'g'risidagi tushunchalarini kengaytirishga o'rgatadi.</li> </ul> <p><b>Talabalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– teatrlashtirish bo'yicha yangi materiallarni egallab, ma'lum bilim va ko'nikmaga ega bo'ladilar;</li> <li>– yakka holda va guruh bo'lib ishlashni o'rganadi;</li> <li>– mustaqil fikrlaydi;</li> <li>– mavzuni to'liq o'zlashtirishga harakat qilinadi;</li> <li>– qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotlarga ega bo'ladii;</li> <li>– savollarga bergen javobi bo'yicha baholanadi.</li> </ul>
Kelgusi rejalar	<p><b>O'qituvchi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– o'quv jarayonlarini (mashg'ulotlarini) to'g'ri tashkil etish va yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish, darsda tadbiq etish va takomillashtirish;</li> <li>– mavzularni qo'shimcha ma'lumotlar, yangiliklar bilan boyitish orqali uning qiziqarriligi va ta'sirchanligini oshirish;</li> <li>– mavzuni amaliy mashg'ulotlar bilan bog'lash orqali nazariya va amaliy mashg'ulotlar uyg'unligiga erishish;</li> <li>– teatrlashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatish;</li> <li>– pedagogik mahoratni oshirish.</li> </ul> <p><b>Talabalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– mavzuga mos xatti-harakatlarni (ya'ni, materialni tez o'zlashtirish, teatr usullaridan keng foydalanish, tadbirlarda qo'llashni o'rganadi;</li> <li>– mavzu asosida teatrlashtirish usullarini qo'llash ko'nikmasiga ega bo'ladii.</li> </ul>

### *Takrorlash uchun savollar*

1. Teatrlashtirish deganda nimani tushunasiz?
2. «Teatrlashtirilgan tomosha», «Teatrlashtirilgan konsert», «Teatrlashtirilgan ommaviy bayram» tushunchalarini bir-biridan farqlab bering.
3. I.M. Tumanovning teatrlashtirish borasidagi ishlari haqida gapirib bering.
4. Teatrlashtirish bo'yicha yana qanday adabiyotlar bilan tanishsiz?
5. Teatrlashtirish uslubiga oid ssenariy (yoki ssenariy rejasi) tuzing va rejissorlik tahlilini qilib bering.

## TEXNIK VOSITALARDAN FOYDALANISH

XXI asr taraqqiyot jihatidan barcha sohalarni o'zida keng qamrab oldi. Shu bois bu asrni texnika taraqqiyoti davri deb ham atamoqdalar. Bu soha har birimizning xonadonimizga kirib borib, o'ziga «bo'ysundirishga» harakat qilmoqda. Birorta xonadon yo'q-ki uning uyida televizor, radio, DVD, telefon, kompyuter yoki boshqa texnik jihoz bo'lmasa ...

Bo'ysundirishni qay ma'noda tushunish mumkin?

Agar biz o'rganishga faqat texnikadan foydalangan holda yondashsak, biz «erinchoqlik» kasaliga mubtalo bo'lishimiz mumkin. Masalan, farzandingiz matematika darsi misollarini kalkulator yoki telefondagi moslama bilan yechsa, manba izlash (kitob o'qish) o'rniga «internetdan» faqat kerakli ma'lumotni olish bilan cheklansa, qo'shiqni yurakdan (jonli) kuylash o'rniga turli programmalar asosida ovozini «yaratsa» va hokazo.

Ammo buning afzalliklari «bo'ysunishimizga» qaraganda ko'proqdir. Hozirgi kunimizni texnikaning faol ishtirokisiz tasavvur qilish mumkin ham emas. Bayramlarda esa uning ahamiyati ming barobarga oshadi.

Sahnani bezash, turli effektli tomoshaviylikka erishish, ovoz, musiqa, tovushlarni yetkazish, fonogramma yozish, minidisk, kompyuter, turli holatlarda tasvirga olish uchun qo'llaniladigan televizion vositalar, kerakli effektlarni beradigan chiroqlar, piro-texnik vositalarni qo'llash va boshqalar hozirgi kunda bayramlarda ijodiy jarayon bilan bir qatorda ketayotganligini aytib o'tishimiz lozim. Ijod va texnik jarayonlarni bir-biridan ajratgan holda qo'llash mumkin emas, aksincha ularning uyg'unligiga erishishga harakat qilishimiz lozimdir.

Texnik vositalardan foydalanish bayramlarni tashkil etishning birinchi kunlaridan oq boshlanadi. Ssenariyni yaratishda musiqa, raqs, umuman (oddiy magnitofon, yoki minidisk, yoki DVDlardan foydalaniłgan holda) manbalar tanlash uchun kerak bo'ladi. Tanlangan material ustida ishlash uchun ham texnik moslamalardan foydalaniładi (masalan, tanlangan raqs nomerlarini tayyorlashda

magnitofon yoki DVD va h.k.). Hozirgi kunda bu vazifalarni birgina kompyuter bilan bajarish mumkin.

Texnik moslamalarning vazifasini faqatgina magnitofon, DVD yoki minidisklarda yozilgan san'at asarlarini qo'yishdangina emas, balki ovozni keng tinglovchilarga yetkazishda, turli effektlarni yaratishda, bayram yoki tomoshalar o'tadigan joylarni bezashda, sahnaning ranglar jilosini yaratishda va hokazolarda kuzatish mumkin.

Ommaviy tadbirlar va tomoshalarda quyidagi texnik vositalardan foydalanilib kelingan:

- 1) magnitofon (hozirgi kunda deyarli ishlatilmaydi);
- 2) minidisk;
- 3) DVD, VSD;
- 4) ovoz kuchaytirgichlar;
- 5) exo, reverbirator, xoll;
- 6) ekvalayzer;
- 7) miksher pulti;
- 8) mikrofonlar;
- 9) chiroqlar;
- 10) pirotexnik moslamalar;
- 11) turli ekranlar.

Bayramlarni tashkil etishda ssenariy yaratish jarayonidan keyingi bosqich musiqiy materiallarni tanlashdir. Ko'pgina holatlar da musiqiy asarlar mavjudligi ta'minlangandan keyingina ssenariy yozishga o'tiriladi. Musiqiy material tayyor bo'lgandan keyin esa unga mos raqslar, ommaviy chiqishlarning harakat tizimlari ishlaniadi.

Yangi musiqa asarini yaratishda ovoz yozish studiyalarining roli katta. Bir narsani aytib o'tish joizki, ovoz yozish masalalari hamma joylarda ham osongina hal bo'ladigan ish emas.

Hozirgi kunda Madaniyat va sport vazirligi tizimidagi ko'pgina muassasalarda ovoz yozish studiyalarining mavjudligi va ular sifatlari mijomlar bilan jihozlangani quvонchli holdir.

Jumladan O'zMTRKning radio uyida, «O'zbekfilm» kinostudiysi qoshida ovoz yozish studiyasi, «Taroba rekords», «YAPPI films» kabi studiyalarda malakali mutaxassislar faoliyat yuritib, turli janr-

dagi yangi asarlarning maydonga kelishi va uni saqlanib qolishiga hissa qo'shib kelmoqdalar. Zokirjon Atabayev, Ravshan Nugmanov, Игорь Иосис, Александр Селютин kabi mohir ovoz rejisserlari bu sohani rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shmaqdalar. O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ham yuqori darajada jihozlangan ovoz studiyasi mavjud bo'lib, talabalarga ovoz yozishning sir-asrорlari о'rgatilib kelinmoqda.

Ovoz yozish ham o'zining ma'lum tarixiga ega. B. Mannonov o'zining «Madaniy-ma'rifiy muassasalarda texnik vositalardan foydalanish» deb nomlangan o'quv qo'llanmasida aynan ana shu masalalarni yoritishga harakat qilgan.

«Ingliz fizigi Tomas Yung birinchi bo'lib (1807-y) ovozni yozib olishga muvaffaq bo'ldi. U Kamertonning ovoz tebranishlarini barabanga o'ralgan is bosgan qog'ozga o'rav yozgan. Fransuz kashfiyotchisi Leon Skott 1857-yilda ovoz yozib oluvchi apparat-fonoavtozafiyani yaratdi. Yung va Skott yaratgan apparatlarda ovoz yozib olinardi-yu, lekin qayta eshittirib bo'lmasdi.

Fransuz Sharl Kro (1842–1888-y) birinchi bo'lib ovozni yumshoq materialdan qilingan diskka ariqchalar tarzida yozib olish va qayta eshittirishni taklif qildi. Qayta eshittirishda membrana bilan bog'langan igna ariqchada harakatlanishi va tebranishlar membranaga uzatilishi u esa havoni tebratib, rupor orqali atrofga tarqalishi kerak edi. Lekin Sharl Kro amalda bunday apparatni yarata olmadi.

Mashhur Amerika elektrotexnika kashfiyotchisi T.A. Edison birinchi bo'lib (1877-y) ovozni yozib oldi va qayta eshittirdi. U fonografni ixtiro qildi. Unda ovoz mum valikka yozilar edi. Ovozni qayta eshittirishda fonograf ignasi aylanib turgan ariqchalarda harakatlanib, membrana va rupor yordamida ovozni qayta eshitiradi. Ovozni yozib olishning bunday usuli mexanikaviy usul deyiladi. Fonografning asosiy kamchiligi yozgan ovoz nusxasini olish mumkin emasligidir.

Vaqti kelib fonograf o'rnnini grammonfon egalladi. Uni E. Berliner taklif qilgan. U o'z apparatini Filodelfiya universitetida 1888-yilda namoyish qilgan. Bu apparatda ovoz diskka ko'ndalangiga yozilgan. Bu usul hozirgi grammofonda ham qo'llaniladi.

Taxminan, 1907-yilda balandroq ovoz chiqaradigan oksetofon deb ataladigan takomillashgan grammonfon yaratildi. Bu apparat ma'ruzalar paytida diapozitivlarni namoyish qilish va gramplastinkalarni qo'yishga imkon berdi.

Ovozni mexanik yozib olish usulining rivojlanishi va takomillashishi bilan ko'p olimlar ovozni boshqa usullarda yozishni taklif qilishdi. Rus fizigi A.G. Stoletov 1888-yil jahonda birinchi fotoelementni yaratdi, 1900-yilda esa I.L. Polyakov fotoelementdan foydalanib fotografik fonogrammadan ovozni qayta eshittirishni taklif qildi. 1929-yilda professorlar T.G. Tager va A.F. Shorinlar ovozni kinoplyonkaga olishning yangi optikaviy usullarini ishlab chiqishdi. Bu usullar ovozli kino yaratish va rivojlantirishga asos bo'ldi.

Daniya fizigi V. Paulsen birinchi bo'lib (1898) ovozni po'lat simga magnit usulida yozishni taklif qildi. Demak:

1) mexanikaviy usul – grammonfon plastinkalar ishlab chiqarish uchun;

2) optikaviy (fonografik) usul –faqt ovozli kinoda qo'llaniladi;

3) magnit usul – radioeshittirish, ovozli kino, o'quv-ilmiy tadqiqot ishlari, kundalik turmush (havaskorlarning ovozini yozib olish) va hokazolarda qo'llaniladi»<sup>1</sup>.

B. Mannonov tomonidan ushbu qo'llanma yaqin yillar ichida (2002-yilda) nashrdan chiqqan bo'lsa ham ozgina vaqt o'tishiga qaramasdan, ushbu sohani judayam tez taraqqiy etayotganligini payqashimiz mumkin. Chunki yuqorida qayd etilayotgan usullar hozirgi kunda deyarli qo'llanmayotganini aytib o'tish lozim (masalan, grammonfonlar, plastinkalarni hozirgi kunda hech kim ishlatmasa kerak). Bularning barchasining o'rnini bittagina telefon orqali ham hal qilish mumkin. Telefonda rasmga olish, ovoz yozish, videotasvirga tushirish va boshqa bir qancha operatsiyalarni amalga oshirish mumkin.

Professional studiyalarda ham hozirgi kun talablariga javob beradigan moslamalardan unumli foydalanib kelinmoqda. Turli lazer apparatlari, disk, flejkalar, yuqori darajada sezgir mikrofonlar, chi-

<sup>1</sup> B. Mannonov. «Madaniy-ma'rifiy muassasalarda texnik vositalardan foydalanish», 103-bet.

roqlar va boshqa texnik moslamalardan bugungi kunda xohlagan effektni yarata olish imkoniga ega bo'lishimiz mumkin.

Bayramlar misolida mikrofonlarni olaylik. Avvallari shnurli (simli) mikrofonlar ishlatalar edi. Bunday mikrofonlar xonanda-larning turli xatti-harakatlarni bajarishiga ozmi-ko'pmi xalaqit berardi. Keyinchalik masofadan boshqariladigan simsiz (distansion) mikrofonlardan foydalanish an'anaga aylandi. Bu turli harakatlarni bajarish imkonini berib, ijrochiga ancha qulayliklar yaratdi.

Hozirda esa ijrochilarning imkoniyatlarini yanada kengaytirish, qo'llarini band qilmaslik, erkin harakat qilish maqsadida boshga taqiladigan moslamalarga o'rnatilgan mikrofonlar o'zining o'ta sez-girligi va qulayligi bilan ajralib turadi. Uning yana bitta qulay tomoni shundaki u tomoshabinga deyarli ko'rinxaydi.

Rejissor ovoz yozish jarayonidan ham xabardor bo'lishi lozim. Bunda sahnalashtiruvchi rejissor ovoz rejissori hamkorligida turli shovqin, musiqa va effektlarni yaratishi mumkin. Masalan, uzoq-dan kelayotgan qadam tovushining tobora yaqinlashgani sari qadam tovushining balandlashishi va uzoqlashgan sari tovushning pasayishi kabi mezonlar nazarda tutiladi.

Ovoz yozish studiyasi uchun ikkiga bo'lingan xona kerak bo'ladi. Unda ijrochi va ovoz rejissori bir-birlarini ko'rib turishlari va komandalarni bajarishlari lozim bo'ladi. Xonani ikkiga bo'linishining sababi esa ovoz yozish (запись) paytida turli shovqinlarni qo'shilib ketmaslik va sof, toza effektga erishish uchun qilingandir.

Ovoz yozib olish studiyalarining yo'lga qo'yilishi rejissorlarning ishlarini osonlashtiradi. Ovoz yozish uchun quyidagi moslamalar kerak bo'ladi:

1. Pult (miksher pulti, minipult va h.k.). Pultlarning ham bir qancha turlari mavjud. Ularning asosiy vazifasi ovozni, tovushlar ni boshqarish va sozlashdan iborat. Unda ovoz kuchaytirgichlar, exo, reverbirator, xoll, turli tembrlar, musiqa asboblarining ovozlari boshqarilib boriladi.

2. Ovoz kuchaytirgich (усилитель) – ovozni balandlatishga xizmat qiladi. Uning ham turlari ko'p bo'lib, unga pult va kolonkalar ulanadi.

3. Rever, exo, xoll – ovozning tarkibini o‘zgartiradi, unga turli effektlarni beradi. U ham pult orqali boshqariladi. Masalan, tog‘dan kelayotgan sado yoki quduqdagi odam ovozi va h.k.

4. Kolonkalar (dinamiklar maxsus mo‘ljallangan yashiklarga o‘rnatiladi) – ovozni yetkazib berishga xizmat qiladi. Ularning ham turlari ko‘p bo‘lib, asosiy vazifalardan birini bajaradi. Kolonkalar ovoz yozish studiyalari uchun maxsus tanlanishi kerak. Chunki yozilgan fonogramma yoki matn boshqa apparatga qo‘yilganda ham studiyada yozilganday chiqishi lozim. Ba’zan studiyadagi kolonkalariga moslab yozilgan tovushlar boshqa apparatlarda «aldashi» mumkin.

5. Monitor – ovozni eshitish uchun ishlataladi.

6. Mikrofonlar – ovozni qabul qilib olishga xizmat qiladi. Ularning ham turlari ko‘p bo‘lib (ulardan foydalanishning o‘ziga xosliklari haqida yuqorida aytib o‘tdik), turlicha nomlanadi.

7. Naushnik – qulqqoqta qabiladigan eshitish apparati bo‘lib, unda asosan ovoz rejissori ishlaydi.

8. Minidisk ham pultga ulanib, tayyor yozilgan ovozni «o‘qiydi». Minidiskning ham imkoniyatlari ko‘p. Birinchidan, ixchamgina kasseta (disk)ga bir nechta asar sig‘adi. Ikkinchidan, ovoz tonini ko‘tarish va pasaytirish mumkin. Uchinchidan, ovozni yozib olish imkoniyatlari bor. To‘rtinchidan, minidiskning o‘zida bemalol montaj ishlarini amalga oshirish mumkin.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan jihozlarning o‘rnini birgina kompyuter ham bajarishi mumkin.

Avvallari ovoz yozish o‘z vaqtida juda katta qiyinchiliklar evaziga hal qilingan. Ammo hozirgi kunda kompyuterlarga turli programmalarni o‘rnatish orqali oddiy sharoitda ham «ministudiyalar» sifatida foydalanib kelinmoqda. Kompyuterga maxsus programmlar kiritilib, (masalan, nuendo, cubase, protools va h.k.), ularga qo‘srimcha qurilmalar (masalan, tovush kartasi) o‘rnatish orqali turli effektli ovoz yozish imkoniyatlari yaratilmoqda.

Keng maydonda o‘tayotgan bayram yoki tomoshani biron-bir texnik moslamalarsiz tasavvur qilish ham mumkin emas. Rejissorlik bo‘limida tahsil olayotgan talabalar albatta texnik moslamalardan foydalanishni bilishlari shart. Masalan, uning o‘zi ovoz kuchaytir-

gich apparatini qo'yishni bilmasa ham, uni sozlash va boshqarishni imkon darajada bilishi kerak bo'ladi.

Rejissorlikni o'rganish mobaynida biz ko'p hollarda texnik moslamalarga murojaat qilamiz. Masalan, oddiy etud yaratish jarayonida ham shovqinlar asosida minispektakl yaratish mumkin. Bunga misol qilib, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat ibstitutining rejissorlik bo'limi birinchi kurs talabalari tomonidan tayyorlangan bir nechta etudlarni misol tariqasida keltirish mumkin. Unda tanlangan shovqinlar aktyorga «partner» sifatida yondashadi. Aktyorlik mahorati elementini o'zlashtirayotgan talabalar berilayotgan turli effekt, shovqinlarga mos xatti-harakat qiladilar, unga nisbatan munosabatlarini bildiradilar, tanlangan musiqalar esa o'sha etudlardagi voqeaga nisbatan ta'sirchanligini oshiradi.

### ***Takrorlash uchun savollar***

1. Texnik vositalarda ifodalilik xususiyatlari qanday namoyon bo'ladi?
2. Ommaviy bayramlarda qanday texnika vositalaridan foydaliladi?
3. Texnika vositalarining qaysi turlaridan foydalana olasiz?

## ZAMONAVIY BAYRAMLARDA LIBOSLAR

Har qanday bayram va tomosha ishtirokchilarini kiyintirish masalalari ham ijodiy, ham tashkiliy qobiliyatni namoyon etishni taqozo qiladi.

Ijodiy nuqtayi nazardan olib qaraydigan bo'lsak, alohida olin-gan qahramonlar va ommaviy sahnalarda ishtirok etuvchilar ajratib olingach, davri, mavzusi, tadbir g'oyasiga mos va kompleks ravishda kiyintirishda rejissor, rassom va kostumerdan ana shu davr shart-sharoitlari, kiyim-kechaklari, qurol-aslahalari va mayda detallariga-cha alohida e'tibor berishi nazarda tutiladi.

Bu faoliyatning tashkiliy jihatni esa rejissor, rassom va liboschi hamkorligida obrazlar uchun liboslarni tanlash, tayyorlash, tikish, bezash jarayonlaridir. Bu ikkala jarayon ham bir-biri bilan bevosita bog'liq. Rang va matolar tanlash, qahramonni bo'rttirish, omma-viy kiyintirishda obrazlar talqini masalalarini hal etishda rejissor va rassom chinakam ter to'kib mehnat qilishlariga to'g'ri keladi. Chunki, bu juda jiddiy jarayon hisoblanib, o'sha davr, joy va millat tarixi, urf-odat va an'analarini astoydil o'rganishga to'g'ri keladi.

Ikkala (ijodiy va tashkiliy) jarayonda ham rejissor nazoratni o'z qo'liga oladi.

San'atshunos olim D. Qodirova libos san'ati haqida quyidagi fikrlarni aytib o'tgan: «Libos har qanday millat tarixida uning dunyoqarashi, urf-odatlari, marosimlari, bayramlari, tomoshalari bilan bog'liq holda shakllanib, taraqqiy etib keladi».

Sahnnaviy libosning yaratilish tarixi ham uzoq o'tmishga borib taqaladi. Qadimgi davrlarda turli xil marosimlarda hayvonlar, qushlar, ruhlar va insu-jinslarning obrazlarini yaratishda o'ziga xos ritual liboslar tayyorlangan. Buni an'anaviy Sharq teatridagi libos san'atidan bilish mumkin. Xitoy, Hindiston va Yapon an'anaviy teatrlerida liboslar shartli, ramziy ma'no kasb etgan. Masalan, Xitoy teatrida sariq rangli libos oliy tabaqaga zotlarga, ya'ni imperatorlar oilasiga, qora va yashil rangli liboslar esa boylar va amaldorlarga taalluqli ekanligini bildirgan.

XX asrda vujudga kelgan yangi o'zbek teatri musiqa va an'anaviy teatrda tarkib topgan libos san'atini o'zlashtirdi. Shu bilan birga,

Ovrupa teatrining o'sha sohadagi katta tajribasidan ham foydalanildi. Yangi teatr shakllanishi jarayonida mana shu ikki manbadan olingen eng sara an'analardan omuxtalaniib, birlashib, hozirgi kun teatr-libos san'ati vujudga kelgan, deyish mumkin.

Sahnnaviy libos san'atining vazifalari nimalardan iborat? Eng muhim vazifa – bu sahnada qo'yiladigan barcha spektakl va tomoshalarning mazmun va mohiyatiga to'laligicha javob bera oladigan liboslar yaratish, qahramonlar fe'l-atvori, ichki kechinmalarini tomoshabinga yetkazishdan iboratdir. Bu yerda sahna ijodkorlarining barchasi birdam, hamfikr bo'lmg'i lozim. Rejissor, aktyor, sahna bezagi va libos rassomlari bir yoqadan bosh chiqarib, asar qo'lga olingen kundan boshlab to sahna yuzini ko'rgunga qadar izchil izlanishlar olib borishlari kerak.

«Teatr san'atining asosiy talablaridan biri, ijrochi aktyorning boshqa inson yoki mavjudod qiyofasi va holatiga kirib, sahnnaviy obraz yaratishi, o'sha qahramon hayoti bilan yashashi kerak. O'shanda obraz tabiiy va jozibali chiqadi. Bunda libosning ahamiyati beqiyos. Afsuski, ko'pchilik sahnnaviy obraz yaratishda libos muhim vosita ekanini anglamaydi. Holbuki, libos teatr dekoratsiyasi bilan teng ahamiyatga ega: dekoratsiya spektaklda voqealar kechayotgan muhitni yaratsa, libos shu muhitudagi qahramonlarining tashqi qiyofasi va ichki holatlarini, ijtimoiy muhitini yoritishga ko'mak beradi».

Ranglarning o'ziga xos ma'no-mazmuni bor. Oq rang – poklik, soflik, ochiqko'ngillik; qora rang – dushman, qora kuchlar timsolida; yashil ranglar – rivojanish, yasharish, tabiat go'zalligini aks ettiruvchi; qizil rang – tashvish, urush; sariq rang – tinchlik, quyosh; favorang esa tun, sirlilik kabi ma'nolarni anglatadi, xuddi shuningdek, boshqa ranglar ham turli ma'nolarda qo'llanilishi mumkin.

Liboslar, rekvizit, musiqa, nur, chiroq, proeksiyalar – bularning hammasi tomosha san'atining badiiy obraz yaratishdag'i an'anaviy, ifodaviy, ta'sirchan vositalaridan hisoblanadi. Ko'p holdarda qatnashuvchilar soni ko'p bo'lganligi uchun ham kiyim bilan ta'minlashda muammo va qiyinchiliklarni hal qilishga to'g'ri keladi.

Libos bilan ta'minlashning qulay usullaridan biri uniforma (masalan, ishlatilgan bir xil rangdagi kasb formalari: harbiy kiyimlar, sport formalari, bir xil rangli kaska, kombinezon kabilar)dan foydalanişdir<sup>1</sup>. Lekin bu formalar o'zining siniq rangi yoki boshqa xususiyatlari bilan tomoshabinga ijobiy ta'sir qilmasligi ham mumkin. Buning uchun bir xil bosh kiyimlar, soyabonlar, shlapalar, sharflar, bantik, lenta, ro'molchalar bilan, xullas, elementar detallar bilan uni boyitish mumkin. Hozirgi kunda respublika miqqosida o'tkazilayotgan bayram va tomoshalarga davlatimiz rahbarlari tomonidan liboslar va boshqa jilhozlar uchun yetarli darajada mablag' va sarmoyalalar ajratilayotganligi uchun ham bu masalalar yuzasidan muammolar deyarli hal qilingan.

Ammo, hamma joylarda ham libos bilan ta'minlash masalasi hal qilingan desak, xato qilgan bo'lamiz, chunki uning asosida molivaviy masalalar yotishi hammamizga ma'lum. Shuning uchun ham ko'pgina tadbirdorda maxsus liboslarni kiymagan san'atkorlarning chiqishlari kerakli effektni bermaydi. Xonandaning chiqishlarida uning ovozi asosiy manba bo'lganligi uchun unda formaning yo'qligi unchalik katta ahamiyat kasb etmasligi mumkin, biroq kichkina bo'lsa ham «sahna» deb atalmish dargohga, masalan, raqqosa qiz o'zining ko'cha kiyimida chiqsa, bu juda xunuk manzarani namoyon etadi yoki kichik sahnaviy ko'rinishda Amir Temurning obrazini ijro etayotgan aktyor o'zining kostum-shimida chiqsa, u hech qanday muvaffaqiyat qozona olmaydi. Shuning uchun imkoniy yo'q sharoitlarda ham liboslarning elementar shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Kiyimlarni tanlashda rejissor mana shu xususiyatni ham hisobga olishi zarur.

Demak, liboslar har qanday holatda ham aktyorning, vogelikning, xatti-harakatning mazmunini ochib berishida yordamchi vosita sifatida xizmat qilmog'i lozim.

Ommaviy bayram va tomoshalarda raqs harakatlari ko'p ishlatilganligi uchun bu vazifa boshqa san'at vakillariga qaraganda balet-meysterlarning zimmasiga ko'proq mas'uliyat yuklaydi.

<sup>1</sup> Силин А.Д. Специфика работы режиссёра при постановке масс. театрализованных представлений под открытым небом и на нетрадиционных спортивных площадках. (Костюмы и реквизит.) — М., 1986, стр. 35.

«Raqs jamoalari bilan ishlash uslubiyoti» kitobida (muallif N. Abrayqulova) bo'lajak baletmeyster quyidagi sohalarni mukammal o'rganishi kerakligini ta'kidlaydi:

- 1) xoreografiya sohasini (klassik raqs, xalq raqlari, tarixiy va zamonaviy raqlar, duet, meros raqlar);
- 2) musiqa sohasini (musiqa dramaturgiyasi, solfedjio, musiqa nazariyasi);
- 3) rejissor-sahnalashtiruvchi sohani (aktyorlik mahorati, grim, libos tanlash, sahna bezatish).

Xoreografik obrazlarni fikrlash qobiliyati bilan baletmeyster drama, opera dramaturgi hamda rejissordan farq qilib turadi. Obrazni izlab topish, yaratishda, musiqa bilan raqs harakatlarining bir-biriga mos tushishida, fikrni tomoshabinga yetkaza olish ishida baletmeyster psixolog va pedagogik xislatlarga ega bo'lishi kerak.

Raqs dramaturgiyasini yaratishda, uni xoreografik kompozitsiya va plastik obrazlar bilan bezashda rejissorlik xislatlarini ishga solishi kerak. Boshqacha aytganda, baletmeyster xoreografik dramaning yoki kompozitsiyaning avtori, rejissor sahnalashtiruvchisi hisoblanadi<sup>1</sup>.

Aynan mana shu sohalar baletmeysterning libos tanlashdagi mahoratini belgilab beradi. Masalan, «Tanovar» raqsining kuyini eshitish bilanoq, ko'z oldimizda beqasamdan xalat, oq ko'yak, boshiga durra o'ragan, bilagida bilaguzuk, bo'ynida durmunchoq, qulog'ida baldoqli sirg'a taqqan raqqosa keladi. Xorazm «Lazgi»sida esa ix-cham ko'yak, boshida chiroqli taqinchoqli, chap tarafida pati bo'lgan do'ppi, bilagida «zang», ko'ksida Xorazm uslubidagi taqinchoqlardan iborat raqqosa namoyon bo'ladi. Buxoro uslubida esa raqs xarakteriga mos zalvorli, og'ir-bosiq xarakterli, kuya uyg'unlashib ketgan zardo'zi ko'yak, etagi va yengi keng, zarhal iplar bilan tikilgat naqshli ko'yaklar, bosh kiyimi zarli peshonaband, orqasida ro'mot. Bu uch yo'nalishdagi raqsning ko'yak va taqinchoqlarini bir-biriga aralashtirmasdan, o'ziga mos va xosini tanlash juda muhimdir<sup>2</sup>.

Liboslarni tayyorlashni o'ziga xos texnologiyasi mavjud. Avval liboslar eskizlari chiziladi va komplektlanadi (liboslarni

<sup>1</sup> N. Abrayqulova. «Raqs jamoalari bilan ishlash uslubiyoti» — T., 2003. 10-bet.

<sup>2</sup> O'sha kitob, 47-bet.

ustki va pastki qismlari, bosh kiyim, oyoq kiyim, taqinchoqlar va h.k.).

Spektakllarga liboslar tayyorlash ommaviy bayram va tomoshalardagidek murakkab emas. Chunki spektakllarda ko'pi bilan 20–30 kishi ishtirok etadi va ularda mavzu bir xil bo'lganligi uchun liboslarni tayyorlashda katta muammo bo'lmaydi. Ommaviy bayram va tomoshalarda esa libos tayyorlashning murakkabligi ishtirokchilar sonining ko'pligi bilan bog'liq, qolaversa, turli bloklarda turlicha liboslarda chiqishga to'g'ri keladi. Ommaviy bayram va tomoshalarda san'atning turli janrlari ishtirok etganligi, epizodlar, bloklarning tez-tez o'zgarib turishi uchun, bir emas bir nechta millat xalqlari qahramonlari qatnashishi mumkinligi uchun va shu kabi boshqa sabablar tadbirlar qatnashuvchilarini libos bilan ta'minlashda ko'p qiyinchiliklarga duch kelishiga sabab bo'ladi.

Liboslar yangi asar uchun qaytadan, yangidan tikib tayyorlandi. Ba'zan boshqa tadbirlarda ishlatalgan liboslar mavzu va g'oyaviy jihatdan bu tadbirning mavzusiga to'g'ri kelsa undan foydalanish mumkin.

Libos tanlashda har bir rejissor juda talabchan va sinchkov bo'limg'i lozim. Bunda uning ilmiylik qobiliyati juda qo'l keladi. Chunki libosda o'sha davr, zamon va shu davrda yashovchi xalqning ruhiyati sezilib turmog'i lozim.

Hozirgi kunda O'zbekistonda o'tkazilayotgan barcha bayram va tomoshalarni libos bilan ta'minlash va yangi liboslar tiktirish uchun bir qancha sexlar, kombinat, fabrikalar ishlab turibdi. Bayram va tomoshalar g'oya, mazmun, mohiyatidan kelib chiqqan holda eskizlar tayyorlanadi, ularni tikish uchun materiallar tanланади va sexlarga buyurtmalar beriladi.

O'tkaziladigan tadbir va tomoshalarda liboslarni to'g'ri tanlash, unga mos bosh va oyoq kiyimlar topish, taqinchoqlari, bo'yanihsilari (prim), soch tarash, turmaklash kabi xususiyatlari o'z davri, zamonasiga, millatiga mos kelishi kerak. Faqat O'zbekistonning o'zida yashovchi o'zbeklarning ham kiyimlari bilan farq qiladigan jihatlari bor. Iso Jabborovning «O'zbek xalqi etnografiyasi» nomli kitobida muallif o'zbek xalqining «kiyim kechak, sarpo, bezaklar va pardoz-andozlari» haqida to'liq ma'lumotlarni to'plagan. Od-

diy bosh kiyimini olaylik: qadim davrlardan bosh kiyimiga qarab o'zbeklarning etnik va lokal guruahlari farq qilingan. Ilgari konus shaklidagi do'ppilar Toshkent, Samarcand, Shahrisabzda tarqalgan, hozirgacha Shahrisabzda saqlangan. Biroz yapaloq yassi shaklda ichiga o'rab qog'oz bilan mayda qaviq qilingan do'ppilar asosan, Farg'ona vodisida ma'lum, Xorazmda esa yana boshqacha va h.k.

«Nafosat olami» gazetasida ustoz Qunduzxon Nishonboyevaning «Orasta kiyinish ham madaniyat» nomli maqolasida yoshlarimizning kiyinish madaniyati haqida shunday deyiladi: «Libos odamning qaysi yurt farzandi ekanligidan, uni kiygan odamning ichki dunyosi, aql-u farosati, didi, diyonati qay darajada ekanidan dalolat beradi. Yaxshilab razm soladigan bo'lsak, dunyo xalqlari eng katta minbarlarda, qaddini jahon ko'radigan joylarda, o'zining muborak kunlarida milliy til, milliy kiyimlari va milliy madaniy meroslarini namoyish etib o'rtaga tushadi. Bu ularning mening nasl-u nasabim bor, zotim, tarixim tayin, deganidir. Har bir xalqning o'ziga xos didi, orzu-istiklari va ko'nikmalari bor. Mana shu o'ziga xoslikni biz milliylik deymiz»<sup>1</sup>.

Darhaqiqat, bu «o'ziga xoslikni» biz bayram va tomoshalarni sahnalashtirishda albatta e'tiborga olishimiz zarur.

Zamonaviy bayram va tomoshalarni tashkil etishda quyidagi yettita asosiy sohalarning vazifalari va shu faoliyat yo'nalishida xizmat qilib kelayotgan ijodkorlar haqida qisqacha bo'lsada ma'lumot toplashga harakat qildik. Lekin barcha tomoshalarda bularning ba'zilari ishtirok etmasliklari mumkin. Masalan, badiiy fon yoki fon guruuhlarini barcha tadbirdarda ishlatish shart emas, chunki u juda ko'p tashkiliy, ijodiy va boshqa jarayonlar bilan bog'liqki, ularni hamma joylarda ham amalga oshirish imkonи yo'q.

Tadbir yoki tomoshalarni tashkil etish prinsiplari qotib qolgan «shtamp» yoki bir xillik (монотонность) emas, balki doimo o'zgarib turuvchi faol, doimiy progressdagi (rivojlanish, izlanishdagi) jarayondir. Uni turli rejissor turlicha talqin qilishi mumkin.

Bayamlarni uyushtirishda quyidagilardan tashqari yana shunday sohalar borki, ular masalan, texnik vositalardan foydalanish,

<sup>1</sup> Q. Nishonboeva. Nafosat olami. Orasta kiyinish ham madaniyat. – 2007, may.

ovozi kuchaytirgich, mikrofon, miksher pultida ishlash, chiroqlar bilan ishlash, ranglar tanlash, pirotexnika va boshqalar ham bayram va tomoshalarning ta'sirchan va ifodaviy vositalariga xizmat qiluvchi sohalardan hisoblanadi.

Masalan, pirotexnikadan foydalanishni olaylik. Ommaviy bayram va tomoshalarning asosiy xususiyatlaridan biri uning tomoshaviyligidir. Bayramlar tashkil qilinganda uning badiiy jihatlariga e'tibor berish orqali effektli tomoshaviylikka erishiladi, natijada tomoshabin ko'z oldida turli ranglardagi shakllar, yozuvlar, holatlar bir so'z bilan aytganda, zavqli tomoshaviy manzara gavdalanadi.

Pirotexnika — ommaviy bayram va tomoshalarda, konsertlarda turli effektlar, mushakbozliklar, tuman va boshqa holatlarda kuzatiladi va tomoshabinning ko'z oldida namoyon bo'ladi.

Mushaklar (salut) asosan tomoshaning final qismida ishlatiladi. Ularning bir qancha shakllari mayjud:

1. KLS (коллекция лучших салютов) — bitta qutida 100, 150, 300 tagacha zalp otilishini amalga oshirish mumkin.

2. Fontan shaklidagi mushaklar — yerdan 2, 3, 5, 7 metrgacha turli o'lchamdagagi trubkalardan otilib chiqib, ma'lum masofaga yetgach, yorilib (ochilib) chiqib, atrofga turli ranglar bilan yoyilib, fontan shaklini hosil qiladi. Bunday effektlar kechqurunlari qorong'i sharoitda yanada chiroli shaklda namoyon bo'ladi.

3. Dyum mushaklari (dyum salut) — bunda dyum deb, mushaklarning ko'tarilish va yoritish hajmi nazarda tutiladi. Professional balandlik mushaklarining ish hajmi 3, 4, 5, 6, 7, 9, 10, 12, 17 dyumgacha bo'lishi mumkin.

4. Sharshara shaklini vujudga keltirish uchun 20 sm oralig'idagi ustunlarga troslar bog'lanadi va amalga oshiriladi.

«Keng xalq ommasining bayramga intilishi, unga tayyorgarligi — bu hali bayram emas, uni albatta oqilonqa, go'zal, nafis qilib uyushtirmoq kerak», — deydi D.M. Genkin<sup>2</sup>.

Darhaqiqat, bayram maxsus uyushtirilmasa, agar zarur imkoniyat yaratilmasa, unda xalq o'zining fikrlarini, tuyg'ularini va kayfiyatini bayon qilmasa u oddiy kunday o'tishi mumkin.

<sup>2</sup> Д.М. Генкин. Массовые праздники. — М., 1975, стр. 136.

## Texnologik xarita

Mavzu:	Zamonaviy bayramlarda liboslar
<b>Maqsad va vazifalar</b>	<p><b>Maqsad:</b> Talabalarning teatr liboslari to'g'risidagi tushunchalarini kengaytirish, liboslarning bayram va tomoshalarni bezashdagi roli, asoslarini tushuntirish.</p> <p><b>Vazifalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>— talabalarning mavzuga nisbatan qiziqishini uyg'otish, ularda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarни shakllantirish va kengaytirish;</li> <li>— libos yaratish va tanlashga oid tarqatilgan materialarni talabalar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat-munozara, savol-javob orqali tarqatma materiallardagi vazifalar qaydada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimini baholash.</li> </ul>
<b>O'quv jarayonining mazmuni</b>	Teatr liboslari haqida tushuncha. Libos yaratishning ijodiy va tashkiliy jarayonlari. Spektaklda liboslar. Bayram va tomoshalar ishtirokchilarini kiyintirish. Raqs-larda libos.
	<p><b>Uslug:</b> Og'zaki bayon qilish va «Ssenariy» texnologiyasi.</p> <p><b>Shakl:</b> Savol-javob, amaliy mashg'ulot, yakka va kichik guruhlarda ishlash.</p> <p><b>Vosita:</b> Axborot texnologiyalari, tarqatma materiallar (musiqa eshitish vositasi).</p> <p><b>Usul:</b> Videolavha ko'rish va bayram ishtirokchilari va raqqosalarning liboslari tahvil qilish.</p> <p><b>Nazorat:</b> Savol-javoblar, kuzatish, o'z-o'zini nazorat qilish.</p> <p><b>Baholash:</b> Rag'batlantirish, «5» balli tizim asosida baholash.</p>

Kutiladigan natijalar	<p><b>O'qituvchi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– talabalarning faolligini oshirib, darsga qiziqishlarini kuchaytiradi;</li> <li>– mavzuni talabalar tomonidan qisqa vaqt ichida o'zlashtirishga erishadi;</li> <li>– talabalarни mustaqil fikrashga, liboslar bilan ishlash to'g'risidagi tushunchalarini kengaytirishga o'rgatadi.</li> </ul> <p><b>Talabalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– libos bo'yicha yangi materiallarni egallab, ma'lum bilim va ko'nikmaga ega bo'ladir;</li> <li>– yakka holda va guruh bo'lib ishlashni o'rganadi;</li> <li>– mustaqil fikrlaydi;</li> <li>– mavzuni to'liq o'zlashtirishga harakat qilinadi;</li> <li>– qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotlarga ega bo'ladi;</li> <li>– savollarga bergen javobi bo'yicha baholanadi.</li> </ul>
Kelgusi rejalar	<p><b>O'qituvchi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– o'quv jarayonlari (mashg'ulotlari)ni to'g'ri tashkil etish va yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish, darsda tadbiq etish va takomillashtirish;</li> <li>– mavzularni qo'shimcha ma'lumotlar, yangiliklar bilan boyitish orqali uning qiziqarliligi va ta'sirchanligini oshirish;</li> <li>– mavzuni amaliy mashg'ulotlar bilan bog'lash orqali nazariya va amaliy mashg'ulotlar uyg'unligiga erishish;</li> <li>– libos yaratish va tanlashning o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatish;</li> <li>– pedagogik mahoratni oshirish.</li> </ul> <p><b>Talabalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– mavzuga mos xatti-harakatlarni (ya'ni, materialni tez o'zlashtirish, libos tanlash yoki tayyorlash), ulardan tad-birlarda unumli foydalanishni o'rganadi;</li> <li>– libos yaratish va tanlash, liboslar bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'ladi.</li> </ul>

### *Takrorlash uchun savollar*

1. Ishtirokchilarni kiyintirish, libos tanlashning ijodiy va tashkiliy jarayonlari nimalardan iborat?
2. «Uniforma» deganda nimani tushunasiz?
4. Liboslar qanday tayyorlanadi?

- Ommaviy bayram va tomoshalarni sahnalashtirishda yana qaysi ta'sirchan vositalardan foydalanish mumkin?
- Pirotexnika deganda nimani tushunasiz?

## REJISSLORLAR

### Texnologik xarita

Mavzu:	Rejissor
<b>Maqsad va vazifalar</b>	<p><b>Maqsad:</b> Talabalarning rejissor ..... haqidagi tushunchalarini kengaytirish, uning spektakl sahnalashtirishda, bayram va tomoshalarni tashkil etishdagi roli, sahnalashtirish asoslarini tushuntirish.</p> <p><b>Vazifalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– talabalarning bu rejissor san'atiga nisbatan qiziqishlarini oshirish, ularda rejissuraga xos bilim va ko'nikmalarни shakllantirish va kengaytirish;</li> <li>– rejissor.....ning ijodini o'rganishga oid tarqatilgan materiallarni talabalar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat-munozara va savol-javob orqali tarqatma materiallardagi vazifalar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularning bilimini baholash.</li> </ul>
<b>O'quv jarayonining mazmuni</b>	Rejissorning hayoti va ijodiy faoliyati. Spektakl sahnalashtirish, bayram va tomoshalarni tashkil etishdagi roli, vazifalari. Rejissura maktabi.
<b>O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi</b>	<p><b>Uslug:</b> Og'zaki bayon qilish, «Idrok xaritasi» va «Ssenariy» texnologiyasi.</p> <p><b>Shakl:</b> Suhbat-munozara, savol-javob, amaliy mashg'ulot, kichik guruhlarda ishlash.</p> <p><b>Vosita:</b> Axborot texnologiyalari, tarqatma materiallar, doska, flomaster.</p> <p><b>Usul:</b> Videolavha ko'rish, tayyor yozma materiallar va ular ijodini tahlil qilish asosida.</p> <p><b>Nazorat:</b> Savol-javoblar, kuzatish, o'z-o'zini nazorat qilish.</p> <p><b>Baholash:</b> Rag'batlantirish, «5» balli tizim asosida baholash.</p>

<b>Kutiladigan natijalar</b>	<p><b>O'qituvchi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– mavzuga oid axborotlar talabalar tomonidan qisqa vaqt ichida o'zlashtirilishiga erishadi;</li> <li>– talabalarning faolligini oshirib, darsga qiziqishlarini kuchaytiradi;</li> <li>– talabalarni mustaqil fikrflashga va rejissor(lar) haqidagi tasavvur, tushunchalarini kengaytirishga o'rgatadi;</li> <li>– talabalar tomonidan mavzuni mustaqil o'rganishga erishiladi, rejissorlar ijodiyotini tahlil qila olishga o'rgatadi.</li> </ul> <p><b>Talabalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– rejissorlar haqida va ularni ijodiy faoliyati bo'yicha yangi materiallarni egallab, ma'lum bilim va ko'nikmaga ega bo'ladilar;</li> <li>– yakka holda va guruh bo'lib ishlashni o'rganadi;</li> <li>– mustaqil fikrlaydi;</li> <li>– mavzuni to'liq o'zlashtirishga harakat qilinadi;</li> <li>– qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotlarga ega bo'ladii;</li> <li>– savollarga bergen javobi bo'yicha baholanadi.</li> </ul>
<b>Kelgusi rejalar</b>	<p><b>O'qituvchi:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– o'quv jarayonlari (mashg'ulotlari)ni to'g'ri tashkil etish va yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish, darsda tadbiq etish va takomillashtirish;</li> <li>– mavzularni qo'shimcha ma'lumotlar, yangiliklar bilan boyitish orqali uning qiziqarliligi va ta'sirchanligini oshirish;</li> <li>– mavzuni amaliy mashg'ulotlar bilan bog'lash orqali nazariya va amaliy mashg'ulotlar uyg'unligiga erishish;</li> <li>– rejissura ixtisosliklari va uning vakillari ijodini tahlil qilish orqali ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatish;</li> <li>– pedagogik mahoratni oshirish.</li> </ul> <p><b>Talabalar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– mavzuga oid manbalar izlab, uni mustaqil o'zlashtirishni o'rganadi;</li> <li>– mavzu asosida rejissorlar ijodi bilan tanishib, ularning ijobji taraflarini o'zlashtirish ko'nikmasiga ega bo'ladii.</li> </ul>

(Bu texnologik xarita mavzu bo'yicha rejissorlar ijodini o'rganish uchun alohida berilishi mumkin. Masalan, K.Stanislavskiy, V.E. Meyerxold, B.Yo'idoshev va boshqalar).

## K.S. STANISLAVSKIY

Stanislavskiy Konstantin Sergeyevich (Alekseyev) — 1863-yil 2(17)-yanvarda Moskvada tug‘ildi. U 40 yil ota-onasining «Qizil eshik»dagi uyida yashadi. Alekseyevlar avloddan avlodga o‘tib kelayotgan ishlab chiqaruvchi fabrikantlardan bo‘lishgan. Ular ip ishlab chiqarishning mutaxassislari bo‘lib, oltin va kumush yuritilgan iplardan parcha matolari to‘qishgan.

Teatrga faqat buvisining aloqasi bo‘lgan. O‘sha vaqtarda Parij aktrisasi Mari Varley Peterburgga gastrolga kelib, boy savdogar Yakkovlevga tur mushga chiqqan. Bu nikohdan Stanislavskiyning onasi Yelizaveta Vasilyevna dunyoga keladi.

Otasi —Alekseyev Sergey Vladimirovich, onasi — Yelizaveta Vasilyevna (Yakovleva) oilada farzand tarbiyasiga jiddiy e’tibor berishgan.

Kostya nimjon bola edi. Raxit bo‘lib, tez-tez kasallananar edi. U o’n yoshigacha «r» va «l» harflarini aytolmas edi. Onasining e’tiborli parvarishi natijasida u kuchga to‘lib, o‘zining tengdoshlariga yetakchi bo‘la olgan.

Alekseyevlarning oilasi katta bo‘lib, to‘qqiz kishidan iborat edi. Ular o‘qish uchun pulni ayashmagan. Chet tillarini, raqs sirlarini va qilichbozlikni yaxshi bilishgan. Alekseyevlar oilasida «uy teatri» uchun katta zal ajratilgan edi. Uy teatrida har xil spektakllar qo‘yishardi. 1877–1988-yillar ichida bir qancha asarlarni uy teatri sharoitida sahnalashtirib, tomoshabinlarga (ya’ni, oila a’zolari va mehmonlarga) namoyish etishardi. Bularning barchasi yosh iqtidor egasi Konstantinning tashabbusi va tinimsiz mehnati orqali amalgamoshirilardi.

Yillar davomida u otasining fabrikasida ishlab, direktorlardan biri bo‘ldi, ishlab chiqarish mashinalarini o‘zlashtirish borasida ko‘p marotaba Fransiyaga bordi. Kunduzi oila ishlari bilan band bo‘lib, kechasi teatr to‘garagiga qatnashardi. Konstantinni eng zo‘r ishqiboz aktyor sifatida tan olishardi.

Mariya Petrovna Perevoshikova («Limena» tahallusini olgan aktrisa) bilan 5(17)-iyul 1889-yili Lyubimov cherkovida nikohdan o‘tdi. Yoshlarning to‘y sayohati Germaniya, Fransiya, Vena mehmonxonalarida o‘tdi. Shu joylardagi muzeylar, teatrlarni tomosha

qildilar. 1897-yil mart oyida qizi Kseniya tug'ildi. Ammo u zotiljam kasaliga uchrab, hayotdan ko'z yumdi. Keyingi yilning iyulida yana bir qizi Kira tug'ildi.

1888–1898-yillar ichida u o'zining rejissorlik g'oyalarini namoyon etib, teatr ixlosmandlarini hayratda qoldirdi. V. Sheks-pirning «Otello», L. Tolstoyning «Ilohiy meva», A. Pisemskiyning «Achchiq taqdir», Ostrovskiyning «Sepsiz», Gaupmannning «Cho'kkan qo'ng'iroq», Pushkinning «Kichik fojialari» va Molerning komediyalari yaratildi. Ularni namuna sifatida Maliy teatrida ko'rsatishardi. Yosh rejissor Stanislavskiyning ijodi ommaviy dramaturg, teatr tanqidchisi, pedagog V.I. Nemirovich-Danchenkoning e'tiborini tortdi. (U ham yangi teatr yaratish orzusida yurgan). 21-iyun 1897-yilda K. Stanislavskiy va V.I. Nemirovich-Danchenko Moskvaning «Slavyan bozori» restoranida uchrashishadi. U o'z kitobida buni «Muhim uchrashuv» deb nomladi. Restoran yopilgach, Stanislavskiy suhbatdoshini Lyubimovkadagi dala hovliga taklif qiladi. U yerda 18 soatlik suhbat yangi – «Rus namunali teatri»ni tuzish fikri bilan yakun topadi.

Bu truppa to'garak a'zolari va Nemirovich-Danchenko sinflari (filarmoniya bitiruvchilari)dan iborat edi. Kuchli tanlov asosida tashkil etilgan ushbu guruhga chetdan ham bir nechta mahoratlari aktyorlar qabul qilindi.

Truppa 1898-yili o'z faoliyatini boshladi.

«Biz shunday ishga kirishdik-ki, bu oddiy emas, balki, ommaviy xarakterga egadir. Biz ilk bor mantiqan hammabop bo'lган teatr yaratmoqchimiz va bu yuksak maqsad sari o'z hayotimizni bag'ishlashimiz kerak. Biz eski ijro uslubiga ijro soxtaligiga, ahmoqona postanovka usulubiga, dekoratsiyalarga, ansamblarni buzuvchi, umuman, teatrni buzuvchi saviyasiz repertuarlarga qarshi chiqdik» (1898-yil 14(26)-oktabrda teatrning ochilishidagi nutqidan). Yangicha qarashlar, yangicha nazariyalar, tamoyillarga asoslangan bu teatr (MXT) A.K. Tolstoyning «Shoh Fyodor Ioannovich» spektakli bilan ochildi. Bu spektakl tomoshabinlarning katta e'tiborini qozondi. Birinchi mavsumning o'zidayoq u 57 marotaba qo'yildi. «Cho'kkan qo'ng'iroq», «Venetsiyalik savdogar» postanovkalari unchalik omad keltirmadi. Ammo, Chexovning «Chayka»si Moskva

badiiy teatrining afsonaviy timsoliga aylandi. Sujetda oddiy hayot tarzi ko'rsatilgan bo'lishiga qaramay, aktyorlardagi «so'z bilan aytib bo'lmas nigohlar», «aktyorning ichidan chiqqan hissiyotlar»i tomoshabinlarda katta taassurot qoldirdi.

Gorkiy asarlari ham sahnalashtirilib, tomoshabinlar e'tiboriga havola etildi. Bunday postanovkalar orqali dramaturg va teatr o'rtaida do'stona munosabatlar o'rnatildi. Masalan, Chexov o'zining oxirgi pyesalarini Moskva badiiy teatriga berdi. 1904-yilda Chexovning tavallud kunida «Olchazor» spektaklining premyerasi bo'ldi. Gaev rolini ijro etgan K. Stanislavskiy Chexovga: «Men ayollardek yig'ladim, o'zimni tutmoqchi bo'ldim lekin uddasidan chiqolmadim», – deydi. Shu yilning iyul oyining boshlarida Chexov olamdan o'tdi. K. Stanislavskiy bu judolikdan so'ng o'zini yetimdek his qiladi va «men unga shunchalik bog'lanib qolgan ekanman-ki, men uchun katta yo'qotish edi», – deb eslaydi.

1906-yilda MBT xorij safariga jo'naydi. Ular Dyuseldorf, Frankfurt, Kyoln, Varshava va boshqa shaharlarda bo'lib o'z san'atlarini namoyish etdilar. Yosh, ahil, iqtidorli truppa qayerga bormasin shuhrat topdi. Stanislavskiy faqat sahnalashtiruvchi emas, aktyor sifatida ham shu truppada turli rollarni ijro etdi.

1906-yilning may oyida truppa Moskvaga qaytdi.

Mavsumni «Baxtsizlik aqldan» spektakli bilan boshladilar. «Hayot fojasi» (K. Gatsun), «Inson hayoti» (X. Andreyeva) asarlarini eksperimental usulda sahnalashtirib katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Ayniqsa, «Moviy qush» asari (1908-y) K. Stanislavskiyini yuksaklarga ko'tardi.

Shekspirning «Gamlet» asarini qo'yish uchun (1908-y) ingлиз rejissori Gordon Gregni taklif qiladi. Ammo ularning fikrlari bir-birlariga zid keladi va «ajralishadi». U Turgenevning «Qishloqda bir oy» (1909-y) postanovkasida yangicha ijro usullarini qo'llaydi.

1912-yil yaqin do'sti L.A. Sulerjitskiy yordamida MBT studiyasi ni ochadi. Mashg'ulotlarni asosan Sulerjitskiy olib boradi.

1916-yilda u o'zining ikkinchi studiyasini ochadi.

1918-yil katta teatrda opera studiyasini tashkil etadi.

6 yil ichida, ya'ni 1918–1923-yillar ichida 2 tagina premyera bo'lib o'tadi. Bular «Kain» va «Revizor» asarlaridir.

1922-yil Stanislavskiy boshchiligidagi teatr uzoq gastrol safariga jo'naydi. Shu yillar uning shuhrati judayam oshib borayotgan davrlar edi. Chikago, Filodelfiya, Washington, Detroit kabi yurtlarda bo'lib, o'z san'atlarini namoyish etdilar. Uning «San'atdagi hayotim» kitobi 1924-yili Bostonda chop etiladi (rus tilida 1926-yilda chiqadi). U yozda Germaniya kurortlariga, kuzda Parijga, noyabrda esa Nyu-Yorkka jo'naydi. Keyin Moskvaga qaytadi. MXATning 30 yilligi arafasida u o'zining Vershinin rolini arang ijro etadi, zo'rg'a o'ynaydi va to'shakka mixlanadi. U infarktni boshidan o'tkazgan edi. 10 yil davomida sog'ligini turli sihatgohlarda tiklashga harakat qildi. Tinimsiz ishlab, Shekspirning «Otello»sini ijro postanovkasi rejasini tuzdi. 1932–1933-yillarda u N.V. Gogolning «O'lik jonlar» va A.N. Ostrovskiyning «Iste'dodlar va ishqibozlar»ini sahnalashтиrdi. Yurak xurujlari, betobliklar uni ijodidan to'xtata olmadi.

1935-yilda opera-dramatik studiyasi ochiladi.

U o'lim to'shagida yotganida «Aktyorning o'z ustida ishlashi» nomli kitobini bosmaxonadan chiqarilishi haqida xabar keladi.

Konstantin Sergeyevich Stanislavskiy 1938-yilning 7-avgustida vafot etdi.

K.S. Stanislavskiy o'zining butun umrini teatr san'atini rivojlanishiga bag'ishladi. Shuning uchun ham bir necha spektakllar sahnalashтиrish bilan bir vaqtida teatr san'atini takomillashtirish va rivojlanishiga izlanib, mutolaa qilishga ham imkon topdi. 8 tomdan iborat yozgan asarlarida o'zi yaratgan sistemaning mohiyatini tushuntirishga harakat qiladi va o'z izlanishlari jarayoni haqida yozadi. Uning teatr san'atiga oid qarashlarini, u sahnalashтиrgan asarlarni o'rganish va tahlil qilish asosida shogirdlari bir qancha asarlar yaratganlar. G. Kristining «Stanislavskiy maktabi aktyori tarbiyasi» (Воспитание актёра школы Станиславского)<sup>1</sup>, B.E. Zaxavaning «Aktyorlik va rejissorlik mahorati» (Мастерство актёра и режиссёра)<sup>2</sup> kitoblari va boshqalar shular jumlasidandir. Masalan, 30-yillarda G. Kristi, Stanislavskiy o'zining eksperimental tadqiqotlarini olib borayotgan paytda, uning assistenti sifatida ish olib borgan. U sistemasining birinchi qismi – aktyorning o'z ustida

<sup>1</sup> Г. Кристи. «Воспитание актёра школы Станиславского». – М., 1968 г.

<sup>2</sup> Б.Е.Захава. «Мастерство актёра и режиссёра». – М. Просвещение, 1978 г.

ishlashi va ikkinchi qismi – rol va pyesa ustida ishlash masalarini tahlil qiladi va Stanislavskiy sistemasini qo'llovchi nazariyalar yaratadi. B.E. Zaxava esa uning sahnalashtirgan asarlari asosida aktyor tarbiyasining asosiy prinsiplarini yaratadi va h.k.

K.S. Stanislavskiy yozgan asarlarining I tomini «Sahnadagi hayotim» deb nomlaydi va o'quvchini sistemaga kirishga tayyorlaydi. II tomi esa «Aktyorni o'z ustida ishlashi» (Kechinma jarayonida aktyorni o'z ustida ishlashi) deyilgan. Sistemaning aktyorlik mahoratini shakllantirishga oid barcha tushunchalar ushbu kitobda yoritishga harakat qilingan. «Aktyorning o'z ustida ishlashi» kitobi rejissor-pedagog Arkadiy Nikolayevich Tortsov va uning yordamchisi Ivan Platonovich Raxmanovlarning saboqlari misolida uni tahlil qilish asosida vujudga keldi. Stanislavskiy sistemaning mazmunini ketma-ketlik asosida quyidagi mavzular orqali tushuntiradi:

- I. Diletantizm.
- II. Sahna san'ati va sahna hunari (Сценическое искусство и сценическое ремесло);
- III. Xatti-harakat. «Agar-da». Berilgan shart-sharoit (Действие. «Если бы». Предлагаемая обстановка).
- IV. Tasavvur (Воображение).
- V. Sahnaviy diqqat (Сценическое внимание).
- VI. Muskullarni bo'shatish (Освобождение мышц).
- VII. Parchalar va vazifalar (Куски и задачи).
- VIII. Haqiqat tuyg'usi va ishonch (Чувство правды и вера).
- IX. Hissiyotlarni eslab qolish qobiliyati (Эмоциональная память).
- X. Munosabat (Общение).
- XI. Artistning mahorati, imkoniyatlari, moslashish va boshqa elementlar (Приспособление и другие элементы, свойства, способности и дарования артиста).
- XII. Ruhiy hayot dvigatellari (Двигатели психической жизни).
- XIII. Ruhiy hayot dvigatellarining intilish chiziqlari (Линия стремления двигателей психической жизни).
- XIV. Ichki sahnaviy sezgi (Внутреннее сценическое самочувствие).

XV. Oliy maqsad. Yetakchi xatti-harakat (Сверхзадача. Сквозное действие).

XVI. Artistning sahnnaviy sezgilarini anglashi (Подсознание в сценическом самочувствии артиста).

K.S. Stanislavskiy izoh sifatida 16-bo'limga alohida diqqat bilan e'tibor qaratishga undaydi. Unda ijod va sistemaning asosiy mag'zi va mohiyati ishonarli tarzda yoritilgan, deb yozadi.

III tom esa «Aktyorni rol ustida ishlashi» deb nomlangan va uni to'rt bosqichga bo'lgan.

Ular:

- Познавание – anglash (talqin orqali idrok etish);
- Переживание – kechinish (qayta kechinish);
- Воплощение – o'zlashtirish (singdirish);
- Воздействие – ta'sir o'tkazishdan iborat<sup>1</sup>.

K.S. Stanislavskiy anglashni o'z navbatida ikki bosqichga bo'ladi. Birinchisi, pyesa tuzilishini yaxshi bilish jarayoni, ya'ni, uning mavzusi, g'oyasi va voqealar tartibini o'zlashtirishdir. Ikkinchisi, pyesa qahramonlarining va o'z rolining berilgan shart-sharoitlarini bilish, uni pyesa g'oyasini ochishdagi o'rnini aniqlashdan iborat jarayonni o'z ichiga oladi.

U yana anglash, kechinish, o'zlashtirish va ta'sir o'tkazish jaryonini o'z navbatida yetti qatlama bo'ladi:

1) pyesaning tashqi tuzilishi – faktlar, voqealar, ularning mantiqiy rivoji, ya'ni fabulaning umumiy shaklini anglash va o'zlashtirish;

2) pyesaning maishiy hayoti, tabaqalari, milliyligi va tarixiyligini o'zlashtirish;

3) adabiyot qoidalariga taalluqli qatlam: a) g'oyaviylik; b) ifoda uslubi; xarakterlarni ifodaviyligi, mavzuning falsafiylik, axloqiylik, ilohiylik, ijtimoiylik darajasini o'zlashtirish;

<sup>1</sup> Izoh. Ushbu qo'llanmada ko'pgina atamalar va tarjimalar rus tilida ham berilgan. Chunki, mavzuning mohiyatini ochishda, uni to'g'ri tushunib olishda bunday usul qo'l keladi. Masalan, K. Stanislavskiy sistemasining beshinchi prinsipi «Принцип творческого перевоплощения актёра в образ» so'zining tarjimasini turlicha izohlash mumkin. «Aktyorning obrazda yashash prinsipi» yoki «aktyorning obrazga ijodiy qayta tadbiq qilgan holda yondashish prinsipi» va h.k.

4) estetik qatlam: a) tomoshaviylik; b) sahnaboplik; d) dramaturgiya o'lchovlariga xoslik; e) badiiylik; f) gavda orqali ifodalash imkoniyatlarining mavjudligi; g) musiqiylik darajasini o'zlashtirish;

5) aktyor qalbi bilan idrok etiladigan kechinmalarga bog'liq – psixologik qatlam: a) ichki xohish – o'zgarishga intilish; b) tuyg'ularning mantiqiyligi va izchilligi; d) fe'l-atvor, ya'ni xarakterning o'ziga xosligi; e) qalbdagi kechinmalar; f) obrazning tabiat;

6) jismoniy qatlam: a) gavdaning tabiiy hayoti; b) jismoniy xatti-harakatlar; d) tashqi ifodaviylik; e) grim, kostyum; f) yurish, poxodka ko'nikmalari, mimikani o'zlashtirish;

7) aktyorning faqat o'ziga xos bo'lgan qatlam kechinmalari, his-tuyg'usi, uning rolni idrok etish darajasi va ta'sir o'tkazish qudratil<sup>1</sup>. «Ijtimoiy fanlar» kafedrasining dotsenti, falsafa fanlari nomzodi Ma'mur Umarov Stanislavskiy sistemasining mohiyati va uning umumiy ma'nosini yuqorida qayd etilgan tushunchalar orqali ifodalaydi.

K.S. Stanislavskiyning «San'atdagi hayotim» asari 1965-yilda J.Obidov tomonidan tarjima qilinib, «Toshkent» badiiy adabiyot nashriyotida 2000 ta nusxada chop etildi.

Ushbu kitobda «Artistlik bolaligi», «Artistlik o'smirligi», «Artistlik yoshligi», «Artistlik balog'ati» deb nomlangan boblarida ulkan san'atkorning ijod jarayonlari bosqichma-bosqich ko'rsatilib, uning nuqtayi nazari va qarashlari sodda tilda bayon etilgan. Quyida N. Volkovning ushbu kitob haqida yozgan so'zboshini to'laligicha kitobxonga yetkazishga jazm qildik.

«San'atdagi hayotim» jahon teatr adabiyotining klassik asaridir. Teatr arboblari tomonidan yozilgan juda ko'p memuarlar orasida o'zining g'oyaviy boyligi, badiiy ifodasining kuchliligi va aniqligi jihatidan Konstantin Sergeyevich Stanislavskiyning kitobiga teng keladigan kitob yo'q.

Stanislavskiy bu asarni o'z xotiralarini eslash lozim bo'lgani uchun yozgan emas. Unga ehtirossiz voqeanaafislik mutlaqo yotdir. U, o'tmish haqida gapirar ekan, uning butun fikr-u zikri bugungi va

<sup>1</sup> M. Umarov, M. Uyg'ur: An'ana va transformatsiya muammolari». San'at ta'limi yilnomasi. 2-jild. – T., 2007-y, 82-bet.

ertangi kunida bo'ladi. Teatr san'ati ulug' reformatoringinay hayotiy, haqqoniy san'at uchun olib borgan kurashining ruhi asarning har bir sahifasida aks etib turadi.

K.S. Stanislavskiy o'zining san'atdagi boy hayotidan asosiy ijodiy temasini ochib berishga yordam beradigan hodisalarligina tanlaydi. U o'zi o'ynagan ayrim rollari yoxud qo'ygan postanovkalari haqida so'z yuritar ekan, buni u aktyor, rejissor va mutafakkir sifatida ulkan mehnat, sarflagan ishi – sahnaviy realizm prinsiplarini joriy qilishga bag'ishlaydi.

«San'atdagi hayotim» dadil va mardona yozilgan asardir. O'ziga nisbatan g'oyat talabchan bo'lgan Stanislavskiy teatrga taalluqli barcha masalalarga nihoyat darajada jiddiy qaraydi. U umrining oxirgi kunlarida yoshlarga murojaat qilib bunday degan edi: «Do'stlarim, san'at koshonasiga qadam qo'yar ekansiz, unga kirishdan oldin hayotning ikir-chikirlaridan xoli bo'ling, unga eng yaxshi insoniy fikr-tuyg'ular bilan kirishing».

K.S. Stanislavskiy o'z ijodiga g'oyat darajada tanqidiy ko'z bilan qaraydi. U hech qachon yutuqlar oldida esankiramaydi, shuningdek, o'z muvaffaqiyatsizligini ham yashirmaydi. Har bir xato uning uchun bir saboq, har bir yutuq esa kelgusi takomil uchun bir bosqich hisoblanadi. U murosani yomon ko'radi, oson yo'llarni yoqtirmaydi. O'ziga nisbatan qattiqqo'l, yuz-xotirni bilmaydi.

K.S. Stanislavskiyning ijodiy yo'li ayrim paytlarda og'ir va mashaqqatli bo'lardi. Bu yo'lda vaqtinchada adashishlar, ko'ngilsiz voqealarga ham duch kelardi. Lekin hayotiy haqiqat hamisha uning yo'lchi yulduzi edi, haqiqat hamisha uni teatrtdagi bema'ni soxtaliklarning boshi berk ko'chasidan to'g'ri yo'lga yo'llardi. U teatrda «artistlarga va spektaklga, pyesa hamda ayrim rollardagi inson ruhining hayotini tiklashga imkon bergan» narsalarligina yoqtirardi. Shu sababli u sahnada voqelikni muhim va tipik ko'rinishlarda tasvirlashga urinardi. Atrofini o'rab olgan hayotni sinchiklab kuzatar ekan, san'atning xalqqa tushunarli va yaqin bo'lishiga harakat qilardi. U, o'tgan asrning oxirlarida V.I. Nemirovich-Danchenko bilan birga badiiy ommabop teatr tuzgan paytlaridayoq xalq teatri yaratishni orzu qilgan edi. O'zi g'oyat katta ahamiyatga ega bo'lgan teatr tuzish bilan bir qatorda, boshqalarga ham shunday teatrlar tuzishga yordam berdi.

Stanislavskiy o'z ijodida umr bo'yи xalqning haqiqiy, sodiq xizmatkor bo'lib qoldi. Stanislavskiy aktyor o'yinining hayotiy, haqqoniy usul va asoslari (bo'lajak Stanislavskiy «Sistema»si) haqida fan yaratish fikriga kelgach, o'z ta'limotini har taraflama o'rganilgan va tekshirilgan tajriba asosida yaratishga kirishdi. Tajriba Stanislavskiy nazariyasining metin zamini hisoblanadi, nazariya va tajriba birligi Stanislavskiy ilmiy va pedagogik faoliyatining buzilmas shartidir. Haqqoniy sahnaviy ijod qonunlarini Stanislavskiy sabot va izchillik bilan izlaydi. U, o'zini oltin qidiruvchiga tenglashtirib, bunday degan edi: «Oltin konini topishdan avval tog'u toshlarda darbadar kezadi, uni topgach, bir zarra asl metallni deb, qancha-qancha qum toshlarni yuvib chiqadi». K.S. Stanislavskiy uzoq yillar mobaynida kashf etgan aktyor ijodining har bir qonunini o'z tajribasida sinab qolmasdan, balki o'zidan ilgari o'tgan mashhur o'tmishdoshlari va zamondoshlari tajribalarida ham sinab ko'rardi. U A.S. Pushkin, Gogol, Shchepkin, Belinskiy va A.N. Ostrovskiyning teatr haqidagi fikrlaridan juda ko'p ozuqa olgan. U o'zining bilim doirasini g'arbiy yevropalik mashhur sahna ustalari yozgan kitoblarni o'qib boyitar edi; o'zi qiziqqan masalalar bo'yicha A.P. Chexov, Gorkiy, V.I. Nemirovich-Danchenko bilan suhbat qilishni yaxshi ko'rardi. U, san'atkor sifatida Gorkiy bilan hamdard edi; 1991-yilda sahna ijodi nazariyasiga bag'ishlangan qo'lyozmalarini Gorkiyga o'qib bergen edi.

K.S. Stanislavskiy artist ijodiy tabiatini qonunlarini muntazam, yagona bir sistemaga birlashtirishga intildi, bu sistemaning birinchi qismi – «Artistning o'z ustidagi ichki va tashqi ishi», ikkinchi qismi – «Artistning rol ustidagi ichki va tashqi ishi»dan iborat. Aktyorlik mahorati haqida ko'p tomli asar yozishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan Stanislavskiy «San'atdag'i hayotim» kitobini shu asarning birinchi tomi, muqaddimasi, «kirish qismi» deb ta'riflagan edi. «San'atdag'i hayotim» esdaliklar bo'lishi bilan birga, shubhasiz, ilmiy ahamiyatga ham egadir. K.S. Stanislavskiy o'zining aktyorlik va rejissorlik faoliyatining jonli misollarida chinakam ilmiy nuqtayi nazardan Stanislavskiy «Sistema»si deb dong'i butun olamga ketgan aktyor ijodi usullarining qanday yaratilganini tasvirlab beradi.

K.S. Stanislavskiy o'zi yaratgan «Sistema»ga boshqalarning yuzaki munosabatda bo'lishini yoqtirmsadi. O'z sistemasini hayotga

tatbiq etishda g'oyat katta kuch talab qilinishini yaxshi tushunardi. «San'atdagi hayotim»da shu masalaga bag'ishlangan maxsus bob berilgan, u vazminli yozilgan va chuqur dramatik ruh bilan sug'orilgan. Stanislavskiy o'zining tajribalarida to'g'ri ijodiy ahvoli ruhiyat tug'dirish uchun uzoq yillar izlanadi, bu undan g'oyat kuchli iroda talab qildi. Stanislavskiyning rejissorlik va aktyorlik ijodiy ishida, insonning ruhiy hayotini gavdalantirishda mana shu g'oyat kuchli iroda unga doim kuch bag'ishlagani uning barcha xotiralari davomida ko'zga tashlanadi. K.S. Stanislavskiyning «San'atdagi hayotim» kitobidan so'ng boshqa nazariy asarlari ham nashr etilgach, birinchi kitobi «Sistema» eng yaxshi muqaddima tarzida o'quvchilar tomonidan yana ham yuqori baholandi. Stanislavskiyning avtobiografik hikoyalari, keyinchalik o'quvchining kundalik daftari shaklida yozilgan «Aktyorning o'z ustida ishlashi» va «Aktyorning rol ustida ishlashi» kitoblaridagi aksariy darslarning dastlabki yozmalari edi.

K.S. Stanislavskiy teatr estetikasini hech qachon etikadan ajratib qaramasdi. U aktyorning ma'naviy qiyofasiga katta ahamiyat berardi. Sanislavskiy «Etika» nomli o'zining dastlabki qo'lyozmalaridan birida bunday deb yozgan edi: «Aktyorning roli parda yopilishi bilan tugamaydi, u hayotda ham go'zallik tarqatuvchi va targ'ib etuvchi bo'lishi lozim». «San'atdagi hayotim»da ham axloq masalalariga katta e'tibor berilgan. Stanislavskiy hech qachon ma'naviy bilimga ega bo'limgan xonaki bilimdonlardan qattiq nafratlanmagan. U yoshlarning murabbiysi, g'amxo'r pedagog sifatida aktyorlaridan doimo: «San'atda o'zini emas, balki o'zidagi san'atni sevishga o'rganishni» talab qilardi. «San'atdagi hayotim»da mana shunga o'xshagan qanchadan-qancha achchiq haqiqatlar bor.

K.S. Stanislavskiy teatrdagi hayotiy haqiqatlar uchun izchil kurash olib bordi. U, «tomoshabin yurakdan kulishi va yig'lashi mumkin bo'lgan teatrga borgisi keladi», deb ta'kidlardi. Bu teatrda «insonning ruhiy hayoti sodda, tushunarli, yengil, ayni zamonda kuchli va ishonarli tarzda» ko'rsatilmog'i lozim. Stanislavskiy oldi-qochdi, soxta novatorlikni, yasama burunlarni, kumush rang zarkokillarni, serhashamlikni, «futuristlarcha bo'yalgan yuzlar»ni (futurizm – kelajak san'atini tuzish va eski an'anaviy madaniyat-

ni inkor qilish)ni<sup>1</sup> yomon ko'rardi. U teatrdan «boy fantaziyaning mazmundor soddaligini» talab qilardi.

K.S. Stanislavskiy formalistik teatr aktyorlarining soxta mahoratini shafqatsiz ravishda fosh qilardi. Formalistik aktyorlarning sahada «hamma narsani» o'ynashga qodirmiz, deb da'vo qilishlarini bema'ni diletantizm, «havaskorlik»dan boshqa narsa emas, derdi. Stanislavskiy diletantizmga hamisha nafrat bilan qarardi. Haqiqiy aktyor dastavval rolni uzviy ravishda qanday ijod qilish zarurligini o'rganmog'i kerak. U ichki va tashqi texnikani muttasil takomillashtirishi, shuningdek, «omilkorlikni talab etmagan san'atning yo'qligini hamda bu omilkorlikning mukammalligi uchun qat'iy o'lchovning mayjud emasligini bilmog'i lozim». K.S. Stanislavskiyning o'zi uchun ham hech qachon bunday o'lchov bo'lgan emas. «San'atdagi hayotim» ulug' artistning o'z mahorati hamda sahnadagi realistik obraz yaratish metodi ustida qunt bilan, hormay-tolmay ishlaganining yaqqol misolidir.

K.S. Stanislavskiyning e'tiroficha, 1915-yilda Badiiy teatrning «Pushkin» spektaklidagi Saleri rolda muvaffaqiyatsizlikka uchrashini sahna san'ati asoslarini yana ham chuqurroq o'rganishga bo'lган chaqiriq sifatida tushungan. U o'ziga xos qat'iylik bilan nutq va ovoz ustida ishlashga kirishadi, garchand bu uning uchun mashaqqatli davr bo'lsa-da, o'z xotiralarining bu bobiga «Aktyor gapirishga usta bo'lmosh'i kerak!» degan sarlavha qo'ydi.

K.S. Stanislavskiy uchun ijod «san'atkorning ma'naviy va jismoniy tabiatidagi diqqatning bir joyga to'la-to'kis to'planganligi» demakdir. U aktyordan sahnadagi har bir qadamini, har bir sahnaga chiqishini oldindan «artistlikning «haqiqat tuyg'usi filtridan» o'tkazishni talab qilardi. Stanislavskiy o'z xotiralarida doimo teatr masalalari doirasida fikr yuritgan bo'lsa ham, uning ijodiy protsess haqidagi fikrlarini badiiy ijodning boshqa sohalariga ham dadil tatbiq etish mumkin. Shu sababli o'z asarlarida hayotiy haqiqatni ko'rsatmoqchi bo'lgan har bir san'at arbobi Stanislavskiyning xotira kitobidan o'z ishi uchun boy ozuqa olishi mumkin. Ma'naviy bilim doirasining kengligi «Mening san'atdagi hayotim» kitobining qimmatbaho xususiyatlaridan biridir.

<sup>1</sup> Энциклопедия. Proxorov tahriri ostida. – М., 1990-й. 1454 bet.

K.S. Stanislavskiy hech qachon o‘z xotiralarini badiiy teatrning tarixi deb hisoblamasdi. Bu xotiralar uning uchun badiiy izlanishlarning ifodasi edi, xolos. Shunga qaramasdan, «San’atdagi hayotim» MXT tarixini o‘rganishda dastlabki muhim manbalardan bo‘lib qoldi. Bu kitobda biz K.S. Stanislavskiy bilan V.I. Nemirovich-Danchenkoning mashhur uchrashuvini, badiiy-ommabop teatrning tuzilishini, 1989–99-yilgi mavsumning boshlanishiga ko‘rilgan tayyorgarlikni ko‘ramiz. Stanislavskiy keyinchalik teatrning chorak asr davomidagi (1898–1923) ishini quyidagi davrlarga bo‘ladi: birinchi davr – 1898–1905-yillar; ikkinchi davr – 1906–1917-yilgacha; uchinchi davr – 1917-yilning oktabridan 1923-yilgacha bo‘lgan vaqtini o‘z ichiga oladi. Stanislavskiy teatrning izlanishlari davri deb atagan birinchi davrga ayniqsa mufassal to‘xtalib o‘tadi. Uning obrazli ta’biriga binoan «ijodiy izlanishlar yo‘li kalavadagi iplar singari har tomonga tarqalib yana uchrashib, o‘ralib turgan edi».

K.S. Stanislavskiy Badiiy teatrning birinchi ijodiy izlanishlar yo‘nalishini tarixiy-maishiy yo‘l, deb atadi. Bu yo‘nalishga «Podshoh Fyodor Ioannovich», «Ivan Grozniyning o‘limi», keyinchalik «Yuliy Sezar» va boshqa postanovkalarni kiritadi. Fantastik yo‘nalishni «Qorqiz», so‘ngra «Zangori qush» ifodalaydi. MXAT repertuarida-gi Ibsen pyesalari («Doktor Shtokman»dan tashqari) Stanislavskiy uchun simvolizm va impressionizm yo‘nalishi edi. «Chayka»dan boshlab intuitsiya va tuyg‘u yo‘nalishi boshlanadi. Chexovning boshqa asarlari ham shunga kiradi («Vanya tog‘a», «Uch opa-singil-lar», «Olchazor», «Ivanov»). Gorkiyning ijodi muhim rol o‘ynagan teatrning ijtimoiy-siyosiy yo‘nalishini Stanislavskiy alohida qayd qilib o‘tadi. «Teatrimizda ijtimoiy-siyosiy yo‘nalishni vujudga keltir-gan eng birinchi tashabbuskor Gorkiy bo‘lgan edi», – deydi Stanislavskiy.

Badiiy teatrning hayotida ijtimoiy-siyosiy yo‘nalishning dastlabki shu’lesi 1900–1901-yil mavsumida qo‘yilgan Ibsenning «Doktor Shtokman» spektakli bo‘ldi. »Doktor Shtokman»ning siyosiy spektakl sifatidagi taqdirini belgilashda ijtimoiy hodisalar, kayfiyatlar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Stanislavskiy bulardan quyidagi muhim xulosaga keldi: «Ijtimoiy kayfiyat vujudga keltirgan va tomoshabinni

shunchalik hayajonga sola olgan pyesa va spektakllar ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etadi va repertuarimizning shu yo'nali shiga kirish huquqiga ega bo'ladi».

K.S. Stanislavskiy va V.I. Nemirovich-Danchenkoning ta'siri ostida yosh Gorkiy tomonidan yozilgan «Meshchanlar» va ayniqsa, «Tubanlikda» pyesalari tufayli Badiiy teatrning ijodida ijtimoiy-siyosiy yo'nali shchinakam tantana qildi. Stanislavskiy o'z kitobida Gorkiuning ikkala pyesasi ustida bir qadar batafsil to'xtaladi. «Meshchanlar»ning muvaffaqiyatsizlikka uchrab, «Tubanlikda»ning muvaffaqiyat qozonganligining sabablarini tahlil qilib, Stanislavskiy takror-takror ta'kidlab bunday deydi: «Ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan pyesalarda rolning fikr va tuyg'ulariga chuqur berilsang bo'lgani, ana shunda pyesaning yo'nali shi o'z-o'zidan paydo bo'laveradi. «Meshchanlar»da yuqorida gidek muallif niyati bilan teatr ijodi bir-biriga qo'shilib ketolmadi. »Tubanlikda» pyesasida esa, Stanislavskiyning fikricha, teatr Gorkiy qalbining xilvatgohlariga kira oldi. Bu narsa dastlabki spektakllarning tomonidan hayajon bilan qabul qilinishinigina emas, balki spektaklning yarim asrlik hayotini ham ta'min etdi.

K.S. Stanislavskiy o'z xotiralarining ko'p sahifalarini A.P. Chexovga va u yozgan pyesalarning postanovkalariga bag'ishlaydi. A.P. Chexov pyesalari o'z badiiy qimmati, dramaturgik novatorligi jihatidangina Stanislavskiyga yaqin, qadrli bo'lib qolmay, balki yangi hayotning jarchisi bo'lgani uchun ham aziz edi.

Badiiy teatr hayotining ikkinchi davri – 1906–1907-yillar Stanislavskiy uchun «shubha-gumonlar va beorom izlanishlar bilan to'lib-toshgan» yo'lning davomi bo'ldi. U tajribakorlik xarakteridagi bu izlanishlar davomida Gamsunning «Hayot dramasi» va Leonid Andreyevning «Inson hayoti» singari, uning o'z ta'biri bilan aytganda, «irreal» (haqiqatda mavjud bo'limgan) asarlarni sahnaga qo'ydi va bu tajribalardan butunlay ixlosi qaytdi. Bu haqda o'ziga xos samimiyati bilan shunday deb yozadi: «Realizmdan uzoqlashib biz artistlar oyog'imiz ostidagi zaminni sezmay, o'zimizni ojiz his etdik». Badiiy teatr bu zaminni «Gamlet»da ham his etolmadi. Bu postanovkani qo'yishga ingliz rejissori – mistik va estet Gordon Kregning chaqirilishi ham foyda bermadi. «Natijada, – deb yo-

zadi Stanislavskiy, — yana boshi berk ko'chaga kirib qoldik, yana hafsalamiz pir bo'lib, bizni shubha-gumonlar, muvaqqat noumidlik va barcha izlanishlar uchun qonuniy hisoblangan boshqa narsalar chulg'ab oldi».

Badiiy teatr o'z realistik san'atini hammadan avval rus klassikasi postanovkalari tufayli saqladi va kamolotga yetkazdi. Kitobning «Qishloqda bir oy» spektakliga bag'ishlangan bobি Stanislavskiy «Sistema»sini amalda tatbiq etishning eng yaxshi bayoni hisoblanadi.

K.S. Stanislavskiy bilan V.I. Nemirovich-Danchenko hukumatning yordami tufayli Badiiy teatrni umumxalq mulki sifatida saqlab qoldilar, teatrni xalq bilan yaqinlashtirish yo'llarini izladilar. «San'atdagi hayotim» kitobining so'nggi boblari aktyorning yuksak ma'naviy madaniyat va haqiqiy realistik mahorat yo'lida olib borgan kurashiga bag'ishlangan. Stanislavskiy faqat shu yo'l bilangina ustuvor fikr va tuyg'ular teatrini, yangi, xalqchil, tomoshabinga tu-shunarli va kerakli teatr tuzish mumkinligini tushunardi.

K.S. Stanislavskiyning adabiy asarlari orasida «San'atdagi hayotim» kitobi alohida o'rinn egallaydi. Bu uning to'ng'ich adabiy asarlaridan hisoblanadi. Stanislavskiy bunga qadar ham yozuvchi sifatida qo'liga qalam olgan. Uning arxivida «Sistema» taraqqiyotining turli davrlariga taalluqli juda ko'p teatrga xos xotira daftarlari, qo'lyozmalar saqlanib kelsa-da, lekin ko'pincha bu ishlar oxiriga yetkazilmas edi. Gazeta va jurnallarda esa kichik maqolalar, nutqlar, suhbatlar, ayrim ocherklar bilan har zamonda qatnashib turardi. Masalan, 1907–1908-yilda «Rus artisti» jurnalida bosilib kelayotgan «Mavsumning boshlanishi» ocherklari bilan to'xtalib qoldi.

K.S. Stanislavskiy adabiy faoliyatining keng surat olishi yigirmanchi yillarga to'g'ri keladi. 1921-yilda «Teatr madaniyati» jurnalida sahna san'ati asoslarini ochib berishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan uning «Hunar» sarlavhali katta nazariy maqolasi bosilib chiqdi. Biroq, u teatr masalalari bo'yicha mashhur yozuvchi sifatida bir necha yildan keyin, kitobxonlar tomonidan darhol e'tirof etilgan «San'atdagi hayotim» kitobi chiqqandan so'ng ko'zga ko'rindi.

Bu kitobni K.S. Stanislavskiy 1923-yilda, oltmis yoshga kirganida yozishga kirishdi. Bu paytda u vatanidan uzoqda edi: Badiiy

teatr Yevropa va Shimoliy Amerikaga gastrolga borgan edi. Teatr bu safardan Moskvaga 1924-yilning oxirida qaytdi.

Chet eldag'i gastrol sharoitida kitob ustida ishlash juda qiyin edi, chunki Stanislavskiy spektakllar, repetitsiyalar, ma'muriy, rejissorlik vazifalari va bir shahardan ikkinchi shaharga ko'chish bilan band bo'lardi. Shunga qaramay, Stanislavskiy butun bo'sh vaqtini kitobga sarf qilardi. Hatto, u ikkita spektaklda o'ynagan kunlarida ham ilgaridan tayyorlab qo'yilgan tekstni ertalab va spektakllar orasida mashinistikka diktovka qilar edi. U 1923-yilgi yozgi dam olishni ham kitob ustida ishlashga bag'ishladi. Kitob tez orada ingliz tilida nashr qilinishi lozim bo'lganidan Stanislavskiy kitobxonga aytmoqchi bo'lgan ko'pgina fikrlarni bayon etolmadi. 1924-yil fevral oyida kitobning birinchi redaksiyasi tayyor bo'ldi va shu yilning may oyida ingliz tilidagi tarjimasi Amerikadagi nashriyotlarning birida chop etildi.

K.S. Stanislavskiy Moskvaga qaytib kelgandan so'ng «San'atdagi hayotim» kitobining ruscha nashrini tayyorlashga kirishdi. Tayyor-garlik tez orada kitobni butunlay qaytadan ishlab chiqishga aylandi; kitobning bu nusxasini ko'p jihatdan yangidan yozildi deyish mumkin. Stanislavskiy o'z xatlaridan birida (1925-yil, yanvar) kitobning dastlabki redaksiyasini «judha sodda yozilgan» deya ta'kidlagan edi. «Men kitobning butunlay yangi redaksiyasini tugatdim, bu, shub-hasiz, Amerikada bosilgan nusxaga nisbatan qiziqroq; yaxshiroq va zarurroqdir». Xullas kitobning 1925-yilgi redaksiyasinigina eng mukammal variant deyish mumkin.

«San'atdagi hayotim»ning to'la-to'kis varianti 1926-yilda Moskvada nashr qilindi. Shundan keyin Stanislavskiy avtor sifatida bu asari ustida ishlamadi; faqat 1928-yilgi ikkinchi nashriga faktik tu-zatishlar kiritdi, xolos. «San'atdagi hayotim» Stanislavskiyning hayot paytida oxirgi marotaba 1936-yilda o'zgarishsiz nashr qilindi. Shu sababli memuarlarning xronologik tartibi Badiiy teatrning chet ellarda rus dramatik san'atining butun kuch-qudrati va go'zalligini namoyish qilgan tantanali gastroldan qaytgan 1924-yil bilan belgilanadi.

Ulug' vatanparvar san'atkor Stanislavskiyning zakovati yangidan ravnaq topgan so'nggi davr – 1925–1938-yillar «San'atdagi hayotim» asariga kirmay qoldi. Xuddi mana shu davrda rejissor sifatida Stanislavskiy «Bronepoyezd 14–69», «Olovqalb», «Figaroning

uiyanishi», «O'lik jonlar» singari yirik spektakllarni yaratdi. Bu yillar ichida o'z bilimlarini sahovat bilan yosh postanovkachilarga o'rgatdi. Uning fikr-tasavvuri bitmas-tuganmas edi. U Bolshoy teatr qoshidagi kichik studiyadan o'sib chiqqan o'z nomidagi opera teatriga ko'p kuch sarf qildi. Bu teatarda u «Shoh kelini», «Boris Godunov», «May oqshomi», «Karmen», «Sevilya sartaroshi» operalarini sahnaga qo'ydi. Bu opera teatrida ham opera sahnasining yosh rejissorlariga «rejissorlikdan» dars berdi.

1928-yilda boshlangan og'ir yurak xastaligi Stanislavskiyning aktyorlik ishini umrbod to'xtatib qo'ydi, biroq ta'kidlash joizki, rejissor pedagog va olim sifatida hormay-tolmay ishladi. U aktyorning o'z ustida va rol ustida ishlashi haqida kitoblar yozdi. Yangi tashkil qilingan opera-dramatik maktabda teatr yoshlarini tarbiyaladi. Ularga barcha bilimini, boy ijodiy tajribasini berdi.

K.S. Stanislavskiy hayotining bu oxirgi davrida avj olgan ijodiy faoliyatining keng ko'lami ulug' san'atkorning ikkinchi yoshligidan dalolat beradi. U 1938-yilda 75 yoshga to'lgan bo'lsa ham san'atkori sifatida tinib-tinchimadi. U, aktyor ijodi haqida bir qancha yangi kitoblar yozishni, bor kuch-quvvatini, erishgan tajribasini xalqqa berishni orzu qilardi. «Yakunlar va istiqbol» bobi bilan tugallangan «San'atdag'i hayotim» kitobi ham shu kabi orzu-tilaklar bilan sug'orilgan.

K.S. Stanislavskiyning «San'atdag'i hayotim» kitobi g'oyat adabiy qimmatga ega bo'lgan asardir. Stanislavskiyning tili sodda, aniq va go'zal. Stanislavskiy o'z fikrini yaqqol ifoda etmoqchi bo'lganda hayotning turli sohalaridan olingan obrazli taqqoslashlarga murojaat qiladi. Bu uning fikrlariga go'zallik va teranlik baxsh etadi. Yozuvchi sifatida Stanislavskiy juda sezgir. U ayrim kishilar ta'rifiga to'xtalar ekan, ularga xos xarakterli, tipik xususiyatni beradi. Bu adabiy portret yaratish mahorati, ayniqla, yoshlik chog'larida barcha maktablardan ko'ra uning ma'naviy takomiliga ko'proq ta'sir ko'rsatgan Maliy teatrning atoqli ustalari haqida so'z yuritganda ko'zga tashlanadi. Lekin Stanislavskiy bu jihatdan ham faqat tashqi chiziqlarga berilib ketmaydi. U, Maliy teatrning atoqli arboblari to'g'risida juda qisqa gapiradi. Jumladan, talantli komik Jivokini haqida so'z yuritar ekan, uning kulgili vaziyatlarda ham dar-

hol fojiaviy ravishda jiddiy tus ola bilishi sirini ochib beradi: «O'z iste'dodiga xos samimiyat bilan, – deb yozadi Stanislavskiy, – iz-tirob chekkanini, bezovta bo'lganini, yo'q narsaga shuncha g'avg'o ko'targanini ko'rib, o'zini kulgidan to'xtatolmaydi». «Jiddiyat bilan kuldirish»ning ajoyib xususiyatini, keyinchalik Stanislavskiyning o'zi ham Molerning «Ayyor kasal» komediyasida Argan rolini o'ynaganda namoyish qildi.

Stanislavskiy ta'biricha «Xudoning marhamati bilan xarakterli aktrisa bo'lgan» Nadejda Mixaylovna Medvedeva haqidagi yorqin hikoyada xarakterli aktrisa uchun zarur bo'lgan ziyraklik haqida gapiradi. Uning ziyrakligini isbotlaydigan qator misoltar keltiradi, kishilarning jonli suratini gavdalantirishdagi porloq iste'dodiga, hayotga bolalarcha samimiymunosabatda bo'lishiga tan beradi.

K.S. Stanislavskiy o'zi ko'rishga tuyassar bo'lgan artistlardan Yermolovani juda ulug'laydi. O'zi ham u bilan birga sahnada birga o'ynagan edi. Stanislavskiy yozadi: «Mariya Nikolayevna Yermolova rus teatri uchun bir davr hisoblanadi, bizning avlod uchun esa latofat, go'zallik, katta qudrat, zo'r pafos, samimiy soddalik va kamtarlik ramzidir». Stanislavskiy Yermolovadagi artistlik zakovatining ichki va tashqi xususiyatlarini ajoyib tarzda ta'riflab, Yermolova ijodining «urug'i» haqida, xarakterli artistka bo'lmay turib, har bir rolda «boshqalarnikiga, ilgari o'ynalgan rolga o'xshamagan alohida ma'nnaviy obraz yaratgani» haqida gapiradi.

K.S. Stanislavskiy san'atning turli sohalariga mansub ulug' kishilar bilan uchrashuvlari haqida so'z yuritib, bunday deydi: «Ulug' kishilar bilan yuzaki munosabat ham, ularga yaqin bo'lish ham, shuningdek, ruhiy oqimlarning beixtiyor almashinushi, ularning turli voqealarga nisbatan ba'zida ongsiz munosabatda bo'lishlari, hayajonlanishlari yoki so'zlari, ma'nodor sukunatlari ham qalbimizda iz qoldiradi. «San'atdagi hayotim» kitobining musiqa bobida ta'rif qilingan A.G. Rubinshteyn bilan yoshlik chog'laridagi uchrashuvlari uning qalbida xuddi ana shunday iz qoldirdi. Rubinshteyndan olingan birinchi taassurot (kompozиторни «yirtqichlar podshohi»ga o'xshatgan edi) – sher bilan taqqoslashtirilishi Stanislavskiy tomonidan butun boshli bir lavhaga aylantirilgan. Bu adabiy portret Rubinshteynnning Repin ishlagan ajoyib portretini eslatadi. Stanislavskiy pult oldida

turgan Rubinshteynni ta’riflar ekan, go’yo uning o’zini ko’rgandek bo’lamiz. Rubinshteynning o’tkir qarashlari, silkinganda yuzining yarmini to’sib oladigan sherniki singari qalin sochlari, «qo’llari, har tomonga yirtqichlarcha intilishi» Stanislavskiyning yodida qolgani uchun uchrashuvlar haqidagi hikoyalarda bu narsa yaqqol aks etgan.

Stanislavskiy u yoki bu spektaklini mufassal ta’rif etmoqchi bo’lganda, kitobxon nazarida, u go’yo tomoshabinga aylanib ketadi. «Qorqiz» spektaklini esga olib, Stanislavskiy kamtarlik bilan «postanovkadan ba’zi misollar keltiraman», deydi-da, prologni ta’riflab ketadi. Shundan keyin alvastilar oilasi, Qorbobo va qora ayiq bilan o’ynayotgan Qor qizi bilan gavjum o’rmon manzarasini ko’z o’ngimizda gavdalantiradi. Ayrim tasvir vositalarining qay xilda bajarilganligi rejissorlik izohlari bilan tushuntiriladi. «Yuliy Sezar»ning birinchi ko’rinishi boshlanar ekan – Stanislavskiyning tasvirida to’liq bir manzara gavdalanadi: Rim ko’chasidagi rastalar, sartaroshxona, temirchilar do’konii, qiz-juvonlar, satang xotinlar, oldi-sotdi bilan ovora bo’layotgan kishilar ko’rinadi. Bu manzarani Stanislavskiy juda ravshan va aniq tasvirlaydi; uning o’zi shu tobda Rim ko’chasida kezib yurgandek tuyiladi. Spektakllar haqidagi mana shunday ajoyib ta’riflarni kitobning har bir bobida uchratish mumkin.

Jo’shqinlik K.S. Stanislavskiy xotiralariga xos xususiyatdir. Kitobxon Stanislavskiyning o’zini ham hamisha taraqqiyotda, harakatda, ijtimoiy va badiiy qarashlarni o’zgarishida ko’radi. San’atkor va insонning bu ijodiy o’sishi «San’atdagi hayotim»ning butun tuzilishida aks etgan. Kitobning har bir qismi artistlik hayotining ma’lum davriga bag’ishlangan. Artistlik bolaligi artistlik o’smirligi bilan, artistlik yoshligi artistlik balog’ati bilan almashinadi. Balog’atga yetgan Stanislavskiyning ijodiy hayotini ko’zdan kechirar ekanmiz, uning hech qachon artistlik keksaligiga aylanmasligiga ishonamiz. U umrining oxirgi yillari sahnaviy san’atning tashqi va ichki texnikasini o’rganish ustida ishlar ekan, u san’atkorning hech vaqt qarimasligini yaxshi biladi, uning ta’biri bilan aytganda, artist qancha ko’p yashasa, u o’z sohasida shunchalik «kuchli va tajribali» bo’ladi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> K.S. Stanislavskiyning «San’atdagi hayotim» kitobiga N. Volkovning kirish so’zi. – F., Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965-y, 3–13-betlar.

Stanislavskiy Konstantin Sergeyevich (Alekseyev)ning ijodini o'rganish — ommaviy bayramlar rejissurasi bo'limida tahsil olayotgan talabalarga rejissura asoslarini o'rganishidagi asosiy manbalaridan biri hisoblanadi.

### ***Takrorlash uchun savollar***

1. K.S. Stanislavskiyning hayoti va ijodi haqida gapirib bering.
2. K.S. Stanislavskiy sistemasining mohiyati nimalardan iborat?
3. Teatr reformatori K.S. Stanislavskiyning teatr san'atiga aloqador manbalari (yozgan kitoblari, sahnalashtirgan asarlari) haqida gapirib bering.
4. «San'atdagi hayotim» kitobida asosiy urg'u nimalarga berilgan?

### **VSEVOLD EMILYEVICH MEYERXOLD (1874–1940)**

Har qanday nazariyaning vujudga kelishi ma'lum yangilik yaratilishi jarayonida, amaliy jihatdan isbotlangan aniq ish jarayonda amalga oshiriladi. Bu jihatdan aktyorlik mahorati va rejissur sohasida ham bizning davrimizgacha turli yo'nalishlar, turli qarashlar, nazariyalar vujudga kelgan. Yillar, davrlar o'tishi zayli kishilar hayotidagi o'zgarishlar, ular qarashlaridagi, psixologiyadagi tub o'zgarishlar ham bu soha xodimlarini aql bilan ish yuritishga majbur etadi. Har qanday san'at ham mafkuralimizni targ'ib va himoya qilmog'i darkor. Aynan V.E. Meyerxoldning serqirra, baha ijodi ham o'z davri mafkurasini himoyachisi sifatida gavdalandi ayni vaqtida u shu mafkuraning qurbanini bo'ldi.

V.E. Meyerxold Penzada kamtarin, lekin o'ziga to'q oilada di nyoga keldi. Uning otasi Emil Fyodorovich Meyerxoldning shaxs aroq zavodi bor edi. Ana shu zavoddan olgan daromad evaziga oila boqardi.

Uning oilasida ko'pincha shu davrning yetuk san'atkori, rassonlarini uchratish mumkin edi. Yosh Meyerxold uchun bu uchrashuv hamda suhbatlar uni teatr san'atiga bo'lgan qiziqishini kuchaytir edi va uni ijod bo'sag'asiga yo'naltirardi. U sakkizinchisinfda o'q yurganidayoq maktabda dramto'garak tashkil etdi. «Aqlililik balo asarini maktab sharoitida sahnalashtirib, o'zining yaxshi tashkili

chi-rejissorlik qobiliyatini namoyish etdi. (Keyinchalik u Moskva universitetining yuridik fakultetiga talaba sifatida qabul qilindi).

V.E. Meyerxold teatr san'atini juda sevardi. U Moskva Badiiy teatrda ishlab yurdi va bu yerda bir necha obrazlarni mahorat bilan yaratdi. Lekin u o'zidan hech qoniqmadidi. U yangilik tarafdori edi. Undagi jo'shqin ijodiy kuch, g'ayrat, shijoat uni mustaqil ish qilishga undardi. 1902-yil Badiiy teatr dan ketdi va o'zining mustaqil sezonini Xersonda boshladidi. Dastlab uning sahnalashtirgan asarlari Moskva etalonini bo'yicha, ya'ni Badiiy teatr dagidek sahnalashtirildi (Masalan, «Uch opa-singillar»). Lekin keyingi rejissorlik ishlari u xersonliklarga butunlay boshqacha yo'nalihsdag'i sahna asarlari ni taqdim eta boshladidi. A.P. Chexov asarlari – «Chayka», «Vanya tog'a», «Ivanov», «Medved», g'arb dramaturglari Gaubtman va Ibsen, Pshibivskiy va Zuderman asarlari shular jumlasidandir.

Meyerxold Moskva universitetining yuridik fakultetini tashlab, V.I. Nemirovich-Danchenko rahbarlik qilayotgan musiqali-dramatik bilim yurtining 2-kursiga o'qishga kirdi. 1988-yilda ko'pgina bitiruvchilar qatorida MXT truppasiga qabul qilindi. Bu yerda u bir qancha rollarni qoyilmaqom qilib o'ynadi. «Shoh Fyodor Ioanovich»da Vasiliy Shuyskiy, «Ioann Grozniyning o'limi»da Ioann Grozniy (L.N. Tolstoy asari), «Venetsiya savdogari»da shahzoda Aragonskiy (V. Shekspir), «Antigona»da Tireziy (Sofokl), «Yolg'iz odamlar»da Logannes (G. Gauptman), «Chayka»da Treplov, «Uch opa-singillar»da Tuzenbax (A. Chexov) kabi rollari shular jumlasidandir.

U 1902-yilda MXTdan ketadi va yosh aktyorlar gruppasi rahbarlik qiladi (keyinchalik bu guruh «Yangi drama o'rtoqligi» deb ataldi). Meyerxold bunda 100 dan ortiq rollarni ijro etdi. 1902–1905-yillarda Meterlink, A.P. Chexov, M. Gorkiy, Ibsen, G. Gauptman va boshqa mualliflarning 200 dan ortiq asarlarini sahnalashtirdi.

1905-yilda K. Stanislavskiy V.E. Meyerxoldning sahna mahoratlari haqida eshitib, uni eksperimentlarini Moskvadagi Povarskoy studiyasida davom ettirishni taklif qildi. V.E. Meyerxold buning uchun Meterlinkning «Tenjaliyaning o'limi» va Gauptmanning «Shluk va yau» asarlarini tayyorladi.

1906-yili Meyerxoldni V.F. Komissarjevskaya Peterburgdagi o'z teatriga bosh rejissor sifatida ishlashga taklif qiladi. Bu yerda turli

bahs-munozaralarga sabab bo'lgan 13 ta spektakl qo'yadi. Bahslar, tortishuvarlar, tanqidchilar e'tirozlar shu darajaga borib yetdiki, Komissarjevskaya uni teatrda ketishini iltimos qildi.

1906–1917-yillarda Peterburg imperatorlik teatrlarida, asosan Aleksandrinskiy teatrida faoliyat olib bordi. U rassom A. Golovin bilan hamkorlikda ishlab, yangicha sahnaviy forma va shakllar yaratish borasida izlandi. Molerning «Don Juan» (1910-y), P. Kaderonning «Qat'iyatl shahzoda» (1915-y), A. Ostrovskiyning «Moqaldiroq» (1916-y), M.Y. Lermontovning «Maskarad» (1917-y) asarlari shular jumlasidandir. U klassik asarlar bilan bir qatorda zamnaviy dramaturglarning asarlariga ham murojaat qildi. L. Tolstoyning «Tirik murda» (1911-y), F. Sollogubning «Hayot garovlari» (1912-y), Z. Gippiusning «Yashil aylana» (1915-y) asarlari tomoshabinlarda chuqur qiziqish uyg'otdi. Marinskiy teatrida u 3 ta opera spektaklini sahnalashtirdi. Bular R. Vanernerding «Tristian va Izolda», (1909-y), K. Glyukning «Orfey» (1911-y) va A. Dargomijskiyning «Tosh mehmon» (1917-y) asarlaridir.

Aynan shu yillar mobaynida V.E. Meyerxoldni maydon teatrlari rejissurasi ham juda qiziqtirdi. U iste'dodli rassomlar N. Sapunov va S. Sudeykinlar bilan birga maydonlarda sahnaviy kengliklarni, shartli teatr prinsiplarini yaratish ishini olib bordilar. U o'zining «Teatr haqida»gi kitobida (1913-y) «shartli teatr» konsepsiyasini nazariy asoslarini ishlab chiqdi (bu nazariya ham bir qancha bahs-munozara, tortishuvarlarga sabab bo'ldi, chunki bu sahnaviy naturalizmga qarshi fikr edi).

«Misteriya-buff» (Mayakovskiy asari) aynan maydon ifoda vositalari, tomoshaviy effektlar, keng maydondagi sirk-klounadasi, folklo va boshqalarini V. Meyerxold tomonidan mahorat bilan qo'llanish teatrshunoslar va tanqidchilarni ancha o'ylantirib qo'ydi.

20-yillarga kelib, u nazariyalarini, yangi teatr modelini amaliyotda qo'llay boshladи. Meyerxold Narkomprosning teatr bo'lidi (TEO) boshlig'i sifatida ishladi. Shu yillarda u akademik teatrlarga nisbatan «urush» e'lon qildi. Bu teatrlar yangi haqqoniylar bilan til topisha olmayapti, deb ochiqdan-ochiq ayta boshladи 1921-yil A. Lunacharskiy uni TEO rahbarligidan ketishini iltimoq qildi.

U Moskvada teatr – RSFSR-1, keyin yosh aktyorlar gruppasi – Aktyor teatri, keyinchalik esa – GITIS teatri, 1923-yildan Meyerxold nomi bilan atala boshlandi. A. Suxovo-Kobilinning «Tarelkining o'limi» (1922-y), F. Krommelinning «Великодушный рогоносец» (1922-y) asarlarini sahnalashtirish jarayonida sahnaviy konstruktivizm va «sirk teatri» uslubini qo'lladi. Meyerxoldning aktyorlari maxsus o'quv «мастерской» (ustaxona)larda tahsil olishgan. Bu ustaxona 1923–1931-yillarda GEKTEMAS (Государственная экспериментальная театральная мастерская) deb atalgan. Bunda uslubning asosiy predmeti –biomexanika edi.

1923-yilda A.N. Ostrovskiyning «Serdaromad joy» va A. Faykoning «Lyul ko'li» asarlarini sahnalashtirdi. 1924-yilda Ostrovskiyning «О'рмон» («Лес») asarini «ijtimoiy niqoblar» (социалн. маски)ni qo'llagan holda sahnalashtirdi. Ushbu asar tomoshabinlar tomonidan qizg'in kutib olindi va 14 yil ichida 1338 marta namoyish etildi.

V.E. Meyerxold Mayakovskiyning «Кана» («Клоп», 1929-y), «Hammom» («Баня», 1930-y), I. Selvinskiyning «Komandorm-2» (1929-y), V. Vishnevskiyning «Oxirgi qat'iyatlisi» («Последнего решительного», 1931-y), Y. Germanning «Chiqish» («Вступление», 1933-y), A. Dyumaning «Даму с камелиями» (1935-y) va Lenigrad maliy opera teatrida P.I. Chaykovskiyning «Пиковая дама» asarlarini sahnalashtirishda ham yangi yo'naliishni targ'ib qildi.

U tomoshabinga ta'sir qilishning turli yo'llarini Stanislavskiy prinsiplaridan farqliroq, ko'proq namoyish qilish, jestlar, mimikalar, pozalar orqali amalga oshirish borasida izlandi. Uning sahnalashtirgan asarlarida tomoshabin tomoshabin sifatida emas, balki bevosita shu asar ishtirokchisi sifatida gavdalangan. Buning uchun u mizanssenalarni mana shu vazifalarga mos qilib joylashtirardi. U improvizatsiyaga to'la erkinlik berardi. Buning uchun esa u pedagog-muallim sifatida asar temasi, g'oyasi, oliy maqsadi kabi tu-shunchalarni aktyorlarga singdirib, psiko-fizik holatlarini ana shu rolga mos qilib tayyorlar va repetitsiya qilar edi.

Meyerxoldning izlanishlari ko'p tanqidchilar uchun tayyor material edi. Shu davrda faqat Stanislavskiy tomonidan sahnalashtirilgan asarlarga muvaffaqiyat bilan himoya qilinardi. Kechinma san'at ruhidagi asarlar so'zsiz tahsin va maqtovlarga sazovor bo'lardi. Ba'zi

tanqidchilar V. Meyerxolddagi izlanishlarni «jahon teatrlari tan olgan K. Stanislavskiy «Sistema»siga qarshi nazariyadir», degan xulosalar chiqara boshladilar. Ular Meyerxold ish uslubidagi stilizatsiya metodini, grotesk shaklidagi harakatlarini «hayotni haddan tashqari bo'rttirib ko'rsatyapti, hayotda esa bunday bo'lishi mumkin emas», deb jar soldilar.

Stilizatsiya bu hayotiy materialning o'ziga xos sxematik ko'rinishi, ya'ni hayotiy materialning san'at asariga aylanishidir. Stilizatsiya Meyerxoldga aktyorning o'z tanasini boshqara olishi, sahnada erkin harakat qila olishi uchun kerak edi. Xullas, stilizatsiya Meyerxold rejissurasida aktyor o'yinining prinsipi (принцип актёрской игры) sifatida namoyon bo'ldi.

Stilizatsiya usulining ikkinchi bosqichi groteskdir. Bunda rejissor aktyorlik mahoratining turli qirralarini ko'rsata olishiga imkon berdi, ya'ni grotesk orqali chiroyli jestlar, so'zni yetkazishda qo'l harakatlari, chiroyli holatlar (pozalar) va harakatning yorqin ifodaviyligiga erishishni anglati va o'z aktyorlari bilan bu janr ustida ko'proq shug'ullandi. Uning teatri eng avvalo tomoshavyidir. Uning spektakllari tomoshaga aylanib ketardi. Tomoshabin uning sahna-lashtirgan asarlarida rassomning turli rangda bo'yalgan va bezatilgan dekorativ pannolari, fantastik xildagi kostumlari, tomoshabini turli holatga keltiruvchi musiqa va o'z tanasini mahorat bilan boshqarayotgan aktyorlik mahoratining uyg'unligidan o'ziga estetik zavq olardi. Tomoshabin o'z qahramonining muvaffaqiyatidan quvonsa, halokati yoki muvaffaqiyatsizligidan kuyinardi.

Bunday muvaffaqiyatga u o'z aktyorlariga bergen saboqlari orqali erishgan.

V.E. Meyerxold rejissurasida stilizatsiya usulidan tashqari maskadan foydalanish aktyor uchun izlanish qurollaridan biri bo'lib xizmat qilgan. Maska kiygan aktyorning holati, kechinmasi, qayg'usi, xursandchiliginizi sezish qiyin. Rejissor esa bu holatlarni harakatlar orqali yetkazishni vazifa qilib qo'ydi, ya'ni maska – aktyor harakatining aniq kombinatsiyasi uchun zarur quroq bo'lib xizmat qilgan.

V.E. Meyerxold ijodiyotini o'rganishda har bir uning yangilik yaratish borasidagi xizmati haqida ko'plab gapirish mumkin. Atoqli rejissor V.Saxnovskiy V. Meyerxold ijodi haqida shunday deydi:

«Meyerxold qo'ygan asarlari xuddi pamphletga o'xshaydi. Uning rejjissurasidagi qahramonlari, konstruksiyalari va boshqa badiiy jihatlari siyosiy/ruh kashf etardi. Rejissor muomalasida bu juda silliq yoki aniq aks etganday bo'lardi, lekin aslida esa tomoshabin agitpyesa yoki pamphlet tomosha qilardi. U materialni shunchalik zamnaviylashtirardiki, dramaturg asaridan ko'ra uning rejissurasida originallik yaqqol ko'zga tushardi.

V. Meyerxold o'zi sahnalashtirgan asarlarida spektaklning g'oyaviy-badiiy jihatdan ifodalovchi, bizning tilimiz bilan aytganda, sahna bezagiga katta ahamiyat berardi.

Nikolay Tarabukin (GITIS – tasviriy san'at o'qituvchisi) GosTIMning 10 yillik yubileyi munosabati bilan yozgan «GosTIMning tomoshaviy bezagi» (Зрительные оформление в ГосТИМе) maqolasida Meyerxoldning tomoshaviylik jihatlarini tahlil qilib shunday fikrlarni aytib o'tgan: «Spektakl tomosha qilinadi, demak u tasviriy san'at hamdir, chunki spektakl so'zi lotincha «ko'rmoq» so'zidan olingan. Pyesa esa qo'yiladi. Meyerxoldgacha rejissorlардаги постановкаларда томошабин фақат пьесани ешилди, лекин постановкадаги композицион тасвирiy bezagini ko'rmas edilar. Конструктивизм esa, — давом этади N. Tarabukin, — бутафор, декоратсиya, turli rasmlardan ko'ra Meyerxold ijodida o'ziga xos topilmadir»<sup>1</sup>.

Uning rassomlari rejissor vazifasidan keyin o'zlarini konstruktor deb faraz qillardilar. Bu konstruksiyalar Meyerxold shartli teatri aktyorlari uchun kerak edi. Sahnadagi detallar faqat aktyor o'yini uchun stanok emas, balki shu asarning g'oyaviy mazmunini ham yoritib berishi kerak; ular obraz hamdir. Shuning uchun rejissor o'z asarlarining g'oyaviy-badiiy mukammalligiga katta ahamiyat bergen va o'zi rassomlar bilan birday ishlagan.

Meyerxold ijodining eng buyuk yutug'i shundan iboratki, u o'zining «biomexanika» to'g'risidagi ta'limotini ishlab chiqdi. Biomexanika Meyerxold aktyori uchun eng asosiy quroldir, yoki biomexanika – aktyor tanasining psixo-fizik holatlarida kuzatilishi mumkin. Biomexanika konsepsiysi aktyor ijodiy protsessining etaplari, formalari va elementlarini o'z ichiga oladi.

<sup>1</sup> «Teatr» jurnali. 1-son. – M., 1990-y.

Aktyor o'zining ifodaviy va ta'sirchan vositalarini boshqara olishi kerakligi haqida Meyerxold shunday deydi: «Men sahnaga chiqib qiynalishim, azob chekishim, haqiqiy ko'z yoshlарим bilan yig'lashim mumkin, lekin mening xatti-harakatlarim, holatlarim g'oyaga mos kelmasa mening kechinmalarim hech qanday natija bermaydi. Men sahnada baqirishim, hatto o'lismumkin, lekin tomoshabin hech narsaga tushunmaydi yoki ta'sirlanmaydi, agar men tomoshabinga nima demoqchi bo'lganimni yetkaza olish yo'lini topmasam».

Biomexanika – aktyor harakatining asosiy prinsipi – fikr, inson miyasi, insonning fikrlovchi apparatining faoliyati bilan belgilanadi. Faqat harakat yoki so'z emas, inson miyasi ham aktyorning asosiy qurolidir, chunki miya aktyorning o'ziga vazifa beradi va uni bajarishga undaydi, ya'ni miya aktyorni harakat bilan boyitadi. Meyerxold aktyorning fikrlash qobiliyatini to'g'ri yo'naltirishga, aktyorning o'ziga-o'zi tanqidiy yondashishga undardi va bunga intilishni yuqori baholagan.

Fikr, harakat, emotsiya (hissiyot), so'z – V. Meyerxold biomehanikasi aktyorining ijodiy jarayon yo'lini N. Pesochinskiy shunday tasvirlaydi.

V. Meyerxold aktyorlarini tanasini doimo trenirovka qilishga majbur qilib, jismoniy sport aktyorning asosiy predmeti, quroli hisoblanmog'i kerak, degan fikrlarni o'z aktyor-o'quvchilariga tu-shuntirardi.

Y. Ayxenvald Meyerxoldga savol tariqasida shunday deydi: «Men tushunaman, aktyorga matndan tashqari yana ko'p vazifalarni bajarishi kerak bo'ladi, ammo jest, mimikalar aktyor psixologiyasining mohiyatini ochib bera olmaydiku?» V. Meyerxold shunday javob beradi: «Aynan shu narsalar uning psixologiyasining mohiyatini ochib beruvchi vositalardir. Chunki aktyorda matndan tashqari «qudratli imkoniyat», ya'ni jest va harakat bor. Qarang, aktyor boshini pastga qaratib, yuzini qo'li bilan to'sib, boshini chayqayapti. Demak, tomoshabin tushundiki, aktyor yig'layapti. Lekin bu payt aktyor o'ziga tragik holat berib, balki kulayotgandir. Aktyorning pozasida jestlarida ana shunday buyuk, ishontiruvchi qudrat bor», – degan edi u Y. Ayxenvaldga javoban.

V.E. Meyerxold ichki kechinma yo'nalishidagi aktyor o'yiniga qarshi emas edi. Kechinma uning biomexanikasida aktyor uchun inkor qilinmagan holda, uni eng asosiy element emas, balki aktyor vositalaridan biri sifatida qaralgan (masalan, kechinma – aktyor o'yinining plastik hal qilishida zarur bo'lishi mumkin).

Aktyor texnikasining rivoji predmetsiz, sirk akrobatizmiga olib kelishi mumkin, degan fikr Meyerxoldga xosdir.

V.E. Meyerxold ijodini o'rganish – talaba-aktyor uchun ushbu sohaning eng muhim elementlarini o'rganish, ya'ni, ularni o'z rejjisorlik faoliyatida qo'llash, tomoshaviylikka erishish yo'llarini o'rganish va qo'llash – aktyorlik mahorati va rejissura sohasi faoliyatida ish yuritishiga katta yordamchi bo'la oladi. Haqiqatdan ham K.S. Stanislavskiy sistemasidagi «kechinma» san'ati ommaviy bayram va tomoshalarda doimo qo'l kelavermaydi. Ommaviy bayram va tomoshalar ochiq maydonlarda, parklar va ko'chalar, xullas noan'anaviy sahnnaviy kengliklarda o'tkazilganligi uchun Meyerxold maktabi aynan qo'l keladi.

Rejissordagi eng asosiy fazilat bu originallikdir. Meyerxoldning har bir sahnalashtirgan asarida, har bir rejissorlik ishlarida originallik ko'zga yaqqol tushadi. Biror-bir spektakl, bayram yoki tomoshani sahnalashtirishda u xoh ssenariy yaratish bo'lsin, xoh rassom bilan ishlash, kostum tanlash, chiroq, musiqa tanlash, shovqinlar, aktyorlar bilan ishlash jarayoni bo'lsin – originallikka erishish yo'llarini topishimiz lozim. Shu jihatdan, Meyerxold maktabi aynan ommaviy bayram va tomoshalar uchun yozilgan ta'limot emas. U yuksak yutuqlarga sahnalashtirgan spektakllarining original topilmalari, rejissorlik g'oyalari orqali erishgan. Uning spektakllari ichida muvaffaqiyatsiz chiqqanlari deyarli bo'lмаган. Masalan, Pavel Gromov degan bir olim: «K. Stanislavskiy sahnalashtirgan «Пиковая дама» asari ko'ngildagidek chiqmadi. Ammo, V. Meyerxold tomonidan sahnalashtirilgan ushbu asar juda katta muvaffaqiyat qozondi. Uning «Пиковая дама»си – genialdir», – deb eslaydi. V. Meyerxold maktabining mohiyati shundan iboratki, to'la biomexanika ta'limoti bilan quollangan aktyorlar ijrosida badiiy, tasviriy jihatdan jihozlangan, sahnadan turib tomoshabinga estetik zavq bag'ishlash, uni bevosita tomoshaning ishtiroychisiga aylanti-

rish va buning natijasida effektli tomoshaviylikka erishishga intilishdir.

Aslida, Meyerxold maktabi Stanislavskiy sistemasini inkor qilmaydi, balki uni boyitadi. Shuning uchun ham zero bahsli bellashuvlar, turli fikr-mulohazalar bo'lsa ham Stanislavskiyning «Meyerxoldni asranglar» degan so'zлari jahon xalqlari tan olgan teatr nazariyotchisining V.E. Meyerxold ijodini tan olganligidan dalolat beradi.

V.E. Meyerxold XX asrning birinchi yarmida yashab, ijod qilgan badiiy madaniyatning yirik namoyandasidir.

Xulosa qilib aytganda, V.E. Meyerxoldning ijodiy yo'li o'ziga xos yorqinligi bilan ajralib turadi. Uning nomi teatrning mashhur arboblari K.S. Stanislavskiy, V.I. Nemirovich-Danchenko, E.V. Vaxtangov, A.Y. Tairov, K.A. Marjonovlar bilan bir qatorda turadi. Shu o'rinda E.B. Vaxtangov V. Meyerxold haqida: «U kelajak teatrining ildizini yaratdi, kelajak albatta bunga baho beradi», degan edi.

V.E. Meyerxold ijodining birinchi davri 1905–1917-yillar Moskva Badiiy teatrida Stanislavskiy va V. Nemirovich-Danchenko rahbarligi ostida boshlanganligi barchamizga ma'lum. O'sha kezlardayoq u o'zining yangi teatri, ya'ni «ramziy teatr»ini ochish rejalarini tuza boshlagandi. Uning bu orzusi K. Stanislavskiy bilan fikri to'g'ri kelishi natijasida amalga oshdi. U o'z ijodi davomida spektakllarda konstruktivizm va biomexanika prinsiplarini faol qo'llaydi. V. Meyerxold uslubining kaliti «tashqaridan ichkarigadir». Xarakterlarni aniq bajarish uchun har bir xatti-harakatga differensial yondashish, harakatning boshlang'ich yoki oxirgi nuqtalarini aniqlash, har bir xatti-harakatdan so'ng pauzalar olish, geometrik rejali harakat qilish, aktyor ijodining plastik shakllari ustida ishlash, obrazga, sezishga kirishish, yashash, chuqr his qilish ichki dunyodan emas, balki tashqi xatti-harakatlardan bo'lishi, aktyorning o'z tanasidagi ta'sirchan vositalarni to'g'ri qo'llay olishi, rolni plastik va nutq orqali ishslashda musiqiy va ritmik jihatdan hal qilish va boshqalar Meyerxold ijodining asosiy mazmunidir.

1930-yillarda V. Meyerxoldning ijodi matbuotda turli «ig'volar» iskanjasida yoritila boshlandi. 1938-yilda V. Meyerxold teatri yopil-

di. 1939-yil iyul oyida u qamoqqa olindi, 1940-yil fevral oyida esa otib tashlandi. 1955-yili u sobiq ittifoqning oliy sudi tomonidan oqlandi.

Meyersholt ijodining keng ko'lamliligi, yangiliklar uchun intilish, yangicha qarashlarga asoslangan ta'limot bo'lganligi uchun 1990-yili 6-martda V. Meyersholt nomidagi markaz (TSIM) tashkil etildi.

Uning ijodi hozirgi kunda ommaviy bayramlar rejissurasi bo'limi talabalari uchun katta manba hisoblanadi.

### *Takrorlash uchun savollar*

1. Rejissor V.E. Meyersholt hayoti va ijodi haqida gapirib bering.
2. V.E. Meyersholt rejissurasining o'ziga xos xususiyatlari.
3. Biomexanika va konstruktivizm nima?

## **BAHODIR YO'L DOSHEV**

XX asr professional o'zbek teatrining o'ziga xos yo'nalishini belgilab bergen rejissorlarimizdan biri bu Bahodir Yo'ldoshevdir.

U 1945-yilda Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on shahrida san'atkorlar oilasida tug'ilgan. U 1970-yilda Toshkent teatr va rasomlik san'ati institutini tugatadi. U 1971–1974-yillarda Hamza nomidagi (hozirgi Milliy) O'zbek akademik drama teatrida rejissor, 1974–1984-yillarda bosh rejissor bo'lib faoliyat yuritdi.

O'zbek teatriga yangiliklar kiritish, uni yanada yuksaltirish niyati bilan ish boshlagan Bahodir Yo'ldoshev:

- Shillerning «Qaroqchilar»;
- L. Tolstoyning «Tirik murda»;
- Uyg'unning «Abu Ali ibn Sino», «Beruniy», «Zebuniso»;
- Said Ahmadning «Kelinlar qo'zg'oloni»;
- Pirimqul Qodirovning «Yulduzli tunlar» kabi bir qancha asarlari sahnalaştirib, jamoatchilikning e'tiborini qozondi.

B. Yo'ldoshev 1984-yildan boshlab Abror Hidoyatov nomli O'zbek davlat drama teatrida (hozirgi O'zbekiston davlat dramaturgiya teatri) badiiy rahbar sifatida faoliyatini davom ettiradi. Bu teatrda u «Maysaraning ishi», «Farmonbibi arazladi», «Paranji sirlari», «Qora kamar», «Ziyofat», «Iskandar», «Firidun», «Nodira-

begin», «Ipak yo'li» kabi asarlarni sahnalashtirdi. Bu spektakl-lar matbuotda ijobiy baholanib, ularning ko'pchiligi Xalqaro va O'zbekiston teatr festivallarining mukofotlari bilan taqdirlandi.

Bahodir Yo'ldoshev Abror Hidoyatov nomidagi teatrda ishlash jarayonidagi ijodiy izlanishlarini teatrga yangi dramatik kuchlarni jalg etish, zamonaviy sahna shakllaridan me'yorida foydalanish yo'li bilan davom ettirdi. Rejissor «Ipak yo'li» spektaklini sahnaga qo'yar ekan, «so'zsiz teatr» vositalaridan unumli foydalanib, uni poetik qissa shaklida talqin etdi.

Bahodir Yo'ldoshev o'zi sahnalashtirgan spektakllari bilan bir qancha chet ellarda gastrollarda bo'lди. U Laos, Turkiya, AQSH, Fransiya kabi mamalakatlarda ham spektakllar qo'yib, o'zbek teatr san'atini dunyoga tanitishda salmoqli mehnat qildi. Uning ko'pchilikka tanilishida Sh.Abbosovning «Olovli yo'llar» ko'p seriali telefilmidagi Olchinbek obrazi muhim ahamiyatga ega bo'lди. Olchinbek qiyofasida aktyor ikki yuzlamachi, sotqin va munofiq insonning tipik obrazini yaratdi. Shunday muvaffaqiyatlardan so'ng san'atkor keyinchalik 30 ga yaqin badiiy filmlarda rollar ijro etdi.

Bahodir Yo'ldoshev mustaqillik yillarda zamон talabiga mos yangi-yangi spektakllarni sahnalashtirish bilan bir qatorda bir qancha ommaviy bayram va tomoshalarni sahnalashtirishda bosh rejissor sifatida ishtirok etib keldi. «Sharq taronalari» Xalqaro musiqa festivali, O'zbekiston respublikasining «Mustaqillik» va «Navro'z» bayramlariga bag'ishlangan tadbirlar, taniqli shoir va olimlarning yubiley tantanalari va boshqa bir qancha Respublika tantanalari va tadbirlarida sahnalashtiruvchi rejissor sifatida ishtirok etib kelmoqda.

Uning mehnatlari davlatimiz rahbari tomonidan yuqori baho-lanib, «O'zbekiston xalq artisti» faxriy unvoni bilan taqdirlandi. O'zbekiston davlat mukofotiga sazovor bo'lди. 1998-yilda «Mehnat shuhrati» ordeni bilan mukofotlangan.

**B. Yo'ldoshevning Milliy teatrda (avvalgi Hamza) qo'ygan spektakllari:**

- «Tarix tilga kirdi» (N. Safarov, 1972-y);
- «Nil minorasi» (A. Dyuma, 1972-y);
- «Oy tutilgan tunda» (M. Karim, 1972-y);

- «Abu Rayhon Beruniy» (Uyg‘un, 1973-y);
- «Komissiya» (O‘. Umarbekov, 1974-y);
- «Qaroqchilar» (F. Shiller);
- «Lukash Botir» (N. Safarov, 1975-y);
- «Men Chiliga ishonaman» (V. Chigkov, 1975-y);
- «Kelinlar qo‘zg‘oloni» (S. Ahmad, 1976-y);
- «G‘ariblar» (V. Delmar, 1977-y);
- «Sahro tor» (M. Karim, 1977-y);
- «Ro‘yxatlarda yo‘q» (B. Vasilyev, 1978-y);
- «Gang qizi» (R. Tagor, 1978-y);
- «Tirik murda» (L. Tolstoy, 1978-y);
- «Tomosha davom etadi» (Z. Fatxulin, 1979-y);
- «Istehkom» (I. Sulton, 1979-y);
- «Nodirabegim» (T. To‘la, 1980-y);
- «Abu Ali ibn Sino» (Uyg‘un, 1980-y);
- «13-rais» (O. Abdullin, 1981-y);
- «Gurung» (M. Boboyev, 1981-y);
- «Qo‘riq» (L. Brejnev, 1981-y);
- «Almandar» (T. Minnulin, 1981-y);
- «Boy ila xizmatchi» (Hamza, 1982-y);
- «Oltin devor» (E. Vohidov, 1982-y);
- «Afg‘on reportaji» (Solovyov, 1982-y);
- «Parvona» (Uyg‘un, 1983-y);
- «Yulduzli tunlar» (P. Qodirov, 1983-y);
- «Zebuniso» (Uyg‘un, 1983-y).

**O‘zbek davlat drama teatri (avvalgi Abror Hidoyatov nomli o‘zbek davlat drama)da qo‘ygan spektakllari ro‘yxati:**

- «Chakana savdo» (A. Ibrohimov, 1984-y);
- «Zenula» (A. Gelman, 1984-y);
- «Maysaraning ishi» (Hamza, 1985-y);
- «Shayton farishtalari» (N. Miroshnichenko, 1986-y);
- «Vestsayd – 87» (A. Lourents, 1986-y);
- «Savodsiz munajjim» (Xalq ertagi, 1987-y);
- «Kelinlar qo‘zg‘oloni» (S. Ahmad, 1987-y);
- «Uzun qishloq» (X. Rasulov, 1990-y);
- «Qopqon» (A. Kresti, 1990-y);

- «Qora kamar» (Sh. Xolmirzayev, 1990-y);
- «Farmonbibi arazladi» (S. Ahmad, 1991-y);
- «Paranji sirlari» (Hamza, 1991-y);
- «Arshin-mololon» (U. Gajabekov, 1992-y);
- «Iskandar» (A. Navoiy, 1992-y);
- «Besh so'm» (Urdibodi, 1992-y);
- «Ma'mura kampir» (J. Saran, 1993-y);
- «Malika» (F. Goler, 1993-y);
- «Dardimni kimga aytayin» (Shukshin, 1993-y);
- «Bir eshak hangamasi» (Dyurekmant, 1994-y);
- «Qitmir» (B. Muhammadxo'jayev, 1995-y);
- «Buyuk ipak yo'li» (M. Boboyev, 1997-y);
- «Buxoroyi Sharif» (S. Ayniy, 1998-y);
- «Checha» (M. Yusuf, 1998-y);
- «Tog'a va jiyanlar» (R. Bobojon, 1990-y);
- «Sehrli hassa» (M. Ashurova, 1999-y);
- «Qayerdasan, Navro'z?» (M. Ashurova, 1999-y);
- «Assalomu aleykum qizlar (Xonuma)», (T. Sagareli 2000-y);
- «Nasriddinning yangi sarguzashtlari» (F. Maqsudov, 2001-y).

#### **O'zbekiston teatrlarida qo'yilgan spektakllari:**

- Gorkiy teatrida «Kelinlar qo'zg'oloni»;
- Muqimiy nomidagi o'zbek davlat musiqiy teatrida «Nodira-begim»;
- Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatrida «Alisher Navoiy»;

— Kattaqo'rg'on teatrida «Kelinlar qo'zg'oloni»;

- Samarqand teatrida «Nodirabegim», «Qitmir», «Al-Buxoriy»;
- Konibodom teatrida «Buxoroyi Sharif».

Chet ellarda amalga oshirilgan ijodiy ishlari:

- AQSHda «Bolalar tinchlik uchun»;
- Laosda «Kelinlar qo'zg'oloni»;
- Fransiyada «Buyuk ipak yo'li»;
- Fransiyada «Buxoro va Samarqandning 2500 yilligi»ga bag'ishlangan kontsert dasturi, «Buyuk o'zbek allomari»ga bag'ishlangan tadbir va konsert dasturlari»;
- Angliyada «Temuriylar davri shoirlari».

## **Ommaviy bayram va tomoshalar:**

- Mirzo Ulug'bekning 600 yillik yubileyi (1994-y);
- Amir Temurning 650 yilligi (1997-y);
- «Sharq taronalari» Xalqaro musiqa festivali (I—1997-y);
- «Sharq taronalari» Xalqaro musiqa festivali (II—1999-y);
- «Sharq taronalari» Xalqaro musiqa festivali (III—2001-y);
- «Sharq taronalari» Xalqaro musiqa festivali (IV—2003-y);
- «Sharq taronalari» Xalqaro musiqa festivali (V—2005-y);
- «Sharq taronalari» Xalqaro musiqa festivali (VI—2007-y);
- Toshkentda, Alisher Navoiy xiyobonida «Navro'z» bayrami (1991-y);
  - Buxoroda «Buxoroning 2500 yilligi»ga bag'ishlangan konsert dasturi;
  - SHOS-Birlashgan Shanxay tashkiloti uchrashuviga bag'ishlangan konsert dasturi.

Undan tashqari, B. Yo'ldoshev respublika miqyosida o'tkaziladigan deyarli barcha tadbirdorda bosh rejissor yoki badiy rahbar si-fatida qatnashib kelmoqda.

## **Iste'dodli rejissorning ijodi davlatimiz tomonidan munosib taqdir-lanib keldi:**

- «Yoshlar mukofotining laureati» (1973-y);
- O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi (1977-y);
- Popov mukofotining laureati (1978-y);
- O'zbekiston xalq artisti (1993-y);
- «Fidokorona mehnatlari uchun» ordeni (2004-y);

Bahodir Yo'ldoshev o'z ijodi davrida bir qancha teatr-studiyalarining tashkil topishiga yordam berdi. Jumladan «Diydor» teatr studiyasining repertuarlarini kengaytirishga ulkan hissa qo'shgan.

## **RUSTAM HAMIDOV**

Rustam Hamidov 1949-yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. 1972-yilda A.N. Ostrovskiy nomidagi Toshkent teatr va rassomlik san'ati institutini tugatdi.

U Hamza nomli o'zbek davlat akademik drama teatri (hozirgi o'zbek milliy akademik drama teatri)da rejissor va bosh rejissor

(1973–1993), Toshkent shahar bayramlar va ommaviy sport tadbirlarini o'tkazish direksiysi boshlig'i (1993–1996) lavozimlarida xizmat qildi. 1996-yildan Toshkent shahar hokimiyyati madaniyat ishlari bosh boshqarmasida faoliyat ko'rsatib keldi.

### **R. Hamidov teatrtdagi faoliyati mobaynida:**

- «Chaqmoq» (Ibrohim Rahim);
- «Ko'rmayin bosdim tikonni» (Izzat Sulton);
- «Po'rtana» (Anatoliy Safronov);
- «Olovni tashlama Prometey» (Mustay Karim);
- «Niskauori ayollari» (Xella Vualioki);
- «Shoshma quyosh» (O'lmas Umarbekov);
- «G'iybat» (Afanasiy Salinskiy);
- «O'g'ri ni qaroqchi urdi» (Shukrullo);
- «Kuyov» (Said Ahmad);
- «Koriolan» (Shekspir);
- «Kuzning birinchi kuni» (O'lmas Umarbekov);
- «Qiyomat qarz» (O'lmas Umarbekov);
- «O'z arizasiga ko'ra» (O'lmas Umarbekov);
- «Alla» (Oltinshash Jaganova) kabi spektakllarni sahnalashtirdi.

Undan tashqari rejissor Budapeshtda Radzinskiyning «Xizmat romani», Andijonda Viktor Gyugoning «Qirolning dilxushi», Chimkentda «O'g'ri ni qaroqchi urdi» spektakllarini muvaffaqiyatli sahnalashtirib, tomoshabinlar e'tiborini qozondi.

Rustam Hamidov ommaviy bayram va tomoshalarni sahnalashtirish borasida ham katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Jumladan, 1990–1991-yillardan to shu kunlargacha respublika miyosida o'tkazilayotgan «Mustaqillik», «Navro'z» umumuxalq bayramlarida badiiy rahbar, bosh rejissor va ssenariy muallifi sifatida ishtirot etib kelmoqda. U Xivaning 2500 yilligiga bag'ishlangan teatrlashtirilgan dasturga, Urganchda Jaloliddin Manguberdi, Farg'onada al-Farg'oni, Termizda «Alpomish» dostonining yubileylariga bag'ishlangan bayram tomoshalariga bosh rejissorlik qildi.

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, bayramlarimizni tashkil etishga bo'lgan talab-istiklar kuchayib borgan sari rejissorlarimizdan

ham katta mas’uliyat talab qilindi. Rustam Hamidov ham boshqa rejissorlar kabi yurtimizda o’tkazilayotgan bayram va tomoshalarni yuqori saviyada o’tkazishda salmoqli mehnatlarini ayamayotgan sermahsul ijodkorlardan hisoblanadi.

Uning samarali mehnatlari davlatimiz tomonidan munosib baholandi. U «O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan san’at arbobi» (1985), «O’zbekiston Respublikasi xalq atristi» (1992) faxriy unvonlariga sazovor bo’ldi<sup>1</sup>. Iste’dodli rejissor Rustam Hamidovning ijod jarayonini o’rganish talabalarga bayramlarni tashkil etish to’g’risidagi bilim va ko’nikmalarini kengaytirishga turtki bo’la oladi.

## BAXTIYOR SAYFULLAYEV

Ijod sohasiga qadam qo‘yan har qanday shaxs o’z atrofidagilariga va o’zidan keyingi avlodga albatta ijod namunalaridan manbalar bera olish imkoniga ega bo‘lishi shart. San’atkor san’atning qaysi yo’nalishida ijod qilmasin u xoh ashulachi, xoh raqs ustasi, xoh rassom, aktyor yoki rejissor bo‘lishidan qat’i nazar hayot jarayonini aniq his qilishi, zamon, davr bilan hamnafas bo‘lishi san’korning ijod sohasidagi o’rnini belgilaydi.

San’atkor moddiy narsa yetishtirmaydi, balki shu jarayonni yaxshilashga ko‘p jihatdan o’zining hissasini qo’shadi. Insonlar qo’shiq eshitib, raqs, spektakllar tomosha qilib, bayramlarda ishtirot etib, mehnat faoliyatlarini yanada yaxshilaydilar, atrof-muhitga, birga ishlayotgan sheriklariga yaxshi munosabatda bo‘ladilar, bir-birlarini mehnatga undaydilar. Mehnat esa har qanday ishga baraka va rohat baxsh etadi.

San’atkor moddiy ishlab chiqarishda bevosita ishtirot etmasada, moddiy ishlab chiqarish sohasida xizmat qilayotgan barcha insonlarga ma’naviy jihatdan katta ta’sir o’tkaza oladi.

Kasblar juda ko‘p, lekin ular ichida bir ajoyib kasb borki, unda u aktyor, dirijor, baletmeyster, rassomchilik va boshqa hamma san’at turlarini bilishi kerak bo‘ladi. Bu kasb rejissuradir. Rejissura esa ssenarist, dramaturg yoki yozuvchining mehnatini yuzaga chiqarilishidagi ish jarayonidir.

<sup>1</sup> M. Anduqunduzov. Milliy teatrımız namoyondaları. – T., 2002, 269-bet.

Rejissor zamon, davr bilan hamnafas, kerak bo'lsa boshqalar-dan oldinroq yurishi kerak bo'lgan san'atkordir. U o'zining sahnalashtirgan asarini tomoshabinga yoqish yoki yoqmasligini, mavzuning dolzarbligi yoki uni darrov eskirib qolishi mumkinligini oldindan anglay olish qobiliyatiga ega bo'lishi shart. Bu kasb egasi fidoyi bo'lgandagina ma'lum yutuqlarga ega bo'lishi mumkin. Baxtiyor Sayfullayev ana shunday fidoyi ijodkorlardandir.

Mazkur mavzuda Baxtiyor Sayfullayevning insoniylit xususiyatlari haqida gapirmoqchi emasmiz, zero uning ishda jiddiy, talabchan, ishdan tashqari sharoitlarda esa yaqin do'st, oilada ajoyib oila boshlig'i ekanligi ko'pchilikka ma'lum.

U 1972-yilda Toshkent teatr san'ati va rassomlik institutining rejissorlik bo'limini tamomlagan.

B. Sayfullayev Yosh tomoshabinlar teatrida rejissor, so'ngira Toshkent davlat madaniyat institutida o'qituvchi, kafedra mudiri, dekan, Toshkent davlat san'at instituti rektori va keyinchalik madaniyat va san'at sohalari bo'yicha rahbarlik lavozimlarida ishlab kelgan. Hozirgi kunda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida rektorlik vazifasida ishlab yoshlari tarbiyasi va o'zbek san'atining rivojiga ulkan hissa qo'shib kelmoqda.

U talabalik yillaridayoq o'zining rejissorlik, aktyorlik qobiliyatini namoyish qila olishga erishgan. Uning 10 dan ortiq sahnalashtirgan radiospektakllari hozirgi kunda O'zbekiston radiokompaniyasining oltin fondida saqlanmoqda. («Quloqsizlar bayrami», «Oqarib ko'rinar bir yelkan» kabi bir qancha radioinssenirovkalar shular jumlasidandir).

Talabalik yillarida Toshxo'ja Xo'jayev, Abdurahim Sayuddinov, Roziya Usmonova kabi ustozlardan ta'lim olgan. O'sha yillarda u Samarqand teatriga Nozim Hikmatning «Unutilgan odam» nomli asarini sahnalashtirishga taklif etilgan edi. Spektakl o'zining juda boy rejissorlik g'oyalari, rejissorlik topilmalari va original priymlari bilan an'anaviy teatr uslublaridan ancha yuksak saviyada sahnalashtirilgani muxbirlar va tomoshabinlar tomonidan qayd etilgan.

Rejissorlikni pedagogik faoliyati bilan bog'lash ancha murakkab jarayondir. Zero, Nemirovich-Danchenko aytib o'tganidek, rejissorning 3 ta fazilati rejissor uchun juda zarurdir. Bular:

1) rejissor (толкователь) – tushuntiruvchi, u sahnalashtirmoqchi bo‘lgan asarni to‘liq mazmun, mohiyatini o‘z aktyorlariga tu-shuntira olishi kerak;

2) rejissor (зеркало) – oyna, u aktyorlarning individual xususiyatlarini, ijodini to‘g‘ri aks ettirishini bilmog‘i lozim;

3) rejissor (организатор) – tashkilotchi<sup>1</sup> (rejissor B. Sayfullayevda bu vazifalarning barchasi mujassamdir), u butun spektaklni uyuştirishi kerak.

Teatrarda ishslash va unda rejissorlik qilish oliyohga yangi qabul qilingan, endigina mактабни tamomlab kelgan talaba bilan ishslashdan farq qiladi. Negaki, aktyorlik va rejissorlik san‘atini endigina o‘rganayotgan talabada, sahnada o‘zini to‘g‘ri, erkin his qila olish-dek, (сценический смелость) sahnaviy dovyuraklik hissiyotlarini paydo qilguncha rejissor-pedagogning birmuncha mehnat qilishiga to‘g‘ri keladi. Teatrarda esa professional aktyorlar tanlov asosida teatrlarga ishga qabul qilinadi va spektakllar sahnalashtiriladi. Shuning uchun ham san‘atning ilk qadamlarini to‘g‘ri qo‘yishda pedagogik mактабining poli benihoyadir. Rejissor B. Sayfullayev ham o‘ziga xos mahorat mактабiga ega bo‘lgan san‘atkordir.

Baxtiyor aka ijodida rejissorlik, aktyorlik va pedagoglik faoliyatining uyg‘unligini kuzatish mumkin.

Baxtiyor aka Leningradda ommaviy bayram va tomoshalar rejissurasi asoslarini o‘rganib, bu mutaxassislik respublika uchun juda zarurligini his qilgan holda shu kafedrani tashkil etish tashabbusi bilan chiqqan va bu kafedra hozirgi kungacha faoliyat ko‘rsatib kelmoqda.

Baxtiyor Sayfullayev o‘zining ijodiy ishlari mobaynida ilmiy ishlarga ham o‘rin ajratgan. Jumladan, 1983–1987-yillarda Sankt-Peterburg davlat madaniyat instituti aspiranturasida o‘qidi va pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasiga erishishga muvaffaq bo‘ldi.

Baxtiyor Sayfullayev o‘zining rejissorlik faoliyati davomida amaliyot bilan nazariyani birgalikda olib borgan ijodkordir. U o‘zining Sankt-Peterburg madaniyat instituti ilmiy to‘plamlarida bir qancha maqolalari bilan; viloyat ilmiy-uslubiy markazida tashkil etilgan «Viloyat rejissorlari uchun maxsus seminar»da maqola va

<sup>1</sup> U.Q. Qoraboev. Badiiy-ommaviy tadbirlar. – T., O‘qituvchi, 1986. 46-b.

ma’ruzalari bilan; rejissorlik bo’limi talabalari uchun «Ommaviy bayramlar ssenariyasi asoslari» nomli uslubiy qo’llanma va boshqa bir qancha maqola va risolalarida o’zining rejissorlik qarashlarini bayon etgan. Hozirgi kunda rejissorning «Aktyorlik mahorati» deb nomlangan darsligi (J. Mamatqosimov bilan hamkorlikda) talabalar e’tiboriga havola etilgan. Undan tashqari rejissorning «Prodyuserlik mahorati asoslari», «Xalq tomosha san’ati tarixi va nazariyasi», «Madaniyat tadbirlarni tashkil eyish mahorati» kabi o’quv qo’llamalari nashrga tayyorlanmoqda.

Rejissura sohasida ham har bir rejissorning o’z uslubi, yo’nalishi bor. Masalan, K. Stanislavskiy o’zining dunyoga mashhur ichki kechinmalariga asoslangan «sistema»si bilan, V. Meyerxold o’zining «biomexanika»si yoki «konstruktivizm»i bilan rejissorlik maktablari ni meros qilib qoldirgan bo’lsalar, hozirgi kunda Bahodir Yo’ldoshev, Rustam Shamsutdinov, Marat Azimov, Rustam Hamidovlarning o’ziga xos rejissorlik yo’llari, rejissorlik qarashlari, uslublari bor.

Xo’sh, Baxtiyor Sayfullayev rejissurasining o’ziga xosligini nimalarda kuzatish mumkin? Uning har bir sahnalashtirgan tomosha, konsert yoki shou-dasturlarida milliylik, milliy ruhiyat, urf-odat, an’analalarimizga kuchli e’tibor birinchi o’rinda turadi.

Ikkinchidan, uning rejissurasining ajoyib xususiyatlaridan biri originallikdir. Originallik shunday xususiyatki, u tomoshabin uchun sovg’a, surpriz sifatida namoyon bo’ladi, uning kayfiyatini ko’tarishga katta hissa qo’shamdi, tomoshabin o’zi kutmagan go’zalliklarga, sarguzashtlarga duch keladi va boshqa g’ayritabiiy holatlarni vujudga keltiradi. Baxtiyor Sayfullayev tomonidan topilgan qiziqrarli xatti-harakatlar, original usullar, effektili sahna bezagi, obrazli yechim va boshqa rejissorlik nuqtayi nazarlaridan uning fantaziyasi nihoyatda boy ekanligining guvohi bo’lamiz.

Uchinchi xususiyati, talabchanlik. Talabchanlik – har bir rahbarga xos bo’lgan xususiyatdir. Lekin Baxtiyor Sayfullayev avval o’z aktyorlariga vazifani aniq, konkret tushuntirib beradi, keyin esa talab qiladi, aktyorlar, talabalarning o’zi ustida va rol ustida ishlashga majburlashga yo’l topa oladi.

Yana bir xususiyati – tilga, nutqqa juda katta e’tibor berishidadir. Matnni aniq va ravshan ifodalashda artikulatsiya, diksiya, or-

foepiya, nafas, ovoz kabi nutq texnikasini o'zlashtirish aktyor uchun zarurligini har bir repetitsiya jarayonida kuzatish mumkin.

Har bir tomosha, konsert yoki tadbirda albatta effektli tomoshaviylikka erishish B. Sayfullayev rejissurasining o'ziga xos xususiyatlardan biridir.

Rejissorlikning boshqa san'at turlaridan murakkab tomoni shundaki, u spektakl, tadbir yoki tomoshaning boshidan oxirigacha javobgar shaxs hisoblanadi. Ssenarist o'zi yozgan ssenariysi matnlariga, kompozitor musiqiy jihatlariga, baletmeyster raqlariga, rassom badiiy bezagiga javob bersa, rejissor tadbir yoki tomoshaning to'laligicha ijodiy, tashkiliy ishlardan tortib, uning badiiyligi-yu tomoshabin muammolari va boshqa-boshqa jihatlariga ham javob beradi. Shuning uchun ham rejissa aniqlik, konkretlilikni yaxshi ko'radi.

Hozirgi kunda teatrlashtirilgan konsertlar rejissurasi bo'yicha Baxtiyor Sayfullayev respublikada yetuk mutaxassislardan hisoblanadi. Buni biz uning hukumat konsertlarida, yurtimizning mashhur san'atkorlari konsertlari misolida ko'rishimiz mumkin. U musiqa sohasida O'zbekiston xalq artisti A. Ismoilov, O'zbekiston san'at arbobi B. Abdullayev, baletmesterlardan O'zbekiston xalq artisti Q. Mo'minov, rassomlardan B. To'rayev, shoirlardan Mahmud Toir, Iqbol Mirzo, S. Sayid kabi ijodkorlar bilan hamkorlikda faoliyat yuritgan. Xonandalardan G'. Yoqubov, Z. Boyxonova, G'. Boytoyev, O. Nazarbekov, A. Fayz, «Yalla» va boshqa bir qabcha san'atkorlar va guruhlarning konsert dasturlarini teatrlashtirish va sahnalashtirish borasida juda samarali ish olib borgan.

Ko'pincha, konsertda rejissorning nima keragi bor, degan savol-larga duch kelamiz.

O'zimizga ma'lumki, filarmonik, yig'ma va tematik (mavzuli) konsertlarni tayyorlash, tomoshabin e'tiboriga havola etish uchun katta tayyorgarlik ko'rilmaydi. Musiqa, xonandalar, boshlovchi matni tayyor bo'lsa, konsertni xohlagan joyda, xohlagan paytda uyushtirish mumkin.

Lekin teatrlashtirilgan konsert eng murakkab konsert turi bo'lib, u eng ta'sirli va badiiy estetik jihatdan juda kuchli shakldir. Teatrlashtirilgan konsert dasturi dramaturgiya komponentlari asosida, maxsus ssenariy yozilib, umumiy mavzuga, g'oyaga yo'naltiriladi.

Unda sujet liniyasi aniqlanib, qo'shiqlar bir-biriga g'oyaviy jihat-dan bog'lanadi. Ularning ketma-ketligini g'oyaviy jihatdan qo'yish, xonanda va musiqachilar, boshlovchi, chiroq ustalari, rassom bilan ishslash, kostum, dekoratsiyalarini to'g'ri tanlash, raqs nomerlarini belgilash, xullas, konsertni yaxlit spektakl shakliga keltirishda rejjissor o'zining mahoratini ishga solmog'i lozim.

Xonanda teatrlashgan konsertda «aktyor»ga aylanadi, uning xatti-harakati, sahnada o'zini erkin tutishi borasida rejissor u bilan qayta-qayta repetitsiya qiladi. Har bir qo'shiqning matni rejissor tomonidan tinglanadi, repertuarlardan kelib chiqqan holda bu konsertga ssenariy yoziladi va badiiy shaklga keltiriladi.

Masalan, xonandalardan O. Madaliyev, M. Xoliqov, G'. Boytoyev, A. G'aniyev, S. Qoziyeva va boshqa xonandalarning konsertlarida ham rejissor B. Sayfullayevning uslubi ajralib turadi.

Shu kunlargacha u 200 ga yaqin har xil mavzularda tadbir, tomosha, konsertlar o'tkazdi, sahnalashtirdi.

Ayniqsa, bu tadbirlar ichida 1982-yil Kiyev shahrining 1500 yilligi, 1983-yilda Toshkent shahrining 2000 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan «Toshkent—2000» teatrlashtirilgan katta bayram tomoshasi, Moskvada bo'lib o'tgan XII Jahon yoshlari festivalining (1983-yil) tantanali ochilishi va yopilishi tomoshalari uning rejissorlik faoliyatining eng samarali davrlariga to'g'ri keladi.

Kamolot—89, 90, 91, 92, Qiziqchi — 89, 90, 91, 92 ko'rik tanlovining tashabbuskori va sahnalashtiruvchi rejissori, «Toshkent Malikasi», «O'zbekiston Malikasi», «Zarb» doirachilar ko'rik-tanlovi, «Nafosat» raqs ko'rik-tanlovleri, B. Zokirov xotirasiga bag'ishlangan yosh estrada xonandalarining 1- va 2-Respublika ko'rik-tanlovleri va boshqa bir qancha tadbirlar rejissor B. Sayfullayev rejissurasi bilan bog'liq. U Farg'ona, Toshkent va Jizzax, Andijon viloyatlarida ham yirik teatrlashtirilgan bayram va tomoshalarda bosh rejissorlik qilib, katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Mustaqillik yillariga kelib uning ijodi yanada faollashdi.

«Mulkdor» gazetasining muxbiri R. Azimning «Rejissor-go'zallik ixtirochisi» nomli maqolasida Baxtiyor aka haqida: «Odamsod qalbida go'zallikka oshuftalik, mehr-muruvvat, vafo, sadoqat va son-sanoqsiz xislatlarni uyg'ota oladigan bir soha, barcha kasblar ichra

eng jozibador, eng maftunkor bir kasb bor. Bu rejissorlik, xalqona iborada esa «go'zallik ixtirochisi», «oshuftalik hamda saboq beruvchi murabbiy», deyishadi. «Baxtiyor Sayfullayev siz-u bizning qalbimizda ana shunday noyob xislatlarni uyg'otishda barakali mehnat qilayotgan sermahsul ijodkordir» — deb yozadi.

Filologiya fanlari nomzodi, professor N. Qosimov «Teatr» jurnaliga yozgan «Rejissura — uning qismati» maqolasida uning ijodiga shunday baho beradi: «B. Sayfullayev rejissorlik qilgan har qanday tomosha yoki bayram tantanalarini kuzatsangiz, ularda chuqur hayotiy mantiqni, nafis san'atkorlikni, nozik insoniy samimiyatni, izchil zamonaviylik va ishontiruvchi hayotiy mazmunni his qilasiz, tomoshadan so'ng xush kayfiyat, jo'shqin hayotbaxsh tuyg'u bilan qaytasiz. U real hayat va sahna hayotining tutash tomirlarini teran idrok etadi, ularni hayratomuz tarzda bir-biriga bog'lay oladi. Rejissordagi bu iqtidor esa kamdan kam san'atkorlarga nasib etadi. B. Sayfullayev ana shunday sharafga muyassar bo'lgan rejissordir». Muallif yana shunday deb qo'shimcha qiladi: «Inson qiziqlishi va intilishlari haddu-hudud bilmaydi, lekin ana shu faoliyatlar sirasidan bittasiga u ko'proq layoqat sezadi. Baxtiyor Sayfullayevning ham serqirra faoliyatda bitta jabha ustuvorlik qiladi. Bu — rejissura.

Rejissura — o'ta injiq, o'ta murakkab san'at sohasi. Bu faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxsdan katta bilim, cheksiz xayolot ko'lami, qat'iyat va talabchanlik, nozik did, tashkilotchilik va rahbarlik mahorati talab qilinadi. Ana shu xislatlarga ega bo'limgan kishi rejissura ostonasiga qadam qo'ya olmaydi.

Baxtiyor Sayfullayevga Olloh mana shu san'atdan keragicha bergen. Chunki uning 1983-yillardan buyon qilgan rejissorlik faoliyatiga nazar tashlasak, uning respublika va ayrim viloyatlar miqyosidagi yuzdan ortiq yirik teatrlashtirilgan tadbirdirlarda sahnalashtiruvchi yoki bosh rejissor, badiiy rahbar yoki g'oya muallifi sifatida ishtirok etganligini ko'ramiz»<sup>1</sup>.

Ha, zamondoshlarimiz aytganlaridek, B. Sayfullayevni fidoyi inson deya tilga olsak, adashmaymiz.

<sup>1</sup> N. Qosimov. «Teatr» jurnalı, «Rejissura — uning qismati» maqolasi.

Rejissor B. Sayfullayev o‘z faoliyati mobaynida quyidagi ijodiy-rejissorlik ishlarini amalga oshirgan:

T/r	Tadbirning nomi, mavzusi	Bajargan vazifasi	O‘tkazilgan vaqtি	O‘tkazilgan joyi
1.	«Toshkent–2000» teatr-lashtirilgan katta bayram tomoshasi	Teatr-lashtirilgan tomoshalar rejissori	10-sentabr 1983-yil	Toshkent, «Paxtakor» markaziy o‘yingohi
2.	XII jahon yoshlari festivalining tantanali ochilish va yopilish tomoshalari	Sahna-lashtiruvchi rejissor	1985-yil	Moskva shahri
3.	«Toshkent Malikasi – 88» shou-tanlovi	G‘oya muallifi va bosh rejissor	may 1988-yil	«Yoshlik» sport arenasi
4.	«Teatrlashtirilgan futbol» shou-dasturi	G‘oya muallifi va bosh rejissor	3-sentabr 1988-yil	«Mehnat rezervlari» stadioni
5.	«O‘zbekiston va Tojikiston do‘stlik kechasi» sport va san’at bayrami	G‘oya muallifi va bosh rejissor	oktabr 1988-yil	Toshkent, «Paxtakor» markaziy o‘yingohi
6.	«Toshkent Malikasi–89» shou-tanlovi	G‘oya muallifi va bosh rejissor	aprel 1989-yil	Toshkent davlat sirkı
7.	«O‘zbekiston Malikasi –89» shou-tanlovi	Ssenariy muallifi va bosh rejissor	may 1989-yil	Toshkent davlat sirkı
8.	«Qiziqchi–89» yosh qiziqchilarining I-Respublika ko‘rik-tanlovi	G‘oya muallifi va bosh rejissor	may 1989-yil	Toshkent davlat sirkı
9.	«Kamolot–89» yosh xo-nandalarning I-Respublika ko‘rik-tanlovi	G‘oya muallifi va bosh rejissor	dekabr 1989-yil	A. Navoiy nomidagi san’at saroyi
10.	«Kamolot–89» ko‘rik-tanlovi g‘olib va sovrindorlari hamda san’at ustalari ishtirokida GALA konsert	Bosh rejissor	yanvar 1990-yil	Xalqlar do‘stligi saroyi

11.	«Kamolot—89» ko'rik-tanlovi g'olib vasov-rindorlari hamda san'at ustalari ishtirokida hisobot konserltari	Bosh rejissor	fevral 1990-yil	Farg'ona, Andijon, Namangan viloyatlari
12.	«Kamolot—89» g'olibi Oxunjon Madaliyev ishtirokida «Farg'ona jilolari» teatrlashtirilgan konsert	Bosh rejissor	20—21-fеврал 1990-yil	Xalqlar do'stligi saroyi
13.	«Qiziqchi—89» yosh qiziqchilarning an'anaviy Respublika ko'rik-tanlovi	Bosh rejissor	may 1990-yil	Xalqlar do'stligi saroyi
14.	«Nafosat—90» yosh raqqosalarning 1-Respublika ko'rik-tanlovi	G'oya muallifi va bosh rejissor	may 1990-yil	A. Navoiy nomidagi san'at saroyi
15.	«Qiziqchi—90» ko'rik-tanlovi g'olib vasov-rindorlari hamda san'at ustalari ishtirokida GALA konsert	Bosh rejissor	oktabr 1990-yil	Xalqlar do'stligi saroyi
16.	«Barhayot an'analar» xalq o'yinlari, xalq hunarmandchiligi namoyishi va teatrlashtirilgan tomosha	Bosh rejissor	oktabr 1990 yil	«Bog'i Eram» oromgohi
17.	«Kamolot—90» yosh xonandalarning an'anaviy Respublika ko'rik-tanlovi	Bosh rejissor	dekabr 1990-yil	Xalqlar do'stligi saroyi
18.	«Kamolot—90» ko'rik-tanlovi g'olib vasov-rindorlari hamda san'at ustalari ishtirokida GALA konsert	Bosh rejissor	fevral 1991-yil	Xalqlar do'stligi saroyi
19.	«Zarb—91» yosh doira-chilarning 1-Respublika ko'rik-tanlovi	Bosh rejissor	mart 1991-yil	«Bahor» konser zali

20.	«Zarb—91» yosh doira-chilarining I-Respublika ko‘rik-tanlovi g‘olib va sovrindorlari hamda san‘at ustalari ishtirokida GALA konsert	Bosh rejissor	aprel 1991-yil	Xalqlar do‘stligi saroyi
21.	Botir Zokirov nomidagi yosh estrada xonanda-larinining I-Respublika ko‘rik-tanlovi g‘olib va sovrindorlari hamda san‘at ustalari ishtirokida GALA konsert	G‘oya muallifi va bosh rejissor	aprel 1991-yil	Xalqlar do‘stligi saroyi
22.	Botir Zokirov nomidagi yosh estrada xonanda-larinining I-Respublika ko‘rik-tanlovi g‘olib va sovrindorlari hamda san‘at ustalari ishtirokida GALA konsert	Bosh rejissor	aprel 1991-yil	Xalqlar do‘stligi saroyi
23.	«Qiziqchi—91» yosh qiziqchilarning an‘anaviy Respublika ko‘rik-tanlovi	Bosh rejissor	may 1991-yil	Xalqlar do‘stligi saroyi
24.	«Qiziqchi—91» yosh qiziqchilarning ko‘rik-tanlovi g‘olib va sovrindorlari hamda san‘at ustalari ishtirokida GALA konsert	Bosh rejissor	may 1991-yil	Xalqlar do‘stligi saroyi
25.	«Kamolot—91» yosh xonandalarning an‘anaviy Respublika ko‘rik-tanlovi	Bosh rejissor	dekabr 1991-yil	«Alpomish» saroyi
26.	«Kamolot—91» ko‘rik-tanlovi g‘olib va sovrindorlari hamda san‘at ustalari ishtirokida GALA konsert	Bosh rejissor	fevral 1992-yil	Xalqlar do‘stligi saroyi
27.	«Kamolot—90» ko‘rik-tanlovi g‘olib va sovrindorlarining Farg‘ona vodiyisidagi hisobot konsertlari	Bosh rejissor	fevral 1992-yil	Xalqlar do‘stligi sa-royi, Farg‘ona, Andijon, Namangan viloyatlarida

28.	«Navro‘z—92» umumxalq Navro‘z bayrami teatr-lashtirilgan tomoshasi	Sahnalashti-ruvchi rejissor	21-mart 1992-yil	Xalqlar do'stligi maydoni
29.	O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 1 yilli-giga bag‘ishlangan teatr-lashtirilgan katta bayram tomoshasi	Sahnalashti-ruvchi rejissor	31-avgust 1992-yil	Mustaqillik maydoni
30.	«Kamolot—91» ko‘rik-tanlovi g‘oliblari Ilhomjon Ibrohimov va Orolmirzo Safarov ishtirokida «Kuylar yangi yulduzlar» teatrlashtirilgan konsert dasturi	Sahnalashti-ruvchi rejissor	aprel 1992-yil	Xalqlar do'stligi saroyi
31.	Botir Zokirov nomidagi yosh estrada xonandalarning 2-Respublika ko‘rik-tanlovi	Bosh rejissor	noyabr 1992-yil	Xalqlar do'stligi saroyi
32.	Yosh vatandoshlarning 1-Xalqaro festivali	Bosh rejissor	noyabr 1992-yil	Xalqlar do'stligi saroyi
33.	«Kamolot—92» yosh xonandalarning an'anaviy Respublika ko‘rik-tanlovi	Bosh rejissor	dekabr 1992-yil	«Alpomish» saroyi
34.	«Kamolot—92» ko‘rik-tanlovi g‘olib va sovrindorlari hamda san‘at ustalari ishtirokida GALA konsert	Bosh rejissor	fevral 1993-yil	Xalqlar do'stligi saroyi
35.	«Navro‘z—93» umum-xalq Navro‘z bayrami teatr-lashtirilgan tomoshasi	Sahnalashti-ruvchi rejissor	21-mart 1993-yil	Xalqlar do'stligi maydoni
36.	«Qiziqchi—93» yosh qiziqchilarning an'anaviy Respublika ko‘rik-tanlovi	Bosh rejissor	iyun 1993-yil	Namangan viloyati
37.	O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 2 yilli-giga bag‘ishlangan teatr-lashtirilgan katta bayram tomoshasi	Sahna-lashtiruvchi rejissor	31-avgust 1991-yil	Mustaqillik maydoni

38.	«Kamolot-93» yosh xo-nandalarning an'anaviy Respublika ko'rik-tan-lovi	Bosh rejissor	dekabr 1993-yil	«Alpomish» saroyi
39.	«Kamolot-93» ko'rik-tanlovi g'olib va sovrindorlari hamda san'at ustalari ishtirokida GALA konsert	Bosh rejissor	fevral 1994-yil	Xalqlar do'stligi saroyi
40.	«Navro'z-94» umum-xalq Navro'z bayrami teatrlashtirilgan tomoshasi	Sahnalashti-ruvchi rejissor	21-mart 1994-yil	Alisher Navoiy yodgorligi maydoni
41.	«O'zbekturizm» milliy kompaniyasi qoshida tuzilgan «Yoshlik-shou» direksiyasining prezentasiyasiga bag'ishlangan san'at ustalari ishtirokida shou-dasturi	G'oya mualli-fi va bosh rejissor	iyun 1994-yil	«Turkiston» saroyi yozgi binosi
42.	O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 3 yilligiga bag'ishlangan teatrlashtirilgan katta bayram tomoshasi	Sahnalashti-ruvchi rejissor	31-avgust 1994-yil	Mustaqillik maydoni
43.	Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent davlat madaniyat institutining 20 yillik yubiley kechasi	Bosh rejissor	noyabr 1994-yil	Institut anjumanlar saroyi
44.	«Navro'z-95» umum-xalq Navro'z bayrami teatrlashtirilgan katta bayram tomoshasi	Sahnalashti-ruvchi rejissor	21-mart 1995-yil	Alisher Navoiy yodgorligi maydoni
45.	II Jahon urushida qozonilgan g'alabaning 50 yilligiga bag'ishlangan teatrlashtirilgan katta bayram tomoshasi	Badiiy rahbar va bosh rejissor	may 1995-yil	Toshkent viloyati Olmaliq tumani
46.	«Talabalar bahori-95» Respublika talaba-yosh-larinining II festivali	Badiiy rahbar va bosh rejissor	may 1995-yil	Samarqand shahri

48.	Xalq ta'limi vazirligi qoshidagi Respublika o'quvchilar saroyining 60 yillik yubiley kechasi	Badiiy rahbar va bosh rejissor	14-dekabr 1995-yil	«Turkiston» saroyi
47.	O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 4 yilligiga bag'ishlangan teatrlashtirilgan katta bayram tomoshasi	Sahnalashtiruvchi rejissor	31-avgust 1995-yil	Mustaqillik maydoni
49.	«Navro'z-96» umum-xalq Navro'z bayrami teatrlashtirilgan katta bayram tomoshasi	Sahnalashtiruvchi rejissor	21-mart 1996-yil	Alisher Navoiy yodgorligi maydoni
50.	«O'zbekiston — Vatanim manim» Respublika qo'shiqchilar tanloving Toshkent viloyati yakuniy bosqichi	Ssenariy muallifi va bosh rejissor	aprel 1996-yil	Muqimiy nomidagi o'zbek davlat musiqiy teatri
51.	O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 5 yilligiga bag'ishlangan teatrlashtirilgan katta bayram tomoshasi	Sahnalashtiruvchi rejissor	31-avgust 1996-yil	Mustaqillik maydoni
52.	«Navro'z-97» umumxalq Navro'z bayrami teatrlashtirilgan katta bayram tomoshasi	Sahnalashtiruvchi rejissor	21-mart 1997-yil	Alisher Navoiy yodgorligi maydoni
53.	«Zarb-97» yosh doira-chilarning Respublika ko'rik-tanlovi	Bosh rejissor	aprel 1997-yil	Respublika o'quvchilar saroyi
55.	Xalqaro bolalarni himoya qilish kuniga bag'ishlangan Birlashgan Millatlar Tashkilotining O'zbekistondagi vakolatxonasi va Xalq ta'limi vazirligi tomonidan o'tkazilgan teatrlashtirilgan bayram tomoshasi	Bosh rejissor	5-iyun 1997-yil	A. Navoiy nomidagi davlat akademik teatri

55.	O'zbekiston qo'shiq bayrami ko'rik-tanloving Madaniyat ishlari vazirligi tizimidagi yakuniy bosqichi	Sahnalahtiruvchi rejissor	iyul 1997-yil	O'zbekiston yoshlari teatri
56.	O'zbekiston qo'shiq bayrami ko'rik-tanloving Madaniyat ishlari vazirligi tizimidagi yakuniy bosqichi	Sahnalahtiruvchi rejissor	iyul 1997-yil	O'zbekiston yoshlari teatri
57.	O'zbekiston qo'shiq bayrami ko'rik-tanloving Respublika yakuniy bosqichi	Bosh rejissor	14-15-avgust 1997-yil	«Turkiston» saroyi
58.	O'zbekiston qo'shiq bayrami ko'rik-tanloving Respublika yakuniy bosqichi g'olib va sovrindorlari hamda san'at ustalari ishtirokida GALA konsert	Bosh rejissor	17-avgust 1997-yil	Xalqlar do'stligi saroyi
59.	O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 6 yilli-giga bag'ishlangan teatr-lashtirilgan katta bayram tomoshasi	Sahnalahtiruvchi rejissor	31-avgust 1997-yil	Mustaqillik maydoni
60.	«Yangiyo'l shahri 60 yoshda» teatrlashtirilgan katta bayram tomoshasi konsert dasturi	Badiiy rahbar va bosh rejissor	13-sentabr 1997-yil	Yangiyo'l shahar stadioni
61.	O'qituvchilar va murabbiylar kuniga bag'ishlangan O'zbekiston san'at ustalari va yosh ijrochilarining bayram konserti	Bosh rejissor	29-sentabr 1997-yil	«Turkiston» saroyi
62.	«Qutlug' bo'lsin Yangi yil» katta archa atrofida bolalar uchun teatr-lashtirilgan bayram tomoshasi	Bosh rejissor	1-11-yanvar 1998-yil	Mustaqillik maydoni

63.	O'zbekiston qo'shiq bayrami ko'rik-tanloving Toshkent viloyati yakuniy bosqichi	Ssenariy muallifi va bosh rejissor	may 1998-yil	«Turkiston» saroyi
64.	«Navro'z-98» umum-xalq Navro'z bayrami teatrlashtirilgan bayram tomoshasi	Sahnalashti-ruvchi rejissor	21-mart 1998-yil	Alisher Navoij yodgorligi maydoni
65.	O'zbekiston qo'shiq bayrami ko'rik-tanloving Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi yakuniy bosqichi	Bosh rejissor	may 1998-yil	«Turkiston» saroyi
66.	O'zbekiston qo'shiq bayrami ko'rik-tanloving Toshkent viloyati yakuniy bosqichi	Ssenariy muallifi va bosh rejissor	may 1998-yil	«Turkiston» saroyi
67.	O'zbekiston qo'shiq bayrami ko'rik-tanloving Madaniyat ishlari vazirligi tizimidagi yakuniy bosqichi	Sahnalashti-ruvchi rejissor	iyul 1998 yil	Hamza (hozirgi Milliy) akademik drama teatri
68.	O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 7 yilli-giga bag'ishlangan teatrlashtirilgan tomoshasi	Sahnalashti-ruvchi rejissor	31 avgust 1998-yil	Mustaqillik maydoni
69.	O'qituvchilar va murabbiylar kuniga bag'ishlangan O'zbekiston san'at ustalari va yosh ijrochilarining bayram konserti	Bosh rejissor	29-sentabr 1998-yil	«Turkiston» saroyi
70.	Xalqaro nogironlar kuniga bag'ishlangan taniqli estrada xonandalari va qiziqchilari ishtirokida hayriya konserti	Sahnalashti-ruvchi rejissor	25-noyabr 1998-yil	A.Navoiy nomidagi San'at saroyi

71.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 6 yilligiga bag'ishlangan O'zbekiston san'at ustalari va yosh ijrochilarining bayram konserti	Badiiy rahbar va bosh rejissor	5-dekabr 1998-yil	«Turkiston» saroyi
72.	O'zbek musiqa va teatr san'atining atoqli namoyandasini O'zbekiston xalq artisti Muhibbin qori Yoqubov tavalludining 100 yilligiga bag'ishlangan xotira kechasi	Bosh rejissor	14-dekabr 1998-yil	A. Navoiy nomidagi davlat akademik teatri
73.	Taniqli estrada xonandalari va qiziqchilar ishtirokida «Futbolshou» tomoshasi	Bosh rejissor	18-dekabr 1998-yil	«Alpomish» saroyi
74.	Yosh estrada xonandalaring teatrlashtirilgan konsert dasturi	Sahnalashti-ruvchi rejissor	20-dekabr 1998-yil	«Turkiston» saroyi
75.	14-yanvar Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlangan O'zbekiston san'at ustalari va yosh ijrochilarning bayram konserti	Bosh rejissor	13-yanvar 1999-yil	«Turkiston» saroyi
76.	8-mart Xalqaro xotinqizlar kuniga bag'ishlangan O'zbekiston san'at ustalari va yosh ijrochilarning bayram konserti	Bosh rejissor	5-mart 1999-yil	«Turkiston» saroyi
77.	«Tashabbus-99» Respublikaga tadbirkorlari ko'rik-tanloving g'olib va sovindorlarini taqdirlash marosimiga bag'ishlangan O'zbekiston san'at ustalari va yosh ijrochilarning bayram konserti	Bosh rejissor	18-mart 1999-yil	«Turkiston» saroyi

78.	«Navro'z-99» umumxalq Navro'z teatrlashtirilgan bayrami	Sahnalashti-ruvchi rejissor	21-mart 1999-yil	Alisher Navoiy yodgorligi maydoni
79.	O'zbekiston qo'shiq bayrami ko'rik-tanloving Toshkent viloyati yakuniy bosqichi	Ssenariy muallifi va bosh rejissor	may 1999-yil	«Turkiston» saroyi
80.	Xalqaro muzeylar kungi bag'ishlangan O'zbekiston san'at ustalari va yosh ijrochilarining bayram konserti	Sahnalashti-ruvchi rejissor	may 1999-yil	«Turkiston» saroyi
81.	Ayollar yiliga bag'ishlangan taniqli estrada xonandalari va qiziqchilar ishtirokida teatrlashtirilgan konsert dasturi	Sahnalashti-ruvchi rejissor	6-iyul 1999-yil	«Turkiston» saroyi
82.	O'zbekiston qo'shiq bayrami ko'rik-tanloving Madaniyat ishlari vazirligi tizimidagi yakuniy bosqichi	Sahnalashti-ruvchi rejissor	9-iyul 1999-yil	«Turkiston» saroyi
83.	O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 7 yilligiga bag'ishlangan «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» teatrlashtirilgan katta bayram tomoshasi	Badiiy rahbar va bosh rejissor	1-sentabr 1999-yil	Jizzax shahri «Sangzarko'l» majmuasi
84.	«Vatanimga ta'zim» taniqli san'at ustalarining konsert dasturi	Sahnalashti-ruvchi rejissor	17-sentabr 1999-yil	«Turkiston» saroyi
85.	Avtomobilchilar kungi bag'ishlangan O'zbekiston san'at ustalari va yosh ijrochilarining bayram konserti	Sahnalashti-ruvchi rejissor	29-oktabr 1999-yil	«Turkiston» saroyi

86.	«To‘maris o‘yinlari» xotin-qizlarning milliy sport o‘yinlari Respublikा festivali	Badiiy rahbar va bosh rejissor	11–13-noyabr 1999-yil	Jizzax shahri
88.	Konstitutsiya kuni munosabati bilan estrada xo-nandalari va qiziqchilar ishtirokida teatrlashtirilgan konsert dasturi	Sahnalashti-ruvchi rejissor	8-dekabr 1999-yil	«Turkiston» saroyi
87.	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 7 yilligiga bag‘ishlangan O‘zbekiston san‘at ustalari va yosh ijrochilarining bayram konserti	Bosh rejissor	7-dekabr 1999-yil	«Turkiston» saroyi
89.	14-yanvar – Vatan himoyachilari kuniga bag‘ishlangan O‘zbekiston san‘at ustalari va yosh ijrochilarining bayram konserti	Bosh rejissor	13-yanvar 2000-yil	«Turkiston» saroyi
90.	Jizzax viloyati mehnatkashlarining «Hosil bayrami» teatrlashtirilgan tomoshasi	Bosh rejissor	30-yanvar 2000-yil	Jizzax shahri «Osiyo karvon saroy» maj-muasi
91.	«Ajab saodat erur» O‘zbekiston san‘at ustalarining Alisher Navoiy tavalludining 559 yilligiga bag‘ishlangan konsert dasturi	Bosh rejissor	4–5-fevral 2000-yil	«Turkiston» saroyi
93.	8-Mart – Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan O‘zbekiston san‘at ustalari va yosh ijrochilarining bayram konserti	Badiiy rahbar va bosh rejissor	7-mart 2000-yil	«Turkiston» saroyi

92.	«Ustoz va shogird» O'zbekiston xalq artisti Bobomurod Hamdamovning konsert dasturi	Bosh rejissor	3-mart 2000-yil	«Turkiston» saroyi
94.	«Paxtakorda Navro'z» teatrlashtirilgan katta bayram tomoshasi	Badiiy rahbar va bosh rejissor	19-mart 2000-yil	Jizzax viloyati Paxtakor tumani
95.	Jizzax viloyatining «Navro'z-2000» teatrlashtirilgan katta bayram tomoshasi	Badiiy rahbar va bosh rejissor	23-mart 2000-yil	Jizzax shahri «Istiqlol» forumi
96.	27-mart – Xalqaro teatr kuniga bag'ishlangan bayram tomoshasi	Sahnalashti-ruvchi rejissor	27-mart 2000-yil	O'zbek mil- liy akademik drama teatri
97.	9-may «Xotira va qadrlash kuni»ga ba- g'ishlangan Shoirlar xi-yoboni va xotira may-donining ochilishiga bag'ishlangan kecha	Ssenariy muallifi va bosh rejissor	9-may 2000-yil	Jizzax shahri
98.	O'zbekiston qo'shiq bayrami ko'rik-tanloving Toshkent viloyati yakuniy bosqichi	Ssenariy muallifi va bosh rejissor	15-may 2000-yil	«Turkiston» saroyi
99.	Xalqaro muzeylar kuniga bag'ishlangan O'zbekiston san'at ustalari va yosh ijrochilar- ning bayram konserti	Sahnalashti-ruvchi rejissor	19-may 2000-yil	«Turkiston» saroyi
100.	O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi va-zirligi tizimidagi ta'lim muassasalari o'quvchi yoshlari o'rtasidagi «O'zbekiston-Vatanim manim» qo'shiq bayrami ko'rik-festivali	Badiiy rahbar va bosh rejissor	21-may 2000-yil	Samarqand shahri Regis-ton maydoni

101.	Xalqaro tozalik kuniga bag'ishlangan «Ekosan» xayriya jamg'armasining katta konsert dasturi	Sahnalashti-ruvchi rejissor	5-iyun 2000-yil	«Turkiston» saroyi
102.	O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tizimidagi «O'zbekiston—Vatanim manim» umumarmiya qo'shiqchilar ko'rik-festivali	Sahnalashti-ruvchi rejissor	22-iyun 2000-yil	Markaziy zabitlar uyi
103.	O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tizimidagi «O'zbekiston — Vatanim manim» umumarmiya qo'shiqlar ko'rik-festivali g'olib va sovrindorlari hamda san'at ustalari ishtirokida GALA konsert	Sahnalashti-ruvchi rejissor	24-iyun 2000-yil	A. Navoiy nomidagi san'at saroyi
104.	O'zbekiston qo'shiq bayrami ko'rik-tanlovining Madaniyat ishlari vazirligi tizimidagi yakuniy bosqichi	Sahnalashti-ruvchi rejissor	11-iyul 2000-yil	«Turkiston» saroyi
105.	O'zbekiston qo'shiq bayrami ko'rik-tanlovining Respublika yakuniy bosqichi	Bosh rejissor	17–18-avgust 2000-yil	«Turkiston» saroyi
106.	O'zbekiston qo'shiq bayrami ko'rik-tanlovining Respublika yakuniy bosqichi g'olib va sovrindorlari hamda san'at ustalari ishtirokida GALA konsert	Bosh rejissor	20-avgust 2000-yil	Xalqlar do'stligi saroyi
107.	O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 9 yilli-giga bag'ishlangan teatr-lashtirilgan katta bayram tomoshashi	Badiiy rahbar va bosh rejissor	1-sentabr 2000-yil	Jizzax shahri «Sangzarko'l» majmuasi

108.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 8 yilligiga bag'ishlangan O'zbekiston san'at ustalari va yosh ijrochilarining bayram konserti	Bosh rejissor	7-dekabr 2000-yil	«Turkiston» saroyi
109.	14-yanvar – Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlangan O'zbekiston san'at ustalari va yosh ijrochilarining bayram konserti	Bosh rejissor	13-yanvar 2001-yil	«Turkiston» saroyi
110.	Alisher Navoiy tavalludining 560 yilligiga bag'ishlangan O'zbekiston san'at ustalarining konsert dasturi	Bosh rejissor	8-fevral 2001-yil	«Turkiston» saroyi
111.	8-Mart – Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan O'zbekiston san'at ustalari va yosh ijrochilarining bayram konserti	Badiiy rahbar va bosh rejissor	7-mart 2001-yil	«Turkiston» saroyi
112.	Jizzax viloyatining «Navro'z-2001» teatr-lashtirilgan katta bayram tomoshasi	Badiiy rahbar va bosh rejissor	22-mart 2001-yil	Jizzax shahri «Istiqlol» forumi
113.	Onalar va bolalar yiliga bag'ishlab O'zbekiston xalq artisti Lutfulla Sa'dullayevning «Bolalarim onasi» teatr-lashtirilgan tomosha dasturi	Sahnalashti-ruvchi rejissor	25-mart 2001-yil	Xalqlar do'stligi saroyi
114.	27 mart – Xalqaro teatr kuniga bag'ishlangan teatr-lashtirilgan bayram tomoshasi	Sahnalashti-ruvchi rejissor	27-mart 2001-yil	«Zarafshon» konsert zali

115.	O'zbekiston Respublikasi yoshlарining «Kamolot» ijtimoiy harakati ta'sis qurultoyi ishtirokchilari uchun bayram konsert dasturi	Sahnalashtiruvchi rejissor	25-aprel 2001-yil	«Turkiston» saroyi
116.	O'zbekiston xalq artisti, bastakor va sozanda Abdushoshim Ismoilovning ijodiy kechasi	Sahnalashtiruvchi rejissor	5–6-iyun 2001-yil	«Zarafshon» konsert zali
117.	O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tizimidagi «O'zbekiston–Vatanim manim» umumarmiya qo'shiqchilar ko'rlik-festivali	Sahnalashtiruvchi rejissor	22-iyun 2001-yil	Markaziy zabitlar uyi
118.	O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tizimidagi «O'zbekiston–Vatanim manim» umumarmiya qo'shiqchilar ko'rlik-festivali g'olib va sovrindorlari hamda san'at ustalari ishtirokida GALA konsert	Sahnalashtiruvchi rejissor	24-iyun 2001-yil	A. Navoiy nomidagi san'at saroyi
119.	O'zbekiston qo'shiq bayrami ko'rlik-tanloving Madaniyat ishlari vazirligi tizimidagi yakuniy bosqichi	Sahnalashtiruvchi rejissor	10-iyul 2001-yil	«Turkiston» saroyi
121.	O'zbekiston qo'shiq bayrami ko'rlik-tanloving Respublika yakuniy bosqichi g'olib va sovrindorlari hamda san'at ustalari ishtirokida GALA konsert	Bosh rejissor	19-avgust 2001-yil	Xalqlar do'stligi saroyi

120.	O'zbekiston qo'shiq bayrami ko'rlik-tanlovining Respublika yakuniy bosqichki	Bosh rejissor	16–17-avgust 2001-yil	«Turkiston» saroyi
122.	O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 9 yilli-giga bag'ishlangan teatr-lashtirilgan katta bayram tomoshasi	Badiiy rahbar va bosh rejissor	1-sentabr 2001-yil	Jizzax shahri «Sangzarko'l» majmuasi
123.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 9 yilligiga bag'ishlangan O'zbekiston san'at ustalari va yosh ijrochilar-ning bayram konserti	Bosh rejissor	5-dekabr 2001-yil	«Turkiston» saroyi
124.	8-Mart Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan O'zbekiston san'at ustalari va yosh ijrochilar-ning bayram konserti	Badiiy rahbar va bosh rejissor	7-mart 2002-yil	«Turkiston» saroyi
125.	Andijon viloyatining «Navro'z-2002» teatr-lashtirilgan katta bayram tomoshasi	Badiiy rahbar va bosh rejissor	21-mart 2002-yil	Andijon shahri «Amfiteatr» majmuasi
126.	Jizzax viloyatining «Navro'z-2002» teatr-lashtirilgan katta bayram tomoshasi	Badiiy rahbar va bosh rejissor	23-mart 2002-yil	Jizzax shahri «Mustaqillik» maydoni
127.	«Qariyalarni qadrlash yili»ga bag'ishlangan san'at ustalari va ijrochi yoshlar ishtirokida «Avlodlar sadosi» teatrlashtirilgan katta tomosha dasturi	Badiiy rahbar va bosh rejissor	7-may 2002-yil	Xalqlar do'stligi saroyi
128.	Jizzax shahrida qad ko'targan «Bog'ishamol» majmuasining ochilish marosimi va teatrlashtirilgan katta konsert dasturi	Bosh rejissor	9-may 2002-yil	Jizzax shahri

129.	O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 11 yilli-giga bag'ishlangan teatr-lashtirilgan katta bayram tomoshasi	Badiiy rahbar va bosh rejissor	26-avgust 2002-yil	Andijon shahri «Amfiteatr» majmuasi
131.	Samarqand viloyatining «Navro'z-2003» teatr-lashtirilgan katta bayram tomoshasi	Badiiy rahbar va bosh rejissor	21-mart 2003-yil	Samarqand shahri
131.	O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 11 yilli-giga bag'ishlangan teatr-lashtirilgan katta bayram tomoshasi	Badiiy rahbar va bosh rejissor	1-sentabr 2002-yil	Jizzax shahri «Sangzarko'l» majmuasi
132.	Jizzax viloyatining «Navro'z-2003» teatr-lashtirilgan katta bayram tomoshasi	Badiiy rahbar va bosh rejissor	22-mart 2003-yil	Jizzax shahri
133.	9-may «Xotira va qadrlash kuni»ga bag'ishlangan teatrlashtirilgan katta konsert dasturi	Bosh rejissor	8-may 2003-yil	Samarqand shahri
134.	9-may «Xotira va qadrlash kuni»ga bag'ishlangan teatrlashtirilgan katta konsert dasturi	Bosh rejissor	9-may 2003-yil	Jizzax shahri
135.	O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 12 yilli-giga bag'ishlangan teatr-lashtirilgan katta bayram tomoshasi	Badiiy rahbar va bosh rejissor	1-sentabr 2003-yil	Samarqand shahri
137.	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 12 yilligiga bag'ishlangan O'zbekiston san'at ustalari va yosh ijrochilarining bayram konserti	Bosh rejissor	5-dekbar 2003-yil	«Turkiston» saroyi

136.	O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 12 yilligiga bag'ishlangan teatr-lashtirilgan katta bayram tomoshasi	Badiiy rahbar va bosh rejissor	2-sentabr 2003-yil	Jizzax shahri «Sangzarko'l» majmuasi
138.	Jizzax viloyatining «Navro'z—2004» teatr-lashtirilgan katta bayram tomoshasi	Badiiy rahbar va bosh rejissor	23-mart 2004-yil	Jizzax shahri «Mustaqillik» maydoni
139.	O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 16, 17, 18, 19, 20 yilligiga bag'ishlangan bayram dasturlari	Badiiy rahbar	2007–2011-yillar	A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'i

Uning sahnalashtirgan har bir bayram va tomoshasi rejissurasi ni muhokama qilib, tahlil qilib o'rgansak, bizlar uchun yangi manba bo'lib hisoblanadi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

### Rejissorlik tahlili asoslari

Har qanday asarni u xoh adabiy asar, xoh dramatik, xoh musiqali asar bo'lsin, uni tahlil qila olish shu asarning «mag'zini», muallifning pozitsiyasini, rejissorning maqsadini aniqlab olish imkonini beradi. Rejissorlik tahlili shuning uchun ham foydali jarayonki, bunda rejissor o'z aktyorlariga maqsad va vazifalarni aniq belgilab olishiga, rolni to'g'ri talqin qila olishiga yordam beradi.

Xo'sh shunday ekan, rejissorlik tahlili qay tarzda amalga oshiriladi? Uning punktlari nimalardan iborat?

Rejissorlik tahlili deganda muallif tomonidan yoziladigan asarni rejissorlik nuqtayi nazaridan qaralishi tushuniladi. Ushbu mavzuni ommaviy bayramlar va teatr rejissurasidagi rejissorlik tahlili jarayonini solishtirish orqali yoritsak, maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki spektaklni sahnalashtirish uchun pyesa tanlansa, ommaviy bayramlarda esa ssenariy asosiy manba hisoblanadi. Rejissorlik tahlili repertuar tanlangandan keyingi jarayon hisoblanadi. O'quvchi talabalarimizga yanada tushunarli bo'lishi uchun V.Shekspirning «Qiyiq (qaysar) qizning quyilishi» komediyasini qisqacha mazmunini bayon qilib, uni tahlil qilishga harakat qilamiz:

## V. Shekspir «Qiyiq qizning quyilishi»

### Qatnashuvchilar:

Muqaddima ishtirokchilari:

Lord

Kristofer Slay – misgar

Qovoqxona bekasi

Mahram

Aktyorlar

Ovchi va xizmatchilar

Baptista – Paduyalik boy, zodagon

Vinchensio – Pizalik keksa zodagon

Lyuchensio – Vinchensioning o'g'li, Byankaning oshig'i

Petruchcho – Veronalik zodagon, Katarinaning qallig'i

Byankaning xushtorlari:

Gremio, Gortenzio, Tranio

Lyuchensioning xizmatkorlari:

Tranio, Bondello

Muallim

Baptistaning qizlari:

Katarina va Byanka

Beva xotin

Voqeа Paduya va Petruchchoning shahar chekkasidagi uyida o'tadi.

Asarning qisqacha mazmuni shundan iboratki, zodagon o'g'li

Lyuchensio Paduyaga o'qishga keladi. Bu yerda u boy zodagon

Baptistaning kichik qizi Byankani ko'rib oshiq bo'lib qoladi. Le-

kin Baptista katta qizi – o'jar, qaysar va shaddod Katarinani tur-

mushga bermaguncha kichik qizini hech kimga bermasligini aytadi.

Lyuchensio o'z xizmatchisi Tranio bilan ajoyib hiyla ishlatishadi,

ya'ni Petruchchoni ishga soladilar. Petruchcho Veronadan Paduy-

aga kelib, Katarinaning ta'rifini eshitadi va albatta unga uylanishini

aytadi. Ammo, o'ta o'jar Katarinaga erishish Petruchchoga oson

kechmaydi. Shunday bo'lsa ham Petruchcho o'z maqsadiga eri-

shadi, ya'ni Katarinani o'ziga bo'ysundiradi. Voqeа ana shunday

qarama-qarshiliklar atrofida kechadi.

Rejissorlik tahlilida quyidagi punktlar va savollarga javob beriliishi shartdir:

**1. Muallif haqida ma'lumot.** Bu asosan, dramatik asarlarga tegishli bo'lgan qismidir. Ommaviy bayram va tomoshalar ssenariy-sini yaratishda bir necha mualliflarning asarlaridan (namunalar, parchalar, she'r, kuy va qo'shiqlar)dan foydalanilgani uchun ham ularning barcha mualliflari haqida ma'lumot berish shart emas. Dramatik asarlarni tahlil qilganda esa uning muallifi haqida qisqa-chaga ma'lumot beriladi. Masalan, yuqoridagi asarni oladigan bo'lsak, asar muallifi V. Shekspir haqida qisqacha to'xtalamiz:

V. Shekspir (1564–1616) 23-aprelda Markaziy Angliyaning Stratford shahrida tug'ilgan. 1587-yilda Londonga boradi va teatrga xizmatga kiradi. Avval ishchi, suflor yordamchisi, so'ngra aktyor, keyinchalik rejissor, hatto teatrni boshqarishda direktor bilan hamkorlik qilgani ham ma'lum. Shekspir teatrdagi faoliyati davomida dastlab boshqa mualliflarning pyesalarini qayta ishlab, ularni yangi mazmun bilan boyitadi va o'zi ham dramaturg sifatida nom chiqaradi. Uning adabiy faoliyati uch davrga bo'linadi. U 12 ta poema, 154 ta sonet va 37 ta pyesa yaratdi. «Qiyiq qizning quyilishi» asari uning ijodining birinchi davriga to'g'ri keladi. V. Shekspir «Adashganlar» komediyasi, «Veronalik ikki yigit», «Sevgining behuda kuchayishi», «O'n ikkinchi kecha yoki turfa hangomalar», «Romeo va Julietta», «Yuliy Sezar», «Otello», «Gamlet» kabi dramatik asarlar muallifidir.

**2. Asarning mavzusi.** Mavzu muallifning shu asardagi voqelikka bo'lgan munosabati bilan belgilanadi. Pyesada ham, ssenariyda ham mavzu bu – fikr-mulohaza yuritish uchun tanlangan obyekt, hayotning ma'lum masalalari va muammolaridir. Ommaviy bayram yoki tomoshalar biron sanaga bag'ishlab uyuşhtirilsa, uning umumiyo mavzusi o'z-o'zidan vujudga keladi<sup>1</sup>. Asarning mavzusi aniqlana-yotganida, asar nima haqida, degan savolga javob bermog'i lozim.

«Qiyiq qizning quyilishi» komediyasida uylanish, sevgi orqali boylikka erishish uchun kurash mavzusi yoritilgan.

**3. Asarning g'oyasi.** G'oya – bu asarda yoki tadbirda ilgari suriladigan ijtimoiy fikr, maqsaddir. Nima uchun kurashga chiqirish, maqsadning nimaligi g'oyada ifodalanadi. 8-Mart bayramiga bag'ishlab o'tkazilayotgan tadbir rejissori o'z-o'zidan ma'lumki, ona-

<sup>1</sup> У.Х. Qoraboyev. «Badiiy ommaviy tadbirlar». – Т., О'qituvchi, 1986. 36-bet.

larni ulug'lash, ularning hurmatini joyiga qo'yish, ularning qadriga yetish kabi g'oyalarni ilgari surishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Dramatik asarlarda ham xuddi shunday bo'ladi. Rejissorlik tahlilida g'oya muallifi o'z asari orqali nima demoqchi, degan savolga javob bermog'i lozim. Yuqoridagi komediyaning g'oyasini hayotda uchrab turadigan ba'zi qaysar va o'jar qizlarning unchalik darajada yomon fe'lli bo'lmaslikka chaqirib, ularni to'g'ri yo'lga solish yo'llaridan birini ko'rsatib bergen asar, deb belgilash mumkin. Masalan:

Olov-olov bilan to'qnashar ekan,  
Yonadi hammani qilgunicha kul,  
Garchand o't chiqarur uchqundan shamol,  
Uni o'chirishga qodirdir bo'ron.

Undan tashqari, har qancha o'jar yoki qaysar bo'lmasin muhabbat oldida bo'yin egishi mumkinligi g'oyasi ham voqealar rivoji jarayonida kuzatiladi.

**4. Asarning janri.** Janr bu asarning turi (tusi)dir. Dramatik asarlarning asosi pyesadir. Pyesa (fr. piese – butun yoki ulush, demakdir) – xilma-xil sahna asarlarining umumiyligi nomidir. Janrning to'g'ri belgilanishi sahnalashtiruvchi rejissorlar, tashkilotchilar, ijrochilar vazifasini aniq belgilab olishlari, tomoshabin asarning mazmun va mohiyatini tezda tushunib olishiga yordam beradi.

Dramaturgiya tuzilishi jihatidan uch turga bo'linadi, ya'ni, drama, komediya va tragediya. V. Shekspirning biz tahlil qilayotgan asari ham komediya janrida hal qilingan. Bundagi kulgili tortishuvlar, bahslar qiziqarli xatti-harakatlar asosiga qurilgan bo'lib, tomoshabinda katta taassurot qoldiradi. Ommaviy bayram va tomoshalarda esa san'atning ko'p janrlari (turlari) ishtirot etganligi uchun ularni, masalan, teatrlashtirilgan tomosha, badiiy-publisistik kompozitsiya, adabiy-musiqiy kompozitsiya, teatrlashtirilgan konsert va boshqa umumiyligi nomlar bilan belgilash mumkin.

**5. Konfliktlar (qarama-qarshiliklar)ni aniqlash.** Bunda qarama-qarshi kuchlarning o'zaro to'qnashuvi nazarda tutiladi. Dramatik asarlarda ham, ssenariyda ham yaxshilik bilan yomonlik, sofdillik bilan g'arazgo'ylik, aql va nodonlik, xullas, qarama-qarshi kuchlar to'qnashuvi ham hayot uchun kurash jarayonining aks etishidir. Tashqi, ichki, tor va keng ma'nodagi qarama-qarshiliklar turlari mav-

jud bo'lib, ularni to'g'ri va aniq belgilash tahlilning mohiyatini konkretlashtiradi.

Tashqi qarama-qarshilik qahramonlar kurashining tashqi, fizik jihatdan namoyon bo'lishidir. Ichki qarama-qarshiliklar qahramonlarning psixologik, ichki, ruhiy kurashlarida namoyon bo'lishi mumkin. Tor ma'noda qarama-qarshilikda — kurashlarning qisqa mashtabi nazarda tutilsa, keng ma'nodagi qarama-qarshilikda esa o'z nomidan ma'lum bo'lib turibdiki, keng, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan to'qnashuv va qarama-qarshiliklar nazarda tutiladi. Dramatik asarlarda konflikt bo'lishi shart, ammo ommaviy bayram va tomoshalarda konfliktlar bo'lmasligi ham mumkin, chunki voqealar rivoji epizodlardan iborat bo'lib qolishi mumkin. Bundan ommaviy bayram yoki tomoshalarda qarama-qarshiliklar bo'lmaydi yoki qarama-qarshiliklar bo'lmasa ham bo'laveradi, degan fikr kelib chiqmasligi kerak. Qarama-qarshiliklar va to'qnashuvlar asarda qanchalik yaqqol tasvirlansa, tomoshabin shunchalik sinchkov bo'ladi va to'qnashuvlar natijasini qiziqib kuzatib boradi, voqeaning nima bilan tugallanishini sabrsizlik bilan kutadi. Dramatik asarlarda qarama-qarshiliklar inson bilan inson o'rtasida, inson bilan tabiat va jamiyat o'rtasidagi va boshqa voqeliklarni tasvirlashda namoyon bo'lishi mumkin.

«Qiyiq qizning quyilishi» asarida ham Petruchcho va Katarina obrazlari o'rtasidagi qarama-qarshilik Petruchcho foydasiga hal bo'lishi bilan tugaydi.

**6. Asarning kompozitsion tuzilishi.** «Kompozitsiya» (lot. «qurmoq») — asar qismalarining tuzilishi, mantiqiy joylashishi va uning o'zaro bog'lanishidir. Asarning kompozitsion tuzilishi tarkibiga (adabiyotda ekspozitsiya, muqaddima yoki kirish) teatr san'ati, rejissura sohasi asosan xatti-harakat bilan bog'liq bo'lganligi uchun prolog, tugun, voqealar rivoji, kulminatsion nuqta, yechim va epilog kiradi.

Prolog asarning kirish qismi hisoblanib, voqeaning nima haqida ekanligiga haqida qisqa tushuncha beradi, ya'ni dastlabki tushuntirish beradigan debochasidir.

Tugun asarda tub burilish yasaydigan qismi bo'lib, voqealar rivojiga turtki bo'ladi, ya'ni voqeaning rivojlanishiga sabab bo'lgan voqea-hodisa, tomoshabinning fikri va his-tuyg'usining ma'lum bir jumboqqa qaratilishidir.

Voqealar rivojlanib borgan sari qarama-qarshiliklar kuchayib kulminatsion nuqtaga olib chiqadi.

Kulminatsiya – harakatlar, to'qnashuvlar rivojining eng yuqori nuqtasi hisoblanib, o'z-o'zidan yechimga olib keladi.

Yechim qarama-qarshiliklarning u yoki bu jihatdan hal qilinishi, tugunning yechilishidir. Kompozitsion tuzilishning bunday taqsimoti asosan dramatik asarlarga tegishlidir. Ommaviy bayram va tomoshalarda kompozitsion tuzilishni prolog, episodlar qatori va final deb belgilash mumkin.

V. Shekspirning «Qiyiq qizning quyilishi»da muqaddima (eks-pozitsiya) Lyuchensioning Baptistaning kichik qizi Byankani sevib qolishi bilan boshlanadi. Ammo, Baptistaning katta qizi Katarinani uzatmaguncha kichik qiziga yo'l yo'qligi asarning tuguni hisobnadi. Asarning kulminatsion nuqtasini haddan tashqari qaysar va o'jar qiz Katarinaning hammaning oldida Petruchchoga itoat etishi deb belgilash mumkin. Yechim esa Petruchcho va Katarinaning bir-birlari bilan til topishganligi va bundan Lyuchensio va Byankaning ham baxti uchun yo'l ochilgani bilan xotimalanishidir.

Har qanday asarning muvaffaqiyati uning kompozitsion tuzilishining to'g'ri belgilanishiga ham bog'liq bo'lishi mumkin. Ommaviy bayram va tomoshalar kompozitsiyasi voqeliklarni dramaturgiya qonuniyatlari asosida qurish va bir-birlarini g'oyaviy ko'priq orqali bog'lovchi harakatlar qurilmasidir.

**7. Asosiy voqeа va voqealar qatori.** Asosiy voqeа – asarning mavjud bo'lismiga sabab bo'lган voqeа bo'lib, uning rivojlanishiga sabab bo'ladigan turtki desak ham bo'ladi. Agar shu voqeа sabab bo'lмаганда umuman asarning o'zi bo'lmasdi, degan savolga javob berilishi kerak. Bunga misol qilib E. Vohidovning «Oltin devor» pyesasini keltirishimiz mumkin. Agar devor buzilmaganida Mo'min ota oltin topib olmasdi va u har kungiday oddiy tur mush tarzini kechirgan bo'lardi, devorning buzilib oltin topilishi esa voqeaneing rivojlanib ketishiga sabab bo'ldi. Demak, voqeа rivojiga turtki bo'ladigan, qahramon hayotida tub burilish yasaydigan jarayon bu – asosiy voqeа deb belgilanadi. Dramatik asarlarda asosiy voqeа bilan birgalikda bosh voqeа, markaziy voqeа va yakuniy voqealar ham aniqlanadi. Ko'pgina holatlarda voqealar

qatori kompozitsion tuzilish bilan bir xil ma'noda qo'llanishi mumkin.

Biz tahfil qilishga urinayotgan komediyamizning asosiy voqeasi-Lyuchensioning Byankani sevib qolishi, ammo Katarina masalasini hal qilmay turib bunga imkon yo'qligi bo'lsa, Petruchcho Baptista-ning kimda kim uning qiziga uylansa katta boylikka ega bo'lishi ha-qidagi xabarni eshitishi bilan hech ikkilansmasdan qizning «xunuklar xunugi» bo'lsa ham uylanishga qaror qilishi – bu boshlang'ich voqeа hisoblanadi. Kurashlar jarayonlarini markaziy voqeа, ularning topishishlarini esa yakuniy voqeа deb hisoblasak bo'ladi.

**8. Yetakchi xatti-harakat.** Bu oliy maqsadga olib boruvchi yo'ldir. Aktyor uchun yetakchi xatti-harakat bu qahramonlarining o'z maqsadlariga erishishidagi barcha harakatlari majmuidir. Yetakchi xatti-harakat butun voqeа rivojining asosi bo'lib, voqealikni yuragi hisoblanadi va unda bo'layotgan kurashlarni ochib beradi.

Oliy maqsad va yetakchi xatti-harakat Stanislavskiy «Sistema»-sining asosiy mag'zidir. Oliy maqsad – bu xohish, yetakchi xatti-harakat esa shuni bajarishga intilishdir. Lyuchensioning Byankaga yetishishi yo'lidagi, Petruchchoning boylikka erishish maqsadidagi, qaysar Katarinani o'ziga tobe qilish yo'lidagi barcha intilishlari – yetakchi xatti-harakatdir.

**9. Oliy maqsad.** Rejissora fanida oliy maqsad tushunchasi juda ko'p sharoitlarda qo'llaniladi. Agar muallif o'zi yozgan asari orqali nima demoqchi ekanligi to'g'risida gapirganda g'oya tushunchasini anglasak, oliy maqsad tushunchasi esa, men rejissor, shu asarni sahnalashtirish orqali nima demoqchiman, nimaga erishmoqchiman va bunga qanday vositalar orqali yetishishim mumkin, degan savol-larga javob berishi kerak.

K. Stanislavskiy sistemasining beshta prinsipini esga olaylik:

- hayotiy haqiqat prinsipi;
- oliy maqsad to'g'risidagi ta'lilot;
- aktivlik va xatti-harakat prinsipi;
- aktyor ijodining organik (tabiiylik) prinsipi;
- aktyorning obrazga ijodiy yondashib yashash prinsipi;

Stanislavskiy sistemasining mohiyatini belgilashda ham oliy maqsad tushunchasi muhim ahamiyat kasb etgan. Oliy maqsad rejissorning

xususiy fikri, shaxsiy, obyektiv nuqtayi nazari bo'lib, unda u o'z oldiga qo'yan shaxsiy va jamiyatning ijobiylarini amalga oshirishga qaratiladi. Stanislavskiy o'zining «Aktyorning o'z ustida ishlashi» kitobida oliy maqsad va yetakchi xatti-harakat masalalariga alohida bob ajratib, ularning mohiyatini yorqin misollarda ochib beradi. «Qiyiq qizning quyilishi» asarining oliv maqsadi har qanday qiyin sharoitda ham aql bilan ish yuritsa, ko'zlangan maqsadga erishish mumkinligidir. Ommaviy bayram va tomoshalarda ham, dramatik asarlarda ham oliv maqsad rejissorning o'z oldiga qo'yan yuksak mas'uliyatidir.

**10. Obrazlarga xarakteristika.** Dramatik asarni tahlil qilganda, albatta obrazlarga xarakteristika berilishi shart. Chunki berilgan xarakteristikadan kelib chiqqan holda rol va ijro traktovka qilinadi. Ommaviy bayram va tomoshalarda esa ishtirok etuvchilarining son jihatdan ko'pligini hisobga olib ularga xarakteristika berish shart emas. Ba'zi hollarda dramatik asar mualliflarining o'zlarini qahramonlariga xarakteristika berishga harakat qiladilar. Masalan, N.V. Gogolning «Revisor» komediyasida muallif asosiy obrazlarga chizgilar berib o'tgan. U Xlestakovni quyidagicha tasvirlaydi: «Xlestakov, yigirma uch yoshlarda, oriq, jikkak bir yigit, tentakroq va kallasi puch odamlardan. Aytadigan gapini ham, qiladigan ishini ham mulohaza qilmaydi, biron fikrga diqqatini jalb qilishdan ojiz. So'zlarini pala-partish, tomdan tarasha tushganday. Bu rolni bajaruvchi kishi qanchalik samimiyat va soddalik ko'rsatsa, shuncha yaxshi. Kiyimi modaga muvofiq». Albatta rejissor aynan muallif ta'riflaganday emas, o'z imkoniyatlari, qarashlari, rejissorlik g'oyalari nuqtayi nazaridan yondashishi maqsadga muvofiqidir. O'quvchi-talaba-rejissor mustaqil rejissorlik ishlarida obrazlarga o'zlarini xarakteristika berishni mashq qilib, o'rganib bormoqliklari lozimdir. «Qiyiq qizning quyilishi» asarining asosiy qahramonlariga xarakteristika berishga harakat qilamiz.

Petruchcho – veronalik zodagon. Otasi vafot etgach, Paduyaga keladi va Katarinaning ta'rifini eshitib, o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun kurash boshlaydi va maqsadiga erishadi. Petruchcho – o'ta qaysar, o'jarlikda hech kim bas kela olmaydigan, aytganini qildiradigan sho'x yigit. Yoshi 29–30 larda. O'z maqsadiga erishish uchun hech narsadan tap tortmaydigan qo'rqmas, qo'pol, aqlli va ayyor yigit. Uning maqsadi Katarinaga uylanish, uylanish-

dan maqsadi esa boylikka ega bo'lish, u hatto Katarinaning otasi Baptista bilan kelinning «sepi»ni ham kelishib oladi.

Katarina – haddan tashqari qaysar, o'jar qiz. Yoshi 24 da. Singlisi Byankaga ko'p sovchilar kelganidan u battar qaysarlashadi. Uning maqsadi nima qilib bo'lsa ham Petruchchodan ustun kelish. Ammo asar nihoyasida u o'zini qo'lga oladi va boshqalarni, atrofdagilar va ayniqsa, erlarini hurmat qilishga chaqiradi.

Baptista – Katarinaning otasi. 75–79 yoshlardagi yumshoq xarakterdagi boy, zodagon. Byankani Katarinadan oldin erga bermoqchi emas. U Katarinaning dastidan doimo uyalib yuradi. Uning maqsadi qanday qilib bo'lsa ham, kimga bo'lsa ham Katarinani amallab uzatish va Byankaning baxtiga yo'l ochib berish.

Gortenzio – shu uyning xizmatkori, musiqachi, 45–50 yoshlarda. U Katarinaga musiqa o'rgatmoqchi bo'ladi, ammo Katarina unga qo'pollik qiladi. Uning o'jarliklari, qaysarliklariga bardosh berolmay doim xafa bo'lib yuradi. Uning ham birdan-bir maqsadi – Katarinadan qutulish. Shuning uchun ham Petruchchoning unga uylanishini juda xohlaydi.

Obrazlarga xarakteristika berilganda ularning yoshi, jismoniy tuzilishi, boshqalardan ajratib turadigan xarakterli xususiyatlari, qiziqishlari, kiyinislari, dunyoqarashchlari va eng asosiysi uning maqsadini aniq ifodalamoq zarur.

### Sahnalashtirish rejasining asoslari

Rejissura sohasida asar tanlangandan so'ng u xoh pyesa, xoh sse-nariy bo'lsin, sahnalashtirish uchun rejissor va ijodiy guruh tomonidan tahlil qilinadi. Rejissorlik tahlili qilinganda, yuqorida yozgan nimizdek, muallif haqida ma'lumot, asarning mavzusi, g'oyasi, konfliktlar, oliy maqsad, yetakchi xatti-harakatlar aniqlanib, obrazlarga xarakteristika beriladi.

Sahnalashtirish rejasining (постановочный план) esa rejissorlik tahlilidan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi: agarda rejissorlik tahlili dramaturg yoki biror muallif tomonidan yozilgan, inssenirovka qilingan asar uchun yozilsa, sahnalashtirish rejasining esa rejissorning shaxsiy ijodiy mahsuli hisoblanib, shu asarni sahnada qanday tasavvur qilinishiga va qanday ijro etilishiga yoziladi. Ammo rejissorlik tahlili qilinmay turib, sahnalashtirish rejasini boshlash mumkin emas.

Sahnalashtirish rejasida quyidagi qism (punkt)larga e'tibor berilishi zarur:

**1. Asarning g'oyaviy badiiy talqini (fikrning tug'ilishi)** – bu qismda asarni nima uchun tanlangani, qanday umumiy g'oyani ilgari surayotgani, mavzuning dolzarbligi, uning zamonaviyligi va qanday tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini ochib berishilishi lozim.

**2. Muallif fikriga yondashish** – bunda rejissor muallifning fikriga qo'shilish bilan birga shu asarga kiritish mumkin bo'lgan qo'shimcha fikrlar, g'oya va stil yo'nalishlari, asardagi ayrim matnlarni qisqartirish yoki qo'shimcha so'zlar qo'shish, qahramonlar xarakterlarini o'zgartirish va boshqalar nazarda tutiladi.

**3. Janr va uning stilistik xususiyatlari.** Ma'lumki, dramaturgiyaning yuqorida qayd etganimizdek uchta asosiy janri bor. Bular drama, komediya va tragediya ekanligini ham bilasiz. Bu janrlar stilistik xususiyatlardan kelib chiqqan holda o'z navbatida bir qancha turlarga ajratiladi. Masalan, tarixiy drama (tarixiy shaxslar, tarixiy masala-larga oid mavzular yoritiladi), maishiy drama (oilaviy masalalar, turmushning mayda-chuyda ikir-chikirlari), psixologik drama (qahramonlarning kuchli ruhiy holatlari), lirk (sevgi, muhabbat), musiqali drama, vatanparvarlik dramasi (vatanparvarlik, harbiy, Vatanga sa-doqat mavzularida yozilgan dramatik asarlar), melodrammalar (gr. «melos» – ashula, «drama» – harakat, o'rta asrlarda ashulali va mu-siqali dramalarni melodramma deb ataganlar) shular jumlasidandir.

Komediya ham o'z navbatida satira (tanqid ostiga olinayotgan obyekt o'tkir tig' ostiga olinadi) va humor (yengil kulgu, hazil mu-toyiba shaklida tanqid qilinadi), tragediya esa optimistik tragediya (kelajakka ishonch ruhi bilan tugagan tr.) va tragikkomediya (asar nihoyasi qahramonning fojiasi bilan tugagan bo'lsa ham voqeja ja-rayonida kulgili sahnalarning uchrab turishi) turlariga stilistik xususiyatlari jihatidan bo'linadi.

**4. Asosiy voqeа va voqealar qatori.** Xuddi rejissorlik tahlilda yozilganidek, asosiy voqeа barcha dramatik asarlarda voqeа rivoji uchun turtki bo'ladigan qismdir. Undan tashqari boshlang'ich, markaziy va yakuniy voqealar ham asarning yaxlitligini ta'minlaydi.

**5. Asarning dekorativ hal qilinishi.** Ushbu qismda dekoratsiya («dekoratsiya» so'zi lot. Dekoratio – украшения – bezash degan

ma'noni anglatadi.)<sup>1</sup> voqeal o'tayotgan davrga, zamonasiga, mil-latiga, muhitiga, obrazli yechimiga va boshqa xususiyatlariga qarab tayyorlanadi. Avval eskizlar tayyorlanadi, so'ng asosiy dekoratsiyalar quriladi. Dekoratsiyalar sahnani bezabgina qolmasdan, unga mazmun ham bag'ishlashi lozim, masalan, qozoqlarning o'tovi, rus qishloqlarining uylari, o'zbek xonadoni, Sibir taygasi, Qoraqum cho'llari, tog'lar, g'orlar va boshqalar.

**6. Sahnalashtirilayotgan asarning plastik yechimi.** Bunda sahnalashtirilayotgan spektakl yoki tomoshalarda qo'llanilayotgan raqs-lar, sahnaviy janglar, qilichbozlik, salomlashish, xayrashish, pantomimo va boshqa jihatlar bilan ishslash yo'l-yo'riqlari ko'rsatiladi.

**7. Sahnalashtirilayotgan asarning musiqali yechimi.** Har qanday asarni musiqalashtirish uning muvaffaqiyatining kafolatidir. Chunki musiqa qahramonlarning ruhiy holatlarini, emotsiyonalligini, ta'sirchanligini kuchaytirishda, qatnashuvchilarning, obrazlarning xarakterini ochib berishda, harakat, sahnaviy muhit yaratish va boshqa jihatlarda muhim o'rinn tutadi. Musiqa sahnalashtirilayotgan asarning davri, shart-sharoitlari, millati, janri va boshqa xususiyatlariga qarab tanlanishi va qo'llanishi kerak.

**8. Tempo-ritm.** Temp – bu spektakl yoki tadbirning ichki tezligi, ritm esa tashqi jihatdan namoyon bo'lishidir. Bu ikkala tushuncha uyg'unligi tempo-ritmnini tashkil qiladi. Sahnalashtirilayotgan asarning janriga qarab ichki temp va tashqi ritm bir-biriga mos kelishi yoki bir-biridan farq qilishi mumkin. Sahnalashtirilayotgan asarning muvaffaqiyatli chiqishida tempo-ritmnining o'rni kattadir. Agar voqealar tezlashib ketsa xatti-harakat ham tezlashib tomoshabin asosiy voqeani ilg'ay olmay qolishi mumkin. Aksincha, agar voqeada xatti-harakat sekinlashib, cho'zilib ketsa tempo-ritm tushib ketgan hisoblanadi va natijada tomoshabin zerikib qolishi mumkin. Shuning uchun hamisha ular bir-birini to'ldirib turishlari zarur.

**9. Sahnaviy muhit.** Voqeaneing qanday muhitda, qaysi sharoitda kechayotganligini biz sahnaviy muhit yaratish orqali bildiramiz. Sahnaviy muhitda – tun, urush, xavf, xursandchilik, bozor va boshqa noan'anaviy shart-sharoitlardir, ya'ni an'anaviy sahnalarda shunday muhitlarni yaratish orqali voqelikni tasvirlanishi mumkin.

<sup>1</sup> S.E.S. -- M., 1990. 373-bet.

**10. Obrazli yechim.** Ushbu tushuncha ko'proq spektaklning obrazli hal qilinishiga taalluqlidir. Bunda san'atning barcha vositalari musiqa, dekoratsiya, kostum, afisha hamda barcha ta'sirchan va ifodaviy vositalar orqali asarning g'oyaviy-badiiy talqinini olib berishga xizmat qilinadigan jihatlar nazarda tutiladi.

**11. Asarning kompozitsion tuzilishi.** Muqaddima, ekspozitsiya yoki kirish, rejissura tili bilan aytganda prolog, tugun, voqealar rivoji, kulminatsion nuqta va yechim asarning kompozitsion tuzilishini tashkil etadi. Ommaviy bayram va tomoshalarning kompozitsion tuzilishi esa prolog, epizodlar qatori va final deb belgilanishi haqida yuqorida qayd etgan edik.

**12. Traktovka.** Bu tushuncha ham ko'proq teatr san'atiga tegishlidir. Rol va spektaklning traktovkasi – muallif tomonidan berilgan personajlarning rejissor tomonidan sahnaviy xatti-harakatlaridan kelib chiqqan holatdagi yondashuvi nazarda tutiladi. Aktyorlik san'atida (rejissurada ham) rolning traktovkasi uchun personajning yoshi, kasbi, tashqi fizik holatlari (masalan, cho'loq, duduq, g'ilay va boshqa), davri, tabaqasi va boshqa xususiyatlari asos bo'lib xizmat qiladi. Rejissorlarning ásarga mustaqil yondashuvi yoki ilgari sahnalashtirilgan asarlarni o'ziga xos usulda qayta ishlashiga traktovka deyiladi.

Xulosa qilib aytganda, sahnalashtirish rejasi rejissor uchun asosiy dastur hisoblanmog'i lozim, chunki unda sahnalashtirishning barcha shart-sharoitlari, usullari, yo'l-yo'riqlari ko'rsatilgan bo'lib, sahnalashtirish jarayoniga katta yordam beradi.

### *Takrorlash uchun savollar*

1. Rejissorlik tahlili qachon va kim tomonidan qilinadi?
2. Rejissorlik tahlilida qaysi savollarga javob berilishi shart?
3. Ommaviy bayram tomoshalari va spektakllarni rejissorlik tahlil qilishda farq qiladigan tomonlarini sanab o'ting.
4. Rejissorlik tahlil va sahnalashtirish rejasi bir-biridan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?
5. Sahnalashtirish rejasi rejissorning qaysi savollariga javob berishi kerak?
6. Sahnalashtirish rejasingin bo'laklari (punktлari)ni sanab bering.

## TAYANCH IBORALAR

**Adabiyot** — (ar. odoblar yig‘indisi) odoblar xazinasi degan ma’noni bildiradi.

**Aktyor** — (fr. acteur, lot. aktor — ijrochi) harakat qiluvchi degan ma’noni bildiradi.

**Allegoriya** (majoz) — ramzning bir ko‘rinishi bo‘lib, voqeа-hodisa yoki narsa buyumning mavhum tushunchasi o‘rnida aniq tasvirini ifodalovchi ramziy obrazni qo‘llash usuli. M: tulki — ayyor.

**Analiz** — (yun. analisis) qismlarga bo‘lish, tahlil qilish.

**Anturaj** — sahnaviy kengliklarni raqs harakatlari bilan to‘ldirish, boyitish.

**Aranjirovka** — (fr. arranger tartibga solish, tuzatish) bir yo bir necha cholg‘u asboblari uchun yozilgan musiqa asarini boshqa bir yoki bir necha cholg‘u asboblariiga mo‘ljallab tatbiq etish.

**Artikulatsiya** — (lot. articulo) — nutq jarayonida talaffuz organlanining turlicha shakllanuv harakati.

**Artist** — (fran. artiste — san’atkor, ijodkor, lot. ars — san’at) musiqa, drama va boshqa shu kabi san’at turlarini ko‘pchilik o‘rtasida ijro etuvchi, bajaruvchi va bu san’atni o‘ziga asosiy kasb qilib olgan kishi.

**Askiya** — (arab. azkiyo — zakovat) zehni o‘tkir degan ma’noni anglatadi, askiya — ikki kishi yoki bir necha guruhlardan iborat so‘z o‘yinlarining muayyan mavzu ustidagi tafakkur musobaqasi, so‘z jangidir.

**Audil** — eshitish orqali qabul qilinadigan axborot.

**Badiiy obraz** — ijodkorning fikr, tuyg‘u, sezgi va kechinmalarini singdirilgan hayot manzarasi tasviri.

**Balet** — (fran. ballet, lot. ballo — raqsga tushaman, o‘ynayman) sintetik san’at turlaridan, sahnada ko‘rsatiladigan badiiy asar, mimika va xoreografiya obrazlari bilan ifoda qilinadi.

**Ballada** — (ital. ballade) adabiy-poetik janr bo‘lib, xalq o‘tmishi yoki o‘tgan davr haqida she’riy qissa.

**Bayram** — turkhada «to‘y-marosim, xursandchilik, shodiyona»; qadimgi yahudiy tilida «xach-xachat» — raqsga tushmoq; lot. festivus — «bayramona» degan ma’noni anglatadi.

**Bolero** – (isp. bolero) juft bo‘lib o‘ynaladigan ispan xalq raqsi.

**Butaforiya** – sahnalashtirish jarayonida haqqoniy predmetlar o‘rnida ishlataladigan, atayin sahna uchun yasalgan jihoz, predmet.

**Dialog** – (yun. dialogos) – ikki kishining o‘zaro suhbatlashuvi.

**Diletant** – (ital. dilettante – huzur bermoq) san’at yoki fanning bir sohasi bilan professional holda emas, aksincha shunchaki havaskorlik yo‘lida shug‘ullanuvchi.

**Dramaturgiya** – (lot. «harakat») Drama – harakat va kishilarning o‘zaro so‘zlashuvidan tarkib topadi. Yozuvchining drama shaklida yozgan asarlar yig‘indisidir. Sahna uchun mo‘ljallanib yozilgan asarlar majmuidir.

**Diksiya** – (lot. dictio) – tovush va so‘zlarning talaffuz etilishiga aytiladi.

**Eortologiya** – («eorto» – bayram, «logos» – o‘rganish) bayramlar haqidagi fan.

**Estrada** – (fran. yestrade – taxtasupa, minbar) 1. Konsert ijrochilari uchun qurilgan taxtasupa, sahna. 2. Estrada yoki estrada san’ati va sahna san’atining bir turi bo‘lib, turli shakldagi ijrochilarni birlashtiruvchi tashkilot.

**Etud** – (fran. etude – mashq, o‘rganish) ijrochilik mahoratini oshirish uchun qilinadigan mashqlar.

**Festival** – (ing. va fran. festival – xushchaqchaqlik, bayram) – katta madaniyat va san’at bayrami, musiqa, teatr san’ati tanlovi, konkurslar.

**Folklor** – (ing. folk – xalq, lore – bilim) xalq bilimi, xalq do-nishmandligi.

**Improvizatsiya** – (lot. improvisus) to‘satdan, kutilmagan, tasodifan degan ma’noni bildiradi.

**Innovatsiya** – (ing. yangilik kiritish), yangilik.

**Interpretatsiya** – (lot. tushuntirish, talqinlash) asarlarning ijodiy ijro etishdagi talqini.

**Inssenirovka** – (lot. insurgens) nasriy va nazmiy asarlarni teatr uchun qayta ishslash. Adabiy asarlarni dramatik holatga keltirish.

**Interaktiv** (interfaol) – (ing. inter – «o‘zaro» va akt – «harakat qilmoq») o‘zaro harakat qilmoq.

**Janr** – (fr. genre – tur, uslub) asarning tuzilishi, ijrochilik tarkibi, xarakteri bilan ular turlicha bo‘ladi. Masalan, dramatik asarlarning drama, komediya, tragediya turlari mavjud.

**Katexizik suhbat** – (yun. katechesis-nasihat, o‘git ma’nosini anglatadi) biron-bir ta’limot asoslarini savol-javob tarzidagi qisqa-chi bayoni.

**Kechinma san’ati** – bu yo‘nalishda ichki va tashqi texnikasini o‘z ixtiyoriga bo‘ysundira olgan, haqqoniy harakat qilish texnikasini o‘zlashtirgan aktyorlar nazarda tutiladi. K.S. Stanislavskiy sistemasining mohiyati ichki kechinma san’atiga asoslanadi.

**Kinestetik** – his qilish orqali qabul qilinadigan axborot (hid, ta’m bilish va b.).

**Kompozitsiya** – (lot. «qurmoq») – asar qismalarining tuzilishi, mantiqiy joylashishi va uning o‘zaro bog‘lanishi.

**Korfarmon** – masxaraboz va qiziqchilar teatri, ijrochilar rahbari, xalq an’anaviy teatri rejissori, ish boshi.

**Kulminatsiya** – (lot. «culmen, culminis») – cho‘qqi, harakat rivojlanishining eng yuqori nuqtasi.

**Ko‘chim** – eng ko‘p ishlatiladigan badiiy vositalar jami bo‘lib, metafora atamasi bilan ham yuritiladi. Ko‘chimning majoz, istiora, ramz, timsol singari ko‘rinishlari bor.

**Loja** – (fr. loge) – tomosha zalidagi baryer bilan ajratib qo‘yilgan joy.

**Masal** – (ar. o‘rnak) maqol, namuna degan ma’noni beradi. Masal – majoziy xarakterdagи qisqa hikoya bo‘lib, axloqiy va tarbiyaviy fikrlarni ifodalaydi.

**Melodrama** – (gr. «melos» – ashula, «drama» – harakat) o‘rta asrlarda ashulali va musiqali dramalarni melodrama deb atagan.

**Mehrjon** – Jon sevgisi, quyosh demakdir. Kuz, hosil bayrami.

**Metafora** (istiora) – (ar. biror narsani omonatga vaqtinchalik o‘rnak) degan ma’noni ifodalaydi). Bir predmetning ma’nosini boshqa predmetga ko‘chishi. M: Xumo qushi – baxt belgisi.

**Mizanssena** – (fr. mise en scene) – sahnada joylashish. Konfliktlarni plastik harakatga ko‘chirish, sahnada aktyorlarning joylashuvi, harakati, kichik sahnalar.

**Modern** – (fr. yangi) zamонавиј.

**Monolog** – (gr. «mono» – bir, «logos» – so‘z) bir kishi tomoni-dan ijro etiladi.

**Montaj** – (fr. montage) – epizodlar, bloklar, voqealarni bir-biri-ga mantiqiy jihatdan bog‘lash.

**Obraz** – keng ma’noda ijodkorning fikr-tuyg‘ulari singdirilgan hayot manzarasini anglatadi, tor ma’noda badiiy asarda aks ettiril-gan inson siyomisini ifodalaydi.

**Oliy maqsad** – rejissorning sahnalashtirishdagi xususiy fikri, nuqtayi nazari. K.S. Stanislavskiy sistemasining tamoyillaridan biri.

**Opera** – (ital. opera – ijod, asar) musiqali dramatik asar, mu-siqa, sahnaviy harakat va nutq sintezidan tashkil topgan musiqiy dramatik asar.

**Orfoepiya** – (yun. orphos – to‘g‘ri, epos – nutq) adabiy talaffuz me’yorlarini belgilab beruvchi qoidalar majmuasidir.

**Pamflet** – (ing. qo‘ldagi varaq) biror ijtimoiy tuzum voqelik va siyosiy partiya faoliyati, dasturi ustidan o‘tkir hajv orgali kuluvchi kichik satirik asar.

**Pantomimo** – (gr. «pantomimos»).

1. Turli harakat va mimikalar bilan fikr va hissiyotlarni ifoda-lash.

2. So‘zsiz, turli harakat, mimika va musiqa jo‘rligida badiiy obrazni gavdalantirib beruvchi teatr san’ati turi.

3. Balet san’atining asosiy elementlaridan biri. Bir so‘z bilan aytganda, gavda va uning a’zolari yordamida bajariladigan ifodali harakat.

**Parodiya** – (gr. «para» – qarama-qarshi, zid, «ode» – qo‘shiq). Satirik ijodning bir turi bo‘lib, odatda biror yozuvchi ijodi yoki alohida asarning kulgili yoki yaramas tomonlarini ochib ko‘rsatib beruvchi she’riy yoki nasriy asar.

**Portret** – kishining tashqi qiyofasi, siyomisi, kiyim-kechagi o‘zini tutishi va hokazolar tasviri.

**Popurri** – (fran. pot-pourri – turli go‘sht va sabzavotlardan qilingan ovqat) turli asarlardan olingan parchalar asosida tuzilgan ijod mahsuli.

**Premyera** – (fran. premiye – birinchi, bosh) biror ijod namu-nasining ilk ijrosi.

**Prolog** – (gr. «prologos») asardagi voqealarning boshlanish qismi.

**Publitsistika** – (lot. ijtimoiy) keng ma'noda, ijtimoiy-siyosiy hayot masalalarini yoritadigan barcha turdagi asarlar. Tor ma'noda, davlat va jamiyat hayoti masalalariga bag'ishlangan ijtimoiy-siyosiy va ilmiy adabiyot.

**Pyesa** – (fran. piye) «butun yoki umum» so'zidan olingan. Xilma-xil sahna asarlari (drama, komediya, tragediya)ning umumiy nomi.

**Qo'shiq** – kuyga solib aytildigan she'r. Unda kishilarning histuyg'ulari kechinmalari ifodalanadi. U she'riy matn va musiqa uyg'unligidan iborat bo'ladi.

**Rakurs** – (fr. raccourci) uzoqdagi buyum tasvirining kichraytirilgan ko'rinishi.

**Ramz** – (ruscha – simvol, gr. symbolon – belgi) anglash murakkabroq bo'lgan mavhum axloqiy sifatlar, shu sifatlarga ko'proq ega bo'lgan narsa va jonivorlar orqali ifodalash.

**Rejissor** – (fran. «regisseur», lot. «rego») boshqaraman (управляю) so'zidan olingan. Spektakl, tomoshani sahnalashtirish ishlarinig badiiy rahbari.

**Rejissura** – dramatik asarlarni sahnaga ko'chirishdagi rejissorning ish jarayoni.

**Remarka** – (fran. «remerguye») muallif tomonidan beriladigan izoh.

**Repertuar** – (fran. ro'yxat) yakka sozanda, ansambl, teatr jamoalarining ijro etiladigan jami asarlari majmui.

**Repetitsiya** – (lot. repetito – qaytariq) mashq, tayyorgarlik. Rasmiy ijro oldidan o'tkaziladigan tayyorgarlik.

**San'at** – «sun», ya'ni «yaratmoq» so'zidan olingan bo'lib, badiiylik yaratish, vogelikning obrazlar vositasida aks ettirilishi.

**Skomorox** – (mazaxchi, kuldiruvchi) o'rta asr rus professional xalq artistlari.

**Spektakl** – (lot. tomosha) sahnaga qo'yiladigan teatr tomoshasi.

**Ssenariy** – (ital. «scenario») asarning rejasi demakdir. O'tkaziladigan bayram yoki tomoshaning to'liq yozma bayoni.

**Sujet** – (fr. sujet) predmet, narsa, mavzu, mazmun. Badiiy asarning o'zaro bog'lovchi va jonlantirib boruvchi voqealar tizimi, fabulaning yoritilishi.

**Taqlid, namoyish san'ati** – tashqi jihatdan tomoshabin uchun o'ynash.

**Vals** – (fran. valse, nem. walser) ikki kishidan bo'lib, ohista o'ynaladigan ball raqsi.

**Vizual** – ko'rish orqali qabul qilinadigan axborot (obrazlar, rasm, film).

**Vodevil** – (fran. vaudeville) 1. Musiqa jo'rligida ijro etiladigan yengil hajviy asar. 2. Hajviy opera va pyesalarda sahnada qatnashuvchilarining hammasi tomonidan ijro etiladigan naqoratli qo'shiq.

**Xarakter** – (yun. xususiyat, belgi) obrazning mukammallahgan ko'rinishi, turli xususiyatlarni aniq ko'riniib turgan, yakka xususiyatlari kashf etilgan shakli.

**Xunarmandchilik** (ремесло) – aktyorlik mahoratini yuzaki o'rghanish (ko'chirmachilik).

**Yetakchi xatti-harakat** – oliv maqsadga olib chiquvchi yo'l.

**She'r** – ohang jihatidan bir tartibga solingan, his-tuyg'u ifodasi sifatida vujudga kelgan, hayajonli ritmik nutqdir.

**Shtamp** – aktyorlik mahoratiga xos bo'lgan tushuncha bo'lib, ichki mazmundan ajralib qolgan tashqi harakat.

## TEST SAVOLLARI

### I VARIANT

1. «Aktyor» so‘zining ma’nosini toping?
  - A. Tashkilotchi
  - B. Pardozchi
  - C. Xatti-harakat qiluvchi
  - D. Ashulachi
2. Sahnada ko‘rsatilayotgan voqeа o‘rnini aks ettirishga, tadbirning g‘oyaviy mazmunini ochishga xizmat qiluvchi sun’iy manzara, badiiy jihoz bu ...
  - A. rekvizit
  - B. butofor
  - C. kostum
  - D. dekoratsiya
3. Ikki yoki undan ortiq shaxs orasidagi suhbat bu ...
  - A. logos
  - B. monolog
  - C. dialog
  - D. etud
4. V.E. Meyerxold «Shartlilik uslubi teatrda to‘rtinchi ijodkorni talab etadi» fikrida to‘rtinchi ijodkor deb kimni ta’kidlagan?
  - A. Tomoshabin
  - B. Aktyor
  - C. Ashulachi
  - D. Dekorator
5. Diletant – ...
  - A. o‘z ishining ustasi
  - B. tadqiqodchi
  - C. mashhur
  - D. san‘at yoki fanni yuzaki o‘rganuvchi
6. O‘zbek teatriga tamal toshini qo‘ygan aktyorlar berilgan javobi toping?
  - A. T. Xo‘jayev, M. Uyg‘ur
  - B. Sh. Burxonov, Y. Ahmedov

C. Y.Sa'diyev, G.Jamilova

D. B.Yo'ldoshev, A.Hidoyatov

**7. Stol atrofida o'qish qanday jarayonlardan iborat?**

A. Oddiy, mantiqiy, obrazli

B. Mantiqiy, oddiy, sahnaviy

C. Obrazli, hayotiy

D. Obrazli

**8. K.S.Stanislavskiy qanday kasb egasi bo'lgan?**

A. Aktyor, qo'shiqchi

B. Aktyor, rejissor

C. Rassom

D. Aktyor, rassom, rejissor, pardozchi

**9. Mahalliy dalillarga asoslanib yozilgan, badiiy to'laqonli asar**

**bu ...**

A. ssenariy

B. pyesa

C. dialog

D. monolog

**10. «Monolog» so'zining lug'aviy ma'nosini toping?**

A. Ikkii kishining suhbatি

B. Dialoglar majmuasi

C. Bir kishining so'zi

D. Tomoshabin so'zi

**11. Teatr san'atining reformatori kim?**

A. V.I. Nemirovich-Danchenko

B. I.M. Tumanov

C. V.E. Meyerxold

D. K.S. Stanislavskiy

**12. K.S. Stanislavskiy o'z sistemasini nechanchi yili yaratgan?**

A. 1900

B. 1901

C. 1902

D. 1903

**13. Temp nima?**

A. Ritmnинг ajralmas bo'lagi bo'lib, uning tashqaridan namoyon bo'lishidir

- B. Tashqi monologning ichki monolog bilan uyg‘unligi  
C. Harakatning ichki dinamika orqali ko‘rinishi  
D. Xatakterning tabiiyligi
- 14. Hayotiy haqiqat, oly maqsad, faollik va harakat, organik prinsip, aktyorning obrazda yashash prinsiplari bu ...**
- A. V.E. Meyerxold biomexanikasi  
B. ssenariy tuzilmasi  
C. K.S. Stanislavskiy sistemasi prinsiplari  
D. dramaturgiya komponentlari
- 15. «Teatr» so‘zining lug‘aviy ma’nosini toping.**
- A. Tomoshagoh  
B. Sayl  
C. Sahna  
D. San’at
- 16. «Fabula» degan termin nima ma’noni anglatadi?**
- A. Kompozitsiya  
B. Asarning prologi  
C. Asarning eng yuqori cho‘qqisi  
D. Badiiy asarning sujet asosi
- 17. «Sujet» deganda nimani tushunasiz?**
- A. Adabiy asardagi voqealarning aloqasi va ketma-ketligi  
B. Voqeanning boshlanishi  
C. Voqealar rivoji  
D. Asarning asosiy voqeasi
- 18. «Monolog» degani nima?**
- A. Gap  
B. So‘z  
C. Jumla  
D. Bir kishining so‘zi
- 19. K.S. Stanislavskiy mizanssena haqida nima degan?**
- A. Mizanssena bu g‘oya  
B. Mizanssena bu maqsad  
C. Mizanssena aktyorning harakati  
D. Mizanssena bu rejissorning tili
- 20. «Remarqa» deganda nimani tushunasiz?**
- A. Aktyorning so‘zi

B. Rejissorning tushunchasi

C. Partnorning so'zi

D. Muallif tomonidan berilgan izoh

**21. Shtamp deganda nimani tushunasiz?**

A. Muhr

B. Ko'chirish

C. Aktyor ijrosida bir rejaga topilgan qirralarning ikkinchisida mexanik qaytarilishi

D. Aktyor ijrosidagi ko'r-ko'rona ko'chirma

**22. «Mizanssena» nima?**

A. Aktyorning sahnada joylashishi

B. Qarama-qarshiliklarni plastik harakatga ko'chirish

C. Dekoratsiyalarni sahnada joylashishi

D. Chiroqni joylashtirish

**23. «Sahna» deganda nimani tushunasiz?**

A. Teatr pyesasidagi aktning (harakatning) alohida bo'lagi

B. Teatr binosining bir qismi, tomosha bo'lib o'tadigan maydoncha

C. Romanda, pyesada, filmda, kartinada alohida epizod

D. Tomosha qilinadigan voqeа

**24. «Janr» so'zi qanday ma'noni anglatadi?**

A. Tur

B. Ko'rinish

C. Yo'nalish

D. Sistema

**25. «Rejissor» degan so'z nima ma'noni anglatadi?**

A. Yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi

B. Repititsiya o'tkazuvchi

C. Musiqa o'rgatuvchi

D. Boshlovchi

**26. «Grotesk» bu – ...**

A. bo'rttirish

B. mubolag'a

C. kuldirish

D. yuqori cho'qqi

**27. «Avanssena» nima?**

- A. Sahnaning orti
- B. Sahnaning o‘rtasi
- C. Sahnaning oldi
- D. Sahnaning tepasi

**28. «Drama» deganda nimani tushunasiz?**

- A. Yugurish
- B. O‘qish
- C. O‘tirish
- D. Xatti-harakat

**29. «Aktyor etikasi» tushunchasi kim tomonidan kiritilgan?**

- A. V.E. Meyerxold
- B. K.S. Stanislavskiy
- C. B. Zaxava
- D. A.P. Lenskiy

**30. «Portal» deganda nimani tushunasiz?**

A. Sahnani tomosha zali bilan ajratib turuvchi, sahna oldingi devorning «kesmasi»

- B. Arxitektura fasadida binoga kirish
- C. Konstruksiyaning qismi
- D. Kolonnalarning joylashishi

**31. «Arlekin» nima?**

A. Italian personaji  
B. Qiziqchi  
C. Masxaraboz  
D. Sahnaning yuqori qismidagi portalga qimirlamaydigan qilib osilgan mato

**32. «Inssenirovka» deganda nimani tushunasiz?**

- A. Biron narsani tasvirlab, alishtirish
- B. Adabiy asarga sahnaviy shakl berish
- C. Adabiy materialni sahma uchun qayta ishlash
- D. Adabiy materialdan sujet yaratish

**33. «Mavzu» deganda nimani tushunasiz?**

- A. Asosiy fikr
- B. Badiiy mazmunning asosiy momenti
- C. Yaxlitlik
- D. Rejissoरlik g‘oyasi

**34. Spektaklning yoki obrazning urug'i (zerno) nimaga asoslanib aniqlanadi?**

- A. G'oyaga
- B. Mavzuga
- C. Yetakchi xatti-harakatga
- D. Oliy maqsadga

**35. «Epilog» degani bu ...**

- A. spektaklning boshlanishi
- B. spektakl kulminatsiyasi
- C. spektaklning tugallanishi
- D. spektaklning bezagi

## **II VARIANT**

**36. «Prolog» degani bu ...**

- A. spektaklning asosiyligi g'oyasi umumlashgan tasviri
- B. spektakl qarama-qarshiligidagi tasviri
- C. spektakl mavzusini ochib berish
- D. spektakl yetakchi xatti-harakati

**37. «Shartli» teatrning asoschisi kim?**

- A. V.I. Nemirovich-Danchenko
- B. E. Vaxtangov
- C. K.S. Stanislavskiy
- D. V.E. Meyerhold

**38. «Metafora» so'zi qanday ma'noni anglatadi?**

- A. Predmetning almashinishi
- B. Aktyorlar harakatining o'zgarishi
- C. Bir predmetning ma'nosini ko'chirish
- D. Dekoratsiyalar o'rnini almashinuvchi

**39. O'zbek teatrida birinchilardan bo'lib shartli teatr uslubida ishlolib borgan rejissor kim?**

- A. B. Yo'ldoshev.
- B. A. Hoshimov
- C. A. Oripov
- D. M. Uyg'ur

**40. «Sofit» degani bu ...**

A. teatr sahnasini tepadan va oldidan yorituvchi, firmalarga o'rnatilgan yoritgichlar

- B. pastga qaragan ship to'sinlari
- C. arka, karniz va boshqalar
- D. dekoratsiya

**41. Teatr rejissori ijodining asosiy materiali nima?**

- A. Pyesa
- B. Aktyor ijodi
- C. Dekoratsiya
- D. Rekvizit

**42. Teatrdagi «Biomexanika» va «Konstruktivizm» yo'nalishini kim yaratgan?**

- A. K.S. Stanislavskiy
- B. E. Vaxtangov
- C. M. Uyg'ur
- D. V.E. Meyerxold

**43. Improvizatsiya nima?**

- A. «To'satdan, kutilmagan, tasodifan» ma'nolarini beradi.
- B. O'brazga kirishmaslik
- C. Asarning janri
- D. «Harakat, ijro etmoq» ma'nolarini beradi.

**44. «Fabula» degan termin nima ma'noni anglatadi?**

- A. Kompozitsiya
- B. Asarning prologi
- C. Asarning eng yuqori cho'qqisi
- D. Badiiy asarning sujet asosi

**45. «Sujet» deganda nimani tushunasiz?**

- A. Adabiy asardagi voqealarning aloqasi va ketma-ketligi
- B. Voqeaneing boshlanishi
- C. Voqealar rivoji
- D. Asarning asosiy voqeasi

**46. «Janr» so'zi qanday ma'noni anglatadi?**

- A. Tur
- B. Ko'rinish
- C. Yo'naliш
- D. Sistema

**47. «Rejissor» degan so'z nima ma'noni anglatadi?**

- A. Yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi
- B. Repititsiya o'tkazuvchi
- C. Tartibga chaqiruvchi
- D. Boshqaruvchi

**48. «Monolog» degani nima?**

- A. Gap
- B. So'z
- C. Jumla
- D. Bir kishining so'zi

**49. «Avtor» so'zining ma'nosini toping?**

- A. Rejissor
- B. Muallif
- C. Shoir
- D. Dramaturg

**50. Sarlavhasiz chiqadigan asar qanday nomlanadi?**

- A. Anonim asar
- B. Adabiy asar
- C. Anepingarf asar
- D. Ommaviy asar

**51. Dialoglar, ayrim kupletlarni kuylash, raqslar tomoshasi qanday nomlanadi?**

- A. Myuzikl
- B. Musiqali drama
- C. Drama teatri
- D. Vodevil

**52. «Drama teatri»ning ma'nosи ...**

- A. havaskorlar teatri
- B. ko'pchiliik sig'adigan katta xona
- C. asosan dramatik asarlar qo'yiladigan bino
- D. qadimgi o'zbek sirk san'ati

**53. Dramatik asarlar yaratuvchi ijodkor kim?**

- A. Yozuvchi
- B. Dramaturg
- C. Shoir
- D. Jurnalist

**54. Aktyorli mahoratining birinchi elementi ...**

- A. xotira
- B. qobiliyat
- C. diqqat
- D. mimika

**55. «Dialog» so‘zining ma’nosini aniqlang?**

- A. Ikki yoki undan ortiq odamlar o‘rtasidagi suhbat
- B. Musiqada bir ovozdan ijro etilgan motiv
- C. Ovozli filmning so‘z qismi
- D. Qo‘sishq

**56. Drama shaklida yozilgan adabiy asarni teatr sahnasi, radio, televedniya uchun moslab qayta ishlash qanday nomlanadi?**

- A. Inssenirovka
- B. Ssenariy
- C. Improvizatsiya
- D. Hikoya

**57. Lirika ...**

- A. xalq hajviyoti janrlaridan biri
- B. o‘zbek xalq og‘zaki ijodi

**C. voqelik ayrim shaxsning kechinmalari, o‘y fikrlari asosida ifodalanadi**

- D. hayotdagи insonlararo munosabatni ko‘rsatadigan asar

**58. Ko‘chma manoda qo‘llanuvchi xalq majoziy iboralari qanday nomlanadi?**

- A. Matal
- B. Maqol
- C. Mif
- D. Ruboiy

**59. Adabiy-badiiy, ilmiy, musiqa asarlarining boshlanishi qanday nomlanadi?**

- A. Muqallid
- B. Mushoira
- C. Reja
- D. Muqaddima

**60. «Novella» so‘zining ma’nosi nimani anglatadi?**

- A. Montajda surat ovozdan o‘tib ketishi

- B. Adabiyotning epik janriga kiradigan ixcham turi
- C. Lirik va komik xarakterga ega kuy
- D. Adabiyotning epos janri

**61. Teatrda qo'yish uchun mo'ljallangan dramatik asar qanday nomlanadi?**

- A. Pyesa
- B. Hikoya
- C. Roman
- D. Ocherk

**62. Adabiy asarlarning muqaddimasi nima?**

- A. Epilog
- B. Prolog
- C. Tugun
- D. Yechim

**63. Yunoncha «Echki qo'shig'i» ma'nosini bildiradigan dramatik janr qanday nomlanadi?**

- A. Komediya
- B. Tragediya
- C. Marsiya
- D. Ballada

**64. Ilmiy, adabiy yoki badiiy asarlarning tanqidiy tahlili qanday nomlanadi?**

- A. Taqlid
- B. Sujet
- C. Publitsistika
- D. Taqriz

**65. Yengil, sho'x tuzilishga ega bo'lgan ba'zan odobdan tashqari, komediya yoki vodivel qanday nomlanadi?**

- A. Farser
- B. Triller
- C. Tragediya
- D. Fars

**66. «Tomosha» deganda nimani tushunasiz?**

- A. Ko'ngil ochar tadbirlarni
- B. Ko'z bilan ko'rib, ma'naviy zavq olinadigan tadbirlarni
- C. Ishtirok etish mumkin bo'lgan tadbirlarni

D. Teatrlashtirilgan tadbirlarini

**67. «San'at» deganda nimani tushunasiz?**

A. Kishilarga estetik zavq bag'ishlovchi vositani

B. Xalq hunarmandchiliginu

C. Bir guruh insonlar tomonidan yaratilgan san'at asarini

D. Musiqa va raqs uyg'unligini

**68. Raqs nima?**

A. Musiqali xatti-harakat

B. Tana harakatlarining plastik va mimika orqali bajariladigan harakatlari

C. Panja, qo'l, oyoq harakatlarining uyg'unligi

D. Qo'l harakatlari

**69. O'zbekistonda nechta raqs maktabi mavjud?**

A. 4 ta

B. 2 ta

C. 3 ta

D. 1 ta

**70. Raqs maktablari nima bilan farqlanadi?**

A. Plastik xatti-harakat va libos bilan

B. Musiqa va libos bilan

C. Sahnalashtirishning o'ziga xos xususiyatlari bilan

D. Mimika bilan

**71. Kunduzi namoyish etiladigan qo'g'irchoq o'yini nima deb ataladi?**

A. Chodir xayol

B. Fonus xayol

C. Chodir jamol

D. Kunduzgi qo'g'irchoq o'yini

### III VARIANT

**72. «Innovatsiya» so'zining ma'nosi ...**

A. an'anaviy o'qitish

B. ing. yangilik kiritish, yangilik

C. noan'anaviy o'qish

D. texnika vositalaridan foydalanish

**73. Qo‘g‘irchoq o‘yinida surnay chalib turuvchi sozanda kim deb ataladi?**

- A. Mextar
- B. Masxaraboz
- C. Korfarmon
- D. Dirijor

**74. Quyidagi badiiy vositalardan qaysi biri dramatizmni kuchaytiradi, voqealar rivojiga turtki va keskinlik beradi?**

- A. Yechim
- B. Portret
- C. Konflikt
- D. Peyzaj

**75. Dramatik asardagi obraz uchun asos bo‘lgan shaxs nima deyiladi?**

- A. Obraz
- B. Xarakter
- C. Sujet
- D. Prototip

**76. Qaysi asar birinchi o‘zbek tragediyasi hisoblanadi?**

- A. «Abulfayzxon»
- B. «Padarkush»
- C. «Baxtsiz kuyov»
- D. «Shoh Edip»

**77. Birinchi o‘zbek dramaturgi kim?**

- A. Fitrat
- B. Cho‘lpon
- C. A. Qodiriy
- D. Behbudiy

**78. «Maysaraning ishi» komediyasining muallifini toping?**

- A. Cho‘lpon
- B. H.H. Niyoziy
- C. A. Fitrat
- D. A. Avloniy

**79. Quyidagi javoblardan qaysi biri tarixiy dramaga kiradi?**

- A. «O‘tgan kunlar»
- B. «Temir xotin»

C. «Andishali kelinchak»

D. «Sohibqiron»

**80. Qaysi javobda tragediya (fojia)lar nomi qayd etilgan?**

A. «Otello», «Mirzo Ulug‘bek», «Ulug‘bek xazinasi»

B. «Abulfayzxon», «Yulduzli tunlar», «Kelinlar qo‘zg‘oloni»

C. «Hamlet», «O‘tgan kunlar», «Avlodlar davoni»

D. «Mirzo Ulug‘bek», «Abulfayzxon», «Kuzning birinchi kuni»

**81. «Kelinlar qo‘zg‘oloni» komediyasining muallifi kim?**

A. G. G‘ulom

B. S. Ahmad

C. A. Qahhor

D. M. Shayxzoda

**82. Botir Zokirov xotirasiga bag‘ishlab o‘tkazilgan yosh estrada xonandalarining ko‘rik tanlovini sahnalashtiruvchi rejissori kim?**

A. Bahodir Yo‘ldoshev

B. Rustam Hamidov

C. Baxtiyor Sayfullayev

D. Nosir Otaboyev

**83. «Kamolot», «Qiziqchi», «Toshkent Malikasi», teatrlashtirilgan futbol –shou-dasturlarining bosh rejissori kim?**

A. Nabi Abdurahimov

B. Farhod Ahmedov

C. Baxtiyor Sayfullayev

D. Rustam Hamidov

**84. Rejissorning uchta fazilati (oyna, tushuntiruvchi, tashkilotchi) haqida qaysi rejissor o‘z fikrini bayon etgan?**

A. K. Stanislavskiy

B. B. Yo‘ldoshev

C. V.I. Nemirovich-Danchenko

D. V. Meyerxold

**85. 1995-yilda Respublika miqyosida o‘tkazilgan «Navro‘z» bayramining bosh rejissori kim bo‘lgan?**

A. Rustam Hamidov

B. Baxtiyor Sayfullayev

C. Bahodir Yo‘ldoshev

D. Rustam Ma’diyev

**86. Eortologiya nima?**

- A. Marosim va udumlar haqidagi fan
- B. Bayramlar to‘g‘risidagi fan
- C. Aktyorlik mahoratini o‘rgatadi
- D. Rejissorning kundaligi

**87. Toshkentning 2000-yilligi bayram tomoshasining bosh rejisi sori kim?**

- A. N. Otaboyev
- B. D. Genkin
- C. B. Sayfullayev
- D. B. Shodiyev

**88. Mirzo Ulug‘bek tavalludining 600 yilligi qaysi yili nishonlangan?**

- A. 1955-y.
- B. 1994-y.
- C. 1999-y.
- D. 2002-y.

**89. «Avesto» kitobining 2700 yilligi qachon nishonlangan?**

- A. 1978-y.
- B. 1997-y.
- C. 2001-y.
- D. 2007-y.

**90. «O‘zbek xalqi bayramlari» kitobining (T., 2002-y) muallifini toping.**

- A. X. Mirpo‘latov
- B. U. Qoraboyev
- C. V. Rustamov
- D. G.B. Sayfullayev

**91. Sujet bu ...**

- A. asarning tuzilishi
- B. badiiy asarning o‘zaro bog‘lovchi va jonlantirib boruvchi volealar tizimi, fabulaning yoritilishi
- C. rejissorlik topilma
- D. aktyorlik ijrosi

**92. Rakurs nima?**

- A. Ijrochilik mahorati

B. Rejissuraga oid nazariyalar

C. Uzoqdag'i buyum tasvirining kichraytirilgan ko'rinishi

D. Sahna nutqi

**93. Montaj bu...**

A. qarama-qarshilik

B. epizodlar, bloklar, voqealarni bir-biriga mantiqiy jihatdan bog'lash

C. aktyorlarning sahnada joylashuvi

D. dekoratsiyalarni tayyorlash

**94. Butaforiya nima?**

A. Xatti-harakat

B. Rejissoरlik mahorati

C. Sahnalashtirish jarayonida haqqoniy predmetlar o'rnidagi ishlataladigan, atayin sahna uchun yasalgan jihoz, predmet

D. Plastik harakat

**95. Dramaturgiyaning nechta janri bor?**

A. 2 ta

B. 3 ta

C. 4 ta

D. 6 ta

**96. Quyidagilardan qaysi biri dramatik janrga xos?**

A. Lirika

B. Arxitektura

C. Komediya

D. Roman

**97. «To'maris o'yinlari» deb nomlangan xotin-qizlarning milliy sport o'yinlari Respublika festivalining (Jizzax, 1999-y) bosh rejisorini aniqlang?**

A. T.Azizov

B. B.Sayfullayev

C. F.Ahmedov

D. B.Yo'ldoshev

**98. «Improvizatsiya» so'zi qanday ma'noni anglatadi?**

A. Aktyorning tez gapirishi

B. Rejissoरlik g'oyalari

C. «To'satdan», «kutilmagan» degan ma'noni beradi

D. Sahnani bezash

**99. Diletant bu...**

A. o'z sohasining mohir ustasi

B. mahoratli rejissor

C. (italyan. huzur bermoq) – san'at yoki fanning bir sohasi bilan professional holda emas, aksincha, shunchaki yuzaki havaskorlik yo'lida shug'ullanuvchi

D. iste'dodli aktyor

**100. Xalqaro teatr kuni ...**

A. 22-iyun

B. 17-dekabr

C. 27-mart

D. 9-may

**101. «O'zbekteatr» ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasining oylik adabiy-badiiy, axborot-reklama jurnalining nomi ...**

A. «Saodat»

B. «Teatr»

C. «Nafosat»

G. «Darakchi»

**102. «Repertuar» so'zining ma'nosi ...**

A. Adabiyotlar to'plami

B. Mumtoz qo'shiqlar

C. Ro'yxat

D. Mashq qildirish

**103. Samarqand shahrining 2750 yilligiga bag'ishlangan bayram tomoshasi qachon o'tkazilgan?**

A. 1985-y.

B. 2007-y.

C. 1998-y.

D. 2005-y.

**104. Baxtiyor To'rayev, Georgiy Brim kim?**

A. Xonanda

B. Arxitektor

C. Rassom

D. Aktyor

**105. Rejissorning darajasini aniqlovchi omil ...**

- A. dunyoqarashining kengligi
- B. saviyasining yuqoriligi
- C. tashkilotchilik qobiliyatining kuchliligi
- D. barcha javoblar to'g'ri

**106. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Hamza nomidagi o'zbek davlat teatriga «Milliy teatr» maqomini berish to'g'risidagi farmoni qachon chiqarildi?**

- A. 1997-y 8-dekabr
- B. 1999-y 27-mart
- C. 2000-y 18-noyabr
- D. 2001-y 21-sentabr

**107. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida»gi farmoni qachon chiqarildi?**

- A. 1992-y.
- B. 1994-y.
- C. 1998-y.
- D. 2004-y.

**108. «Kamolot», «Qiziqchi» ko'rik tanlovлari rejissorini aniqlang.**

- A. M.Azimov
- B. B.Sayfullayev
- C. B.Yoldoshev
- D. R.Hamidov

## XULOSA SIFATIDA

Ochiq havoda, noan'anaviy sahnnaviy sharoitda bayram yoki tomoshalarni tashkil etish rejissordan nihoyatda yuksak mahorat, qobiliyat, tajriba va mas'uliyat talab qiladi. Teatr sahnasida yoki yopiq binoda o'tkaziladigan tadbir va tomoshalarni o'tkazish uchun deyarli barcha imkoniyatlar mavjud. Ochiq havoda o'tkaziladigan tadbirlarda esa rejissor joy bilan bog'liq bo'lgan, chiroqlar bilan, tomoshabin va ijrochilarning joylashishi bilan, sahna bezagi va boshqa bir qancha muammolar bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklarga duch keladi.

Bu haqida A.D. Silin shunday deydi: «Oddiy drama teatri rejissoriga ommaviy teatrlashtirilgan tadbir sahnalashtirish vazifasi yuklanganda, u katta qiyinchilik va muammolarga duch keladi<sup>1</sup>. Eng avvalo, bu jarayonda sharoit butunlay boshqacha ekanligini u o'rgangan, odatlanib qolgan ijodiy faoliyatdan farq qilishini tushunadi, deydi. Birinchidan, parda va kulisalar, chiroqlar bilan bezatilgan sahnaning o'zi yo'q. Shtatda ishlaydigan profesional ishchilar (bu yerda dekoratsiya, kostumlar, rekvizit, apparaturalarni tayyorlab beruvchilar) ham yo'q. Akustika ham yo'q. Eng asosiysi – doimiy aktyorlar truppasi ham yo'q. Yana shuni ham hisobga olish kerakki, ommaviy tadbirlarda obyekt va subyekt orasidagi munosabat sxemasi yoki dekoratsiya bilan odam figurasi orasidagi (obyom, rakurs) munosabatlar an'anaviy teatrimizdagiga qaraganda kengroq olib qaraladi. Aktyorlar tomoshabin qarshisida yoki tomoshabin bir tomonga, ijrochilar bir tomonga joylashsalar voqeа oson kechishi mumkin. Ommaviy tomoshalarda yoki ochiq maydonlarda o'tkaziladigan tadbirlarda tomoshabinlar ijrochilar atrofida joylashishi ham mumkin. Ba'zan aktyorlar balandda joylashishlari, (masalan, kosmik uchishlar hisobidagi tadbirlarda – bunda ko'tarma kran yoki vertolyotdan foydalanish mumkin) yoki pastda joylashishlari mumkin. Bunday tadbirlarda tomoshabin turishi, o'tirishi, hatto yotishi ham mumkin (tadbir plajda bo'lsa) yoki

<sup>1</sup> Силин А.Д. Работа режиссёра при постановке массовых театрализованных представлений под открытым небом и на нетрадиционных сценических площадках. ч.1. – М., 1986.

bir sahna maydonidan ikkinchisiga o'tishlari yoki bu tadbirlarda ular, ya'ni tomoshabinlar tadbir ishtirokchilariga aylanishlari mumkin. Bunday tadbirlarda professional teatrtdagi asosiy komponentlar, masalan, dialog va monologlar yo'q, dialog va monolog, replika va remarkalardan iborat tayyor dramaturgiya ham yo'q. Unda nima bor?

Keng masshtab va og'ir qiyinchiliklar borligini rejissor B. Sayfullayev «Toshkent shahrining 2000 yilligi tantanalarida» (1983-yil), Moskva shahrida o'tkazilgan XII jahon yoshlari festivalining tantanali ochilish va yopilish tomoshalarida (1985-yil) o'z boshidan kechirdi. Iste'dodli rejissor bu sohaning o'ziga xos bir san'at maktabi ekanligini, bu qiyinchiliklar zamirida xalq ommasining uyushgan «guldasta»si, farovon turmush tarzi ifodalanganligini anglab, o'zining butun imkoniyatlari, bilimini shu sohani o'zlashtirish va taraqqiy ettirishga bag'ishladi va buning uddasidan chiqdi ham.

Har qanday noan'anaviy sahnnaviy kenglikda o'tkaziladigan tomoshalarda tomoshabinlarni shunday joylashtirish kerakki, ular tomoshani ko'rishga qulay joylashsinlar, yaxshi eshitsinlar, ijrochilar esa takrorlanmas atmosferani yarata olsinlar. Rejissor bir vaqtning o'zida minglab ijrochilarning, yoki masalan, texnik kolonnalarning maydonda paydo bo'lishi, ularning oldiga qo'ygan vazifani aniq bajarishi va u yerdan chiqib ketishini ta'minlashi, keyingi epizodlarni o'z vaqtida davom ettirish va boshqa tashkiliy ishlarni amalga oshirishda butun mahoratini ishga solishi zarur. Maydonga minglab ijrochi yoki qator-qator texnika kolonnalari bekorga chiqmaydi. Ular qandaydir voqeani rivojlantirishga, qaysidir konkret vazifani bajarish uchun, xullas, rejissorlik g'oyalari uchun xizmat qilishadi. Masalan, Toshkentning 2000 yilligiga bag'ishlangan teatrlashtirilgan tomoshada qo'llanilgan mototsikl-chilarining ishtirokchilar qo'llarida ko'tarib turgan (maxsus tayyorlangan) kublar ustidan katta tezlikda o'tib ketishini ta'minlash ham rejissorning zimmasidagi vazifalaridan biri bo'lgan (aynan shu bayramda D.M. Genkin bosh rejissor, B. Sayfullayev esa teatrlashtirilgan tomoshalar rejissori sifatida ishlagan). Shuning uchun, ommaviy tantanalar tashkilotchilarini tomoshaviy, effektli, zavqli,

tomoshabinni zerikishiga yo'l qo'ymaydigan original usullardan ko'proq foydalansa ko'zlagan maqsadlariga erishadilar. Original topilmalarga boy tadbirlar yuqori saviyada o'tgan tomoshalardan hisoblanadi. Tomoshabinlar uchun zavqli, tashkilotchilar uchun esa qiyin bo'lgan bunday tadbirlar zamirida samarali mehnat yotadi.

Ommaviy bayramlarni tashkil qilishning yana qiyin tomoni shundaki, u faqat bir yoki ikki marta, ko'pi bilan uch marta repetitsiya qilinishi mumkin.

Eng javobgarlik tomoni shundaki, tomosha bir martagina ko'rsatiladi. Bunda rejissorning adashishga haqqi yo'q. Bir martagina ko'rsatiladiganligi uchun tadbir yoki tomosha ssenariysini gayta ishlab chiqish, tugallanmagan joylarini oxiriga yetkazish, to'g'rilash, tomoshabinnig reaksiyasini hisobga olib tuzatishlar kiritish imkoniyati bo'lmaydi. Shuning uchun bu ishda rejissor uchun javobgarlik va mas'uliyat hissi yuz barobarga oshadi. Faraz qiling, minglab texnik kolonnalar yoki sahnada biror ramz ifodasini berayotgan minglab ijrochi o'z vaqtida chiqmasa yoki vaqtidan oldin chiqib qolsa, tomoshabin ularni nega chiqqanini tushunmay qoladi. Bu esa tomoshaning yo'qqa chiqqanidan, qilingan ishni bir daqiqada halokatga olib kelganidan dalolat beradi.

Ochiq maydonda o'tkaziladigan tomoshalarda an'anaviy teatrлarda bo'lgan eng muhim protsess – aktyorning obrazga psixologik singib ketishi, obrazda yashash prinsiplari deyarli sezilmaydi. Buning sababi, birinchidan, tomoshabin ijrochidan uzoqda joylashgan bo'lishi va uning ruhiy holatini ilg'ay olmasligi mumkin, ikkinchidan, minglab ijrochi ichida u obrazni yaxshi yoki yomon ijro etayapti, deb muhokama qilish imkoniyatlari juda kam, uchinchidan ijrochining yuzi, uning holati, mimikalari, ovozi tomoshabinga yaqqol ko'rinishi yoki eshitilishi qiyin. Bundan, K.S. Stanislavskiy sistemasi qonuniyatları bu jarayonda, ya'ni ommaviy tomoshalarda kerak emas ekan-da, degan xulosaga kelish kerak emas. Chunki, K.S. Stanislavskiy sistemasidagi oliy maqsad va yetakchi xatti-harakat, «Insoniyat ruhining sahnadagi hayoti har qanday tomosha san'atining asosidir» kabi tushunchalari aynan ommaviy tomoshalarga xosdir. Faqat bu tushunchalarga to'g'ri yondashib, ta'sir qilishning boshqacha usulardidan foydalanish kerak.

Bu haqda I.M. Tumanov shunday deydi: «Biz tomoshabin ongi va tasavvuriga umumiy tushunchalar, yirik sahnaviy ramzlar orqali ta'sir qilamiz, chunki biz boshqacha, kengroq ma'nodagi dramaturgiya va sahma harakatidan foydalanamiz». U yana shunday deydi: «Spektakl komponentlari, mizanssenalar, qahramonlarning psixologik harakatlari va boshqa ko'p jihatlar ham bunda yirik, keng, tomoshaviy, lo'nda ifodalaniishi lozim. Dramaturg va rejissor asarini tomoshabinga yetkazishning va ta'sir qilishning boshqa oddiydan farq qiluvchi usullarini ishlab chiqishlari kerak».

Zamonaviy bayram va tomoshalar rejissoridan san'atning hamma turini tushunish va undan foydalana bilish talab qilinadi. Chunki, unda drama va opera, sirk, simfonik orkestrlar, xor jamoalari, vokal cholg'u ansamblari, raqs san'ati, kino va boshqa san'at turlari ishtirok etishi mumkin. Ochiq maydonda o'tkaziladigan ommaviy tomoshalarda faqat professional san'at turlari emas, balki badiiy havaskorlik jamoalari, sportchilar, harbiy qismlar, ko'p sonli bolalar qatnashishlari ham mumkin. Bir so'z bilan aytganda, ommaviy bayram rejissorlari sintetik ommaviy tomoshalar rejissori bo'la olishi kerak. Undan tashqari, u yaxshi ssenarist va yaxshi tashkilotchi bo'lishi, ommaviy sahma sirlarini yaxshi bilishi bilan bir qatorda o'z tomoshasiga minglab tomoshabinlarni jalb qila olish yo'llarini bilishi zarurdir. Bu bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim xususiyatlardan biridir. Bunday rejissorlarga V. Meyerxold keltirgan atama, ya'ni (автор спектакля) spektakl muallifi deyish, to'g'ri keladi.

Respublikamizda bu soha bo'yicha mutaxassislar juda zarur. Hozirgi kunda nishonlanayotgan xoh Navro'z, xoh respublikamiz mustaqilligiga bag'ishlangan bayram bo'lsin, o'zingiz guvohi bo'layapsiz, «korobka» ichida emas, balki parklarda, stadionlarda, ko'chalarda, saroylar (masalan, Istiqlol san'at saroyi, Aviasozlar madaniyat saroyi kabi) oldida, xullas, tabiat bag'rida – ochiq havo-da o'tkazilayapti.

Bayram va tomoshalar rejissurasi borasida xalq artisti I.M. Tumanov ushbu sohani ilmiy jihatdan asoslab, fan sifatida shakllanishi borasida ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi. Undan tashqari A.P. Konnikov, B.N. Petrov, Sharoyev, A.D. Silin, Vershkovskiy, D.M. Gen-

kin kabi rejissorlar ham bunday tadbirlar o'tkazish yo'l-yo'riqlarini ko'rsatganlar va nazariyalar yaratganlar.

O'zbekistonda ham A. Rahimov, B. Yo'ldoshev, B. Shodiyev, R. Shamsutdinov, U. Qoraboyev, J. Mamatqosimov, M. Azimov, N. Otaboyev, B. Hamidov, R. Hamidov, B. Sayfullayev, F. Ahmedov kabi ijodkorlar shu yo'nalishda mehnat qilmoqdalar, izlanmoqdalar. Bu sohani yanada rivojlantirish va takomillashtirish uchun biz rejisorlar ayniqsa mas'ulmiz.

Xalqimiz tabiat bag'rida ochiq havoda o'tkaziladigan bayramlar va tomoshalarni sevadi. Bayram kelishini orziqib kutadi. Undan zavqlanishni, maroqli dam olishni xohlaydi. Bunday istak va ehtiyojlarni qondirish esa har qanday rejissorning oliv maqsadlaridan biridir.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. I.A. Karimov. «O‘zbek Milliy akademik teatri yangi bino-sining ochilish marosimida so‘zlagan nutqi». — 30-avgust 2001-yil Toshkent shahri.
2. I. Karimov. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. — T., 2008.
3. F.Ahmedov. Ommaviy tadbir va bayramlar rejissurasi va aktyorlik mahorati. — T., 2007.
4. B. Sayfullayev, J. Mamatqosimov. Aktyorlik mahorati. — T., Fan va texnologiya, 2012.
5. Борисов С.К. Основы драматургии театрализованного действия. — Челябинск, 2007.
6. Генкин Д.М. Массовые праздники. — М., 1975.
7. J. Dushamov. Ommaviy tadbirlar rejissurasi. — T., G‘.G‘ulom, 2002.
8. I.Jabbarov. O‘zbek xalqi etnografiyasi. — T., O‘qituvchi, 1994.
9. Захава Б.Э. Мастерство актёра и режиссёра. — М., Искусство, 1964.
10. Istiqlol va milliy teatr. Farmonlar, qarorlar, nutqlar to‘plami. — T., 2002.
11. Иванов О.К., Кривицкий К.Э. Вахтангов и Вахтанговцы. — М., 1984.
12. Карабаев У.Х. Этнокультура. — Т., 2005.
13. R. Ishmuhamedov, A. Abduqodirov, A. Pardayev. «Ta’limda innovatsion texnologiyalar». — Т., 2008.
14. Конович А.А. Муз. энциклопед. словарь. — М., С.е., 1990.
15. Лазарева Л.Н. История и теория праздников. — Челябинск, 2007.
16. Немиро О. Праздничный город. Искусство оформление праздников. История и современность. — Л., 1987.
17. A.M. Nosirova. Jonli so‘z san’ati asoslari. — T., 2003.
18. A.M. Nosirova. Shaxs o‘yin madaniyati. — T., A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001.

19. Петров Б. Спортивные праздники. – ЛГИК., 1985.
20. Петров Б. Особенности режиссуры спортивно-художественных праздников. – Л., 1989.
21. M.R. Rahmonov. O'zbek teatr tarixi. – T., Fan, 1975.
22. К. Рудницкий. Режиссура Меерхолда. – М., 1965.
23. Сайфуллаев Б.С. Импровизационно-творческая игра как метод организации массовой культурно-просветительной работы. – Л., 1987.
24. Силин А.Д. Работа режиссёра при постановке массовых театрализованных представлений под открытым небом и на нетрадиционных сценических площадках. I, II, III ч. – М., 1986, 1987, 1988.
25. K.S. Stanislavskiy. San'atdagi hayotim (J. Obidov tarj.). – T., 1965.
26. B. Shodiyev. Maydon tomoshalari dramaturgiyasi va rejisurasi muammolarini. Doktor. diss. – T., 2007.
27. Сов. энциклопед. словарь. Гл.ред. А.М. Прохоров. – М., С.е. 1990.
28. U. Shokirov, M. Abduqunduzov. Milliy teatrimiz namoyondalari. – T., TDIU nashriyoti, 2002.
29. O'zbek tilining izohli lug'ati. / M. Ma'rifov tahriri ostida. – T., 1981.
30. O'zbekiston san'ati (1991–2001 yillar). O'zbekiston badiiy akademiyasi san'atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti. – T., Sharq, 2001.
31. J. Mahmudov, X. Mahmudova. Rejissura asoslari. Darslik. – T., 2008.
32. M.X. Qodirov. O'zbek teatri an'analari. – T., 1976.
33. M.H. Qodirov. O'zbek xalq tomosha san'ati. – T., O'qituvchi, 1981.
34. U.H. Qoraboyev. Badiiy-ommaviy tadbirlar. – T., O'qituvchi, 1986.
35. U.H. Qoraboyev. O'zbek xalqi bayramlari. – T., 2002.
36. I. Akbarov. Musiqa lug'ati. – T., 1988

## MUNDARIJA

<b>KIRISH . . . . .</b>	<b>3</b>
Ssenariy mahorati . . . . .	12
Badiiy sport tomoshalari ssenariysini yaratish ustida ishslash. . . . .	22
Zamonaviy bayram va tomoshalarda badiiy bezak . . . . .	30
Zamonaviy bayramlarda musiqa . . . . .	38
Bayram va tomoshalarda raqs san'atining tutgan o'rni . . . . .	52
Badiiy fon . . . . .	65
Fon guruhlari bilan ishslash. . . . .	65
Bayram va tomoshalarda teatrlashtirish . . . . .	69
Texnik vositalardan foydalanish . . . . .	74
Zamonaviy bayramlarda liboslar . . . . .	81
Rejissorlar . . . . .	90
Vsevold Emilyevich Meyerxold (1874–1940) . . . . .	110
Bahodir Yo'ldoshev . . . . .	119
Rustam Hamidov . . . . .	123
Baxtiyor Sayfullayev . . . . .	125
Rejissorlik tahlili asoslari . . . . .	149
Tayanch iboralar . . . . .	162
Test savollari . . . . .	168
Xulosa sifatida . . . . .	188
<b>Adabiyotlar ro'yxati . . . . .</b>	<b>193</b>

VAHOBJON RUSTAMOV

**ZAMONAVIY BAYRAMLAR  
REJISSURASI MUAMMOLARI**  
*O'quv qo'llanma*

Muharrir: *M. Tursunova*

Musahhih: *M. Turdiyeva*

Dizayner sahifalovchi: *D. Ermatova*

«O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti.  
100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.  
Tel.: 236-55-79; Faks: 239-88-61.

Nashriyot litsenziyasi: AI №216, 03.18.2012.

Bosishga ruxsat etildi 08.11.2013. «Uz-Times» garniturasi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi  $60 \times 84 \frac{1}{16}$ . Bosma tabog'i 12,0. Nashr hisob tabog'i 12,5. Adadi 200 nusxa. Buyurtma № 42.

«START-TRACK PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Manzil: Toshkent shahri, 8-mart ko'chasi, 57-uy.

O'ZBEKISTON FAYLASUFLARI MILLIY  
JAMIYATI NASHRIYOTI

ISBN 978-9943-391-66-6



9 789943 391666

A standard linear barcode representing the ISBN number 978-9943-391-66-6.